

**X.S.JUMANIYOZOV, U. B. NIGMANOVA,
A.M. RASULOVA**

**EKSTREMIZM VA
TERRORIZMGA QARSHI
KURASHNING MA'NAViy-
MA'RIFIY ASOSLARI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

X.S.JUMANIYOZOV, U. B. NIGMANOVA, A.M. RASULOVA

**EKSTREMIZM VA
TERRORIZMGA QARSHI
KURASHNING MA‘NAVIY-
MA‘RIFIY ASOSLARI**

(Ikkinchi nashr)

TOSHKENT-2022

Ozod va erkin shaxsning asosiy jihatlaridan biri atrof-muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildirishdir. O'zining bir qator ijobiy qirralariga ega bo'lgan, jamiyatimiz hayotining barcha qirralarini qamrab olgan globallashtiruv ayni damda mafkuraviy ta'sir quroli sifatida turli markazlarning ta'sir quroliga ham aylanib ulgurdi. Bu ta'sirdan diniy jarayonlarning globallashtiruv ham chetda qolgani yo'q. Dinni niqob qilib olgan turli mazmundagi terroristik tashkilotlarning mazmun-mohiyatini, maqsadlarini tahlil qilish, bo'lg'usi targ'ibotchilarda unga qarshi g'oyaviy salohiyatni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" fani "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'quv qo'llanma diniy jarayonlarning globallashtiruv sharoitida yoshlarda vatanparvarlik va dahldorlik tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Taqrizchilar:

**f.f.n.dotsent
t.f.n. dotsent**

**Sh.Agzamhodjayeva
O'.Mansurov**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil "13" maydagi "166" – sonli buyrug'iga asosan Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari (Ikkinchi nashr) o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, soʻnggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kuch ishlatish yoʻli bilan kurashish usuli oʻzini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada koʻp hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman.

Sh.M.Mirziyoyev

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

Yangi mingyillik arafasida bipolyar tizimning yemirilishi, jahonning deyarli yarmiga hukmronlik qilib kelgan sotsialistik lagerning inqirozga yuz tutishi natijasida shoʻrolar saltanati oʻrnida bir qancha mustaqil davlatlar vujudga keldi. Bu davlatlar bozor iqtisodiyotiga asoslangan, demokratik jamiyat qurish yoʻlidan borishdi, jamiyat hayotining qator sohalari turli dogmalardan, cheklashlardan holi etildi. Xalqimizning ming yillik tarixi, milliy-maʼnaviy qadriyatlari, yillar davomida taqiqlab kelingan din buloqlari koʻzining qaytadan ochilishiga imkon yaratildi. Lekin shu tufayli insoniyat hayoti xavfsiz, barqaror, sobitqadam boʻlib qolmadi. Bir qancha mamlakatlarda keskin siyosiy kurash borayotgan bir vaqtda demokratiya asoslarining baʼzan qiyinchilik bilan qaror topishi; milliy oʻzlikni anglashning faol jonlanishi hamda millatlar va ayrim ellatlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilashga intilishi; etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganligi; qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotganligi; oʻz tartib-qoidalarini xalqaro demokratik qadriyat sifatida boshqa xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotiga turli yoʻllar bilan tiqishtirishga intilish; dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar saqlanib qolayotganligi

dunyo hali ham avvalgidek mo‘rt bo‘lib qolayotganidan dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam g‘oyat murakkab va muammoli bo‘lib kelgan, shunday bo‘lib qolmoqda. Yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston musulmonlari idorasi rahbarlari, din arboblari, "Nuroniylar" va "Mahalla" jamg‘armalari, Xotin-qizlar qo‘mitasi, "Yoshlar ittifoqi" faollari, hokimliklar, huquq-tartibot idoralari vakillari, ilm-fan va madaniyat namoyondalari, islomiy ta‘lim muassasalari mutasaddilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ushbu masalaga to‘xtalar ekan shunday degan edi: "... hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo‘q, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda”¹.

O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta‘minlash zarurligi nuqtai nazaridan terrorizm, ekstremizm hodisalari jiddiy tashvish tug‘dirmoqda. Ekstremizm va terrorizm mintaqamiz uchun tug‘dirishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni bevosita tahlil qilishga kirishishdan oldin e‘tiborni odamlarning diniy e‘tiqodlari bilan bog‘liq har qanday muammo g‘oyat nozik ekanligiga, ularni dinning ma‘naviy qadriyatlaridan, xususan, islomni qayta tiklash shioridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko‘zlayotgan, dinga aloqasi bo‘lmagan siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o‘rtasidagi farqni ajratib olish zarurligiga e‘tiborni qaratish lozim.

Uzoq yillar diniy qadriyatlarga tashna bo‘lgan xalqlar din sohasidagi hamma narsani qabul qilaverishgacha borishdi. Bu jarayon dindan siyosiy maqsadlarini amalga oshirishni ko‘zlab yurgan qator kishilar va kuchlarga qo‘l keldi. Bu kuchlar Markaziy Osiyoni geostrategik jihatdan qulay joyda joylashganligi, moddiy resurslarga boy bo‘lganligi bois o‘ziga xos tajriba maydoniga aylantirishga harakat qilishdi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: "O‘zbekiston" NMIU, 2017. 473-b.

Lekin O‘zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimovning qat’iy siyosati, xalqimizning birligi, ahilligi mamlakatimizni katta falokatlardan asrab qoldi. Islom Karimov mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan oq uchta muhim masalaga asosiy e’tiborni qaratdi: dunyoviy davlat barpo etish; mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash; erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan yuksak turmush tarziga erishish. Mamlakatimizda millatlararo totuvlikning ta’minlanishi, ijtimoiy hamkorlik va dinlararo bag‘rikenglikka erishish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Yutuqlar ko‘p, o‘ziga yarasha galdagi vazifalar ham ko‘p. Gap ushbu muhitni asrab-avaylashda. Shu sababli bo‘lib o‘tgan voqealarni haqqoniy o‘rganish, orttirilgan tajribani, olingan xulosalarni yoshlar ongiga singdirish, yurtimizdagi barqarorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm, osongina taslim bo‘ladigan kuch emas. Uning Vatani, millati yo‘q. U vaqti – vaqti bilan o‘zini ko‘rsatib yurt tinchligini buzib turadi. O‘z vaqtida Islom Karimov terrorchilarning asl maqsadi, jirkanch qiyofasini shunday tasvirlagan edi: «Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, g‘animlarimizning asosiy niyati - O‘zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, bugun barpo etayotgan farovon va osuda hayotni buzish, tobora kuchga kirayotgan davlatimizni ag‘darish, tanlagan yo‘limizdan qaytarishdir»¹.

Ma’rifiy jamiyat o‘zi barpo etishga kirishgan jamiyatning ba’zi xususiyatlarini, qirralarini oldindan tasavvur etishi lozim. Bizning nazdimizda hozirdan yangi tizimning mohiyatini ochib beruvchi bir qator masalalar ustida bosh qotirishga to‘g‘ri keladi. Jumladan:

- yangi barpo etilajak tizim qanday bo‘ladi?
- unga qanday boshqaruv qoidalari asos etib olinadi?
- u qanday ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanadi?
- uning ijtimoiy-axloqiy tizimida bir guruh aqidaparastlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga o‘rin beriladimi?

¹ Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. Asarlar, 12–jild. –T.:«O‘zbekiston», 2004.- 294-b

- eng asosiysi unga ma'rifiy dunyo qay darajada o'z hissasini qo'sha oladi?

Mustaqillik mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi: dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi; tom ma'nodagi vijdon erkinligi ta'min etildi; diniy bag'rikenglik hayotiy tamoyilga aylandi; milliy-diniy qadriyatlar tiklandi; diniy tashkilotlar soni oshdi, 10 dan ortiq diniy o'quv muassasi faoliyat ko'rsatmoqda. Sog'lom fikr va dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini yurt osoyishtaligi va xalq farovonligi yo'lida safarbar qilishga keng imkoniyatlar yaratib berildi. Dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta'minlashda ulkan natijalarga erishildi.

Insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarilishi, axborot texnologiyalaridagi globallashuv sabab inson ongi va qalbi uchun kurash har qachongidan kuchaymoqda. Ayni damda globallashuv mafkuraviy ta'sir ko'rsatishning eng o'tkir quroliga aylanib bormoqda. Natijada mafkuraviy, ma'naviy tahdidlar yoshlar ongiga, mamlakatimiz mustaqilligiga, uning barqarorligiga jiddiy xavf solmoqda. Aholini, birinchi galda yoshlarning ma'naviy olamini bunday tUSDagi tahdidlardan himoyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavjud muammolarni hal etish oliy ta'lim muassasalari oldiga qator vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan:

- Davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini, hamda uning amaliy natijasi bo'lmish qaror topgan diniy bag'rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish;
- Islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyer tashkil etayotgan, halifalik tuzishdek turli xom-xayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih

kuchlarning ildizini qirqib tashlash borasidagi ma'rifiy ishlarni kuchaytirish;

- Turli millat va din vakillari orasida totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning hozirjavobligi va ta'sirchanligini oshirish;
- Missionerlik harakatining oldini olish, yoshlarni chet el OAV orqali tarqatilayotgan turli xabarlar ta'siriga berilib ketishini oldini olish bo'yicha tadbirlar uyushtirish va boshqalar.

OTM larida ta'lim olayotgan talaba-o'quvchilarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirish, zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari bo'yicha bilimlarini boyitishga tomon qaratilgan o'quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni izchil tashkil etish, uning ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida ushbu qo'llanma tayyorlandi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash umumdavlat ishiga aylanib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-martdagi "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar orasida bu xavfning oldini olish uchun keng tushuntirish ishlari olib borish va ta'lim muassasalarida bu sohada maxsus kurslarni kiritish belgilab berilgan edi.

2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"¹gi Farmonida ham xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o'z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish, fuqarolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Qurolli Kuchlarining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida.

jangovar qudrati va salohiyatini oshirish kabi vazifalar ko'rsatilgan. Shuningdek 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" gi 3160-sonli qarorda ham dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu qo'llanmani yaratishda mazkur vazifalar yechimiga javob izlangan.

O'ylaymizki mazkur fanni o'rganish jarayonida yoshlarimiz umuman dinlar, xususan Islom dini tarixi, ta'limoti to'g'risida, mamlakatimizda vijdon erkinligining amalga oshirilishi, tinch-osoyishta hayot tarzimizni din niqobi ostida buzishga intilayotgan turli terrorchi kuchlarning asl niyati nima ekanligi haqida to'g'ri, haqqoniy bilimga ega bo'ladilar.

Mavzu: “EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI” KURSINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI.

Reja:

- 1. Yangi ming yillik arafasida dunyoning jug‘rofiy – siyosiy xaritasidagi o‘zgarishlar.**
- 2. “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” kursining predmeti, obykti va vazifalari.**
- 3. O‘zbekiston Respublikasida diniy qadriyatlarga erkinlik berilishi.**
- 4. Din niqobi ostida ba’zi jaholatparast guruhlarining tashkil topishi va ularning jamiyat taraqqiyoti uchun xavfi.**

1. Yangi ming yillik arafasida dunyoning jug‘rofiy – siyosiy xaritasidagi o‘zgarishlar.

XX asr oxiriga kelganda xalqaro munosabatlar taraqqiyotida juda katta o‘zgarishlar yuzaga keldi. 70 yildan ortiq sotsializm qo‘rg‘oni bo‘lgan sobiq Sho‘ro saltanati yemirildi va uning o‘rnida 15 ta mustaqil davlat vujudga keldi. Sho‘ro saltanatining qulashiga asosiy sabab tarixiy taraqqiyotning yangi zamonaviy bosqichiga moslasha olmaganligi, turli millatlarning milliy g‘ururiga mensimay qaralganligi, barcha xalqlarni yagona dogmatik mafkuraga buysundirish uchun zo‘rluk ishlatilganligi, ittifoqdosh respublikalar xalqlarining ona tili, diniy e‘tiqodlari va asriy qadriyatlari oyoq osti qilinganligi, mamlakatda adolatning qo‘pol ravishda buzilganligi va shu kabilar sabab bo‘ldi.

Markaziy Osiyo xalqlari deyarli 130 yil iskanjada yashadi. Sobiq ittifoq o‘z qo‘l ostidagi mazlum xalqlarning madaniyatini, qadriyatlarini, tilini, milliy o‘zligini yo‘q qilishga, ularni yagona kommunistik ideallar asosida birlashtirishga alohida e‘tibor qaratib keldi. Boshqacha aytganda biror millat yo‘q qilish uchun uni qirib tashlash shart emas, balki uni madaniyatini, tilini, dinini yo‘q qilsang bas, u yo‘qolib ketadi degan naqlga amal qilishdi. Sobiq saltanatning milliy -ma’naviy merosga, qadriyatlarga, ayniqsa dinga nisbatan olib borgan ateistik siyosatiga nafaqat xalqimizda, xalqaro musulmon olamida ham o‘ziga yarasha

norozilik kelib chiqishiga olib keldi. To'g'ri amaldagi qonunchilikda e'tiqod erkinligi taqiqlanmasada, amalda uning teskarisi qilindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dinga va diniy tashkilotlarga munosabat tubdan o'zgardi. Bu o'zgarishlarning mohiyatini va ahamiyatini teran anglab yetmoq uchun sobiq Sho'ro davrida dinga va diniy qadriyatlarga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatni, olib borilgan siyosatni bilish bizni o'ylash va fikr yuritishga, mustaqillikning qadrini anglashga undaydi.

Sobiq Sho'ro davrida "Din xalq uchun afyundir", "din ma'naviy og'uning bir turidir" degan g'oya asosida dinga ateistik yondashuv shakllangan edi. Bu esa amalda fuqarolarning vijdon erkinligini kamsitish, diniy qadriyatlarga nisbatan ma'lum ma'noda salbiy munosabatning shakllanishiga olib kelgan edi. Kommunistik mafkuraning yalovbardorlari deyarli 70 yil mobaynida daxriylikka asoslangan jamiyatni qurishga harakat qildilar. Oqibatda xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan diniy ruhdagi kitoblar xalq ko'zidan yashirildi, ko'plari yo'qotildi. Din ravnaqi yo'lida zahmat chekkan al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Motrudiy, Zamaxshariy kabi o'nlab buyuk bobokolonlarimiz yaratgan ma'naviy meros reaksion madaniyat deb qoralandi.

Diniy-ma'muriy obidalar, ulug' allomalar, mangu uyquga ketgan maqbaralar qarovsiz, tashlandiq holga kelib qoldi. Bunga istagancha misol topiladi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston fuqarolari uchun tom ma'nodagi vijdon erkinligi ta'minlandi. Diniy qadriyatlar, meros, diniy bayramlar qayta tiklana boshlandi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida ta'kidlab o'tilganidek: "XX asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar asri, inson koinot sirlari qo'yniga kirib borayotgan asr, axborot va g'oyat ulkan texnikaviy imkoniyatlar asri bo'ldi. Shu bilan birga, bu asrning oxiri diniy qadriyatlarning uyg'onish davri, vazmin, behuda urinishlardan holi diniy ma'naviyatga o'ziga xos tarzda qaytish davri bo'lib qoldi".

Yangi ming yillik oxiriga kelib insoniyatni uzoq davom etgan mafkuraviy kurashlardan charchatgan "sovuq urush" siyosati tugadi, bipolyar tizimga chek qo'yildi. Xalqlarning o'z huquqlarini o'zi belgilashi

to'g'risidagi xalqaro huquq normalariga zid ravishda faqatgina "kuch ishlatish" yo'li bilan hukm surib kelgan sobiq ittifoq, Chexoslovakiya, Yugoslaviya parchalanib ketdi. Ularning o'rnida yigirmadan ortiq mustaqil davlat tashkil etildi. Bu davlatlarning barchasi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning demokratik yo'lga o'tishdi, ularda milliy qadriyatlarga, bozor munosabatlariga, shu bilan birga diniy qadriyatlar tiklanishiga, rivojiga alohida e'tibor berildi. Ayni damda G'arb va Sharqni ajratib turgan "Berlin devori" olib tashlandi. Bipolyar tizim tugab ikkita mintaqa xalqlari o'rtasida jamiyat hayotining turli sohalarida keng hamkorlik yo'lga qo'yildi. Albatta bu mintaqalarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyoti turlicha, demokratik qadriyatlarning rivoji turlicha, ularda uzoq yillar davomida amal qilib kelgan normalar, shakllangan turmush tarzi bir-biriga to'g'ri kelmasdi. Boshqacha aytganda temir panjaralar olib tashlanganidan keyin bunday ulkan miqyosdagi hamkorlikka barcha xalqlar birdek tayyor emas edi: ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanish darajasi; demokratik qadriyatlarning mavjudlik darajasi; demokratik institutlarning shakllanganlik darajasi; milliy xavfsizlik tizimi; milliy-ma'naviy xavfsizlikning institusional tizimi va shu kabilar. Milliy boylik xalqqa qaytarildi, lekin bu boyliklarni yoshlarga yetkazuvchi ta'lim - tarbiya tizimi, mahalla, ma'naviy-ma'rifiy markazlar, televideniye, radio, OAV bunday vazifani bajarishga qay darajada tayyor edi? Din, diniy qadriyatlarga xalqqa qaytarildi, lekin uni xalqqa targ'ib etuvchi diniy tashkilotlar (masjid, cherkov), diniy maskanlar, tegishli kadrlar mavjud edimi? Ulkan saltanat hududida yashab kelgan million-million xalqlar dinga tashna ekan undan o'zining ta'sir doirasini kengaytirishga urinayotgan turli diniy konfessiyalar qanday mazmunda foydalanadi? Shunga o'xshash bir qator omillar o'ziga xos muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

2. "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" kursining predmeti, obykti va vazifalari. Yer yuzida insoniyat paydo bo'lidiki terrorizm deya atalmish jirkanch hodisa unga doimo turli ko'rinishlarda, shakllarda "hamroxlik" qilib keladi. Ko'pgina manbalarda Makedoniyalik Aleksandrning otasi Filip II ning (milod.av.

359-336) o'ldirilishi tarixdagi birinchi terroristik hodisa deb baholangan¹. Bunday tUSDagi fikrlar balki Yevropa davlatlari uchun qayd etib o'tilgandir. Negaki Qadimgi Misr firavnlariidan bir qanchasi taxt uchun kurashlarda o'ldirilgan. Masalan, Amonxotep IV, Ramzes XII eslash kifoya. Bunga o'xshash hodisalar turli tarixiy manbalarda turlicha yoritib kelingan. O'z davrida Rimda taxt uchun olib borilgan kurashlar, xristianlikning rasmiy mafkuraga aylanishi yo'lidagi urinishlar, Yevropada reformatsiya davri, inkvizitsiya, Buyuk Fransuz inqilobi, Rossiyadagi oktabr davlat to'ntarishlari davrida amalga oshirilgan xunrezliklar tarixni larzaga solgan va ko'pgina fan sohalarining jiddiy tadqiqot obyektiga aylandi.

Yangi ming yillik arafasida va yangi ming yillikning o'tgan davrida terrorchilik qator sabab, omillar tufayli global xarakterga ega bo'lmoqda. Mustaqil O'zbekistonda xalqaro terrorism tomonidan birinchi bor ochiq tajovuz 1999-yilning 16-fevralida sodir etildi. Toshkent shahridagi qator binolarga jiddiy zarar yetkazilishi bilan birga aholi ongiga qo'rquv solishga harakat qilindi. Sobiq ittifoq parchalanib ketishi bilan oq O'zbekiston amalda front yoqasidagi davlatga aylanib qoldi. Bu paytda qo'shni Tojikistonda fuqarolar urishi avj olib borayotgan bo'lsa, Afg'onistonda harbiy harakatlar yigirma yildan beri davom etayotgan edi. O'zbekistonning birinchi prezidenti I.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi nutqida (1993-yil) bosh minbardan turib xalqaro hamjamiyatni terrorism xavfidan ogoh etgan edi: "O'zbekiston "sovuq urush" tugashi davrida mustaqil bo'ldi. Ana shu davr BMT va jahon hamjamiyati oldida yig'ilib qolgan muammolarning jamiki majmuiga sergaklik bilan yangicha baho berishni taqozo qiladi. Biz Shimoldagi taraqqiy etgan mamlakatlar bilan Janubdagi rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida hadiksirash kuchayganligidan xavotirdamiz. Sharq bilan G'arb o'rtasida avval bo'lgan mafkuraviy murosasizlik endilikda milliy va diniy negizdagi murosasizlik bilan almashayotganligi xususida taassuf bildiramiz. Biz aqidaparastlik, ekstremizm, terrorchilik tamoyillarining kuchayganligidan tashvishdamiz"².

¹ G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorism: ildizi, omillari va manbalari. – T.: "O'zbekiston", 2013 yil. 4-bet.

² Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vaton qolsin. 2-jild. –T.: "O'zbekiston", 1996.- 55-bet

Uzoq yillar davomida O‘zbekiston rahbariyati doimo xalqaro hamjamiyatni terrorchilik, narkobiznes, qurol savdosi singari turli tahdidlardan ogoh etib keldi. Unga qarshi birgalikda kurashishni ilgari surdi. Vaholangki bunday jirkanch hodisalar nafaqat O‘zbekistonning milliy xavfsizligiga qarshi qaratilgan tahdidlar edi, balki Markaziy Osiyodagi har bir davlatning milliy xavfsizligiga, qolaversa umuminsoniyatga qaratilgan tajovuz edi. Xalqaro hamjamiyat 2001-yilning 11-sentabrida Nyu-Yorkdagi Xalqaro savdo markazi binosiga terrorchilar tomonidan berilgan zarbalardan keyin terrorizm hodisasiga e’tibor bera boshladi. Terrorchilik degan mudhish hodisaga qarshi birgalikda kurashish zarurligi e’tirof etila boshladi. Ushbu voqeagacha qator tashkilotlar Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari hududida sodir etilgan terrorchilik harakatlarini milliy yoki ozodlik ruhidagi harakatlar deya sharhlab kelishdi. Masalan Shamil Basayev boshchiligida bir guruh separatistlar tomonidan Budennovsk shifoxonasidagi bemorlarni, tibbiyot xodimlarini garovga olinishi ba’zi mamlakatlarda mustaqillik uchun kurash deya baholandi. Bunga o‘xshash voqealar bipolyar tizim davrida ayniqsa ko‘p uchraydi. Nyu-York voqealaridan keyin 50 ga yaqin davlatlar koalitsiyaga birlashib Afg‘onistonda joylashgan “Al-Qoida” terrorchilik tashkilotiga tegishli harbiy lagerlarga qarshi jiddiy harbiy harakatlar boshlashdi. O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatning bu harakatlarini qo‘llab-quvvatladi. Biz har doim Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilishidan, mintaqaning barqarorlashidan, tinch hayotga o‘tishidan, uning ravnaqidan manfaatdormiz. Shu sababli O‘zbekiston Afg‘onistonga olib o‘tiladigan gumanitar yuklarning olib o‘tilishiga yordam berdi.

“Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” kursi o‘z obyekti sifatida ushbu jarayonlarni jiddiy tadqiq etishga qaratilgan bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek terrorizmning mazmun-mohiyati, kelib chiqish tarixi, terrorchilik tashkilotlari faoliyati, ular tomonidan sodir etilayotgan mudhish jinoyatlar, ularning insoniyat boshiga solayotgan kulfatlari, bunday tUSDagi jirkanch hodisaga qarshi kurashishdagi ta’lim – tarbiya tizimi oldidagi vazifalarga alohida e’tibor qaratiladi.

“Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” kursining predmetini ekstremizm va terrorizmning paydo bo‘lishi, uning jamiyat uchun xavfi, unga qarshi kurashishga doir xalqaro huquqiy normalar, shuningdek, yoshlarni begona g‘oyalarga qarshi kurashish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi tamoyillar, tegishli huquqiy – normativ hujjatlar tashkil etadi.

Hozirgi davrda dunyoda eng xavfli kuchga aylanib borayotgan ekstremizm va terrorizmning kelib chiqishi, mohiyati, kimlarga xizmat qilishi, taraqqiyotga salbiy ta’sirini talabalarga tushuntirish va ularni bu xavfga qarshi kurashda ularda yuksak bilim, ogohlik va dahldorlik ko‘nikmalarini shakllantirish kursning **maqsadini** tashkil qiladi.

“Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari” fanining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ta’kidlab o‘tish lozim:

Birinchi, dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g‘oyaviy kurashlardan ko‘zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish;

Ikkinchi, terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm tushunchalari mazmun-mohiyati, jamiyat rivojiga tahdidini tahlil qilish;

Uchinchi, Markaziy Osiyodagi va xalqaro maydondagi barqarorlikka tahdid solayotgan terrorchi tashkilotlar faoliyatini yoritish;

To‘rtinchi, dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo‘naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta’minlash;

Beshinchi, qayd etilganidek davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini, hamda uning amaliy natijasi bo‘lmish qaror topgan diniy bag‘rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish;

Oltinchi, fikr qaramligi, tafakkur qulligi, manqurt tushunchalarining mazmun-mohiyatini, ularning jamiyat xayotidagi zararli jihatlarni tarixiy-badiiy asarlar orqali tushuntirib berish.

Yettinchidan, sogʻlom fikr va dunyoqarashga ega boʻlgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini vatan ravnaqi yurt tinchligi va xalq farovonligi yoʻlida safarbar qilishga, navqiron avlodda vatanparvarlik tuygʻusi, yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga keng eʼtibor berish va shu kabilar. Jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, milliy totuvlikning, diniy bagʻrikenglikning taʼminlanishida sabr-toqat, bagʻrikenglik, maʼrifat ila kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. Muqaddas diniy kitobimizdagi Ankabut (oʻrgimchak) surasining 46-oyatida aytilganidek “(Ey moʻminlar!) Sizlar axli kitoblar bilan faqat eng chiroyli uslubda munozara qilingiz, illo ularning orasidagi zulm (tajovuz) qilganlar bundan mustasnodir. Shuningdek aytingiz: «Bizlar oʻzimizga nozil qilingan (Qurʻon)ga ham, sizlarga nozil qilingan (Tavrot va Injil)ga ham iymon keltirganmiz. Bizlarning ilohimiz ham, sizlarning ilohingiz ham birdir va bizlar Ungagina (imon va itoat) boʻyin sunuvchimiz»¹.

3. Oʻzbekiston Respublikasida diniy qadriyatlarga erkinlik berilishi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin xalqimizning maʼnaviy va madaniy merosiga, tarixiga, ona tilimizga munosabat tubdan ijobiy tomonga oʻzgardi. Mamlakatimizda diniy qadriyatlarga erkinlik berildi. Muborak istiqlolimiz tufayli koʻp yillar taqiqda boʻlgan diniy qadriyatlarimiz yana ravnaq topa boshladi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi oʻzgarishlar diniy tashkilotlar faoliyatining rivoj topishiga zamin yaratdi. Aholi uchun turli xil adabiyotlar chop etildi. Gazetalar, jurnallar sahifalarida, zangori ekranda Islom dinining yetuk vakillari oʻz maqolalari va suhbatlari bilan ishtirok etdilar. Taqvodorlarning jamoa boʻlib toat-ibodat qilishlari uchun qishloq va mahallalarda masjidlar barpo etildi, qayta ochildi. Agar Oʻzbekistonda mustaqillikka qadar 90 ga yaqin masjid boʻlgan boʻlsa, hozir ularning soni 3000 tadan oshib ketdi.

Mustaqillik sharofati bilan qabul qilingan Asosiy qonunimizning 18-moddasida Oʻzbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega boʻlib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, qonun oldida tengligi

¹ Qurʻoni karim: maʼnolarining tarjima va tafsiri. –T.: “Toshkent islom universiteti”, 2012. 402-b

qayd etib o'tilgan. Mazkur qonunning 31-moddasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekani, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda davlat va diniy tashkilotlar, turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlar tartibi belgilab berildi. Va bu huquqiy normalar diniy bag'rikenglikning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Mustaqil mamlakatimizda muqaddas qadamjolarini tiklashga alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Diniy ta'lim beruvchi madrasalar, Oliy Islom bilimgozlari faoliyat ko'rsatmoqda. Musulmonlarning asosiy qismi haqiqiy demokratik dunyoviy jamiyat qurish rejasini qat'iyat bilan amalga oshirayotgan davlatimiz tomonidan e'tiqod erkinligini ta'minlashga qaratilgan qulay imkoniyatlardan ongli foydalanilmoqda.

Muborak Haj va Umra ibodatlariga aynan shu dunyoviy jamiyatni barpo etishni bosh maqsad qilib qo'ygan davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozli imkoniyatlar tufayli borib kelmoqdalar. Ammo bu yengilliklardan, imtiyoz va sharoitlardan ba'zi bir Islomdan yetarlicha xabari bo'lmagan chalamullalar esankirab qoldilar. Ular demokratik davlatda xohlagan ishni qilish mumkin, deb o'ylab, fuqarolar o'rtasida ig'vogarona, jangarilikka chorlaydigan diniy ta'limni kuchaytirib yubordilar. Ba'zi g'alamislar diniy ta'lim jarayonida siyosatga aralashishni, kelgusida o'zlarini davlat mansablarida ko'rishni orzu qilib, turli maktablarda buni tashviqot qila boshladilar. Diniy saboq berish hamma joyda avj oldi. Ayniqsa, Namangan viloyatida bu narsa ommaviylashdi. Qonunga muvofiq musulmonlar idorasi ijozatisiz, Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinmagan muassasalar va shaxslarning diniy saboq berishlariga ruxsat etilmaydi. Shuningdek, din davlatdan va maktabdan ajratilgan. Binobarin, o'quvchi yoshlarga maktabdan bo'sh paytlarida diniy mashg'ulotlarga qatnashishlariga ruxsat etilgan. Lekin shunga qaramasdan, ayrim yoshlarning maktabdagi darslarini qoldirib, masjidlarga qatnayotganligi, qonunga xilof ravishda diniy tahsil olayotganliklari, ko'cha-ko'ya chalasavod mullalar tomonidan xurofot ham targ'ib etilayotganligidan tashvishlanmaslik mumkin emas. Chunki

o‘tmishda bizning ma’naviy merosimizga ta’sir ko‘rsatgan, nihoyatda teran o‘rta asrlar Islom falsafasini o‘rganish o‘rniga, johillik va tarixan eskirgan turmush qoidalarini ko‘r-ko‘rona o‘zlashtirib olgan kimsalardan olingan saboq yoshlarning dunyoviy bilimlardan bezdirishi, taraqqiyot yo‘lida qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiydir.

Vaholanki, Islom dini musulmonlarga taraqqiyot yo‘lidan yurishni farz qilgan, kishilarni ilmga undagan. Alloh Qur’oni Karimda shunday deydi: “Aytgin: “biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘lurmi?!” Darhaqiqat, faqat aql egalari eslatma olurlar”¹. Buning yaqqol isbotini Islom olamida tarbiyalangan buyuk mutafakkirlarimiz: Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqa o‘nlab allomalarning ijtimoiy – tabiiy fanlar sohasida dunyo ilm ahlini hayratda qoldirgan beqiyos kashfiyotlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

4. Din niqobi ostida ba’zi jaholatparast guruhlarning tashkil topishi va ularning jamiyat taraqqiyoti uchun xavfi.

Uzoq tarixga e’tibor beradigan bo‘lsak ilk bronza davridan boshlab hozirgi O‘zbekiston hududida turli xil diniy qarashlar, ta’limotlar vujudga kela boshladi. Kushon va Eftalitlar davlatlari davrida O‘zbekiston hududiga bevosita Hindistondan buddiylik kirib keldi va keng ildiz otdi. O‘zbekistonda islomdan oldin mavjud bo‘lgan dinlar qatorida Shom va Eron orqali kirib kelgan xristian dini ham sezilarli o‘rin tutgan. VI asrda Samarqandda xristian yepiskopi va bevosita arablar kelishidan oldin esa mitropoliti bo‘lgan. Hozirgi Toshkent va Xorazm viloyatlari hududida ham xristian diniga mansub jamoalar mavjud edi. Yuqorida zikr etilgan dinlardan tashqari O‘zbekistonning ba’zi yerlarida yahudiylar, moniychilar, mazdakiylar, shomon jamoalari ham istiqomat qilgan.

Ko‘rinib turibdiki, islom kirib kelmasdan oldin O‘zbekistonda o‘ndan ortiq diniy yo‘nalish mavjud bo‘lgan ekan. Ammo O‘zbekistonning qadimgi tarixida diniy mutaassiblik yoki adovat, umuman, diniy asosda qirg‘inbarot urushlar yuz bergani haqida bironta tarixiy hujjat uchramaydi. Uzoq yillar davomida amal qiligan ushbu

¹ Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. –T.: “Toshkent islom universiteti”, 2012. 459-b

an'anani, muhitni asrash ma'naviy-targ'ibot tizimini asosiy vazifasi hisoblanadi.

Islom tarixidan mukammal xabardor bo'lmagan kishilarning jamiyatimizga mos kelmaydigan, ayrim guruhlar manfaatini ko'zlovchi ta'limotlarini ko'r-ko'rona o'zlashtirib, atrofdagilarga "yuqtirishga" harakat qilishlari, yoshlarimiz ongida milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda Islom dinining ahamiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir. Chunki mamlakat ijtimoiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar tarixiy merosimiz, ma'naviy madaniyatimizning boy va qudratli qatlamlari ochilishiga samarali ta'sir etib, xalqimizning ruhiyati milliy iftixor va butun dunyo uchun bag'rikenglik tomonga o'zgarmoqda.

Shu o'rinda, bunday munosabatlar qaror topishi jarayoniga xalaqit berishi mumkin bo'lgan turli xarakterdagi salbiy harakatlar, mezonlar va boshqa bir qator illatlar ham namoyon bo'ldiki, ularning namoyandalari xalq orasiga qo'rquv solish kabi o'z qora niyatlari yo'lida har qanday vositadan, hatto qonundan chekinishlardan ham tap tortmadilar.

Ushbu salbiy oqibatlarining eng qabihi vahhobiylar tomonidan dinga siyosiy tus berilishi, uning vositasida hokimiyat sari intilishlari, musulmonlar orasiga nifoq solishlari, qo'poruvchilikni, hatto pirovard-oqibatda, dinning ham o'z ich-ichidan buzulishiga qaratilgan harakatlardir. Bunday harakatlar mohiyati, tarixiy ildizlari va g'oyalari haqidagi turkum ko'rsatuvlar oynai jahon orqali namoyish etildi va respublikamiz gazetalarida e'lon qilingan maqola va munosabatlarda ham o'zining ifodasini topdi. Ularning mazmunidan shuni anglab yetish mumkinki, fojiali ishlarning sodir bo'lishiga sababchi shaxslar millatimizni ezgu niyatlardan chalg'itish yo'lida Islomni "qurol" qilib olishgan. Chunki Islom dini asrlar davomida xalqimizning muqaddas e'tiqodi, ma'naviy hayotining dasturilamali bo'lib kelgan. Shu bois, bugun biz qurayotgan yangi jamiyatda Islom dini alohida hurmat va e'tiborga sazovor bo'lmoqda. Binobarin, jamiyat bilan Islom dini manfaatlari o'rtasidagi mushtaraklikni mustahkamlash bugungi kunning asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Ko'rinib turganidek, jamiyat bilan din o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, xususan, fuqarolik jamiyatining din va uning ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o'rni va ahamiyatiga to'g'ri yondashuvi, undan ezgu

maqsadlar yo'lida keng foydalanishni maqsad qilib qo'yishi g'oyat muhimdir.

Din jamiyat rivojiga asrlar davomida ta'sir etib kelayotgan omillardandir. Shunday ekan, ushbu ta'sirchan targ'ibot vositasidan keng foydalanish istiqlol mafkurasi va axloqini shakllantirishga, jamiyat a'zolarini zamonamiz talab qilayotgan yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashga ham yaqindan yordam beradi. lekin, shu bilan birga, mamlakatimizda ba'zi doiralarning g'arazli maqsadlarga yetishish vositasi sifatida, hatto mutaassiblik, ya'ni fanatizm yo'lida ham dindan foydalanayotgani sir emas. Shu bois, birinchi prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" deb nomlangan kitobida o'sha davrdagi murakkab vaziyatni chuqur his etgan holda, e'tiborni odamlarning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq har qanday muammo g'oyat nozik ekanligiga, xususan, Islomni qayta tiklash shiorlaridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko'zlayotgan, dinga aloqasi bo'lmagan siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o'rtasidagi farqni tushunib olishlari zarur ekanligiga qaratgan edi. Darhaqiqat, ommaning chinakam Islomga zid bo'lgan, zo'ravonlikka da'vat etuvchi g'oyalarning mohiyatini atroflicha anglab yetishuviga erishish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur kitobda islomshunosligimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalar haqida ham so'z yuritiladi. Bular fanatizm, ekstremizmning oldini olish, unga qarshi kurashish vositalari bilan bog'liq masaladir.

Yana shu narsaga alohida e'tibor qaratish zarurki, ba'zi g'arazgo'y kuchlar ekstremizm va terrorizmni faqat islom dini bilan bog'lab ko'rsatishga harakat qilmoqdalar. Bu narsa jahon miqyosida islom dinining obro'sini to'kish uchun ataylab qilinmoqda.

Lekin tarixiy faktlar shuni ko'rsatadiki, ekstremizm va terrorizm hali islom dini paydo bo'lmagan davrda ham mavjud edi. Buni qadimgi davrda amalga oshirilgan terroristik harakatlar isbotlaydi. Bu harakat xristianlikda ham, buddaviylikda ham mavjud bo'lgan. Biz bu haqda keyingi boblarda batafsil fikr yuritamiz.

Mazkur asarda ta'kidlanganidek, taassub, ya'ni fanatizmning yuzaga kelishiga ko'proq jamiyatdagi "siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal

qilinmaganligi sabab bo'ladi". Darhaqiqat, "diniy tizimlarning o'zi ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni hal qilishning samarali dasturlarini taklif qilishdan olis" bo'lganligi uchun taassubchilar bu muammolarning osongina yechimi sifatida dinlar vujudga kelgan zamonlardagi jamiyatda mavjud bo'lgan dastlabki shart-sharoitlarga qaytishni ma'qul ko'radilar. Lekin ular keyingi asrlar dovonidan yana ortga qaytish umuman mumkin emasligini e'tiborga olmaydilar.

O'z davrida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida mahalliy va xorijiy mamlakatlar ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bo'lib o'tgan brifingda aytilishicha: "hizbi harakati jihod", "Da'vat ul-Irshod" va "Pokiston islom ulamolari jamiyati" kabi tashkilotlar yordamida O'zbekistonlik (aksariyat Farg'ona vodiysidan) yoshlar Peshovar tumanida joylashgan diniy o'quv yurtlarida "o'qitilmoqda" ekanlar. Barchani tashvishga solib, o'ylantirgan hamda Vatanimizning osoyishtaligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarga ko'proq e'tibor berishni taqozo etgan narsalardan biri Pokistondagi mazkur yashirin o'quv markazlarida Markaziy Osiyodan, asosan, Tojikiston va O'zbekistondan kelgan to'rt yuzga yaqin kishilarning bizning davlatimizda turli qo'poruvchilik ishlarini olib borish uchun tayyorgarlik ko'rganligidir. Ana shunday murakkab sharoitda Vatanimizning har bir fuqarosi barcha o'ylarini, fikri-zikrini bir joyga yig'ib, o'z yurtining kelajagi, tinchligi haqida, xalqimiz istiqboli haqida, oila va Vatan oldidagi o'z burchlari haqida chuqur mulohaza yuritib olib borilayotgan siyosat atrofida birlashdilar.

Demak, insoniyat ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash avj olgan pallada turibdi. Hozirgi vaqtda terrorizmning tajovuzidan o'zini xoli his qiladigan birorta qit'a yoki davlatning o'zi yo'q. Xuddi vabo singari yer yuzining ko'plab mamlakatlariga yoyilib borayotgan bu balo-qazo ertaga kimni nishonga olishini ham oldindan aytish qiyin. Bu borada olib borilayotgan kurashda ijobiy natijaga erishishda insoniyatga o'zaro hamkorlik, birgalikda harakat qilish, bu mudhish hodisaning oqibatlarini to'g'ri anglab yetish talab etiladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Terrorizm, ekstremizm, fanatizm, fundamentalizm, aqidaparastlik, vijdon erkinligi, e‘tiqod erkinligi, diniy qadriyatlar, diniy bag‘rikenglik, ma‘rifat.

Takrorlash uchun savollar

1. XX asr oxiriga kelganda dunyoning geografik – siyosiy xaritasidagi o‘zgarishlarni namoyon bo‘lish xususiyatlari.
2. “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari” kursining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. O‘zbekiston Respublikasida diniy qadriyatlarga erkinlik berilishini ijobiy ko‘rinishlari qanday?
4. Din niqobi ostida ba‘zi jaholatparast guruhlarning hozirgi kunda jamiyat taraqqiyoti uchun tahdidi va xavfi nimalarda ko‘rinadi?

Mavzu: EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING MOHIYATI VA UNING JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDIDI.

Reja:

- 1. Terrorizm tushunchasi va mohiyati.**
- 2. Ekstremizm tushunchasi va mohiyati.**
- 3. Terrorchilik harakatlarining vujudga kelish tarixi.**
- 4. Terrorizm va ekstremizmning asosiy xususiyatlari.**

1. Terrorizm tushunchasi va mohiyati. Insoniyat o‘z kelajagini bashorat qilmoqchi bo‘lsa, odatda o‘z tarixiga boqadi. Bugungi insoniyat rivojlanish nuqtai nazaridan qay darajada yuksaklikka erishmasin, qay darajadagi bir – biridan murakkab muammolarga duch kelmasin bunga o‘xshash holatlarni o‘zining ko‘p ming yillik tarixida o‘zgacha ko‘rinishda boshidan kechirgan bo‘lib chiqadi. Shunday ekan tarixning zarhal varaqalaridan joy olgan, muhrlangan bu voqealar qay yo‘l bilan bosib o‘tilgan, qanday chora – tadbirlar ishlab chiqilganligi o‘ziga xos hayot maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Mashhur ingliz davlat arbobi U.Churchil yosh shogirdiga tarixni chuqur o‘rgan unda kejakning barcha sirlari mujassam deya nasihat qilgan edi. Islom Karimov insoniyat hayotida tarixning, o‘tmish merosining roli xususida to‘xtalar ekan shunday yozgan edi: “Kim bo‘lishidan qat’i nazar,

jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi"¹. Tarix xatolarni takrorlamaslikka, vaziyatga to'g'ri baho berishga, to'g'ri chora – tadbirlar ishlab chiqishga o'rgatadi. Shunday ekan, tarixning zarxal sahifalarini chuqur o'rganish qomadni tik tutgan holda buyuk kelajak darvozasining qulfiga teran nazar solishdir. Tibbiyot xodimlari har qanday kasallikni kelib chiqish tarixini chuqur tahlil qilishdan ishni boshlashadi negaki uning oldini olish chora – tadbirlarini belgilab olish oson kechishi sabab. To'g'riligi turli xalqlar, mamlakatlar hayotida bot – bot isbotini topgan bu hikmatni terrorizm deya atalmish ushbu jirkanch hodisani tahlil qilishga nisbatan ham qo'llash mumkin. Bu metodologik asos terroristik hatti – harakatlarning kelib chiqishidagi tarixiy vaziyatni, uning ijtimoiy – siyosiy omillarini, rivojlanish, tarqalib borishi bilan bog'liq targ'ibot usul – vositalarini, harakat mexanizmlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Va shu sabab terrorizmning kelib chiqish tarixini o'rganish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bu masalaga o'z diqqat – e'tiborini qaratgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga, ilmiy xulosalarga qaraydigan bo'lsak ularning qarashlarini turlicha yondashuvlar asosida tasniflash mumkin bo'ladi. Tadqiqotchi Sh.G'oyibnazarovning ta'kidlashicha terrorizmga 200 ga yaqin ta'rif berilgan bo'lsada, ularning birontasi umum e'tirof etilmagan, bu boradagi tortishuvlar, bahs – munozaralar xanuz davom etmoqda². To'g'ri ko'pchilik terrorizm nima degan savolga o'ziga xos ravishda javob bera olsada, ular bu hodisa haqida umumiy, mavhum tushunchaga egalar xolos. Bu o'z navbatida insoniyat hayotining murakkablashib borishi, uning yangidan – yangi faoliyat sohalarining tarkib topib yuksalib borishi, mamlakatlar, xalqlar o'rtasida o'zaro hamkorlikning kuchayib borishi bilan belgilanadi. Negaki terrorizm ham shu sohalarda ro'y bermoqda, bunday hamkorlikning, yutuqlarning

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayaot – pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. –T.: «O'zbekiston», 2000

² G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: "O'zbekiston" 2013.- 8-b

mevasidan “bahramand” bo‘lmoqda. Bu jarayonlarning dinamik xarakteri terrorizm atamasiga ta’rif berishni qiyinlashtirmoqda.

Bu bildirilgan fikrning isboti tariqasida terrorizmga berilgan ta’riflarga to‘xtalib o‘tsak: “terrorizm siyosiy maqsadda amalga oshiriladigan, asoslangan zo‘ravonlikdir” (B.Kroze, Buyuk Britaniya); “Terrorizm – siyosiy, mafkuraviy yoki sotsial – revolyusion maqsadlar hamda intilishlarga erishish uchun hukumatlarni, aholi doiralarini muntazam qo‘rqitib turish” (G.Deniker, Shveysariya); Terrorizm – bu “qo‘rqitish, majburlash yoki cho‘chitish vositasida siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo‘ravonlikni ishlatish bilan tahdid solish yoki uni ishga solish” (I.Aleksandr. AQSH)¹. Tadqiqotchi R.Falk esa terrorizmga ikki xil ta’rif berib o‘tadi: “Siyosiy zo‘ravonlikning, uni kim – revolyusion guruhmi yoki hukumatmi – ishga solishidan qat’i nazar, monand ravishdagi axloqiy va yuridik vaj – karsoni bo‘lmagan har qanday turidir”; “tanlab o‘tirmasdan yoki aybsiz shaxslarga qarshi zo‘ravonlikni ishga soladigan siyosiy ekstremizm”. Terrorizm doimiy ravishda terrorga asoslangan kuch ishlatishni qo‘llaydigan siyosat².

Tushunchaga O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 155 – moddasida quyidagicha ta’rif berilgan: “Terrorizm — xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo‘rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi”³. Falsafa qomusiy lug‘atida bu hodisaga shunday ta’rif keltirilgan: “Terrorizm, terrorchilik – zo‘rlik va jaholat mafkurasi; terror bilan amalga oshiriladigan siyosiy harakat. Terrorizm bir necha asrlar oldin shakllangan, geografik jihatdan

¹ Мирский Г. Дракон встает на дыбы (о международном терроризме) // Мировая экономика и международные отношения. 2002, № 3. С.37.

² <https://ru.wikipedia.org/wiki/terrorizm>

³ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengoshining Axborotnomasi. 2016 y., 17 - son, 173 - modda.

barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrashi mumkin bo'lgan murakkab fenomendir"¹. Ikkinchi bir manbada esa "Terrorizm (lotincha "terror" – qo'rquv, dahshat) – ma'lum yovuz maqsadlar yo'lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir"². B.Tadjixanov o'z tadqiqotida terrorizmga quyidagicha ta'rif beradi: "Terrorizm – xalqaro munosabatlarni chigallashtirish, suverenitet va hududiy yaxlitlikni buzish, davlatlarning xavfsizligiga raxna solish, urush va qurolli to'qnashuvlar keltirib chiqarish, ijtimoiy – siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish yoki qasos olish maqsadida jismoniy yoki yuridik shaxslarni biror – bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishga tiyilishga majburlash uchun qilmish ko'rinishida yoki uni amalga oshirish bilan qo'rqitish tarzida oshkora sodir etiladigan, shaxsga yoki mulkka xavf tug'diradigan harakat"³.

Ushbu tahlillarning barchasida o'ziga yarasha asosli, mantiqli va o'z navbatida o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Avvalo shuni ta'kidlash joizki ushbu tahlillarning aksariyatida terrorchilik harakatiga siyosiy jarayonlardagi fenomen sifatida qaralgan. Bunday tusdagi fikrlarga qo'shilish shu tomoni bilan to'g'ri kelmaydiki, hozirgi paytdagi iqtisodiy, moliyaviy, kibernetik va yana bir qator shakllardagi terrorchilik amaliyotini kuzatish mumkin. Ikkinchi tomoni shundaki ko'pgina tadqiqotlarda terrorga inqilob vositasi sifatida qarash uchraydi. Xatto ba'zi tadqiqotlarda terrorning kelib chiqishini Buyuk fransuz inqilobiga davriga olib borib taqash holatlari uchraydi.

Terrorchilik hatti – harakatlarini tahlil ostiga olgan qator tadqiqotlarni kuzatganda shu holatga guvoh bo'lish mumkinki, ikkita jihat borki terror atamasiga eng universal, hammabop ta'rifni berishga to'sqinlik qilib keladi. Shu sabab ham bu atamaga bag'ishlangan tahlillarda hamma tomonidan umume'tirof etilgan talqinni ko'rish, masalaning atama ta'rifi bilan bog'liq jihatiga nuqta qo'yish imkoni bo'lmayapti. Masalaga

¹ Falsafa. Qomusiy lug'at. – T.: "Sharq", 2004.-398-b

² Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T.: "Akademiya", 2007. – 274-b

³ Tadjixanov B. Terrorizmning huquqiy tavsifi: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006.- 55-b

oydinlik kiritishda o'ziga xos qiyinchiliklarga sabab bo'layotgan bu jihatlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, jamiyat hayoti sohalarining dinamik xarakterda ekani, uning doimiy ravishda jadallik bilan yuksalishi, oddiylikdan murakkablik tomon rivojlanib borishi bilan belgilanadi. Jamiyat hayotidagi bu murakkablik, yuksalish uning har sohasiga, barcha tarkibiy qismlariga, kerak bo'lsa undagi barcha hodisalarga birdek aloqador hisoblanadi.

Ikkinchisi, jamiyat hayoti sohalarining dinamik xarakterda bo'lishi bilan birga bu sohalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning chuqurlashib borishi bilan belgilanadi. Biron sohadagi keskin yuksalish jamiyat hayotining boshqa qator sohalarini chuqur qamrab olishi ayni paytda, biron – bir sohadagi chuqur inqirozning qolgan sohalarga keskin ta'siri odatiy xol hisoblanadi. Shuningdek biron sohaga oid ish yuritish mexanizmi bo'ladimi, usul – vositasi bo'ladimi uning nechog'lik samaralik bo'lishi uning boshqa qator sohalarda ham keng qo'llanilishiga olib keladi. Bu o'z navbatida terrorizm atamasiga ham tegishli hisoblanadi.

Uchinchidan, masalaning murakkabligi terrorning kim tomonidan va qanday maqsadda qo'llanilishi bilan izohlanadi. Tashqi bosqinchi dushmanga qarshi kurashda vatan himoyachilari tomonidan dushmanga qarshi, uning harbiy infrastrukturasi, iqtisodiy infrastrukturasi, transport infrastrukturasi izdan chiqarish maqsadida ko'ngillilar xizmati, partizanlik harakati orqali ko'pchilik holatlarda ta'sirning terror usulini keng qo'llashgan. Milliy ozodlik harakati ishtirokchilari o'z Vatani mustaqilligini qo'lga kiritish uchun olib borilgan qator janglarda albatta terrorchilikdan keng foydalanishgan. Bunday vaziyatda terror muayyan xalqning oliy maqsadga erishishining asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda Yaqin Sharqda sodir bo'layotgan jarayonlarga qarajak kurashayotgan barcha tomonlar (Suriya hukumat qo'shinlari, Suriya "Ozodlik armiyasi", Iroq armiyasi, Iroq Kurdistoni, ishidchilar) bir – birini terrorchilikda ayblab kelishadi. Ko'rinib turibdiki, bu atamani izohlashda subyektiv tomonlar ham mavjudligini esda saqlash zarur bo'ladi.

Shunday ekan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq bo'ladi: birinchidan, jamiyat hayotiga, undagi siyosiy jarayonlarga ijtimoiy organizm sifatida, uni doimiy rivojlanishda deb qarash talab etiladi.

Boshqacha aytadigan bo'lsak, terrorizm atamasiga tugal ta'rifni berib bo'lmaydi, uni ijodiy rivojlantirib borishni davr talab etib boradi. Ikkinchidan, tahlil qilinayotgan hodisaga baho berishda subyektivlik nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi. Boshqacha aytganda har bir etnik guruh, diniy jamoa, mavjud ijtimoiy – siyosiy tizim, davlat o'zining subyektiv manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib qaragani ma'qul ko'rinadi. Agar biz O'zbekiston Respublikasining “terrorizmga qarshi kurash to'g'risda” gi qonunida terrorizmga berilgan ta'rifga e'tibor qaratsak bu jihatlar ma'lum bir tarzda ko'zga tashlanadi: “... terrorizm — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar¹. Shunday ekan ushbu ta'rifni boshqalariga nisbatan mukammal talqin deb hisoblash mumkin bo'ladi.

2. Ekstremizm tushunchasi va mohiyati.

Ekstremizm (ot lat. *extremus* — so'ngi, keskin) — o'z hatti – harakatlarini amalga oshirishda keskin, so'ngi usullarni qo'llash tarafdorini aks ettiruvchi tushuncha. Ekstremist tushunchasi ostida muayyan shaxs, guruh, tashkilot, harakat ham tushunilishi mumkin². Radikal ekstremistlar har doim muzokaralarni, kelishuvlarni, shartnomalarni tan olishdan bosh tortib kelishadi. Umuman olganda “ekstremizm” deganda odatda mavjud va umumqabul qilingan qarashlar, ta'limotlar va qadriyatlar tizimini mutlaqo

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Mojlisining Axborotnomasi, 2001 y., 1-2-son, 15-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 25-son, 287-modda

² Российский энциклопедический словарь / Гл. ред. О. М. Прохоров. — М.: Научное изд-во «Большая Российская энциклопедия», 2000. — Т. 2. — С. 1832. — 1023 с.

inkor qiluvchi, jamiyatda qadriyatlar tizimini tazyiq va zo‘ravonlik bilan o‘zgartirish tarafdorlarining faoliyati tushuniladi. Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi tadqiqotlardan kelib chiqqan holda ekstremizmni ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etishda o‘ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyot deb izohlash mumkin. Diniy sohadagi ekstremizm ham ana shunday g‘oya va tamoyillarga asoslanadi. Ekstremizmning mazkur yo‘nalishi XX asr oxirida ancha keng miqyosda namoyon bo‘ldi. Bunga Afg‘oniston, Tojikiston, Checheniston, Kosovodagi mudhish voqealar misol bo‘la oladi. Diniy sohadagi ekstremizm mazkur yo‘nalishdagi o‘ta mutaassib guruhlarining ashaddiy reaksiyon faoliyati bo‘lib, hatto dinga ham zarar keltiradi. Uning asosiy maqsadi — dinni niqob qilib, hokimiyatni qo‘lga olish, diniy talablarning ilk darajasiga xos “sofligi”ni qayta tiklash, diniy talablarga mos siyosiy tuzumni barpo etishdan iborat. Shu maqsadda jamiyatning turli jabhalarida diniy targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borib, qurol kuchi va zo‘ravonlik bilan davlatni egallashga harakat qiladi. Oxirgi hisob-kitoblarga qaraganda Internet tarmog‘ida 10 000 atrofida ekstremistik saytlar va ularga qarshi kurashuvchi muxolif 100 ta Internet-sahifalar mavjud. Ekstremistik saytlarda davlat to‘ntarishi va urushlar haqida axborotlar tarqatishga alohida e‘tibor qaratiladi.

Turli davrlarda qator mamlakatlarda “ekstremizm” atamasiga berilgan aniq ilmiy yoki yuridik ta’rifni uchratish qiyin. “Terrorizm” atamasi singari “ekstremizm” atamasiga ham berilgan yagona talqinni ko‘rmaymiz. Ingliz tadqiqotchisi Piter T. Koulman va Andrea Bartoli «Addressing Extremism» nomli kitobida ekstremizmga shunday ta’rif keltirishadi: “Ekstremizm — o‘z – o‘zidan ko‘rinib turibdiki murakkab hodisa, ko‘pchilik holatlarda uning murakkabligini ko‘rish tushunish qiyin kechadi. Unga ba’zan faoliyat sifatida, ba’zan hissiyot sifatida, ba’zan strategiya sifatida, ba’zan munosabat sifatida qarash ko‘p uchraydi”.

Xalqlar huquqini himoya qilish bo‘yicha Xalqaro harakat koordinatori V.D.Trofimov-Trofimovning talqiniga ko‘ra ekstremizm faqat siyosiy jarayonlargagina emas balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini keng qamrab oluvchi tushuncha sifatida qaraydi: “Ekstremizm – ko‘zlangan natajalarga erishish yo‘lida ijtimoiy fe‘l-atvor

ekstremlaridan, keskin chora-tadbirlardan keng foydalanishni ilgari suruvchi mafkuradir”¹.

2003-yilda qabul qilingan Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasi Reziolyusiyasida esa shunday ta’rif keltiriladi: «ultranatsionalizm, antisemitizm, ksenofobiya amaliyoti va mafkurasiga asoslangan, parlamentar demokratiyani rad etadigan siyosiy faoliyat shaklidir»². 2001-yil 15-iyunda imzolangan “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida Shanxay konvensiyasi” da quyidagicha ta’rif berilgan: «Ekstremizm – deganda tomonlarning milliy qonunchiligida jinoyat deb e’tirof etilgan davlatning konstitusiyaviy tizimini kuch bilan o‘zgartirishga urinish, kuch bilan bosib olish, ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga xamla qilish, noqonuniy qurolli guruhlar tuzishga intilish nazarda tutiladi»³. Ekstremistik faoliyatga qarshi kurash to‘g‘risidagi Rossiya qonunchiligida quyidagilar belgilangan: Rossiyaning hududiy yaxlitligini, uning konstitusiyaviy tizimini izdan chiqarishga urinish; terrorizmni, har qanday terroristik hatti – harakatni oshkora yoqlash; milliy, irqiy yoki diniy negizdagi nizolarni keltirib chiqarishga urinish va shu kabilar nazarda tutilgan⁴. Xuddi shunday talqinni Belarus va AQSH qonunchiligida ham uchratish mumkin. Endi O‘zbekiston qonunchiligiga to‘xtalsak. Ko‘pgina tadqiqotlarda ekstremizm terroristik hatti – harakatni amalga oshirish vositasi hisoblanadi. O‘zbekiston respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida” qonunida terrorizmga ta’rif keltirilgan, lekin ekstremizm alohida ijtimoiy illat sifatida ko‘rsatilmagan. Faqat unda terrorizm tushunchasiga ta’rif berilgan. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksida yuridik atama sifatida keltirilmasada 244 moddasining uchta bandida jinoiy qilmish sifatida jazo belgilangan.

¹ Trofimov-Trofimov V. D. Ekstremizm (rus.) (2011). Provereno 5 iyulya 2011. Arxivirovano iz pervoistochniko 5 fevralya 2012.

² РЕЗОЛЦИЯ 1344 (2003). Об угрозе для демократии со стороны экстремистских партий и движений в Европе

³ Шанхайская конвенция о борьбе с терроризмом, сепаротизмом и экстремизмом (Зоключено в г. Шанхае 15.06.2001) (п. 3 ч. 1 ст. 1)

⁴ Федеральный закон от 25.07.2002 № 114-ФЗ (ред. от 29.04.2008) «О противодействии экстремистской деятельности» // Российская газета. — 2002. — № 138—139, 30.07.2002

Ekstremistik hatti – harakat bilan shug‘ullanib kelgan, hozirgi paytda jazo muddatini o‘tayotganlarni ijtimoiy – demografik jihatlarini tahlil qilganda odam shunday ayanchli hodisani guvohi bo‘lishi mumkin. Rossiyada 2013-yilda 227 ta odam, 2014-yilda 307 ta odam, 2015-yilda 414 ta odam ushbu jinoyat turi bilan aybdor deb topilib javobgarlikka tortilgan.

E‘tibordan qoldirish mumkin bo‘lmagan jihatlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- **Ekstremizm**da ayblanayotgan kishilarning ma‘lumotining **yuqoriligi**. 2013-yilda bu jinoyat turi bilan sudlanganlarning 31 % ini oliy ma‘lumotli kishilar tashkil qilgan (309 tadan 96 tasi). Agar 2013-yilda jinoiy javobgarlikka tortilganlarning umumiysiga e‘tibor qaratsak bu ko‘rsatkich 8 % ga teng.

- **Jinoyatchilar tarkibining asosan erkaklardan iborat ekanligi**. 309 ta sudlanganlardan 16 tasini ayollar tashkil qilgan (5 %). Agar 2013-yilda jinoiy javobgarlikka tortilganlarning umumiysiga e‘tibor qaratsak bu ko‘rsatkich 15 % ga teng.

- **Jinoyatchilar tarkibida chet elliklarning kamligi**. 309 sudlanganlarning faqat to‘rttasi Rossiya fuqarosi bo‘lmagan.

- **Jinoiy hatti** – harakatlarning aksariyati Rossiya subyektlarining markazlarida amalga oshirilgan.

- **Bu hatti – harakatlar** amalga oshirilganida 309 ta ekstremistdan 308 tasi spirtli ichimlik is‘temol qilmagan. Ya‘ni ongli ravishda amalga oshirilgan, bilmasdan, tasodiy qilinmagan.

- **Aybdor** deb topilganlarning 249 tasi (80 %) ilgari sudlanmagan.

Bunday tahlillardan kelib chiqadigan xulosa shuki bu yo‘lga kirganlarni adashib kirib qolgan deyish mushkul. Shunday ekan ma‘naviy – ma‘rifiy sohadagi belgilangan vazifalarni, olib borilayotgan ishlarni jiddiy tanqidiy qayta ko‘rib chiqish talab etiladi. Shunday ekan terrorizm va ekstremizm tushunchalarining o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan quyidagilarni tahliliy xulosa sifatida ilgari surish mumkin:

Birinchidan, ekstremizm terroristik hatti-harakatni amalga oshiruvchi usul va vositalardan biri hisoblansada, undan farqli jihatlari ham mavjud.

Ikkinchidan, ekstremizm ijtimoiy xarakter kasb etadi. Unda individual maqsad-manfaatlar uchramaydi. Lekin har qanday terroristik harakat ham ijtimoiy xarakter kasb eta olmaydi.

Uchinchidan, ekstremistik hatti-harakat mavjud ijtimoiy – siyosiy tizimni, amal qilayotgan ijtimoiy munosabatlarni, ma'naviy-ahloqiy tizimni zo'ravonlik asosida o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi.

3. Terrorchilik harakatlarining vujudga kelish tarixi. Yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki uni ezgulikka yetaklovchi hamkorlik, do'stlik, yaratuvchanlik singari ezgulik g'oyalari bilan bir qatorda unga mustabidlik, yovuzlik, irqchilik singari bir qator vayronkorlik g'oyalari ham doimiy hamkorlik qilib keladi. O'z navbatida shuni aytib o'tish lozimki har bir ijtimoiy hodisa bilan bu hodisani o'zida aks ettiruvchi ilmiy atama bir paytda paydo bo'lgan emasligini yodda tutish zarur. Misol tariqasida davlat qachon paydo bo'laganligi bilan (mil.av IV ming yillikda Misr davlati) siyosiy nazariyalarga "davlat" atamasi qachon kiritilganligini (milodiy XVI) eslash kifoya qilsa kerak.

Avalombor shuni qayd etish zarurki, ko'pgina tadqiqotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak terrorizm va ekstremizmning kelib chiqish davri bilan bog'liq xulosalarda yagonalik mavjud emas. Bu hodisa murakkab bo'lib uning qachon kelib chiqqanligi xususida yagona bir fikrni aytish qiyin. Tarixchi, siyosatshunos olimlarning terrorizmning kelib chiqishi xususidagi fikrlari bir – biridan keskin farq qiladi. Tadqiqotchi Sh.G'oyibnazarov qayd etib o'tilganidek insoniyat paydo bo'lganidan buyon terrorizm unga doimiy hamkorlik qilib keladi degan fikrni ilgari suradi. To'g'ri bu fikrni tadqiqotchi umumiy ma'noda aytgan bo'lishi mumkindir. Bunday yondashuv tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Ular terrorizmning tarixi asrlar qa'riga kirib boradi, deb hisoblashadi¹. Bu yondashuv tarafdorlari har qanday siyosiy qotillikni terrorizmga tenglashtirib uning kelib chiqish tarixini antik davrga olib borib taqashadi. Jumladan, tadqiqotchi Ye.Stepanov shunday yozadi: «Olimlar va siyosatchilarning katta qismi orasida terrorizmning revolyusion kelib chiqishi haqidagi fikr tarqalganini maxsus ta'kidlab o'tish zarur. Uning

¹ Qarang: G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: "O'zbekiston" 2013.- 4-b

boshlanishini odatda, XVIII asrdagi fransuz revolyusiyasiga hamda 1917-yilda Rossiyada sodir bo'lgan revolyusiyaga olib borib taqashadi. Aslida terrorizm juda qadim zamonlardan boshlangan, amaliyoti esa turli shakllarda xilma – xil tarixiy davrlarga va ko'plab siyosiy oqimlarga xosdir»¹.

Terrorizmning kelib chiqishi davri bilan bog'liq bo'lgan o'zgacha fikrlar ham mavjud. Fransuz tarixchisi M.Ferro XI-XII hashshoshiylarning (ismoliylar ichidagi yashirin terrorchi firqa) o'ziga xos islomiy an'anasi, deb biladi. N.Neymark esa o'z tadqiqotlarida terrorizmning kelib chiqishini Napoleon Bonapartdan keyingi Restavratsiya davri (1814-1830) bilan bog'laydi². Terrorizmning qachon kelib chiqishini tahlil qilgan tadqiqotchilar orasida shunday tadqiqotchilar ham borki ular diniy manbalarga ham murojat qilishadi. Ular o'z birodari Hobilni o'ldirgan Qobilni dastlabki terrorchi deb bilishadi. Ayrim tadqiqotchilar fikricha terrorizmning vujudga kelganiga hali ikki yuz yil ham bo'lgani yo'q deb hisoblashadi. Masalan, V.Jarinov terrorizm kamida bir yarim asrlik tarixga ega, deb hisoblaydi. O'z navbatida I.Aleksander, V.Chalikovlar terrorizmni XX asr fenomeni deb hisoblashadi. 1934-yilda Marselda (Fransiya) Yugoslaviya qiroli Aleksandr va Fransiya tashqi ishlar vaziri L.Bartu terror yo'li bilan o'ldirilgach Millatlar Ligasi maxsus ekspertlar Qo'mitasiga terrorizmni jinoiy hatti-harakat, qilmish sifatida o'rganish, terroristik hatti-harakatlarni oldini olish yuzasidan konvensiya ishlab chiqish vazifasini topshiradi. Balki shu sabablidir ko'pgina tadqiqotchilar terrorizmni XX asr fenomeni sifatida baholashadi. Yuqorida ko'p bor ta'kidlab o'tildi. Ijtimoiy – siyosiy jarayonlarning rivojlanib borishi bilan uning barcha tarkibiy qismlari, shu bilan birgalikda bu jarayonni aks ettiruvchi ilmiy atamalar ham soddalikdan murakkablik tomon o'zgarib boradi. Shunday yo'sinda ish tutilganida Qadimgi Misr davlatini, yoki Qadimgi Xorazm davlatini, yoki Franklar davlatini bugungi meyoriy o'lchamlar bilan davlat demaslik to'g'ri bo'lib chiqadi. Lekin fanda barcha tabiiy, ijtimoiy – siyosiy jarayonlarga bunday tartibda yondashilmaydi.

¹ Степанов Е.О. Современный терроризм: состояние и перспективы. – М.: Эдиториал УРСС. 2000. –с. 39

² <https://ru.wikipedia.org/wiki/terrorizm>

Insoniyatning moddiy madaniyatiga nisbatan uning ma'naviy madaniyati ancha yosh, bu degani insoniyat tarixi katta davri haqida yetarli yozma ma'lumotlar mavjud emas. Mavjud manbalar asosida terrorizmning vujudga kelishi haqida qator tasavvurlarni ko'rib chiqdik. Umumiy xulosa qilib aytganda yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki uning qaysidir tor ma'nodagi manfaatlarini qondiruvchi vosita sifatida terrorizm unga hamrohlik qilib kelmoqda.

Terrorizmning vujudga kelish tarixi haqida fikr yuritilganida, uning tarixini davrlashtirishda keskin bir – biridan farq qiladigan holatlarni, qarama – qarshiliklarni kam uchratamiz. Albatta terrorizmni XIX asr yoki XX asr fenomeni deb hisoblovchi tadqiqotchilarning asarlarida terrorizm tarixi davrlashtirilmagan. Terrorizmning kelib chiqishini uzoq tarixga taqaydigan tadqiqotchilardan SH.G'oyibnazarov terrorizm tarixini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lib o'rganishni taklif qiladi: 1. Antik terrorizm yoki prototerrorizm. 2. Klassik terrorizm. 3. An'anaviy terrorizm. 4. Zamonaviy terrorizm¹. Terrorizm tarixini bunday yondashuv asosida davrlashtirish bir tomondan davriy parametrlar izchilligiga to'g'ri kelmaydi. Ikkinchi tomondan klassik, an'anaviy, noan'anaviy, zamonaviy atamaları ko'pchilik tadqiqotlarda usul ma'nolarida ishlatiladi. Shuningdek klassik, an'anaviy, zamonaviy usullaridan bir vaqtda, ma'lum vazifaning yechimida, bironta tadbirni amalga oshirishda vosita sifatida ham ishlatiladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar terrorizm tarixini ikkinchi bir ko'rinishda quyidagicha davrlashtirishni taklif etishadi: 1. Antik (qadimgi) terrorizm. 2. O'rta asrlar terrorizmi. 3. Yangi davr. 4. Eng yangi davr terrorizmi. To'g'ri bu ikkala tahlilning farqi davrlarning nomlanishida xolos.

Qadimgi dunyo terrorizmi. Eng qadimgi sivilizatsiyalarda hokimiyat tomonidan turli xalqlarga qarshi hamda o'z navbatida hokimiyat va boylik uchun hukmdor shaxslarga qarshi amalga oshirilgan terroristik harakatlarga doir misollar ko'p, bizga noma'lumlari undanda ko'p bo'lsa kerak. Tadqiqotchi A.Korolevning fikricha miloddan avvalgi 336-yilda Makedoniyalik Aleksandrning otasi Filipning o'ldirilishi dastlabki terakt

¹ Qarang: G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: "O'zbekiston" 2013.- 11-b

hisoblanadi¹. Qadimgi Misr fir'avnlari tomonidan O'rta yer dengizi bo'yidagi qulay mintaqalardagi o'z humronligini o'rnatish uchun qo'shni xalqlarga nisbatan qator qirg'inbarot siyosat olib borishgan. Ikkinchi tomondan Misr fir'avnlari taxt uchun olib borilgan o'zaro janglarda bir – birlarini qurbon qilishgan. Bunday misollarga Qadimgi Rim tarixi ham misol bo'la oladi. Yuliy Sezarning bir tomondan hokimiyatning egallashi, ikkinchi tomondan taxtdan ketishi terrorning yaqqol namunasidir. Rim saltanati hududidagi dastlabki terrorchi tashkilotlardan bo'lmish sikariylar sektasi rimliklar istilo qilgan Falastin hududida milodiy I asrda tashkil topadi. Rimliklarga dushmanona kayfiyatda bo'lgan bu maxfiy guruh vakillari rimliklar bilan sulh tuzgan, ularning boshqaruv apparatiga ishga o'tgan, dushmanning marhamatiga uchgan yahudiylardan o'ch olishgan. Markaziy Osiyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak otashparastlar yetakchisi Zardo'shtning o'ldirilishi o'ziga xos terroristik hodisa hisoblanadi. Zaratushtra (Zardusht, Zartusht) ning o'limi borasida Avesta kitobida hech qanday ma'lumot yo'q. Lekin turli manbalarda uning o'limi bilan bog'liq turli ma'lumotlar beriladi. Masalan, pahlaviy va pazand (Gujarat shahriga ko'chib borgan zardushtiylarning keyingi davr tillaridan biri) tillaridagi manbalarga ko'ra, Zardusht 77 yoshida, payg'ambarligining 47-yili, uning himoyachisi bo'lgan podshoh Vishtaspning dinni qabul qilgan 35-yilida ibodat vaqtida Artavahishta (ikkinchi) oyining Xur (o'n birinchi)² kuni³ (zardushtiylarda oyning har bir kuniga alohida nom berilgan) da turonlik Bratarvaxsh tomonidan pichoqlab o'ldiriladi⁴. Yoki bo'lmasa Yunon – Makedon bosqinchilariga qarshi kurashgan milliy qahramonimiz Spitamenning o'ldirilishi o'ziga xos terroristik hodisa hisoblanadi. Shuningdek Milodning 33-yilida Iso Masihning o'ldirilishini ham bunday misollar sirasiga kiritish mumkin. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki islomiy manbalarda Iso Masihning terror qurboni emasligi aytiladi. Agar Qur'oni karimdagi Olim Imron surasining

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/terrorizm>

² Jalolov B. Yasna haptanghaiti. (Yasna kitobi 35-42 bandlarining avesto tilidan o'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjimai). – T.: «Mumtoz so'z». – B. 31-33.

³ Dinkord 7.5.1 // The sacred books of the East. Vol. XLVII. Pahlavi texts. Part V. Marvels of Zoroastrianism. – Oxford: The Clarendon Press, 1897. – P. 73.

⁴ Zod sporom 23,9 // The sacred books of the East. Vol. XLVII. Pahlavi texts. Part V. Marvels of Zoroastrianism. – Oxford: The Clarendon Press, 1897. – P. 165.

54-55 oyatlarida, Niso surasining 157 oyatida ta'kidlanishicha " ... Allohning payg'ambari Iso Masih ibn Maryamni biz o'ldirdik deganlar gaplari tufayli (jazoladik). Holbuki uni o'ldirganlari ham, osganlari ham yo'q. Faqat (boshqa bir kishi Isoga) o'xshatib qo'yildi xolos". Tafsirlarda yozilishicha yahudiylar Iso (a.s.)dan o'ch olish maqsadida uni qatl etishga qaror qilishadi. Alloh taolo ularning qasdini bilib, uni osmonga ko'tarishini aytadi. Iso (a.s.) havoriylarga, kim mening qiyofamga kirib qatl etilishi yoki osib o'ldirilishga rozi bo'lsa, unga jannat muqarrardir, deydilar. Ulardan biri bunga rozi bo'lgach o'ldiriladi. Ikkinchi bir tafsirda aytilishicha havoriylar ichidan bir munofiq qotillarni Iso (a.s.)ning uyiga boshlab keladi. Alloh taolo munofiqni Isoning qiyofasiga kiritib qo'yadi va u qatl etiladi¹. Nima bo'lganda ham aytish mumkinki terroristik hatti-harakatni amalga oshirishdi.

O'rta asrlarda terrorizm. Sahih halifalardan bo'lmish Halifa Umarning (Abu Xafs Umar ibn al-Xattob) o'ldirilishi endigina vujudga kelib keng yoyilayotgan islom dinining dushmanlari tomonidan amalga oshirilgan o'ziga xos terakt edi. Milodiy 644-yilning noyabr oyi boshlarida xalifa Umar bomdod namozini o'qish uchun masjidga keladi. Masjidda ibodat paytida asli eronlik bo'lgan fors quli Abu Lul xalifa Umarga olti marta pichoq bilan zarba beradi. Bu paytda Sosoniylar davlati (Eron) Umar qo'shini tomondan tor – mor etilgan bo'lib uning hududi xalifalikka qo'shib olingan edi. Ba'zi manbalarda keltirilishicha Abu Lul xalifa Umarning Forsda olib borayotgan siyosatidan keskin norozi guruhlar tomonidan yollangan bo'lishi mumkinligi aytiladi. Umarga unga jarohat yetkazgan odam otashparast Abu Lul ekanini aytishganida Umar shunday deydi: "Ollohga shukur, mening o'limim islomni qabul qilgan inson tomonidan amalga oshirilmadi"². Og'ir jarohatlangan Umarni uyiga keltirishadi. Oradan uch kun o'tgach 644-yilning 7-noyabrida Umar vafot etadi.

¹ Qarang: Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri. –T.: "Toshkent islom universiteti", 2012. 57, 103-104-betlar

² https://ru.wikipedia.org/wiki/Umar_ibn_al-Xattab

644-yilda halifalik taxtiga Usmon ibn Affon (Abu Amir Usmon ibn Affon al-Umavi al-Kuraysh) o'tiradi. Uning davrida mislsiz harbiy istilolar amalga oshirildi. Sosoniylar davlati tugatilib halifalikka qo'shib olindi. Misrda turgan halifalik qo'shinlari Karfagenni qo'shib olishdi. O'rtayer dengizidagi Krit egallandi. Kavkazga qator yurishlar amalga oshirildi. Yangi istilo hududlarda aholi islomni qabul qilsada, ba'zilar tilda qabul qilgan, chin dildan emas. Ba'zi jamoa a'zolari orasida jihiliya hukm surar edi. Ular orasida asli yahudiy bo'lgan Abdullo ibn Saba Usmon qarshi fitna amalga oshiradi. Ular Usmonga qator ayblovlarni ilgari surishadi: Usmon Badr jangida ishtirok etmagan (to'g'ri Usmon Badr jangida ishtirok etmagan. Lekin U Muhammad (s.a.v) buyrug'i bilan Madina himoyasida qoldirilgan); martabali lavozimlardan Muhammad (s.a.v) izdoshlarini olib tashlab o'z qorindoshlarini tayinlamoqda; Usmonni Qur'onni yoqqanlikda aybladi. O'zi Usmon davrida Qur'oni karim kitob holiga keltirilgan bo'lsa va sh.k. halifa Usmonni isyonchi musulmonlar (ba'zan misrliklar deyishadi) yonida o'z tarafdorlari ko'p edi. Lekin Usmon o'z lashkarlariga qilichlarini g'ilofiga solishni buyuradi. Buyruqni bajarganlarni ichida kimda -kim qul bo'lsa unga omonlik beradi. Jang qilishdan bosh tortadi. Sababini so'rashganida Usmon shunday javob beradi: "Men Muhammad (s.a.v) izdoshlarining ichida birinchi bo'lib musulmon qonini to'kkanlardan bo'lishni ho'xlamayman"¹. Yaqin Sharqda, Iroqda, Shimoliy Afrikada qon to'kayotgan terrorchi guruhlar halifa Usmonning hayotidagi yorqin lavhadan o'rnak olishmaydimi?

Usmonning o'limidan keyin 656-yilda halifalik taxtiga Ali ibn Abu Tolib chiqadi. Xorijiyalar musulmon jamoasidagi bo'linishda aybdor deb Ali, Muoviya va Amir ibn al-Asni bilishgan va ulardan o'ch olishga qaror qilishadi. Suiqasdchilar yetakchilaridan biri Abduraxmon ibn Muljam edi. Muljam maslakdosh qabila vakili bo'lgan Qatam binti Shijnani qo'lini so'raganida u ayol nikoh sovg'asi sifatida uch ming dirham, qul va Alining boshini so'raydi.

Suiqasdchilar 661-yilning 22-yanvar kechasida Qufadagi jome masjidida bomdod namozini o'qish bahonasida tunab qolishadi. Tongda azon aytilgach Ali masjiddga kiradi. Uni Muljam zaharlangan xanjar bilan

¹ <http://islam.ru/content/person/42040>

og‘ir jarohatlaydi. Ikki kun o‘tgach Ali vafot etadi. Sahih halifalardan Abu Bakrni hisobga olmaganda qolgan uchtasi suiqasd qurboni bo‘lishgan.

O‘rta asrlardagi eng mashhur terrorchi tashkilot sifatida ismoiliylar firqasini ko‘rsatish mumkin. Bu sekta VIII asr o‘rtalarida vujudga kelgan bo‘lib Yaqin Sharq, Eron, Xuroson hududlarida faoliyat olib borgan. Shialarning oltinchi imomi Ja‘far as-Sodiqning o‘g‘li Ismoilni yettinchi imom deb bilib, o‘zlari ustidan boshqalar hukm yuritishini tan olishdan bosh tortishgan. Keyinchalik ismoiliylardan yana bir guruh xashshoshiylar ajralib chiqishdi. Bu juda qudratli va o‘ta yashirin tashkilot zarur bo‘lgan jismoniy shaxslarni yo‘q qilishda misli ko‘rilmagan usullarini keng qo‘llangan. Hashshoshiylar tashkilotining a‘zolari o‘zlari uchun muqaddas hisoblangan g‘oya yo‘lida azob tortishni, qurbon bo‘lishni sharaf deb hisoblashgan. Sikariylar, ismoliylar, hashshoshiylar shuningdek yuqorida sanab o‘tilgan boshqa bir terroristik ko‘rinishdagi hatti – harakatlar sodda bo‘lib ko‘rinishi odatiy holat hisobalanidi. Negaki qayd etib o‘tilganidek ijtimoiy–siyoiy jarayonlar doimiy ravishda murakkablik tomon yuksalishda bo‘ladi.

Bu yo‘sindagi hatti-harakatlar Yevropada ham kuzatiladi. Yevropada katolik cherkovining dushmanlarini qidirib topish, ta‘qib qilish va ularni jazolash maqsadida 1215-yilda Rim papasi Innokentiy III tomonidan inkvizatsiya sudlari tashkil etiladi. **Inkvizúsiya** (lat. *Inquisitio Haereticae Pravitatis Sanctum Officium*, «Svyatoy otdel rassledovaniy yereticheskoy grexovnosti») — Rim – katolik cherkovining maxsus instituti bo‘lib dahriylarni (yeretiklarni) qidirib topish, jazolash, yo‘q qilish bilan shug‘ullangan. Qanchadan – qancha qishloqlar, shaharlar inkvizatsiyachilar tomonidan yo‘q qilib yuborildi. Qanchadan – qancha mashhur shaxslar bu sudning qurboni bo‘lishdi.

Tarixdan ma‘lumki 1096-1270- yillarda Yevropaliklar tomonidan Yaqin Sharqqa qarshi olib borilgan salib yurishlari bo‘lib o‘tadi. Bu urush Rim papasi tomonidan tashkillashtirilgan bosqinchilik urushi edi. Bu yurishda ishtirok etgan ritsarlarning ko‘pchiligini mayoratchilar tashkil etgan. Bosib olingan hududlarni qo‘lda saqlab turish maqsadida diniy ritsarlik ordenlari tashkil etiladi. Diniy-ritsarlik ordeni a‘zolarining asosiy vazifasi urush edi. Ular nikohga kirmaslikka, kambag‘allikda yashashga,

cherkovga soʻzsiz boʻysunishga va umrining oxirigacha qoʻlida quroli bilan xristian dini dushmanlariga qarshi kurashishga qasamyod qilishgan. Dastlabki diniy-ritsarlik ordeni gospitalerlar ordeni boʻlgan (avliyo Ioann Iyerusalimskiy nomli gospital). Ikkinchi ritsarlik ordeni dastlab Quddusga kelayotgan ziyoratchilarni himoya qilish uchun tuzilgan tampliyerlar (xramovniklar, "xram" ibodatxona soʻzidan) deb nomlangan. U Quddusdagi ritsarlar joylashgan tepalik nomi bilan atalgan. Salib yurishlari paytida bu tepalikda xalifa Umar buyrugʻi bilan dastlab qurilgan musulmonlar masjidi joylashgan edi. Orden XIV asr boshlarida taqiqlangan. Uchinchi yirik diniy-ritsarlik ordeni Muqaddas Bibi Maryamga bagʻishlangan. Undagi koʻpchilik ritsarlar Germaniyadan boʻlgani uchun, uni Nemis (lotincha Tevton) ordeni deyishgan. Katolik cherkovi dushmanlariga, boshqa diniy jamoa vakillariga qarshi kurashda bu diniy orden ritsarlari insonlar hayotiga suiqasd, qilish ayniqsa tinch aholini qirgʻin qilishda faol ishtirok etishgan.

XVI asrda Yevropada ijtimoiy hayotning qator sohalarida reformatsiya harakati boshlanadi. Shu paytgacha amal qilib kelgan mavjud, hukmron ijtimoiy – siyosiy tizimning boshqaruv vakillariga bu voqelikka shunchaki qarab turishmadi. Jumladan Rim katolik cherkovi ham. Reformatsiyaga qarshi tadbirlardan biri 1540-yili papa tomonidan «Iso jamiyati» - yaʼni iyezuitlar ordenining tuzilishi boʻldi. Ordenni papa va katolik cherkovining sodiq muxlisi, ispan dvoryani Ignatiy Loyola tashkilotchisi edi. Orden qoidasi: «Agar cherkov bizga oq boʻlib koʻringan narsani qora desa biz ham uni qora deymiz». Iyezuitlarning vazifasi «yoʻldan adashgan ommani dinga qaytarish» -degan edi papa Pavel III. Orden vakillari reformatsiyaga qarshi kurashda cherkovni qoʻllab – quvvatlash uchun butun Yevropa boʻylab tarqalishdi. Ular cherkovni isloh qilish, uni zamonaviy shakllantirilayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashtirishga harakat qilayotgan har qanday insonni, jamoani har qanday yoʻl bilan boʻlmasin yoʻq qilishga harakat qilishgan. Iyezuitchilar nafaqat Yevropaga balki buyuk geografik kashfiyotlardan keyin koloniyaga aylantirilgan mintaqalarga – Lotin Amerikasi, Afrika, qator Osiyo davlatlariga ham joʻnatildi.

Yangi davr terrorizmi. Yangi tarix fanidagi qator kashfiyotlar, sanoatdagi to'ntarilishlar bilan boshlandi. O'q-otlar qurollar, dinamit, bomba, minalarning yaratilishi, telegraf va axborot vositalarining keng qo'llanila boshlashi yangi tipdagi terrorizmning yuzaga kelishiga ko'maklashdi. Terroristik hatti-harakatlarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishi esa uning o'ziga xos targ'ibotini, ta'sirchanligini kuchaytirdi. Ijtimoiy ongga ta'sir qilishning o'ziga xos samarali usullari yanada oshdi. Jamiyat hayotining, turli xalqlarning, mamlakatlarning o'rtasidagi aloqalarning, o'zaro bog'liqlikning yanada kuchayishi sabab terrordan endi ikkinchi bir maqsadni amalga oshirishda bahona sifatida ham foydalanish boshlandi. Masalan, 1914-yilning 28-iyunida Avstro – Vengriya imperatorining vorisi Frans Ferdinandning terror yo'li bilan o'ldirilishi I- jahon urushining boshlanishiga olib keldi va sh.k.

Eng yangi davr terrorizm. Bu davrda terroristik harakat faqat siyosiy yoki harbiy maqsadlarda emas, balki iqtisod, moliya, kibernetika singari jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab ola boshladi. Bu masala keyingi paragraflarda keng yoritilishi sabab hozircha ushbu fikrga yakun yasaymiz.

4. Terrorizm va ekstremizmning asosiy xususiyatlari. Terrorizmning asosiy xususiyatlari haqida gap borganida quyidagilarni ta'kidlash o'rinli bo'lardi:

1. Terroristik hatti-harakatlar natijasida faqat muayyan shaxs yoki guruhning ijtimoiy, siyosiy manfaatlarini qondiriladi.
2. Terroristik hatti-harakatlardan ko'zlangan maqsadlarni amalga oshirishda zo'rlash, kuch ishlatish, qo'rqitish singari vositalar tashkil etadi.
3. Qo'rqitish, zo'ravonlik, kuch ishlatish odatda jamiyatda azaldan amal qilib kelgan jamiyatning ma'naviy – axloqiy qadriyatlarining yemirilishiga olib keladi.
4. Odatda terrorchilik hatti-harakatlarining maqsadi bo'lib qo'shaloq obyektlar xizmat qiladi: bevosita va bilvosita, yoki bahona sifatida nishonga olingan obyekt va maqsad sifatida nishonga olingan obyekt. Odatda terrorchilar o'zlarining tugal maqsadlarini amalga oshirishda vosita

tariqasida garovga moddiy obyektlarni, maktab, bog‘cha, aviakemalarni, odamlarni olib o‘z shartlarini bayon eta boshlashadi. Aslida bu obyektlarni terrorchilarning asl maqsadlariga dahli yo‘q bo‘lib chiqadi. Ular orzu qilgan haqiqiy obyekt esa mavjud ijtimoiy – siyosiy tizim, hokimiyat, mamlakatning hududiy yaxlitligi bo‘lib chiqadi va shu kabilar.

5. Jamiyatda sodir etilayotgan terroristik hatti – harakatlar davlatchilik asoslarining yemirilishiga, aholining islohotchiga davlatga ishonchini yo‘qqa chiqishiga olib keladi.

6. Davlatchilik institutlari, jamoat va siyosiy tashkilotlar faoliyatiga putur yetib o‘z navbatida jamiyatda konstitusiyaviy tizimga zid bo‘lgan tuzilmalarning tashkil etilishiga olib keladi.

7. Unutmaslik kerakki, muayyan hududda mustahkamlanib olgan terrorchilar shu bilan qanoat hosil qilishmasdan xalqaro maydonga chiqib butun insoniyatga xavf sola boshlashadi. Uzoq tarixdan tortib bugungi voqelikkacha bo‘lgan davrni tahlil qilganimizda shuning guvohi bo‘lamizki, terroristik hatti – harakatlar quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshirib kelingan:

1. Davlat va nodavlat tashkilotlarida portlashlarni amalga oshirish yo‘li bilan;

2. Individual terror yoki mansabdor shaxslarni, jamoat arboblarni yo‘q qilish orqali;


3. Garovga olish yo‘li bilan;

4. Kema, samolyot singari qator transport vositalarini odamlari bilan garovga olish orqali;

5. Bank muassaslarini, elchixonalarni garovga olish yo‘li bilan;

6. Biologik terror;

7. Zaharlovchi, radioaktiv izotoplarni garovga olish yo‘li bilan.



Tayanch soʻz va iboralar

Fanatizm, fundamentalizm, aqidaparastlik, vijdon erkinligi, eʼtiqod erkinligi, diniy qadriyatlar, diniy bagʻrikenglik, maʼrifat, qadimgi dunyo terrorizmi, inkvizitsiya, dahriylar.

Takrorlash uchun savollar

1. Terrorizm tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
2. Ekstremizm harakatlarini yuzaga kelish sabablari nimada?
3. Terrorizm va ekstremizm tushunchalarining mohiyatida qanday farqli tomonlar mavjud?
4. Terrorchilik harakatlarining vujudga kelishni tarixiy bosqichlarini tahlil qiling?
5. Oʻrta asrlar terrorizmining asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
6. Terrorizm va ekstremizmning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

Mavzu: O‘ZBEKISTONDA DAVLAT VA DINIY TASHKILOTLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARNING HUQUQIY ASOSLARI

Reja:

- 1. Rivojlangan davlatlarda din bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar.**
- 2. Vijdon va e‘tiqod erkinligi. Vijdon va e‘tiqod erkinligining huquqiy asoslari.**
- 3. O‘zbekistonda dunyoviy davlatning diniy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatining asosiy tamoyillari.**
- 4. Diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari.**

1. Rivojlangan davlatlarda din bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar.

Barcha dunyoviy davlatlar kabi O‘zbekistonda ham davlat, din, diniy tashkilotlar, diniy konfessiyalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar dunyoviy huquqiy normalar bilan tartibga solingan. Mamlakatimizda yashayotgan turli milliy, diniy jamoalar o‘rtasidagi milliy totuvlik, diniy bag‘rikenglik, ijtimoiy hamkorlik muhitini asrash va yanada yuksaltirishga keng e‘tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 31-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qanday dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”, deyiladi.

Dunyoviy davlat deganda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda turli diniy normalar va qadriyatlarga asoslanilmaydigan, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida hukm surayotgan ijtimoiy munosabatlar, huquqiy munosabatlar dunyoviy qonunlar-normalar asosida yo‘lga qo‘yilgan davlat nazarda tutiladi.

Ilk davlatchilik birlashmalari vujudga kelgan paytlardanoq hokimiyat tepasida turuvchi hukmdorni ilohiylashtirishga harakat boshlangan. Misr fir‘avnlari xudo darajasiga ko‘tarish boshlandi, Rim imperatori Diokletianni “Yupiter o‘g‘li” deb bilishgan. Vaqt o‘tishi bilan ishlab chiqarish, savdoning o‘sishi bilan migratsiya jarayonlari avj ola boshladi.

Turli diniy jamoalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish masalasi paydo bo'ldi.

Diniy tashkilotlar faoliyatini davlat hokimiyatidan ajratish masalasi dastlab Avreliy Avgustin asarlaridan o'z ifodasini topgan. Avreliy Avgustin diniy tashkilotlarni davlat tashkilotlari faoliyatidan ajratsada uning fikricha ular ijtimoiy hayotda bir-birlariga yordam ko'rsatishlarini ta'kidlab o'tadi. Fransiyada katoliklar va protestantlar o'rtasida qarama-qarshiliklar avjiga chiqqan bir paytda mutafakkir Jon Boden ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda dunyoviy davlat rolini e'tirof etadi. Dunyoviy davlat g'oyalarining yuksalishida ma'rifatparvarlik harakati namoyondalari katta hissa qo'shishdi. Sharl Monteskyo, jan-Jak Russo, Fransua Volter va boshqalar davlat hokimiyatidan cherkovni ajratish, har bir fuqaro uchun e'tiqod erkinligi g'oyalarini ilgari surishdi. Bu paytda AQSh da dunyoviy davlatning yaxlit konsepsiyasi yaratildi. Uning asoschisi Tomas Jefferson edi. U o'z ta'limotida hukmron davlat dini institutiga qarshi chiqib, barcha dinlarning tengligini, barcha fuqarolar uchun so'z erkinligini, e'tiqod erkinligini ta'kidlaydi.

Diniy davlatlarda esa aksincha ijtimoiy hayotdagi barcha munosabatlar hukmron dinning muqaddas kitobidagi normalar asosida yo'lga qo'yiladi. Amaldagi qonuniy normalar hukmron diniy normalarga zid kelmasligi belgilab qo'yiladi.

Dunyoviy davlatlarda ilm-fan, texnika, texnologiyalar sohasida erishilayotgan yutuqlar ijtimoiy taraqqiyotni belgilayotgan bir paytda, davlat bilan din o'rtasidagi yoki uning bir oqimi o'rtasidagi kelishmovchilik kimga xizmat qilishi hammaga tushunarli bo'lishi kerak. Hozirgi davrda dunyo xaritasiga nazar tashlasak, rivojlangan, iqtisodi baquvvat, harbiy jihatdan qudratli, ilmiy-texnika taraqqiyotida oldingi o'rinlarda turgan davlatlar asosan dunyoviy davlatlardir. Lekin bu davlatlardagi fuqarolar dinga, Xudoga ishonmaydi, degan so'z emas, aksincha, ularda ham diniy erkinliklar yo'lga qo'yilgan, hatto davlat siyosatida asosiy rol o'ynaydigan ko'pgina mo'tabar arboblardan ham diniy qadriyatlarga amal qilib, ibodatni kanda qilmaydilar. Ularda din o'z yo'lida barqaror rivojlanmoqda. Din bilan davlat o'rtasida mustahkam ittifoq tuzilgan bo'lib, din davlat taraqqiyotiga, osoyishtalikka, fuqarolarni

Vatanga fidoyilik, Allohga ishonch, imonli – e'tiqodli, rostgo'y, pokiza, o'z mehnati evaziga kun ko'radigan, xaromdan hazar qiladigan, kishining haqidan qo'rqadigan, adolatli, o'z huquqini taniydigan, boshqalarni hurmat qiladigan, mamlakatda mavjud qonunlar asosida ish yuritadigan ruhda tarbiyalashga ko'maklashadi. Din davlatdan ajratilgan bo'lsada, aslo jamiyatdan ajratilgan emas.

O'zbekiston dunyoviy davlat qurish yo'lidan bormoqda. Xo'sh, dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabati nima bilan belgilanadi? Unda diniy e'tiqodga qanday o'rinlar ajratilgan? Qolaversa, din va umume'tirof etilgan tamoyillarga asoslangan demokratiya tushunchasi o'rtasidagi aloqalar qanday bo'lishi kerak? Ushbu murakkab savollarga javob izlar ekanmiz, xalqaro hamjamiyatning mutloq ko'pchiligini tashkil qilgan dunyoviy davlatlar tajribasi, ular taraqqiyotining tamal toshi bo'lib xizmat qilayotgan g'oya aslo xudosizlikka asoslanmagani, yaqin o'tmishimizdagiga o'xshash dahriy jamiyatni e'tirof etmaganiga amin bo'lamiz. Dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatdagi dinga bo'lgan munosabat demokratiya mezonlariga asoslanganligini chuqur idrok etamiz. Ular dinni hayotdagi ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-ruhiy muhit rang-barangligini ta'minlovchi xilma-xil tarixiy qadriyatlar silsilasidagi teng huquqli bo'g'in sifatida qabul qilinganligiga ishonch hosil qilamiz. Demokratik dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlarda din rang-barang ma'naviy-madaniy va tarixiy qadriyatlar tizimidagi teng huquqli bo'g'in, u boshqa bo'g'inlardan zaifroq ham yoki kuchliroq ham emas. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, har bir mamlakatdagi barqarorlik, amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning, ustuvor vazifalarning yechimi unda yashayotgan turli milliy, diniy jamoa vakillarining ushbu vazifalar yechimi atrofida qay darajada jipslashganiga bog'liq. Shunday ekan turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi munosabatlar, ularning huquqiy yechimi bilan bog'liq masalalar har doim muhim ahamiyat kasb etib qolaveradi.

2. Vijdon va e'tiqod erkinligi. Vijdon va e'tiqod erkinligining huquqiy asoslari.

Sobiq ittifoqning boshqaruvim totalitar rejim asosiga qurilgan bo‘lsada bir tomondan xalqaro maydonda musulmon dunyosi mamlakatlari bilan o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan o‘zini demokratiya elchisi, inson huquqlari, erkinliklari himoyachisi deb bilgan bu davlat vijdon erkinligi, e’tiqod erkinligi masalalariga nomiga bo‘lsada “e’tibor” berishga majbur edi. Sobiq ittifoqda vijdon erkinligini tartibga soluvchi dastlabki normativ huquqiy normalar 1929-yilda qabul qilingan “Diniy birlashmalar to‘g‘rsida” gi qarorda, shuningdek sobiq ittifoq Konstitutsiyasining 52-moddasida o‘z aksini topgan edi.

Lekin hujjatlarda fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlanishi, har qanday dinga e’tiqod qilish, diniy marosimlarni o‘tkazish borasida cheklanmagan huquqlari qog‘ozdagi gap bo‘lib, ular amaliyotda o‘z ifodasini topmadi. Dinimizga tegishli muqaddas qadamjolar, yopib qo‘yildi, diniy qadriyatlar taqiqqa uchradi, dinimizning yetuk bilimdonlari quvg‘inga uchradi. Konstitutsiyaga ko‘ra, dinning davlatdan ajratilganini bahona qilib, diniy qadamjolarga, masjidlarga, diniy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik ta’minotiga mutlaqo e’tibor qaratilmas, diniy ta’limga bepisand munosabatda bo‘linardi.

Haj safariga har yili sobiq ittifoq bo‘yicha 10–15 nafar, O‘zbekistondan esa 3–4 nafar fuqaro bu ziyoratga borishga muvaffaq bo‘lardi. Mustaqillik sharofati bilan O‘zbekistonda dinlar, diniy qadriyatlarga va dindorlarga munosabat tubdan o‘zgardi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi dinlar va dindorlar haq-huquqlarini ta’minlashda tarixiy ahamiyat kasb etdi.

1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bu boradagi davlat siyosatining, o‘zaro munosabatlarning ustuvor yo‘nalishini belgilab berdi. Qonunni qabul qilishdan ko‘zlangan maqsad har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e’tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat’i nazar, fuqarolarning tengligini ta’minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” qonuni. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-son, 99-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 52-son, 513-modda)

Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanib borishi har qanday qonunga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, 1998-yil 1-may kuni O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Bosh Qomusimizda belgilangan bu huquqiy me'yor erkin hayotning, fuqarolar e'tiqodiy istak-xohishlarining mustahkam kafolati sifatida xizmat qilmoqda. O'tgan yillar davomida yurtimizdagi diniy tashkilotlar soni tobora ortib bordi. Agar mustaqillikkacha faqat 211 ta diniy tashkilot bo'lgan bo'lsa, hozir respublikamizda turli dinlar, konfessiyalarga qarashli ikki yarim mingga yaqin tashkilot faoliyat olib bormoqda.

Hozir vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi o'nga yaqin qonun hujjatlari mavjud. Bu esa mamlakatimizda vijdon erkinligini ta'minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikning muhim huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Vijdon erkinligi ijtimoiy-falsafiy tushuncha, har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan Vijdon erkinligiga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan Vijdon erkinligi insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda vijdon erkinligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi (2021- yil 26-iyunda yangi tahriri tasdiqlangan) qonunda, nazarda tutilgan. Konstitutsiyaga ko'ra, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. E'tiqod, lug'aviy mazmuniga ko'ra, qat'iy ishonch demak. E'tiqod faqat diniy mazmunga emas, dunyoviy, ya'ni nodiniy mazmunga ham ega. Diniy mazmunda u asosan iymonni, iymon talablariga, din farzlari va ahkomlariga og'ishmay amal qilishni anglatadi. Vijdon erkinligi va e'tiqod erkinligi masalalariga doir qonunchilikda esa fuqarolarning xohlagan diniy e'tiqodga ishonishini ta'min etuvchi huquqiy normadir. Dunyoviy mazmunda esa muayyan axloqiy, siyosiy, huquqiy, falsafiy, ilmiy

g'oyalarga, me'yorlarga qat'iy ishonchni, ularga sodiqlikni, butun kuch-g'ayrati, aql-zakovati, irodasini halol yashashga safarbar eta olish, qiyinchiliklardan cho'chimaslik, yutuqlardan esankiramaslikni bildiradi.

Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»¹. Asosiy Qonunimizga asosan diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Ayni vaqtda yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga ko'ra "Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir"². Qonunda ta'kidlanishicha fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda u u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga asosan diniy tashkilotning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarni o'tkazishga to'sqinlik qilish eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanashi beligalab qo'yilgan³.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi. Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, xuddi shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitish eng kam ish haqining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: "O'zbekiston", 2018.-13-b

² O'zbekiston Respublikasi qonuni «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021 й., 03/21/699/0635-сон).

³ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. (145-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda)

Fuqarolarning o‘z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishlariga yoki fuqarolik burchlarini bajarishlariga to‘sqinlik qilish bilan, dindorlardan majburiy yig‘im undirish va soliq olish bilan yoxud shaxsning sha’ni va obro‘cini kamsituvchi chora-tadbirlar qo‘llash bilan yoki diniy ta’lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o‘z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog‘liq diniy faoliyat yuritish, shuningdek diniy marosimlar o‘tkazishni tashkil etish shaxs badaniga yengil yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, eng kam ish haqining yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi¹.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi Qonunning 3-moddasida ko‘rsatilishicha dinga e’tiqod qilish yoki o‘zga e’tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e’tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston — dunyoviy davlat, unda 16 diniy konfessiyaga oid 130 dan ortiq turli millatlar va elatlar yashaydi. Konstitutsiyamizning 31, 12-moddalarida vijdon erkinligi hamda fikrlar xilma-xilligi, hech bir mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilmasligi kafolatlangan.

Konstitutsiyaviy me‘yorlarni yuzaga chiqarish maqsadida tegishli qonunlar qabul qilingan, ular muntazam takomillashtirib, boyitib, kengaytirib berilmoqda.

¹ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. (145-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2015- yil 10- avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015 y., 32-son, 425-modda).

Konstitutsiyamiz e'tiqod erkinligi va inson huquqlarini yuzaga chiqaruvchi qonunlar majmuasi umummilliy jipslikni ta'minlashga, O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlarga o'z milliy-madaniy, diniy, insoniy ehtiyojlarini hech qanday to'siqlarsiz qondirish uchun zarur huquqiy ba'za bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonni barqaror rivojlantirish, ravnaq toptirish va turmush farovonligini yuksaltirishda, milliy g'oyada belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida barcha fuqarolarni birlashtiradi hamda ehtimoldagi ba'zi diniy va milliy ziddiyatlarning oldini oladi.

3. O'zbekistonda dunyoviy davlatning diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatining asosiy tamoyillari. Dinning jamiyatimizdagi o'rni, eng avvalo, uning konstitutsion maqomi bilan belgilanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, barcha fuqarolarning vijdon erkinligi, e'tiqod erkinliklari kafolatlangan. Har bir insonga xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi berilgan. Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida bu masalaga xususida to'xtalar ekan shunday ta'kidlaydi: «Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ularning o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi»¹. Diniy qarashlarni majburan singdirish qat'iy man etilgan. Diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilgani hamda ularning qonun oldida tengligi belgilab qo'yilgan.

Dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatini belgilab beradigan ikkita muhim jihat bor:

- birinchisi, dindorlarning huquqiy maqomi;
- ikkinchisi, davlat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda diniy konfessiyalar haqidagi qonunlarning hayotga tatbiq etilishi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017.-108-b.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida bu masalalar o‘z yechimini topgan va u dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy-meyoriy talablarga to‘la javob beradi. Eng asosiysi ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlaridan kelib bu huquqiy normalar doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Yuqorida qayd etib o‘tilganidek har qanday dinga e’tiqod qiluvchi yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo‘yilishini ta’minlovchi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 31-moddasida shunday deyiladi: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarning majburiy singdirishiga yo‘l qo‘yilmaydi”. Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o‘z ifodasini topgan.

Birinchidan, Davlat vijdon erkinligini kafolatlash orqali dinga qarshi siyosat olib bormaslikni e’tirof etadi.

Ikkinchidan, e’tiqod qilish yoki qilmaslik inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida tan olinadi.

Uchinchidan, yuqoridagi ikki asosiy tamoyildan kelib chiqqan holda va jamiyatda e’tiqodiy muvozanatni ta’minlash maqsadida, davlat diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy xususiyati – bu diniy tashkilotlarning ichki ishiga, siyosatiga aralashmasligi e’tirof etiladi. Har qanday din birinchi o‘rinda ma’naviy-axloqiy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Vijdon erkinligi to‘g‘risidagi qonundan kelib chiquvchi tamoyillarga qat’iy rioya qilinayotganini quyidagilarda ham ko‘rish mumkin.

Mustaqillik yillarida diniy tashkilotlarning soni o‘sdi. Sobiq sovet davrida 1990-yilda respublikada 119 ta diniy tashkilot mavjud bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda ularning soni 2200 dan oshdi. Diniy o‘quv yurtlarining ishi rivojlantirildi. Mustaqillikkacha bor-yo‘g‘i 2 ta diniy o‘quv yurti ishlagan bo‘lsa, o‘tgan yillar davomida ularning soni 10 dan ortiqni tashkil etadi. Ilk marotaba diniy o‘quv yurti talabalariga stipendiya berish ta’sis etildi.

Toshkent Islom institutini 1975-1990-yillar orasida 153 kishi, Mir-Arab madrasasini 1950-1990-yillar orasida 272 yishi, umuman olganda

sobiq sovet davrida diniy bilim yurtlarini jami 425 kishi bitirgan bo'lsa, mustaqillik yillarida bu sohada katta natijalarga erishildi. Imomlarning diniy ma'lumoti darajasi sezilarli oshirilishiga erishildi. Islom dinining tinch-osoyishta hayotga, boshqa xalqlarga hurmat, mehr-oqibat ko'rsatib yashashga da'vat etadigan asl insonparvarlik mohiyatini har tomonlama o'rganish va targ'ib qilishga O'zbekistonda katta ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimizda Toshkent islom universiteti, Toshkent islom instituti, Buxoro shahrida Mir Arab islom instituti, 9 ta madrasa faoliyat ko'rsatmoqda, poytaxtimizda Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqandda esa Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilmoqda¹.

«Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident farmoniga binoan Toshkent Islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. Farmonga muvofiq, Toshkent islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi: - Qur'on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar (arab, fors, ingliz, rus, urdu, turk va b.) va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga, o'rta maxsus, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish bosqichlarida uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini tashkil etishga va ilmiy merosni chuqur tadqiq qilish va asrab-avaylashga, diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan yetakchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi; respublikadagi barcha islom ta'lim muassasalari faoliyatini o'quv-me'yoriy va o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

Xalqaro islom akademiyasi bitiruvchilariga umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida sohaga tegishli fanlar bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi berildi.

Qonunga asosan fuqarolarga haj ibodatini ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. 1994-yildan hojilar uchun imtiyozli valyuta

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2018.-456-457-b.

konvertatsiyasi tashkil etildi. Ushbu maqsadda o'tgan yillarda 47 mln.dan ortiq AQSh dollari ajratildi. 1991-yilda hajga boruvchilar soni 1500 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilga kelib 6000 dan oshdi.

Davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalovchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishga harakat qiladi.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat asosida dinning davlatdan ajratilishi tamoyili ham yotadi. Bu haqda Konstitusiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi". Mazkur moddaga uchta muhim ahamiyatga ega qoida mustahkam qo'yilgan.

Birinchidan, diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'iy nazar bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradilar. Bugungi kunda Respublikamizda 16 ta diniy konfessiyaga mansub qator tashkilotlar emin-erkin faoliyat olib borayotgani buning amaliy ifodasidir.

Ikkinchidan, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish, ularning ichki ishi hisobidan va davlat nazoratidan holidir.

Uchinchidan, diniy tashkilotlar, davlatdan ajratilgan. Ammo bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmaydi. Zero, biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeiga ega bo'ladi.

Shu bilan bir vaqtda, masalaning ikkinchi tomoniga ham katta ahamiyat berilgan. Ya'ni yuqoridagi mezonlar Konstitusiyaning 57-moddasida qo'yidagicha aniqlashtiradi: "Konstitusiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligi, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarning tuzilishi va faoliyati ta'qiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish ta'qiqlanadi".

Mamlakatimiz dunyoviy davlatning din bilan munosabatlarini aniqlashtiruvchi asosiy tamoyillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- dinning davlatdan ajratilganligi;

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish; diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;

- diniy qadriyatlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, unga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;

- ma'naviy tiklanish umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo'llarini izlash zaruriyati;

- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish" kiritilgan.

Dunyoviy jamiyat qurishni ko'zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi zikr etilgan konstitusion mezonlar va bildirilgan fikrlardan quyidagi ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi:

Birinchi, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy va adolatli dunyoviy jamiyat qurish konsepsiyasida din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida so'zsiz tan olinadi. Mustaqil rivojlanish yillarida ushbu mezonning hayotga nechog'lik izchil tatbiq etilayotganini faqat qalbi ko'r, adolatga xusumat bilan munosabatda bo'lgan kimsalargina inkor etishi mumkin;

Ikkinchi, sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqarida bo'lgan har qanday g'arazga erishish yo'lida diniy omildan foydalanishga intilish qat'iy man etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev haqli ravishda, dinning O'zbekiston fuqarosini tarbiyalashdagi katta imkoniyatlariga ishonadi va "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning mujassam manbai sifatida behad qadrlaymiz. Biz buyuk dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorda qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezeulik va tinchlikka,

hayotda asl insoniy fazilatlarni qaror toptirishga da'vat etadi"¹, deb ta'kidlaydi.

Erkinlik – demokratiya degani faqat huquqlardan iborat emas, balki ular bilan barobar zimmamizga yuklangan majburiyatlar ham ekanini qon-qonimizga singdirmagunimizcha demokratik huquqiy jamiyat qurish bilan bog'liq ezgu niyatlarimiz shirin orzulgicha qolaveradi.

4. Diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari. Mamlakatimizda ta'lim tizimi dindan ajratilgan. Umumta'lim maktablarining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lim olish huquqi ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar ta'min etilishi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi Qonunning 7-moddasida ko'rsatib o'tilgan.

"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi Qonunda diniy tashkilotlar maqomiga alohida e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi.

Diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi.

Tegishli konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borish uchun ularning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yagona markaziy boshqaruv organlari tuzilishi mumkin. Markaziy boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasining qator hududiy tuzilmalarida faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlari vakillari ta'sis yig'ilishi tomonidan tuziladi.

Diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida, shuningdek uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

¹ Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018.-457 b.

Tegishli diniy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari bo'lishlari mumkin. Diniy tashkilotlar rahbarligiga O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan shaxslarning nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishgan holda tayinlanishi mumkin.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy tashkilotlar faoliyatini qo'yish uchun zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzish huquqiga ega. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli ruxsatnomaga ega bo'lgach faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi. Ma'lumki, Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish istagida bo'lgan fuqarolar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq umumiy majburiy o'rta ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi. Diniy o'quv yurtlarida diniy fanlarni o'qitayotgan shaxslar diniy ta'lim olgan bo'lishlari va o'z faoliyatlarini tegishli markaziy boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshirishlari lozim. Xususiyl tartibda, boshqacha aytganda repetitorlik asosida diniy ta'lim berish man etiladi.

Tashkil etilayotgan diniy tashkilotning ustavida quyidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan bo'lishi kerak: diniy tashkilotning nomi, turi, joylashgan manzili, qaysi dinga mansubligi; tashkilotning maqsadi, vazifalari va faoliyatining asosiy turlari; tashkilot faoliyatini tashkil etish va tugatish tartibi; uning tuzilishi va boshqaruv organlari; mablag'lari manbai hamda ushbu tashkilot ichidagi, shuningdek undan tashqaridagi mulkiy munosabatlar; tashkilot ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish tartibi; shuningdek ushbu diniy tashkilotga taalluqli boshqa ma'lumotlar.

Markaziy boshqaruv organlariga ega bo'lgan diniy tashkilotlarning ustavlari tegishli boshqaruv organlari bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlarini ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, boshqa diniy tashkilotlarni esa tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarni ro‘yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi: tegishli ariza. Uni diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari bo‘lgan, yuz nafardan kam bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi imzolagan bo‘lishi lozim; diniy tashkilotning ustavi; diniy tashkilot tashkilot ta‘sis yig‘ilishining bayoni; tuzilayotgan diniy tashkilot joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat; davlat boji to‘langani to‘g‘risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organini ro‘yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

ta‘sis yig‘ilishi (konferensiyasi)ning raisi va kotibi imzo qo‘ygan ariza;

diniy tashkilotlar markaziy boshqaruv organining ustavi;

ta‘sis yig‘ilishi (konferensiyasi)ning bayoni;

ta‘sischilar vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar;

rahbar organ joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;

davlat boji to‘langani to‘g‘risidagi hujjat¹.

Mahalliy diniy tashkilotni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi elektron murojaatga quyidagi hujjatlarning elektron ko‘chirma nusxalari ilova qilinadi:

mahalliy diniy tashkilotni o‘z tashabbusiga ko‘ra tuzayotgan, o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, ellik nafardan kam bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari imzolarini o‘z ichiga olgan hujjat;

ta‘sis yig‘ilishining mahalliy diniy tashkilotni tashkil etish, uning ustavini tasdiqlash va rahbar organlarini saylash to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan qarori;

mahalliy diniy tashkilotning davlat tilidagi ustavi;

mahalliy diniy tashkilotni tashkil etish tashabbuskorlari to‘g‘risidagi va uning rahbar organi a‘zolari haqidagi hujjatlar;

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” qonuni. ((Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021 й., 03/21/699/0635-сон)

mahalliy diniy tashkilotning rahbarida diniy professional ma'lumot mavjudligi to'g'risidagi hujjatning, bundan ta'limoti diniy professional ta'lim tizimini nazarda tutmaydigan konfessiyalar mustasno.

Diniy tashkilotlar hamda ularning markaziy boshqaruv organlarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran bir oylik muddatda ko'rib chiqiladi.

Agar diniy tashkilot ustavining qoidalari va boshqa hujjatlari ushbu Qonun yoki O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining talablariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi uni ro'yxatga olishni rad etishi mumkin.

Diniy tashkilot faoliyatini tugatish qoidasi mazkur Qonunning 27-moddasida keltirilgan. Unga asosan diniy tashkilotning faoliyati u o'zini o'zi tarqatib yuborganda yoki ushbu Qonunning, shuningdek O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining qoidalari buzilgan taqdirda tugatilishi mumkin. Diniy tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risidagi qaror uni ro'yxatga olgan organ tomonidan qabul qilinadi.

Diniy tashkilotlar o'z a'zolari o'rtasida turli ma'naviy-ma'rifiy, diniy tadbirlarni olib borishadi. Shu sabab diniy tashkilot ibodat qilish yoki diniy rasm-rusumlar o'tkazish uchun qulay joylar tashkil etish va ularni saqlab turish, ziyoratgohlarni saqlab turish huquqiga egadir.

Ibodot, diniy rasm-rusumlar va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan manzildagi ibodatxonalarda va ularga tegishli hududlarda, ziyoratgohlarda, qabristonlarda, zarur hollarda fuqarolarning ixtiyoriga binoan ularning uylarida o'tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, keksalar va nogironlar uylarida, dastlabki qamoq va jazoni o'tash joylarida ibodatlar va diniy rasm-rusumlar shu yerdagi fuqarolarning iltimoslariga binoan o'tkaziladi.

Diniy tashkilotlar dindorlar majburiy pul yig'implari va to'lovlar undirishga, shuningdek ularga nisbatan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi choralarni qo'llashga haqli emas.

Diniy tashkilotlar o'z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnoma asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan foydalanishga haqlidir.

Tayanch so‘z va iboralar

Vijdon erkinligi, e‘tiqod erkinligi, diniy qadriyatlar, diniy bag‘rikenglik, ma‘rifat, fundamentalizm, aqidaparastlik, qadimgi dunyo terrorizmi, inkvizatsiya, dahriylar.

Takrorlash uchun savollar.

1. Vijdon va e‘tiqod erkinligining huquqiy asoslari nimalardan iborat?
2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?
3. Dunyoviy davlatning din bilan munosabatlarini belgilovchi asosiy tamoyillarni sanang.
4. O‘zbekistonda diniy ta‘limni isloh qilishda qanday natijalarga erishildi?

Mavzu: VAHHOBIYLIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

1. Vahhobiylik harakati, uning qujudga kelishida ichki va tashqi omillar.
2. Vahhobiylikning O‘zbekistonda tarqatilishida ichki va tashqi omillar.
3. 80-yillar oxiri va 90 –yillar boshlarida O‘zbekistonda tashkil etilgan vahhobiylik tashkilotlari va ularning qilmishlari
4. Vahhobiylikning Respublikamizdagi faoliyatining asl maqsadi va vazifalari.

1. Vahhobiylik harakati, uning qujudga kelishida ichki va tashqi omillar.

Vahhobiylik islom dinining hanbaliy mazhabidagi diniy-siyosiy oqim bo‘lib, XVIII asrning o‘rtalarida Markaziy Arabistonning Najd vohasida islom dinining sunniylik yo‘nalishidagi hanbaliya mazhabi ta‘limoti asosida yuzaga kelgan. Asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob

1703-yilda tugʻilgan. Ustozi Abdulloh ibn Sayfo yosh Abdulvahhobni hanbaliy mazhabi yoʻnalishida vaxdoniyat (yakkaxudolik) aqidasi boʻyicha tarbiyalagan. Uning dunyoqarashida mashxur vaxdoniyatchi Ahmad ibn Taymiya asarlari katta rol oʻynagan. Natijada u Islom olamida vaxdoniyatni kuchli himoyachisi, tashviqotchisi sifatida maydonga chiqdi.

Ibn Abdulvahhobning ekstremistik faoliyati XVIII asrning oʻrtalaridan avj olgan. Vahhobiylik taʼlimotining asosini “sof tavhid” gʻoyasi, faqat Allohning yagonaligini tan olish hisoblanadi. Ular paygʻambarlar, avliyolarning shavoatlaridan umidvor boʻlish, muqaddas qadamjolarga ziyorat etishni rad qilishadi. Marhumlar ruhiga tilovatlar oʻqish, xayri ehson qilish, surat tushish, tasbehdan foydalanish, qoʻshiq, musiqa, teatr, kino, tasviriy sanʼat, umuman olganda maʼnaviy madaniyat taraqqiyotiga qarshi boʻlishgan¹. Vahhobiylik oqimining yuzaga kelib, chuqur ildiz otib mashxur boʻlib ketishida ingliz razvedkasi katta rol oʻynagan. Sababi Islom xalifaligi 1517-yildan qudratli Turk sultonligi qoʻliga oʻtib ketgan edi. Inglizlar oʻzlarining yaqin sharqdagi siyosiy raqiblari boʻlmish Turk imperiyasini zaiflashtirish, payini qirqish uchun vahhobiylik harakatini har tomonlama qoʻllab turgan va undan foydalangan.

Amir Muhammad ibn Saud Markaziy Arabiston yarim orolidagi mayda sulolalar boshqargan amirliklarni birlashtirishda vahhobiylik taʼlimotidan foydalandi. Muhammad ibn Saud va uning oʻgʻli Abdulaziz vahhobiylar bayrogʻi ostida yarim orolning katta qismini kuch bilan egallab, birinchi saudiylar davlatini barpo qildilar.

Vahhobiylarning Sharqiy Arabistonni istilo qilish chogʻida 1792-yili Abdulvahhob vafot etdi. Vahhobiylar Arabistonni birlashtirish, vaxdoniyatni targʻib etish bahonasida bosqinchilik, talon-taroj, vayrongarchilik harkatlarini olib bordilar. Vahhobiylarning arablarni Islomning yashil bayrogʻi ostida birlashtirish gʻoyasi oʻsha vaqtlarda arab yerlarida hukumronlik qilayotgan Turkiyaga qarshi qaratilgan edi.

Oʻsha davrda inglizlarning Yaqin Sharqda oʻz taʼsir doirasini kuchaytirishiga Turkiya toʻsqinlik qilardi. Shuning uchun inglizlar vahhobiylarni qoʻllab-quvvatlash orqali Turkiyani zaiflashtirish siyosatini

¹ Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. –T.: “Sharq”, 2013. 200-b

yurgizdi. Shu bois Turkiya hukumati vahhobiylarga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yubordi. 1811-yili Misr podshosi Muhammad Alining qo‘shinlari vahhobiylarga qarshi jangga kirishdi va 1818-yilga kelib vahhobiylar hukumatini tor-mor etdi. Lekin uni butunlay yo‘qotib tashlay olmadi.

Vahhobiylik hozirga qadar Saudiya Aroabistonida hukumron g‘oya sanaladi. Bu diniy-siyosiy oqimning izdoshlari Osiyo va Afrika mamlakatlarida mavjud. Keyingi davrda bu oqimga ergashuvchilar Pokiston, Afg‘oniston va Tojikistonda ham paydo bo‘ldi. Shu davlatlar orqali vahhobiylik XX asrning 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida O‘zbekistonga ham kirib kelib, ayrim dunyoqarashi sayoz, shakllanib ulgurmagan yoshlarimizni o‘z domiga tortishga harakat qildi.

Vahhobiylik oqimining asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob faqatgina yakkayu yagona Allohga sig‘inishni targ‘ib qilib, musulmonlar faqat Qur‘on va sunna (hadis) ga amal qilishlari kerak, deb Islomga kiritilayotgan har qanday yangilik (ijmo‘)larga qarshi chiqqan. Islom amaliyoti payg‘ambar zamonlarida qanday bo‘lsa shunday bo‘lishi kerak, degan talabni o‘rtaga qo‘ygan. Vahhobbiylar «dinni tozalashga, Muhammad davridagi asl holiga keltirish»ga harkat qilgan.

Abdulvahhob mo‘min kishi faqat yolg‘iz Allohga sig‘inib Undan panoh tilashi, madad kutishi mumkin. Musulmonlar muqaddas joylarni ziyorat qilishi, aziz-avliyolar duolaridan shafolat, yordam tilashi, hatto payg‘ambarlarga ham sig‘inishi mumkin emas. Bu Allohga shirk keltirishdir, deydi. Vahhobiylar hatto payg‘ambarning Madinadagi maqbarasiga ziyorat uchun borish ham bid‘at deb aytadilar. Vahhobiylar erkaklarga ipak kiyimlar kiyish, oltin taqinchoqlar taqish, musiqa chalish va tinglash, qo‘shiq aytish, raqsga tushish, rasm chizish, suratga tushish, katta bayramlar o‘tkazish, tumor, ko‘zmunchoq taqish, duoxonlik, qabrlar tepasiga yodgorlik toshlari qo‘yish, sham yoqish va boshqalarni bid‘at deb, ularni taqiqlaydilar.

Ular insoniyatni kamolot cho‘qqilariga yetaklovchi tasavvufga ham qarshi turganlar. Avliyo-mashoyihlarga ixlos qilishni kufr va gunoh deb biladilar. Movlud kunlarini nishonlash, marxumlarning ruhlariga Qur‘on tilovat qilishni, aziz-avliyolar yotgan muqaddas joylarni ziyorat qilishni

rad etib, bular ham Allohga shirk keltirishdir, gunohi azimdir deb qaraydilar.

Vahhobiylik xatarli, reaksiyon diniy-siyosiy oqimdir. Ular odatda terror yoki davlat to'ntarishi yo'li bilan hokimiyat tepasiga kelishga intiladilar.

Vahhobiylik diniy-siyosiy ekstremistik oqimining tashkiliy tizimi bo'lmish «O'zbekiston islom harkati» xalqaro ekstremistik-terrorchi oqimlari «Tolibon harakati», «al-Jihod», «Harakat ul-Ansor», «al-Qoida» va boshqalar bilan til biriktirib, ularning rahnamoligida 1990-1992-yillarda tashkil etilgan. O'zbekistonda vahhobiylik tuzog'iga ilinganlar birinchi bo'lib 1989-yilda Namangan shahridagi «Otavalixon» masjidini o'zlariga qarorgoh qilib oldilar, so'ng 1989-1990-yillarda Qo'qon va Andijon shaharlarida «Jome» masjidlarni zo'rvonlik yo'li bilan egalladilar. 1995-yilda mazkur jome masjidlar faoliyati adliya boshqarmalari tomonidan to'xtatilgach, vahhobiylar respublika bo'ylab yoyilib ketdilar. O'zbekistondagi vahhobiylar uzun soqol qo'yish, namozda ikki oyoqni keng kerib qiyom turish, qo'llarini ko'krakda bog'lab turish, baland ovozda «omin» deyish bilan hanafiylik (Imom A'zam) mazhabidagilardan ajralib turadilar.

Vahhobiylar Islom niqobi ostida kishilar ongiga ta'sir ko'rsatib, ularni bu yo'lda jonini ham tikib, hatto o'zlarining ota-ona, yaqinlari hayotini ham shu yo'lda qurbon qilish ruhida tarbiyalashga harakat qiladilar. Ularning maqsadi yurtimizda amaldagi tuzumni ag'darib, Islom davlati qurishdir. Ana shu g'oyani zo'r berib vahhobiylik yo'liga kirgan kishilar ongiga singdirishga intiladilar.

Hozirgi vahhobiylar o'zgaruvchan zamon talablarini, zamona zaylini mensimaydigan, taraqqiyotning ashaddiy dushmani, o'taketgan mutaassib, fanatik, jaholatparast, o'z maslagiga ko'r-ko'rona yopishib olib, uni zo'rlik bilan insonlarga tiqishtirish uchun keskin chora-tadbirlardan tap tortmaydigan johil, ekstremist jangarilardir.

Ularning bunday harakatlari dinimiz birligiga putur yetkazadi. Faoliyatlari insonlar uchun hatarli bo'lganligi sababli ko'pgina Islom davlatlarida vahhobiylik man etilgan.

Dinimizni bunday salbiy oqim, yo‘l kabi tarmoqlarga bo‘linishi kishilarni dunyoviy hayotdan chalg‘itadi, taraqqiyotni orqaga suradi.

Eng muhim Alloh doim qalbimizda, dilimizda bo‘lmog‘i va Islom taraqqiyotiga hissa qo‘shgan buyuk piri komil vatandoshlarimizni hurmatini joyiga qo‘yishimizda.

Vahhobiylikning dastlabki shakllanish davrida hayotdagi barcha salbiy illatlarga qarshi kurash, mol-dunyo, ortiqcha xirs-havaslardan voz kechish, Islomga zid urf-odatlardan tiyilish, poklik, adolat, vaxdoniyatni mustahkamlash g‘oyalari kishilar e‘tiborini o‘ziga tortgan va ular bu oqimga ergashgan.

Ammo keyinchalik vahhobiylikdagi bunday g‘oyalar bu harkatning salbiy tomonlari soyasida qolib ketgan.

Vahhobiylik harakati XIX asr boshlarida juda kuchaydi. Abdul - Vahhob birinchi amaliy qadamini sahoba Zayd ibn al-Xattobning Jubaylidagi sag‘anasi ustiga qo‘ydi va uni yer bilan yakson qiladi.

Vahhobiylar qayerni xujum qilib bosib olsalar qabristonlardagi maqbara va yodgorliklarni buzib tashladilar. Oqibatda tarix uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab qimmatli obidalar, yodgorliklar yo‘q bo‘lib ketdi. O‘zlarining g‘oyalariga to‘g‘ri kelmaydigan ilohiyotchi olimlarning noyob asarlarini yoqib yubordilar.

Vahhobiylarning eng dahshatli qilmishlari 1802-yilning aprelida yuz berdi. Ular Shialikdagi musulmonlarning ziyoratgohi bo‘lmish Karbaloga hujum qilib, Imom Husayn masjidini vayron qildilar. Masjidning oltin g‘ishlardan ishlangan gumbazini buzib, taladilar. Ikki mingdan ortiq odamni qilichdan o‘tkazdilar. Xomiladilar ayollarni va bolalarni ham ayab o‘tirmadilar. Shaharni vayronaga aylantirdilar. 1803 yili vahhobiylar Makka shahriga bostirib kirib o‘nlab masjid va madrasalarni buzib tashlab, ularga o‘t qo‘ydilar. Ular faqat Ka‘banigina buzishga jur‘at qilolmadilar. Vahhobiylar ko‘p o‘tmay Madinani ham bosib oldilar. Ular shu darajaga borib yetishdiki, u yerdagi barcha qabr toshlarini, hatto Bibi Oysha, Bibi Fotima va sahobalar sag‘anasidagi qabr-toshlarni buzib, sindirib tashlashdi. Payg‘ambarimiz maqbarasidagi gumbazlarni buzishga chog‘langan bir paytda ular kuch bilan to‘xtatib qolindi. 1810-yilga kelib, Muhammad alayhissalomning muborak masjidini ham talon-taroj qilishdi.

O‘marilgan mulkni esa yuz ming taler (kumush tanga)ga sotib yuborishdi. Vahhobiylar dinni «asl holatiga keltirish» da’vati ostida bosqinchilik, talonchilik bilan mashg‘ul bo‘lishdi.

Xullas, bu davrga kelib vahhobiylik g‘oyasidagi aqidaparastlik (mutaassiblik) ashaddiy, chidab bo‘lmaydigan darajaga yetdi. Ahvol shu darajaga yetdiki, ular vahhobiy bo‘lmaganlarga, yo‘llaridan yurmagan mo‘min-musulmonlarga qarshi jihod e’lon qildilar.

Mustaqillikka erishgan dastlabki yillarimizda vahhobiylar O‘zbekistonda, xususan Namanganda paydo bo‘lib, hukumat idoralari va uning rahbarlariga tazyiqlar o‘tkazib, turli xunrezliklarni amalga oshirdilar. Yoshlarni yo‘ldan urib, har qanday vositani ishga solib, o‘zlari uchun qulay ijtimoiy muhit yaratishga harakat qildilar.

Vahhobiylik va «hizbut-tahrir» o‘rtasidagi farq masalasida aytadigan bo‘lsak, birinchidan, Vahhobiylar dinni Payg‘ambarimiz (s.a.v.) davridagi «asl holati»ga keltirish lozim degan niqob ostida harakat qilib, shu yo‘lda kurash olib boradilar.

Ikkinchidan, vahhobiylar davlatni xalifa boshqarishini g‘oya qilib olmaydilar. Aksincha hizbchilar har qanday demokratiyaga qarshi chiqib, xalifalikni tiklash bilan haqiqiy islomni hayotga qaytarish mumkin, deb da’vo qiladilar. Uchinchidan, aqidada ham farq qiluvchi fikrga ega. To‘rtinchidan, vahhobiylar Jihod e’lon qilish – ya’ni islom yo‘lida kurash e’lon qilib qurolli to‘qgashuvlar orqali davlat boshqaruvini qo‘lga kiritib, mamlakatni islomiy hayotga qaytarishi hisoblansa, «Hizbut-tahrir» - asosan fikriy kurashga e’tiborni qaratdilar. Avval fikr, ongda o‘zgarish yasab, so‘ng ummatni oyoqqa turg‘izib hokimiyatni qo‘lga olish va halifalikni tiklashga intiladilar.

2. Vahhobiylikning O‘zbekistonda tarqatilishida ichki va tashqi omillar. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari hamda Oliy Majlisning XI sessiyasida so‘zlagan nutqi va boshqa asarlarida vahhobiylikning O‘zbekistonda tarqalishining ichki va tashqi omillari aniq ravshan ifoda qilingan. Ayni paytda, dasturda keltirilgan boshqa maqolalarda ham bu masala atroflicha yoritilgan. Biz

“Vahhobiylik O‘zbekistonda nima uchun tarqaldi?” degan savolga javob izlab uni talabalarga tushuntirib berishimiz lozim. Yuqorida ko‘rsatilgan manbalarning guvohlik berishicha, 80-yillar oxiriga kelib sotsializm qo‘rg‘onining buzilishi, sobiq Sho‘rolar saltanatining inqirozga yuz tutib borishi munosabati bilan boshqa harakatlar kabi diniy harakatlar ham kuchaydi. Chunki, markscha – lenincha mafkura 70 yil davomida dinga dushmanlik munosabatida bo‘lib keldi va ko‘plab diniy arboblarni yo‘q qilib yuborildi. Dinga juda katta zarba berildi. Ko‘p odamlar dinga e‘tiqod qilmay qo‘ydilar. Chunki diniy e‘tiqod jamiyatdagi xukmron kuchlar tomonidan qoralanib, unga qarshi ommaviy targ‘ibot ishlari kuchaytirildi va fuqarolar yangi ruhda – Sho‘rolar ruhida, to‘g‘rirog‘i, markscha – lenincha g‘oyalar ruhida tarbiyalana boshladilar. Odamlarning dindan tobora uzoqlashishi ma‘naviy qashshoqlikni keltirib chiqaradi, bu narsa oxir-oqibatda saltanatning qulashiga olib keladi. Ma‘naviy qashshoqlik har kanday g‘ayriqonuniy harakatlarning kuchayishidagi bosh mezon hisoblanadi. Natijada, butun dunyoda diniy omilning faollashuvi sobiq sho‘rolardan keyingi makonda ham o‘z aksini topdi.

Rossiya, Yevropaning sobiq sotsialistik mamlakatlari va sho‘rolar tarkibidan ajralib chiqqan yangi mustaqil davlatlarda dinning uyg‘onishi ayniqsa kuchaydi. Bu davrda, ya‘ni bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tish vaqtida jamiyat taraqqiyotida, bir jihatdan, diniy e‘tiqodning ijtimoiy – madaniy hayotdagi tabiiy mafkuraviy ziddiyatlar tug‘ilishiga imkon yaratish xususiyatlari ko‘rindi. Ayniqsa, sobiq sho‘rolar saltanatining tarqalishidagi siyosiy vaziyat turli mintaqalardagi qon to‘kilishining ta‘siri natijasida, O‘zbekistonda ham ayrim notinchliklar bo‘lib o‘tdi. Andijon, Namangan, Qo‘qon, Farg‘ona, qo‘shni O‘sh viloyatidagi o‘z davrida bo‘lib o‘tgan voqealar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarning qaror topishi va mustahkamlanishi davrida “Islom omili”, “Islom uyg‘onishi”, “Qayta islomlashish”, “Islom fenomeni” kabi iboralar tobora ko‘proq ishlatilib, bu hollarning beqiyos faollashuvini o‘zida aks ettirdi. Islom Karimov ta‘kidlaganidek: “Musulmon dunyosida va hatto undan tashqarida ham so‘nggi o‘n yilliklar mobaynida ro‘y bergan voqealar jahon hamjamiyatida “Islom ovozi” deb atalgan hodisa haqida gapirish imkonini berdi.

Ko‘plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida ro‘y bergan, “Islom uyg‘onishi”, “Qayta islomlashish”, “Islom fenomeni” va boshqa turli-tuman nomlar bilan atalgan hodisalarning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar”.

Ularning fikriga qaraganda, birinchidan, Sho‘ro davrida hukmron bo‘lgan sobiq mafkuraviy tasavvurlar va qadriyatlar tizimining yemirilishi va bu yemirilish yoki halokat davrida hosil bo‘lgan ma‘naviy bo‘shliqni to‘ldirish zaruratidan kelib chiqdi.

Ikkinchidan, 70 yil davomida hukmronlik qilib kelgan kommunistik mafkuraning ma‘naviy qashshoqligi, o‘ziga xos mutaassibliigi yoki real turmushdan ajralib qolganligi, hukmron millat manfaatiga moslashib qolganligi, shu sababli, boshqa millatlar manfaatlariga qarshi qaratilganligi, natijada, odamlarning tili boshqa, dili boshqa shaxslarga aylanganligi sho‘ro saltanatidan keyingi makonda diniy fundamentalizm va traditsionalizm uchun qulay sharoit yaratdi.

Uchinchidan, sobiq sotsialistik mamlakatlar, jumladan, sobiq ittifoqdagi hukmron partiyalarning jilovbardorlari diniy tashkilotlarni, jamoalarni xalqlarning aql-idrokklarini egallash uchun kurashda o‘zlarining asosiy raqiblari hisoblab kelganligi, dinning pinhoniyaatga chekinishga va hatto ularning muayyan ma‘nodagi muxolif kuchga aylanib qolishiga olib keldi.

To‘rtinchidan, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi etnik jihatidan nasl-nasabini izlashga intilishning beqiyos kuchayishi, yo‘qotilgan milliy va ma‘naviy qadriyatlarni tiklashga harakat va bu sohada dindan foydalanishga intilish kuchaydi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki yillarida hali hokimiyatning to‘la qudratga ega emasligi, iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, demokratiyani ko‘p kishilarning to‘la anglab yetmaganligi, turli xil firqalarning va guruhlarining, jumladan, diniy ekstremistik guruhlarining ham paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Buning ustiga sho‘ro hokimiyati yillarida Islom dinini chuqur bilgan, islom falsafasini, sunniylikni asosiy nazariy va amaliy bilimlarning to‘la o‘zlashtirgan olim va ruhoniylarni yo‘qotib yuborish natijasida mamlakatdagi diniy ishlar bir guruh “chalamullalar” qo‘liga tushib qoldi.

Ular diniy fundamentalizm bilan nazariy va amaliy kurash olib borishga, sunniylikni yetarli himoya qilishga o'zaro ijtimoiy javab berishga, ba'zi bir buni yaxshi biladiganlar ham horijiy diniy tashkilotlar bilan til biriktirib ularga sotildi yoki hokimiyatni egallashni ko'zlab, ataylab, diniy fundamentalizm va ekstremizmning rivojlanishiga sharoit yaratib berdilar.

Yosh mamlakatlarning huquqini muhofaza qilish organlari vakillari diniy jihatdan yetarli savodi bo'lmaganlari uchun dinga bog'liq bo'lgan har qanday ko'rinishlarni diniy qadriyatlar sifatida qabul qildilar. Ular diniy ekstremistlar tartibsizlik keltirib chiqarmaganlaricha, voqealarning oldini olishda sust faoliyat ko'rsatdilar.

Buning ustiga, bizga chegaradosh bo'lgan mamlakatlarda islom fundamentalizmi va ekstremizmning kuchayishi, turli kadrlarni tayyorlab Respublikamizga o'tkazish, Markaziy Osiyoda islom davlatini tuzish vasvasasi ham vahhobiylikning Respublikamizga kirib kelishiga sabab bo'ldi.

3. 80-yillar oxiri va 90 –yillar boshlarida O‘zbekistonda tashkil etilgan vahhobiylik tashkilotlari va ularning qilmishlari.

O'zbekistonda demokratiya jarayonida o'z maqsadlarida foydalanib qolishga harakat qilib, ba'zi bir niyati buzuvchi kishilar o'zlarining haqiqiy basharasini yashirib, turli diniy tashkilotlar tuzib, ularni hatto qonuniy ro'yhatdan o'tkazishga harakat qilib ko'rdilar.

Lekin ularning haqiqiy intilishlarini oldindan payqagan, ayniqsa, Tojikistondagi voqealarning rivoji mamlakat fuqarolari tinchligiga qanday ta'sir qilishini oldindan ko'ra bilgan birinchi prezidentimiz Islom Karimov Namanganda bo'lib, ularni insofga kelishga undadi. Ammo siyosiy tanglikning ta'siri natijasida bosar-tusarini bilmay qolgan ekstremistlar ashaddiylashib, Namangan viloyatida faoliyatini aktivlashtirdi. Natijada, muayyan tartibsizlik, beqarorlik yuzaga kelib, "Adolat", "Islom lashkarlari" nomlaridagi guruhlar faoliyat ko'rsata boshladilar.

"Islom lashkarlari", "Adolat" uyushmasi va boshqa guruhlar qonunsiz faoliyat ko'rsatib, ijtimoiy tuzumni zo'rlik ishlatish yo'li bilan o'zgartirishni maqsad qildilar. Xalqning xavfsizligiga raxna solmoqchi bo'ldilar. Ma'naviyatimizga tajovuz qiluvchi harakatlar bilan milliy va

diniy ruhdagi chiqishlari, namoyishlari hamda shahar ko'chalaridagi yurishlari bilan jihodni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qildilar. Oqibatda, uyushma sifatida harakat, partiya yoki jamiyat sifatida qonunda belgilangan tartibda ro'yhatdan o'tmagan "Adolat" va "Islom lashkarlari" guruhi fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini poymol etdi. Farg'ona vodiysida, ayniqsa, Namangan viloyatida Islom dinining qonunsiz rivojlanishi, hatto maktab o'quvchilarining dunyoviy bilimdan ko'ra diniy bilimlarga berilib ketishi, maktab yoshidagi o'g'il va qiz bolalarning qonun talablariga zid holda hujralarda o'qitilib, diniy bilimlarning ijobiy emas, salbiy tomonlari uqtirilishi holatlari aniqlandi. Natijada, ko'plab yoshlar dunyoviy bilim olishda o'z tengdoshlaridan sezilarli darajada ortda qoldilar.

4. Vahhobiylikning Respublikamizdagi faoliyatining asl maqsadi va vazifalari.

1991-yil Respublikamiz birinchi Prezidenti Namangan viloyatiga tashrif buyurdi. O'zlarining noqonuniy harakatlarini avj oldirgan "Islom lashkarlari" va "Adolat" uyushmasi qanday yo'l bilan bo'lsa-da, davlat ro'yxatidan o'tib olishni o'ylardi. Bu yo'lda hech narsadan toymasdilar, baqirib-chaqirib, ayyuhannos solardilar. O'zining hurmatini bilmagan Tohir Yo'ldoshev, Hakimjon Satimov, Alisher Nishonov va boshqalar jamoat tartibini qo'pol ravishda buzib, ongsizlarcha ish tutdilar. O'sha yillari viloyat Adliya boshqarmasining boshlig'i bo'lgan Nuriddinjon Ismoilovga ham oson bo'lmadi. U qat'iyat bilan ish tutib, "Adolat" va "Islom markazi" ni davlat ro'yhatidan o'tkazmadi. Biroq 1992- yil 15-fevralda sobiq Adliya vaziri B.Malikov esa "Islom markazi" ning Namanganda ochilishiga ruhsat berdi. O'zbekiston Respublikasining o'sha vaqtda Jinoyat Kodeksining 54, 60, 62, 63, 64-moddalaridagi davlatga qarshi jinoyatlarni sodir etgan T.Yo'ldoshevning "Islom markazi" ga rahbar bo'lishi davlatimizga juda qimmatga tushishini nahotki sezmagan bo'lsa?!

Eng ajablanarlisi, bunday harakatlarni yo'q qilishi shart bo'lgan sobiq viloyat prokurori Ch.Jo'rayev "Men sizlarni qo'llab-quvvatlayman, harakatlaringizni ma'qullayman" deb aytgach, baqiriq-chaqiriqlar, takbir

aytib ko‘cha va maydonlarni to‘ldirib yurishlari kuchaydi. Bu yurishlar adolatni tiklashga emas, balki oxir-oqibat insonni xo‘rlash, iymonsizlarni ko‘paytirish, dinimizga hurmatsizlik, uni obro‘sizlantirish, poraxo‘rlik va boshqa xildagi jinoyatlarning, ko‘z bo‘yamachiliklarning uchishiga sabab bo‘ldi.

Nihoyat, 1992-yil bahor oylarida mansab, hokimiyat uchun 1990-yillardan boshlab faoliyat olib borgan “Amirlar” - vahhobiylar harakatlariga nuqta qo‘yildi. “Adolat” uyushmasining rahbari X.Satimov qamoqqa olindi. Din va millatni, ota-onani tan olmaydigan shaxsiyatparastlarga zarba berildi.

“Islom lashkarlari”, “Adolat” 1990-1992-yillarda Namangan viloyatida “Otavalixon” jome masjidida Abdulla O‘tayev, Tohir Yo‘ldoshev boshchiligida 100-200 kishidan iborat 60 dan ziyod guruhlar tashkil etilgan edi. O‘sha payt “Adolat” harakati faollari drujinalar tuzib, kechki payt o‘z mahallasidan tashqariga yurgan erkak-ayollarni to‘xtatdi. Ichkilikka qarshi kurash uchun aybdorlarni masjid oldida ustunlarga bog‘lab qo‘yishdi. 1992-yil 17-martdan boshlab, aprel oyi oxirlarida ularning faoliyati tugatildi. Qochib ketgan “Adolat”ning ba’zi faollari tojik muxolifatiga qo‘shilgan.

Demak, vahhobiylarning Respublikamizdagi asl maqsadi, mavjud demokratik davlatni, dunyoviy fuqarolik jamiyatini o‘zgartirishdan iborat bo‘lgan ekan.

Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, aslida arablarning turk istilosiga qarshi kurashi ifodasi sifatida yuzaga kelgan bu oqim tarafdorlari dunyoviy ilm-fandan yuz o‘girib, umuminsoniy ma’naviy – madaniy taraqqiyotga qarshi chiqadilar. Masalan, vahhobiylar, musiqa, qo‘shiq, teatr, kino, tasviriy san’at va madaniyatning boshqa muhim sohalarini butunlay rad etadilar.

Hozirgi paytda Saudiya Arabistonida ham vahhobiylarning ta’limoti sekin-sekin modernizatsiya qilinmoqda. Mamlakatda texnika fan yutuqlaridan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. Fuqarolar mafkurasida ham o‘zgarish bo‘lmoqda. Hozirgi davrda ilm-fan, texnika, madaniyat, davlatchilik va turli xalqlar orasidagi o‘zaro siyosiy va ma’naviy munosabatlar yuqori darajaga ko‘tarilgan bir paytda Islomni payg‘ambar

davrlaridagi holatga qaytarish aslo mumkin emas. Agar shunday qilinadigan bo'lsa, ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan buyuk yangiliklar (elektr, mashina, samolyot, telefon kabilar) dan voz kechish kerak bo'ladi. Vahhobiylik Islom mamlakatlarida ayollarni foydali mehnatdan, mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotida ishtirok etishdan mahrum qiladi.

Shunisi ham borki, vahhobiylar baribir Saudiya Arabistonida islomni aks holiga qaytara olmadilar. Mamlakat ilg'or zamonaviy texnika va ilm-fan taraqqiy etgan davlat sifatida rivojlanib bormoqda, uyida ko'plab xizmatkor saqlaydigan milliarder boylar, mulkdor, bank egalari yashamoqda. Hozirgi zamon texnikasining so'nggi yutuqlaridan foydalanmoqda.

Bir tasavvur qiling, agar hozir bizda xalqimizning asl o'g'il-qizlari yaratgan musiqa, kino, teatr, tasviriy san'at man etilsa, bu kelajak avlodni ma'naviy tushkunlik va o'rta asr holatiga yetaklash bo'lmaydimi?

Mana shunday sharoitda xalqimiz tabiati, urf odatlari, an'analariga zid ta'limot, vahhobiylikni O'zbekistonda tarqatishga urinish o'ta zararli va kelajagi yo'q ishdur.

Tayanch so'z va iboralar

Vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligi, diniy qadriyatlar, diniy bag'rikenglik, ma'rifat, fundamentalizm, aqidaparastlik, qadimgi dunyo terrorizmi, inkvizatsiya, dahriylar.

Takrorlash uchun savollar.

1. Vahhobiylik harakati, uning qujudga kelishidagi ichki va tashqi omillar?
2. 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlarida O'zbekistonda tashkil etilgan diniy uyushmalar?
3. Vahhobiylikning O'zbekistonda tarqatilishida ichki va tashqi omillar nimalardan iborat edi?
4. 80-yillar oxiri va 90 –yillar boshlarida O'zbekistonda vahhobiylik tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan qilmishlar
5. Vahhobiylikning Respublikamizdagi faoliyatining asl maqsadi nimalardan iborat edi?

Mavzu: EKSTREMIST VA TERRORISTLARNING O‘ZBEKISTONDAGI QILMISHLARI

Reja:

- 1. Ekstremizm va fundamentalizmning jamiyat barqarorligiga xavfi.**
- 2. Ekstremistlarni tayyorlashda xorijiy mamlakatlarning roli**
- 3. Vahhobiy ekstremistlarning noqonuniy hatti-harakatlari.**
- 4. Andijon voqealari va undan ko‘zlangan maqsad.**

1. Ekstremizm va fundamentalizmning jamiyat barqarorligiga xavfi.
130 yillik mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida xalqimizni o‘zining ma’naviy ildizlaridan ayirish, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga qaratilgan siyosat natijasida ma’naviyat va ma’rifat o‘rnini ma’lum darajada jaholat egalladi. Yurtdoshlarimiz Qur’oni karim, Hadis, tasavvuf, shariat, fiqh ilmlari haqida umumiy tushunchaga ham ega bo‘lmay qoldi.

Ana shunday sharoitda, mustaqillikka erishgan O‘zbekistonga o‘z ta’sirini o‘tkazishga intilgan yovuz kuchlar islom omilidan g‘arazli maqsadlarda foydalanishga harakat qildilar. Islom dinining sof g‘oyalari niqobi ostida siyosiy hokimiyatni egallashga intildilar. Alloh, islom kabi so‘zlar bilan nomlangan, eshinishi jarangdor «Islom uyg‘onish partiyasi», «Hizbulloh» («Alloh partiyasi») kabi partiya va tashkilotlar tuzib, mavjud konstitusiyaviy tuzumni ag‘darib tashlab islom davlati qurish, xalifalikni qayta tiklashga harakat qildilar. Vaholanki, Islomda partiyalar tuzib, guruh-guruhlarga ajralib harakat qilish man etilgan. Bu haqda Qur’onning Oli Imon surasi 103-oyatida shunday deyilgan: «Hammangiz Allohning “arqoni”ni (Qur’onni) mahkam tuting va firqalarga bo‘linmang hamda o‘zaro adovatda bo‘lgan paytlaringizda dillaringizni (tutashtirib) oshno qilib qo‘ygan Allohning ne’matini yodda tuting»¹.

Dinni asl holida saqlab qolish uchun harakat qilib odamlarni bir-biriga qarshi qo‘yib, qon to‘kishni tashkil qilayotgan, amalda esa o‘zining siyosiy hokimiyat bilan bog‘liq manfaatlarini o‘ylayotgan kishilarni,

¹ Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri. –T.: “Toshkent islom universiteti”, 2012. 63-b

guruhlarni ijtimoiy-siyosiy, huquqiy adabiyotlarda fundamentalistlar deb ataladi.

Fundamentalizm soʻzi lotinchadan kelib chiqqan boʻlib, asos, poydevor maʼnosini bildiradi. Fundamentalizm barcha dinlarga xos boʻlib, unda dinning asli qanday boʻlsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qilinadi.

Fundamentalizm – yaʼni aqidaparastlik – maʼlum bir din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va shu yoʻl bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning qarashlaridir. Diniy fundamentalizm – maʼlum din, shu jumladan Islom dini aqidalarning oʻzgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va moʻjizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy, soʻzma-soʻz talqini tarafdori boʻlgan qarashdir. Bunday qarash tarafdorlari diniy aqidalarning har qanday majoziy talqiniga, izohlanishiga murosasizliklari bilan ajralib turadilar.

Diniy fundamentalizm – din aqidalarini soʻzma-soʻz talqiniga asoslangan eʼtiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qoʻyadigan, muayyan din, shu jumladan Islom dini eʼtiqodi shakllanishining boshlangʻich davrida belgilangan barcha yoʻl-yoʻriqlarning qatʼiy va ogʻishmay bajarilishini talab qiladigan tushunchadir.

Dindagi ekstremizm – islomning qadimiy gʻoyalari va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yoʻli bilan amalga oshirishga qaratilgan diniy-siyosiy harakatni anglatadi. Bunday harakat diniy mutaassiblikka asoslangan boʻlib, muayyan mazhab taʼlimotiga qattiq yopishib olish oqibatida yuzaga keladi va muayyan siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishga ochiqdan-ochiq intiladi.

Ekstremizm faqat Islom olamiga tegishli boʻlib qolmay, balki dunyodagi barcha dinlarga ham xos hodisadir. Masalan, oʻrta asrlarda xristian ekstremist ruhoniylari muqaddas kitoblarda belgilangan har qanday aqidalarga qarshi chiqish Xudoning irodasini buzishdir, bu eng katta gunohdir deb, bunday kishilarni dindan qaytganlikda ayblab, ularga nisbatan keskin choralar qoʻllab ayovsiz jazolaganlar. Xususan XIII asrda papa qoʻshinlari Fransiyaning janubida 20 ming kishini qirib tashlagan.

Ilg'or fikrli ziyolilarga qarshi inkvizitsiya (cherkov) sudi joriy etilib Jardono Bruno o'tda kuydirildi, Galileo Galiley besh oy qamoqqa solinib, tavbasiga tayantirildi. Lekin baribir u «yer aylanadi» degan fikrdan qaytmadi.

Islom dini doirasida birinchi ekstremistik oqim – xorijiylar harakati bo'lgan. Xorijiylar xalifa Ali ibn Tolib bilan ummaviylar davlatining asoschisi Muoviya o'rtasidagi urushni muzokara va kelishish orqali to'xtatish siyosatiga Ali rozilik bergani uchun unga qarshi bo'ldilar. Xorijiylardan biri Abdurahmon ibn Muljam as-Sorimiy 661-yilda 4-halifa Ali ibn Abu Tolibni yarador qilib o'ldirdi. Xorijiylar ummaviy va abbosiylar halifaligiga qarshi urush olib borib, juda ko'p musulmonlarning o'limiga sababchi bo'lganlar.

1994-yilda Qandahor hududida yuzaga kelgan yangi siyosiy harakat – «Tolibon» harkati ham ekstremizmning Afg'onistondagi bir ko'rinishidir. Ular Afg'oniston hayotiga o'rta asr diniy tartib-qoidalarini tatbiq etishga orqali xalqni dunyo madaniyatidan uzib qo'yish yo'lidan bordilar. Tolibonlar hokimiyat tepasiga kelgach «Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi» va undagi mezonlarga amal qilmadilar. Oddiy insoniy haq-huquqlar poymol etildi. Xotin-qizlarni erkin bilim olish va mehnat qilish huquqidan mahrum etish, ularni yana chodra va paranji ichiga tiqish yo'lida keskin chora-tadbirlar o'tkazdilar. Yigitlarni soqol o'stirib yurishga majburladilar. Navro'zni islomga zid deb topdilar. Buddizm, zardo'shtiylik dinlariga tegishli bo'lgan tarixiy obidalar (ular YUNESKO tasarrufida edi) yo'q qilib yuborildi.

Xullas, tolibonlar o'zlari egallagan yerlarda ko'z ko'rib quloq eshitmagan xunrezliklarni amalga oshirib jafokash Afg'on xalqiga ko'p kulfatlar keltirdilar. Yon qo'shnimiz Tojikistonda ekstermizm 150 mingga yaqin begunoh kishilarning qurbon bo'lishiga olib keldi. Ekstremistlar turli mamlakatlarda barpo bo'lajak «islomiy tartib» o'rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilish zarur deb hisoblaydi. Ular o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun turli usullardan foydalanmoqdalar. Bular asosan quyidagilardan iborat:

- Zo‘ravonlik, ya’ni terroristik harakatlarni amalga oshirish orqali omma ichida qo‘rquv paydo qilish va o‘zlarining kuchlarini ko‘rsatish orqali hukumatga bosim-tazyiq o‘tkazish;

- Mamlakat iqtisodini turli yo‘llar bilan: diversiya, sanoat va qishloq xo‘jaligi manbalarini izdan chiqarish orqali uni tanazzulga uchratishga urinish bilan hokimiyatni zaiflashtirish va pirovardida osonlik bilan ag‘darib tashlash;

- Turli tashkilot va ommaviy axborot vositalarining «beg‘araz» yordamida go‘yo «mamlakatda fuqarolarning vijdon erkinligi huquqlari buzilmoqda va diniy e’tiqod poymol etilmoqda» kabi sohta, g‘arazli qarashlarni tarqatib hukumatni din sohasidagi siyosatini buzib ko‘rsatish orqali uni obro‘sizlantirish va fuqarolarning unga bo‘lgan ishonchini yo‘qotish;

- Oz sonli diniy tashkilotlarga qarshi xujum uyushtirib, hatto ulardan ba’zilarni namoyishkorona jismonan yo‘q qilish yo‘li bilan dinlararo va millatlararo nizo keltirib chiqarishga urinish orqali mamlakatda beqaror vaziyatni vujudga keltirish va undan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanish;

- Islomiy ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zimdan tashkil etish orqali mamlakatni islomlashtirish va soddadil fuqarolar ongiga asta-sekin xorijiy va mahalliy doiralarning ekstremistik g‘oya va maqsadlarini singdirib borish. Oqibatda ijtimoiy ongni kerakli vaqtda o‘z ekstremistik maqsadlarini amalga oshirish uchun osonlik bilan yo‘naltirib yuboradigan holatga keltirish va boshqalar.

Ekstremizmning yuqorida qayd etilgan ko‘rinishlari bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishi, sharoitga qarab ba’zilariga alohida urg‘u berilishi mumkin. Ularning Qur‘on oyatlariga asoslanishi Islomning sof g‘oyalarini jamiyatga tatbiq etish uchun emas, balki yurtdoshlarimizning e’tiqodini chalg‘itish va islom omili orqali xokimiyatga intilishdan boshqa narsani ko‘zlamaydi. Shuning uchun islom dini va islom fundamentalizmi haqida so‘z ketganda bu ikki tushunchani bir-biriga aralashtirib yuborish kerak emas.

Ekstremizm qanday nomlanmasin yoki qanday ko‘rinishga ega bo‘lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarini shakllantirish orqali hokimiyat tepasiga kelishdan iborat.

Umuman, «Fundamentalizm», «ekstremizm», «terrorizm», «fanatizm» kabi soʻzlar tom maʼnoda hokimiyat uchun kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir.

Diniy ekstremizm – ijtimoiy-siyosiy tizimga, diniy tashkilotlar tomonidan jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelmaydigan faoliyat olib borish, ularga zid boʻlgan «gʻoyalar»ni targʻib qilishdir. Islom ekstremizmi oʻzining ikki xususiyati bilan ajralib turadi: birinchisi- ularning aqidasi koʻra, goʻyo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari islomiy tuslarini yoʻqotganlar va «johiliya» asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondoshuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatni keskin tanqid qilish uchun «asos» boʻlib xizmat qiladi. Ikkinchi xususiyat ular goʻyo faqat «haqiqiy» musulmonlar hokimiyatga kelgach barpo boʻlajak «tartib» uchun keskin va agressiv harakat qilmoqlari lozim. Bunday harakatlarning muvofiqligi masalasi ular tomonidan umuman oʻrtaga qoʻyilmaydi, zero, ular faqat shariatga (bu ham ularning tor talqinda) tayanib ish koʻradilar va islomdan chekingan hokimni agʻdarishga goʻyo haqlidirlar. Islom ekstremizmining «nozik» tomoni uning qaysidir aqidalarga (haqiqiy dinga emas) asoslanganidadir. Guruh rahbarlari oʻz qoʻllari ostidagi aʼzolarning ongiga shu darajada taʼsir oʻtkazadilarki, shundan soʻng ular hatto oʻzlarini qurbon qilishga, muayyan maqsad yoʻlida «shahid» boʻlishga tayyor turadilar.

Hozirgi zamon islom ekstremizmining gʻoyaviy asoschisi sifatida «Musulmon - birodarlar» harakatidan yetishib chiqqan Sayyid Qutb (1906-1965) tan olingan. Uning maqsadi – islom davlatini barpo qilish va jamiyatni toʻligʻligicha islomlashtirishdir. Afsuski, muayyan koʻrinishda diniy ekstremizm Oʻzbekistonda ham paydo boʻldi. Ular tomonidan sodir etilgan yovuz harakatlar ekstremistlarning «ish» uslublarni kishilar koʻz oʻngida yaqqol namoyon etmoqda.

Diniy ekstremizm yoki ashaddiy aqidaparastlik turli koʻrinishlarda namoyon boʻlishi mumkin. Olsterdagi «ultra» protestantlar, Yaqin va Oʻrta Sharqdagi «Musulmon birodarlar», Markaziy Osiyo va Kavkazda paydo boʻlgan «Vahhobiylar» ning jamiyatga va qonunlarga qarshi kurashi deyarli bir uslubda olib boriladi.

Bevosita O'zbekistonga nisbatan diniy ekstremizmning tahdidi quyilagilarda ifodalanadi: birinchidan, aqidaparastlikni yoyish orqali aholining islohotchi davlatga ishonchini yo'qqa chiqarishga urinish; ikkinchidan, diniy ekstremizm tarafdorlari dindorlarning umumiy soniga nisbatan juda ozchilikni tashkil etsada, ularning ta'siriga tushganlar hisobiga jamiyatda erksiz, mute', faoliyatisiz kishilar sonini orttirish; uchinchidan, «Sohta» va «haqiqiy» dindorlik belgilari aholini guruhlariga ajratish va shu yo'l bilan ular o'rtasida turli qarama-qarshilikni keltirib chiqarish; to'rtinchidan, bizga qo'shni bo'lgan notinch hududlar jangarlarini tayyorlash uchun qulay zamin bo'lib xizmat qilmoqda; beshinchidan, O'zbekistonni G'arbga «islomlashtirilgan» Sharqqa esa aksincha «dinsiz» «dahriy» shaklda ko'rsatib uning xalqaro maydondagi obro'siga putur yetkazishga urinish; oltinchidan, Islom sivilizatsiyasi bilan noislomiy sivilatsizyalar o'rtasida yalpi qarama-qarshilikni kuchaytirish; Yettinchidan. Ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishning universal vositasi degan fikrni qaror toptirishda ko'rinmoqda.

2. Ekstremistlarni tayyorlashda xorijiy mamlakatlarning roli.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek Markaziy Osiyo bir-birini taqozo etadigan to'rtta gigant salohiyatga ega mintaqani – Rossiya, Xitoy, Hindiston va Yaqin Sharqni tutashtirib turadi. Shuningdek ayni damda o'zining qator boy tabiiy zahiralarga, unumdor yerlarga, qulay iqlim sharoitiga ega. Shunday ekan bu rang-barang dunyoda Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot yuz berishidan manfaatdorlar ham bor, hududda beqarorlik, notinch vaziyat hukm surishidan manfaatdorlar ham bor. Shuningdek regionda o'z ta'sir doirasini o'rnatishga intiluvchi ham bor. Shu sabab xalqaro maydonda Markaziy osiyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning eskalatsiyasini kuchaytirishga intiluvchi, ikkinchi tomondan aksincha deesklatsiyasini ta'min etishga harakat qiladigan kuchlar, tashkilotlar talaygina topiladi. Shunday kuchlardan biri ijtimoiy ongga ta'sir qilib uning milliy-ma'naviy qirralariga, diniy qadriyailariga putur yetkazish orqali degradatsiyani ta'minlash orqali turli halifaliklarni targ'ib qilayotgan ekstremistik ko'rinishdagi tashkilotlar hisoblanadi.

Bunday guruhlar muayyan mintaqaga kirishdan oldin shu joydan o'ziga hammaslakdoshlar izlashadi. Bu tashqi ta'sirning da'volariga, vadalariga, puliga uchadiganlar uchrab turadi.

Shunday tashqi sabab, bir qator mamlakatlarning moliyaviy yordami bilan "Adolat", "Tavba", "Islom lashkarlari", "Akromiylar" singari ekstremistik tashkilotlar tashkil etildi

Vatan xoinlari bo'lgan bu terrorchi guruh a'zolariga O'zbekistonning o'zida va chet davlatlarda turib qator rahnamolar xomiylik qilgan. Ular vahhobiy oqimi targ'ibotchilari bo'lib, O'zbekistondan yoshlarni chaqirib, vahhobiylik oqimiga tashviqotchilarni, ya'ni da'vatchilarni tayyorlashgan.

Vahhobiylardan Tohir Yo'ldoshev, Juma Xaliyev va yana boshqalar arab mamlakatlaridan birida ba'zi xunrezliklarda ishtirok etganlar. Ular adashib, o'z ta'sirlariga tushib qolgan ayrim yoshlarni ham Afg'oniston kabi chet ellarga borishga da'vat etib, ulardan jangarilar tayyorlashni maqsad qilishgan. Vahhobiylardan ba'zilari chet eldan qaytib kelgach, Qirg'izistonda sohta hujjatlar asosida pasport olib, u yerda vaqtincha yashab, O'zbekistonga kelib, jinoyat sodir qilish bilan shug'ullangan.

1997-yilning dekabrda Afg'onistonga qonunsiz borib, u yerda qo'poruvchilikdan maxsus dastur bo'yicha bilim olib, Badaxshon – Xorog-O'sh orqali O'zbekistonga qaytib kelayotgan vahhobiy oqimidagi Respublikamiz fuqarolaridan besh nafari Qirg'iziston hududida ushlanib, ulardan avtomat, juda ko'p miqdorda o'q-dori va buyumlar olindi. Jinoyatchilardan tintuv vaqtida AKM avtomatlari, ko'plab granatalar, o'q-dorilar, ularning qo'lida qurbon bo'lganlarning qoni qotib qolgan pichoqlar, kechasi ko'ruvchi asboblar, qo'lda tayyorlangan pistoletlar, maxsus tikilgan niqoblar, militsiya xodimining forma kiyimlari, o'ldirilgan Boqijon Ubaydullayevning guvohnomasi, forma kiyimi, jezlasi, "DAN" ko'krak nishoni, qon izlari bo'lgan qo'lqoplar, o'g'irlangan zargarlik buyumlari, turli qimmatbaho matolar, kiyimlar, jabrlanganlar yashagan uylarning sxemalari topib olindi.

Jinoyatchilar har bir jinoyatni sodir qilishga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rganlar. Kechalari ko'z ostiga olgan qurbonlari yashagan uylarni qorong'ida ham ko'rsatuvchi asboblar bilan o'rganganlar, uylarning sxemalarini chizganlar. Jinoyat qilishda foydalanilgan maxsus

niqoblarni vahhobiy oqimining a'zosi, tikuvchi "birodarlari" tikib bergan. U niqoblar nima uchun kerakligini yaxshi bilgan. Shuning uchun ham qo'lga olish paytida o'zini to'rtinchi qavatdan tashladi va oyog'i sindi. U ham qonuniy jazosini oldi. Uyushgan guruhning asosiy ishtirokchilari jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan mol-mulk va pullarni muntazam "Islom lashkarlari", "Adolat", "Amirlar" va "Tavba"chilarning oila a'zolariga tarqatib kelgan. Ularning oila a'zolari ham birovlarining hayoti evaziga, qoni evaziga kelgan mol-dunyoni birovning uvolidan, gunohidan qo'rqmay olaverishgan.

3. Vahhobiy ekstremistlarning noqonuniy hatti-harakatlari. Sobiq ittifoq parchalangach uzoq yillar davomida diniy hayotda o'ziga xos vakumni boshdan kechirgan Markaziy Osiyo aholisi orasida islomni yoyish borasida katta moliyaviy manbalarga ega bo'lgan kuchlar, ularning da'vatchilari Markaziy Osiyoga jumladan O'zbekistonga kirib kela boshlashdi. Ular musulmon aholi orasida o'zlarining "sof" ta'limotlarini tarqata boshlashdi. Da'vatchilarning tezkor hatti-harakatlari bois mintaqada turli xil diniy guruhlarining tuzilishi boshlandi. Vujudga kelgan guruhlarining ayrimlari xayriya-ehson ishlarini olib borsa, ayrimlari ijtimoiy hayotda tartib-intizom, odil sudlov kabi vazifalarni o'zlariga ola boshlashdi. Mustabid tizim parchalanganch sobiq ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning uzilishi sabab iqtisodiy ahvol chigallashdi, ishsizlik avj ola boshladi, g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarda noaniqliklar vujudga keldi. Albatta bunday muhit bu guruhlarining manfaatlariga mos kelardi.

1991-yilning yanvarida Namanganda o'z oldiga mavjud tuzumni ag'darish, islom davlatini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan "Adolat" guruhi keldi. Guruh a'zolari ko'chalarda jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurash borasida qator ishlarni amalga oshirdi. Bir vaqtning o'zida yana bir guruh – "Islom lashkarlari" guruhi tuzildi. Unga ashaddiy ekstremist Tohir Yo'ldosh boshchilik qildi. Boshqa guruhlar bilan birgalikda harakat qilib joylarda boshqaruvni o'z qo'llariga olishga intilishdi. Ma'muriy binolarni egallash, ommaviy mitinglar o'tkazish, turli mazmundagi targ'ibotlar olib borish, ko'cha tartibsizliklarini uyushtirish

bu guruhlar faoliyatining asosiy ko‘rinishlari edi. Albatta bunday tashviqot kampaniyalarida faol ishtirok etganlarga, tashkilotchilarga katta miqdorda moddiy rag‘batlantirish tizimi ham yo‘lga qo‘yilgan.

1990-yillarning boshlarida tuzilgan “Tavba” guruhi a‘zolari yuzga yaqin bo‘lgan. Mahalliy din vakillarining Qirg‘iziston va Ozarbayjondan kelgan da‘vatchilar bilan uchrashuvi natijasida tashkil etiladi. Guruh ustavida kofirlarga qarshi chin islom uchun muqaddas urush targ‘ib qilinar edi. Eng avvalo guruh a‘zolarining moddiy ta‘minoti uchun mablag‘ topish zarur edi. Mablag‘ to‘plashda “islom yo‘lida” kuch ishlatish asosiy maqsad sifatida e‘lon qilindi. Agar mol-mulk, mablag‘ ixtiyoriy ravishda berilmagan taqdirda, mulk egasi bosh tortsa guruh ustavi zo‘ravonlikni tasviya etar edi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlangan ma‘lumotlarga qaraganda qayd etib o‘tilgan ekstremistik tashkilotlardan tashqari boshqa guruhlar – “Akromiyalar”, “Uzun soqol”, “Tablig‘”, “Nurchilar” lar ham faoliyat olib borgan.

Ba‘zan ko‘pchilikda turli noinsoniy g‘oyalar bilan qurollangan kuchlar nima ko‘proq O‘zbekistonni nishonga oladi, degan savol paydo bo‘ladi. Bu masalaga to‘xtalar ekan Islom Karimov shunday degan edi: “Avvalo, shuni aytish kerakki, O‘zbekiston davlatining obro‘si, uning ta‘siri, salohiyati hammaga ma‘lum.

Bizning mamlakatimiz nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun Markaziy Osiyoning eng qulay geopolitik nuqtasida joylashgan. Qolaversa, yurtimiz aholisi butun mintaqa aholisining ellik foizini tashkil qiladi.

Hammaga ayonki, O‘zbekiston qanday yo‘lni tanlasa, o‘z taraqqiyoti uchun qaysi yo‘lni ma‘qul deb belgilasa, albatta, bu yo‘l yon-atrofdagi boshqa davlatlarga ham ta‘sir ko‘rsatishi - bu ham muqarrar haqiqat”¹. Ya‘ni O‘zbekiston o‘zining joylashuviga ko‘ra Markaziy osiyo davlatrini barchasini o‘zaro tutashtirib turadi. Aytilganidek Markaziy Osiyo aholisining teng yarmi aynan shu joyda istiqomat qiladi. Ekstremistik kuchlarning yovuz niyatlarining tagida yana bir narsa borki, biz uni ham hisobga olishimiz kerak.

¹ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma‘sulmiz. 9-jild.-T.: “O‘zbekiston”, 2001. -77-78-b

O‘zbekiston o‘zining qadimiy tarixi bilan, ilmiy-madaniy, ma’naviy salohiyati bilan, eng muhimi, islom falsafasi, islom dinining olijanob g‘oyalari yuksaltirishga, uning ilmiy asoslarini yaratib, dinimizning obro‘-sig‘a obro‘ qo‘shgani bilan musulmon olamida beqiyos mavqega ega. Ulug‘ ajdodlarimiz va buyuk bobolarimizning bu boradagi unutilmas xizmatlarini islom dunyosida hech kim inkor etolmaydi.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Moturudiy, Marg‘inoniy, Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband kabi ulamolarimizning o‘lmas nomlari, muqaddas siymosi oldida butun musulmon olami tiz cho‘kadi. Ularning islom dini rivoji yo‘lidagi ulkan xizmatlarini butun dunyo tan oladi.

Ekstremistik kuchlarning eng razil maqsadi - mana shunday buyuk merosga ega bo‘lgan o‘zbek xalqini, bugun yurtimizda yashayotgan barcha mo‘min-musulmonlarni shu merosdan ayirish, ota-bobalarimiz amal qilib kelgan va bizlarga ham buyurgan yo‘ldan qaytishga majbur etishdir.

Ayni damda bunday tashkilotlar mamlakatimizga qo‘shni bo‘lgan davlatlarda ham olib borildi. Qozog‘istonda “Alash”, “Parasat” guruhlarini, Qirg‘izistonda tuzilgan S.Kamolov islom markazi, Tojikistonda “Tojikiston islom uyg‘onish partiyasi” va boshqa ekstremistik guruhlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

1990-yillarda Markaziy Osiyoda faoliyat olib borgan harakatlardan yana biri “Hizb ut-Tahrir al-Islomiy” edi. “Hizb ut-Tahrir” o‘zagini “Adolat uyushmasi”, “Islom lashkarlari”, “Tavba” singari ekstremistik tashkilotlarning sobiq a‘zolari tashkil etdi. Ular o‘z targ‘ibot ishlarida asosan yoshlarni, ayollarni nishonga olar edi.

“Akromiylar” - Farg‘ona vodiysida 1990-yillarning o‘rtasida vujudga kelgan, noan’anaviy, konstitusion tuzum va islom aqidalariga zid g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi diniy guruh hisoblanadi. Asoschisi – Akrom Sotvoldiyevich Yo‘ldoshev, 1963-yili Andijon shahrida tug‘ilgan.

A.Yo‘ldoshev “Hizbut tahrir” fikrlari bilan ruhlanib, ayniqsa, hizbning “Islom nizomi”, “Izzat va sharaf sari” va “Xalifalik”, «Islom da’vati» nomli adabiyotlaridan foydalangan holda 12 darsdan iborat yangi “Iymonga yo‘l” risolasi va harakat dasturini ishlab chiqqan. Ya’ni, «Hizbut-tahrir»ning butun dunyoda xalifalik boshqaruvidagi Islom

davlatini barpo qilishdek yagona maqsadini saqlagan holda, avval alohida bir mintaqada xalifalik davlatini tuzib, keyinchalik uning hududini kengaytirib borish nazarda tutiladi.

“Akromiylar” o‘z saflariga jalb qilinuvchi shaxslarga ruhiy ta’sir o‘tkazish va ularni g‘oyaviy jihatdan birlashtirish maqsadida faoliyatlarini quyidagi asosiy davrlar (*bosqichlar*)ga bo‘lgan holda amalga oshirishlari aniqlangan:

“*Sirli*” yoki “*Maxfiy*” (o‘z tarafiga munosib nomzodlar jalb qilish); “*Moddiy*” yoki “*Iqtisodiy*” (iqtisodiy yordam va ish bilan ta’minlash, topgan foydadan 1/5 qismini jamoa uchun “*baytulmol*”ga ajratish); “*Ma’naviy*” yoki “*Siyosiy*” (g‘oyaviy jihatdan qayta ishlov, din va siyosatni qo‘shib o‘rgatish); “*Uzviy maydon*” (tayyor bo‘lgan a’zolarini “zarur” joylarga qo‘yish, faoliyat doirasini kengaytirish); “*Oxirat*” yoki “*To‘ntarish*” (asl va asosiy maqsad: vaziyat yetilgach, mavjud tuzum o‘rniga o‘z hokimiyatlarini o‘rnatish). Mazkur bosqichlar maxfiy, ijro muddati qat’iy belgilanmagan holda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, “Akromiylar” har bir tuzilma uchun, birinchi navbatda, moliyaviy asos yaratilishi lozimligini ta’kidlab, o‘z harakatlarini rivojlantirish maqsadida “birodarlar” daromadining 20 foizidan tushadigan mablag‘lar jamg‘armasini tashkil etganlar. Jamg‘armaning asosiy qismini yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va buning natijasida a’zolar safini kengaytirishga sarflaganlar.

Qayd etib o‘tilgan ekstremistik tashkilot a’zolari Tojikiston, Afg‘oniston, Checheniston singari turli hududlardagi g‘arbiy harakatlarda ishtirok etib kelishgan.

1999-yil 16-fevral kuni soat o‘n birga yaqin mamlakatimiz poytaxti Toshkentda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi yonida kuchli portlash sodir bo‘ldi. Shuningdek bunday portlash shahardagi “Nodirabegim” kinoteatri, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Ichki ishlar Vazirlik binolari yonida ham yuz berdi.

Bu yovuzlik mamlakatimiz mustaqilligini, erishayotgan yutuqlarimizni ko‘ra olmayotgan qabix niyatli kuchlarning ishi ekanligi ayon. Zero, bu xunrezlik ortidagi eng asosiy maqsadlardan biri –

mamlakatimiz birinchi prezidenti I.Karimovning hayotiga tajovvuz qilishdan iborat bo‘lgan.

Chunki shu kuni soat o‘n birda Vazirlar mahkamasida mamlakatimiz hukumatining 1998-yil yakunlari va joriy yildagi ish rejalariga bag‘ishlangan majlis boshlanishi, unda Islom Karimov ishtirok etishi ko‘zda tutilgan edi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov voqea sodir bo‘lgan joyda jurnalistlarga bergan intervyusida shunday deydi:

“Bizni hech kim tanlagan yo‘limizdan qaytara olmaydi. Qo‘poruvchilik qilganlarning maqsadi – xalqimizni tinchligini buzish, qo‘rqitish, yuragiga vahima solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchini so‘ndirish, amalga oshirayotgan ulkan ishlarimizga zarba berishdan iborat bo‘lgan. So‘nggi vaqtda yurtimizga horijiy sarmoya oqimi ko‘paymoqda. Xorijlik hamkorlar bilan ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu esa ayrimlarga yoqmayapti. Kimlardir ana shu sarmoyadorlarni cho‘chitishni, ularni O‘zbekistonga sarmoya yetkazishdan qaytarishni istaydi”.

Ushbu lavhalarni ko‘rar ekanmiz, bu yorug‘ jahonda qanday yaramas, razil kimsalar bor-a - deya o‘ylaymiz. Bu lavhalarni ko‘rib qalbimiz larzaga keladi. Shu asnoda savol tug‘iladi. Bu kimni ishi? Javob shu. Bu – terrorning qonli izi.

Terrorizm bugunning gapi emas. Bu inson yaratilibdiki bor. Yaxshilik va yomonlik bormi, demak u ham mavjud. Uning ibtidoiy ko‘rinishlari haqida tarix sahifalarida o‘qiganmiz. Qaroqchilik, talon-taroj, begunoh odamlarning o‘limi hammasi – TERROR.

Biz sport – tinchlik elchisi deymiz. Xo‘sh, terror nimani elchisi va terrorizm nimaga xizmat qiladi. Uning rahnamolari kimlar.

Nazarimda “terror” o‘zbekchadagi “tor-mor” degan so‘zga, “terrorchi” esa “tor-morchi” ga mohiyatan o‘xshash. Terror nima qiladi. Terror tor-mor qiladi. Terror bugun ayro-ayro davlatlar emas, yer yuzini tor-mor qilish uchun, bu qonli qirg‘inbarot tiriklikni o‘z komiga tortishi uchun urinmoqda.

Shayx Usama Bin Muhammad Bin Avad Bin Laden, 1957-yilda Jidda shahrida tug‘ilgan. Saudiya Arabistoni va Yamanda qarindoshlari bor. Saudiya Arabistoni Qirolligi sobiq tabaasi (fuqarosi), davlatga qarshi faoliyat yuritganligi uchun 1994-yil fevralida fuqarolikdan mahrum

qilingan. Yirik biznes egasi, arab mamlakatlarida, shuningdek Angliya va Germaniyada o'zining savdo firmalari bor. Boyligi AQSH dollari bilan baholanganda 100 – 150 milliardga boradi, shundan 35 milliard dollarini Sudan iqtisodiyotiga kiritgan.

Bin Laden afg'on urushida qatnashgan. O'sha vaqtda u Pokistonning Afg'oniston bilan chegaradosh Islomobod shahrida turib, o'sha yerdan mujohidlarga qurol-yarog' va boshqa vositalarni yetkazib bergan, arab jangarilarini tayyorlash va yollash ishiga rahnamolik qilgan.

Asli Irlandiyalik Qora arab yoki Ahmad bir qul laqablari bilan mashhur bo'lgan terrorchi Amir ibn al-Xattobdir. Xattob g'oyat boy oilada tug'ilgan. 15 yilcha burun birinchi bor u goh Afg'onistonda, goh Yaqin Sharqda, goh Chechenistonda paydo bo'lib, maxsus xizmatlarning nazorati ostiga olingan. Yashil islom bayrog'i ostida jang qilib, Chechinistonda o'rnashib olib, Xattob bo'lg'usi qotillar ta'lim oladigan lagerlar barpo etgan.

Xattobning Chechenistondagi tayyorgarlik bazalarida Tojikiston, O'zbekiston Qirg'iziston, Qozog'iston, Shimoliy Kavkaz Respublikalaridan kelgan "kursantlar" jangovor ta'lim olganlar.

Xattob o'z hayotining asosiy maqsadi Qora dengizdan Kaspiy dengizgacha bo'lgan hududda yagona Islom vujudga keltirishdan iborat ekanligini aytgan. 16-fevral voqealari hech kimni loqayd qoldirmadi. Yurtdoshlarimiz tilida bitta so'z "yovuzlarga la'natlar bo'lsin!".

Haddan oshgan, insonlik qiyofasini yo'qotgan bunday telbalar vatanni sotgan, vatanfurushlardir. Vatan sotilmaydi. Xoinlar sotiladi. Bu lavhalarga bir nazar tashlang. Bular o'z xalqini azob-uqubatlarga qo'yib, o'z Vatanga xiyonat qilgan Vatan xoinlaridir.

O'z insoniylik qiyofasini yo'qotib shafqatsizlik, manfurlik ko'chasiga kirib yashayotganlarni Vatanni sotgan, vatanfurushlar deymiz. Yo'ldoshev Toxir Abdulxalilovich, 1967-yilda Namangan viloyatida tug'ilgan, o'zbek O'zbekiston Respublikasi fuqarosi. Diniy ekstremistlar orasida Boy va Direktor laqablari bilan mashhur.

1991 – 1992-yillarda O'zbekistonda islom davlati o'rnatish maqsadida vahhobiylikning ashaddiy tarafdori sifatida chiqa boshlagan. Shu munosabat bilan u Juma Jadjiyev (laqabi Juma Namongoniy) bilan

birgalikda “Tavba” ekstremistik tashkilotining asoschilaridan biri, keyinchalik rahbari bo‘lib maydonga chiqdi, bu tashkilot a‘zolari jangovor qurolli guruhlar tuzushda qatnashdilar. U o‘zini “O‘zbekiston islom uyg‘onish partiyasi” deb atalgan partiyaning rahbari va “Amir” deb e‘lon qildi. Jinoiy jazodan qochish maqsadida 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi xududidan chetga chiqib ketdi.

Toxir Yo‘ldoshev O‘zbekistondagi yoshlarni Afg‘oniston, Tojikiston, Chechenistondagi jangarilar lagerlarida o‘qitish uchun yollash, ularni qo‘paruvchilik-terrorchilik faoliyatiga tayyorlash ishlarini muxtasil olib bordi.

Tojiyev Jumaboy Axmedovich, 1969-yilda Namangan viloyatida tug‘ilgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, o‘zbek, ma‘lumoti o‘rta, oilali, bitta farzandi bor. Diniy ekstremistlar orasida “Juma Namongoniy”, “Tojiboy” laqablari bilan mashhur.

1989-yildan islom qoidalarini o‘rganishga kirishgan, diniy ma‘lumotni mashhur diniy aqidaparast – reaksioner Mirzayev Abduvali – Abduvali Qoridan olgan. 1991-yildan e‘tiboran O‘zbekistonda islom davlatini o‘rnatish maqsadida Xojiyev vahhobiylikning faol tarafdori sifatida maydonga chiqdi va Toxir Yo‘ldoshev bilan birgalikda Namangan shahrida vahhobiylarning “Tavba” degan tashkilotini tuzuvchilardan biri bo‘ldi. Bu tashkilotni maqsadi O‘zbekistonda islom g‘oyalarini targ‘ib etish orqali islom davlatini tuzish, konstitusiyaviy hokimiyat organlarining qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilish, ular o‘rnini Konstitusiyada nazarda tutilmagan muqobil tuzilmalar bilan almashtirib, milliy va diniy adovat qo‘zg‘atish, mamlakatdagi ijtimoiy – siyosiy vaziyatni terror yo‘li bilan beqarorlashtirish hisoblanadi.

Hozir hur fikrli, bilimli yoshlarning islohotlarni amalga oshirishdagi say-xarakatlari butun mamlakatni qamragan. Ular zamonaviy usulda o‘qimoqda, kasb-hunar o‘rganmoqda, xorijda tahsil olmoqda. Muhim vazifalarimizdan biri - yoshlarimizning qabih niyatli yovuz kuchlar qo‘liga tushib qolmasligini ta‘minlashdir.

«Biz yoshlarimizni hech kimga berib qo‘ymaymiz, - deydi birinchi prezidentimiz Islom Karimov, - ularni o‘zimiz tarbiya qilamiz, voyaga yetkazamiz. Chunki ular mustaqil Vatanimizning, erksevar xalqimizning

porloq kelajagi uchun mehnat qiladi».

4. Andijon voqealari va undan ko‘zlangan maqsad. Farg‘ona vodiysi o‘zining boy davlatchilik an‘analariga, iqtisodiy an‘analariga, savdo sotiq, milliy hunarmandchilik an‘analariga ega o‘lka hisoblanadi. Qator davlat arboblari, shoirlari, ulamolari bilan xalqimizning milliy-ma‘naviy merosi rivojiga, diniy ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shib kelgan. Mintaqa hududi nihoyatda unumdor bo‘lib, dehqonchilik madaniyati yuksak darajada tashkil topgan. Yashayotgan aholining zichligi nafaqat Markaziy Osiyoda boshqa rivojlangan mintaqalarga nisbatan ham yuqori darajani tashkil etadi. Voha aholisi o‘zining o‘ziga xos etnomadaniy xususiyatlari - uyushqoqligi, ahil qo‘shnichilik, mahalla bo‘lib yashash, tadbirkorlik, an‘anaviy jamiyatga sodiqligi bilan ajralib turgan. Shuningdek ijtimoiy hayotda dinning, diniy an‘analarning tutgan o‘rni yuqori hisoblanadi. Sobiq ittifoqdosh respublikalarda vujudga kelgan aksariyat diniy oqimlar, guruhlarining tashkil topishi aynan shu mintaqaga kelib taqaladi.

2005-yil 12-may kuni Andijon shahrida bir guruh sudlanuvchilar ustidan sud hukmi o‘qilishi kerak edi. 12 maydan 13 mayga o‘tar kechasi soat 23.30 larda taxminan qirqta kishidan iborat bir guruh qurollangan jinoyatchilar shaharda jamoat tartibini saqlaydigan militsiya batalyoni-soqchi-patrul xizmati hududiga hujum qilgan va navbatchilik qilayotgan to‘rtta militsiya xodimini otib tashlab qurol-yarog‘ omborini buzib, o‘nlab avtomatlar, to‘pponchalar, granata va boshqa qurollarni egallab olgan.

Shundan keyin ular bu yerni tark etib, yo‘l-yo‘lakay o‘zlariga o‘xshagan ba‘zi odamlarni saflariga qo‘shib, Mudofaa vazirligiga qarashli 34-harbiy qism joylashgan hududga yo‘l olgan. Jangarilar bu yerda ham navbatchilik qilayotgan to‘rt-besh kishini otib tashlab, juda ko‘p avtomat va boshqa qurol-yarog‘larni egallab olgan.

Keyin ular harbiy qismdan olib chiqilgan “ZIL-130” og‘ir yuk mashinasida tergov izolyatori hududi tomonidan yo‘l olishgan. Ana shu mashina bilan qamoqxona darvozasini urib yiqitib, ichkariga kirishgan va deyarli barcha mahbuslarni – chamasi 600 kishini u yerdan bo‘shatishgan. Qamoqda o‘tirganlar orasida bosqinchilarga qo‘shilishdan qaytmaydigan odamlar ham bo‘lgan.

Soʻngra jangarilar mashinalarga oʻtirib koʻchada uchragan kishini garovga ushlab, hohlagan odamning mashinasini tortib ola boshlagan.

Ular odamlardan tortib olingan mashinalarda baqir-chaqir bilan, osmonga oʻq otib, shahar koʻchalari boʻylab shovqin-suron koʻtarib, uchta obyektga – viloyat ichki ishlar, milliy xavfsizlik boshqarmalari va viloyat hokimiyati binosiga hujum qildilar. Jangarilar faqat qurolsiz kishilar navbatchilik qilgan viloyat hokimligini bosib oldilar.

13 may kuni ertalab Islom Karimov Andijonga yetib keldi va behuda qon toʻkilmasligi uchun kechgacha jangarilar bilan muzokaralar olib bordi. Jangarilarning talablari soatma-soat oʻsib siyosiy lashib bordi. Jangarilarga binoni tashlab istagan tomoningizga keting, sizlarga hech kim tegmaydi, deb vaʼda qilindi. Ular bunga ham rozi boʻlmay tinch aholidan oʻzlariga jonli devor yasadilar.

13 may kuni kech soat 6⁰⁰ gacha hech qanday qoʻshin hokimiyat binosiga yaqin bormadi. Ular qoʻyilgan shartlarga rozi boʻlmagach, harbiylar hokimiyat binosini oʻrab olaboshladilar. Lekin jangarilar asosiy eshiklardan uch guruhga boʻlinib chiqib oʻq uzishib turli tomonga, asosan Qirgʻiziston tomonga qarab qocha boshladi. Harbiylar ularni taʼqib qildilar. Ikki tomondan qurbonlar boʻldi. Jangarilarning bir qismi qoʻlga olindi.

2005-yilning 5-6 sentabr kunlari bosh prokuraturaning tezkor – tergov guruhi Andijon shahrida roʻy bergan voqealarini tekshirish boʻyicha Oliy Majlisning mustaqil komissiyasiga tergov harakatlari natijalari toʻgʻrisida axborot taqdim etdi.

Maʼlumki, 2005-yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida odamlarning qurbon boʻlishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan qator terrorchilik harakatlari sodir etildi.

Bu fojiali voqealar boʻyicha tergov ishlari birinchi bosqichda 15 nafar oʻta faol ishtirokchiga nisbatan yakunlandi va jinoiy ish materiallar Oliy sudga koʻrib chiqish uchun topshirildi.

Dastlabki tergov davomida isbotlanishi zarur boʻlgan sharoitlar, shu jumladan, jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan sabab va sharoitlarga batafsil, har tomonlama, toʻliq va xolis baho berildi. 2100 dan ortiq ekspertiza tayinlandi va oʻtkazildi.

Tergov davomida Andijondagi terrorchilik harakatlari buzg‘unchi kuchlar tomonidan O‘zbekistonning mustaqil siyosatiga, uning milliy manfaatlariga qarshi puxta rejalashtirilgan va tashkil etilgan xuruj bo‘lib, mavjud konstitusiyaviy tuzumni o‘zgartirish va bu kuchlarning geosiyosiy manfaatlariga to‘liq javob beradigan islom davlatini tuzishga qaratilgani aniqlandi.

Mazkur jinoiy ish yuzasidan olib borilgan tergov buni to‘la tasdiqladi. 2004-yil avgust oyidan boshlab bu buzg‘unchi kuchlar “Turkiston islomiy harakati”, “Hizb – ut – Tahrir” va uning oqimlaridan biri bo‘lgan – “Akromiyalar” xalqaro terrorchilik va diniy-ekstremistik tashkilotlarini jalb qilgan holda, 2005-yil may oyida hokimiyatni egallash va konstitusiyaviy tuzumni ag‘darish maqsadida O‘zbekistonda terrorchilik harakatlari sodir etishni rejalashtirgan.

Terrorchilik harakatlarini amalga oshirish bo‘yicha ssenariy va batafsil reja puxta ishlab chiqilgan. Jumladan, qurolli guruhlarni tuzish, ularni jangovor tayyorgarlikdan o‘tkazish, qurol yaroq va o‘q-dori bilan ta‘minlash, hujum uyushtiriladigan obyektlarni, xususan harbiy qismlar hamda harbiylashgan tuzilmalar bo‘linmalari, ularning qurol-aslaha omborlarini aniqlash va razvetka qilish oldindan rejalashtirilgan.

Tergovda isbotlandiki, “ssenariychilar” terrorchilik harakatlariga tayyorgarlik joyi sifatida Qirg‘izistonning janubiy viloyatlarini tanlagan, u yerda joriy yilning yanvaridan aprelegacha xorijiy instruktorlar 70 nafarga yaqin diniy ekstremistik qo‘poruvchilik – terrorchilik usullarini o‘rgatgan. Andijonda hokimiyatni zudlik bilan egallash maqsadida har birida 9 kishidan 22 kishigacha bo‘lgan 20 ta hujum guruhi tuzilgan.

Bu guruhning boshliqlari hujum uyushtiriladigan obyektlarning sxemalarini batafsil o‘rgangan, zarur qurol-aslaha, portlovchi modda va o‘q-dorilarni oldindan tayyorlab qo‘ygan. 12 maydan 13 mayga o‘tar kechasi Qirg‘iziston fuqarolaridan tayyorlangan va qurollangan 60 nafar jangari O‘zbekiston hududiga bostirib kirgan va terrorchilik harakatlarida faol ishtirok etgan.

Terrorchilik huruji bilan bir vaqtning o‘zida O‘zbekistonga qarshi axborot urushi ham tayyorlangan. Terrorchilik harakatlari bilan bir qatorda aholining go‘yoki “tinch namoyishi”ni uyushtirish ham rejalashtirilgan.

Buning uchun terrorchilik harakatlarining tashkilotlari iloji boricha ko‘proq odamlarni ko‘chaga chiqarishga, bezori jinoiy unsurlarga, avvalo, o‘zlari qamoqdan chiqarib yuborgan o‘ta xavfli jinoyatchilarga Andijon shahri ko‘chalarida xunrezlik, qirg‘in, talon-taroj qilish, o‘t qo‘yish uchun sharoit va imkon yaratish, bir so‘z bilan aytganda, “olov va tutun qancha ko‘p chiqsa, ommaviy g‘alayon, qo‘zg‘olon ko‘targan xalq namoyishi shuncha yaqqolroq ko‘zga tashlanadi” qabilida ayovsiz to‘s-to‘polon uyushtirishni mo‘ljallagan.

Mazkur harakatlar “ssenariylari” go‘yoki “norozi aholi” tomonidan egallagan va ularga qarshi hukumat qo‘shinlari jangovor harakatlar olib borayotgan shahar qiyofasini yaratishni ko‘zlagan.

Ularning rejasiga ko‘ra, hamma joyda hoziru nozir bo‘ladigan “gumanitar”, “xayriya” deb atalmish xalqaro tashkilotlar paydo bo‘lib, ularning tili bilan aytganda, “tinch aholi qirg‘ini”ni to‘xtatishni talab qilish kerak edi.

Voqealarni aynan shu tarzda yoritish ularning nazorati ostida bo‘lgan ommaviy axborot vositalari zimmasida bo‘lgan. Shu maqsadda inson huquqlarini himoya qiluvchi qator xorijiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va chet el xayriya jamiyatlarining oldindan xabardor qilingan vakillari hali voqealar boshlanmasidan avval 9-10 may kunlari, ko‘pchiligi esa may oyining birinchi kundlaridayoq Andijonga chegaradosh hududlar – O‘sh, Aravon, Qorasuv, Jalolobodda to‘plana boshlagan. Ular bu mintaqaga kelib, Andijonda rejalashtirilgan portlashni qayd etish va hukumat hamda huquq-tartibot idoralari faoliyati to‘g‘risidagi tuhmat – bo‘htonlarni tarqatish uchun voqelar boshlanishini kutgan.

Xizmat sohalari ustav talablarini buzgan ba’zi militsiya xodimlari va harbiy xizmatchilarning zaifligi va mas’uliyatsizligi terrorchilarga ma’lum darajada qo‘l kelgan. Oqibatda terrorchilar katta miqdorda o‘qotar qurol-aslahalarni qo‘lgan kiritgan. O‘zlariga ishonib topshirilgan obyektlarni qo‘riqlash borasida xizmat vazifalarini bajarishga jinoyatkorona mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lgan hamda bosqinchilarning hujumiga yetarlicha qarshilik ko‘rsatmagan 25 nafar ichki ishlar organlari mansabdor shaxslari va harbiy xizmatchiga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘atib, tergov qilindi.

Terrorchilik harakatlar oqibatida jami 187 kishi halok bo'lgan, ulardan 60 nafari tinch aholi bo'lib, ularning ikkitasi voyaga yetmagan bola va bittasi ayoldir. Terrorchilar tomonidan 31 nafar huquqni muhofaza qilish organlari xodimi va harbiy xizmatchi o'ldirilgan. 287 kishi turli darajadagi tan jarohati olgan, ularning 91 nafari tinch fuqaro, 49 nafari huquqni muhofaza qilish organi xodimi va 59 nafari harbiy xizmatchi. Terrorchilarga qarshi ko'rilgan tadbirlar davomida 94 ta terrorchi yo'q qilingan, 76 nafari yaralangan¹.

Terrorchilik harakatlari davomida jinoyatchilar 70 kishini garovga olib, ulardan 15 nafarini vaxshiyona o'ldirgan. Terrorchilar tomonidan egallangan 344 dona o'qotar quroldan 255 tasi, shu jumladan 180 ta avtomat, 59 ta pistolet, 11 ta miltiq, 4 ta pulemyot, 1 ta granatamyot qaytarildi.

Bundan tashqari, terrorchilar Qirg'izistondan olib o'tgan 16 dona o'qotar qurol ham olingan. Ularning orasida raqamlari o'chirilgan 7 ta Kalashnikov avtomati va 2 ta snayper miltig'i, AQShda ishlab chiqarilgan AR – 15 yarim avtomatik miltiq bor. Qamoqdan noqonuniy chiqarib yuborilgan 527 shaxsning 496 nafari qaytarildi, qolgan 25 kishiga nisbatan tezkor-qidiruv tadbirlari olib borilgan.

Oliy Majlis komissiyasi a'zolari hisobot yakuni bo'yicha bosh prokuratura tezkor – tergov guruhiga ko'plab savollar berdi.

Chunonchi sodir etilgan jinoyatlarda buzg'unchi kuchlarning ishtiroki Andijon shahrida teatr va kinoteatrda o't qo'yilishini uyushtirgan, boshqa jinoiy harakatlarni sodir etgan shaxslar hamda terrorchilik harakatlari tashqi kuchlar tomonidan moliyalashtirilganini isbotlovchi dalillar va bu mablag'larning sarflanishi, o'z xizmat vazifalariga nisbatan ko'rilgan choralar haqidagi va boshqa savollarga batafsil javob qaytarilgan.

Tayanch so'z va iboralar

Ekstremizm, vahhobiylik, diniy qadriyatlar, diniy bag'rikenglik, ma'rifat, fundamentalizm, aqidaparastlik, qadimgi dunyo terrorizmi, inkvizatsiya, dahriylar, adolat guruhi, tavba guruhi.

¹ "Xalq so'zi", 2005 -yil 7- sentabr.

Takrorlash uchun savollar.

1. Ekstremizm va fundamentalizmning jamiyat barqarorligiga xavfi?
2. Ekstremistlarni tayyorlashda xorijiy mamlakatlarning roli?
3. “Hizb ut-Tahrir” o‘z oldiga qanday maqsadlarni qo‘ygan edi?
4. “Islom lashkarlari” guruhi faoliyati qanday shakllarda olib borildi?
5. Terrorchi Usama bin Laden kim edi?
6. O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumiga tajovuz qilish qanday jinoyat hisoblanadi?
7. Andijon voqealari va undan ko‘zlangan maqsad?

Mavzu: MARKAZIY OSIYODAGI BARQARORLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR.

Reja:

1. **Ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyotning rivojlanish xususiyatlari.**
2. **Ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.**
3. **O‘zbekistonda faoliyati kuzatilayotgan ekstremistik-terroristik tashkilotlar.**

1. Ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyotning rivojlanish xususiyatlari. Yangi mingyillikda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaning qator mamlakatlarida diniy – ekstremistik tashkilotlar faoliyati kuchaymoqda. Bir qator o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy sabablarning ilmiy tahlillari shuni ko‘rsatadiki diniy-ekstremistik mafkuralarning vujudga kelish ildizlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- XX asrning o‘rtalaridan islom dunyosida mustamlakachilikka qarshi kurashning kuchayishi va bu jarayonda kurash olib borishning turli usullaridan, jumladan terror usullaridan keng foydalanilishi;

- Arab-Isroil urushi va Yaqin Sharq muammosining hal etilmasdan kelishi, turli sabablar bilan ataylab orqaga cho‘zilishi;
 - AQSH va G‘arbning yetakchi davlatlari tomonidan musulmon dunyosi davlatlarini o‘z nazoratida ushlab turishga, ayniqsa ularning ulkan tabiiy zaxiralariga egalik qilishga intilishlari;
 - Ayrim musulmon davlatlari o‘rtasidagi mintaqaviy yetakchilik uchun olib borilayotgan kurashlar;
 - Sunniylar va shialar o‘rtasida uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan qarama-qarshilikning saqlanib qolayotganligi va shu kabilar.
- Agarda biz Markaziy Osiyoda diniy-ekstremistik mafkuralarning vujudga kelishi sabab bo‘layotgan ichki va tashqi omillar mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat:
- Sobiq ittifoqning parchalanib ketishi natijasida vujudga kelgan o‘ziga xos g‘oyaviy degradatsiya. Mavjud g‘oyaviy-mafkuraviy tizimning, qadriyatlarining yemirilishi, yangi g‘oyaviy tizimning esa to‘la ma’noda ulgurib shakllanmagani sabab mintaqa turli shakldagi g‘oyaviy ta’sir maydoniga aylandi;
 - Uzoq davr davom etgan oldiniga chor Rossiyasi, keyinchalik sovet davlatining olib borgan mustamlakachilik siyosati natijasida mintaqa xalqlarining milliy-ma’naviy, diniy qadriyatlariga berilgan zarba asoratlaridan tezda qutulishning imkoni bo‘lmadi;
 - Markaziy Osiyo davlatlari o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishlari bilanoq amalda fuqarolar urushi ketayotgan, terrorizmning o‘chog‘i hisoblangan mintaqaga tutash maydonda qolib ketishdi;
 - Mintaqa davlatlarida turli mazmundagi diniy-ekstremistik kuchlarga, ta’sirlarga qarshi kurash olib borishning siyosiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy, harbiy institusional tizimi shakllanib ulgurmagani;
 - Qator musulmon davlatlarida salafiylik g‘oyalari targ‘ib qilinadigan diniy ta’lim muassasalarining mavjud ekani hamda mazkur muassasalarda mintaqa davlatlaridan chiqqan yoshlarning o‘qib kelayotgani;
 - Mintaqada faoliyat yuritayotgan diniy-ekstremistik tashkilotlarning xorijiy markazlar va homiylaridan katta miqdorda moddiy yordam olishi;

- Aholining ma'lum bir toifalari orasida jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi muammolarni islomiy davlat barpo etish orqali hal etish mumkin deb hisoblovchilarning mavjudligi;
- Demografik bosim natijasida vujudga kelgan mehnat migratsiyasi sababli xorijga chiqib ketgan yoshlarning oila va mahalla nazoratidan chiqib ketishi;
 - Ijtimoiy bandsizlik va boshqalar.

Albatta bu muammolarning aksariyati mustaqillikdan keyin olib borilgan chora-tadbirlar natijasida bartaraf etilmoqda. Bunday yo'sindagi tahdidlarga qarshi kurashish masalasida Sh.M.Mirziyoyev shunday degan edi: "Bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi"¹. Lekin bu masala Markaziy Osiyo davlatlarining barchasida ham samaralik hal etilayotgani yo'q. Qolaversa diniy-ekstremistik mafkuralarning targ'ibotchilari ham qarab turishgani yo'q. Ular ham g'oyaviy ta'sirning nihoyatda ta'sirchan usullari ustida g'ayrat bilan ishlashmoqda. Bu yo'lda xalqaro maydondagi nodavlat telekanallar, radiokanallar va internet tarmog'idan unumli foydalanishadi.

O'zini islom nomi bilan bog'laydigan diniy-ekstremistik tashkilotlarning o'z oldilariga qo'ygan maqsad-vazifalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Dunyoviy davlatga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish;
- Dunyoviy davlatdan voz kechish, uni shariatga asoslangan tuzumga aylantirishga harakat qilish;
- Sekulyarizatsiyani rad etish, jamiyat a'zolarini majburan shariat asosida hayot kechirishlarini ta'minlash;
- Islom dunyosini dunyoviy dalatchilikka asoslangan hamjamiyatga qarama-qarshi qo'yishga intilish;
- Malakatlar mustaqilligi, ularning hududiy yaxlitligini tan olmaslik va ularni yagona "xalifalik" asosida birlashtirishga intilish;

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018..-270- b.

- O‘z maqsadlari yo‘lida davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan xatti-harakatlarni kuchaytirish;
- O‘z g‘oyalariga ergashmagan musulmon jamolarini dinsizlikda ayblash orqali musulmonlar orasida bo‘linishni keltirib chiqarishga intilish va h.k.

Bu guruh vakillari, ularning mafkurachilari omma ongini egallash uchun kurashga ustuvor vazifa sifatida qarashadi. OAV, internet, diniy markaz, qator ijtimoiy tarmoqlar orqali terrorchilarni ko‘paytirish tizimi yaratiladi. Yangi a‘zolarini yollashning asosiy manbalari sifatida virtual makon, qamoqxonalar, masjidlar, yoshlar tashkilotlari, milliy diasporalar, maktablar, qamoqqa olinganlarning oila a‘zolari, terrorizmga qarshi tadbirlarda jabr ko‘rganlar hisoblanadi¹. Shunday ekan yoshlarning bu guruhiga alohida qaratish talab etiladi. Bugungi kunda diniy ekstremistik oqim a‘zolarining farzandlarini jamoat ishlariga, dunyoviy turmush tarziga, xususan, fan va kasb-hunar to‘garaklari, san‘at festivallari, sport musobaqalariga jalb qilishga yetarlicha e‘tibor qaratilmayapti. Buni albatta qoniqarli deb bo‘lmaydi. Nega deganda, bir-ikki marta nomiga tadbir o‘tkazish bilan ish bitmaydi. Bu yo‘nalishda har kuni, har soatda, doimiy va tizimli ravishda ish olib borish kerak².

2. Ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari. XX asrning 90-yillariga kelib «ikki qutbli mafkura» o‘rtasidagi kurashga barham berildi. Ammo, dunyodagi g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar to‘xtab, tinchib qolgani yo‘k. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo‘lib olishga urinishlar yanada kuchaydi, g‘oyaviy ta‘sir turli yo‘llar bilan amalga oshirilmoqda. Bunday mafkuraviy ta‘sirlardan mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo hududi ham chetda qolgani yo‘q. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng mafkura sohasida hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g‘oyasiga zid bo‘lgan yot va begona g‘oyalar kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda

¹ Карояни А.Г. Анализ концептуальных моделей терроризма// Материали 4-межд.науч.конф. –М. МГИМО, 2009. –С 165.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.-592 b.

belgilangan ulugʻvor maqsadlarni amalga oshirishga qarama-qarshi quyishga urinishlar boʻlganligi hammamizga ayon. Ular oʻzlarini «doʻst», «vatandosh», «dindosh» etib koʻrsatish niqobi bilan oʻz gʻoyalarini amalga oshirishga urindilar.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov taʼkidlanganidek «... hozirgi vaqtda dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan boʻlsada, turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvlardan koʻzlangan asosiy maqsad – inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuygʻulariga taʼsir oʻtkazish, uni oʻz dunyoqarashiga boʻysundirish, maʼnaviy jihatdan zaif va tobe qilish» dir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida boʻlayotgan kurashlar, yaʼni insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan kurash koʻp narsalarni hal qiladi. Jahondagi maʼlum siyosiy kuchlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geopolitik mavqega ega boʻlgan bu mintaqani oʻz manfaatlari doirasiga tortish harakatlaridan toʻxtaganlari yoʻk. Ular oʻz maqsadlariga erishish uchun taʼsir va bosim oʻtkazishning barcha shakllaridan foydalanishga urinmoqdalar. Shulardan biri Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va maʼnaviyatida islom dinining mustahkam oʻrin egalaganligidan foydalanib, ularga islomiy «saboq» berish, islomni qayta tiklash bayrogʻi ostida mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borayotgan qoʻporuvchilik harakatlaridir.

Maʼlumki «fundamentalizm», «ekstremizm», «terrorizm» kabi hozirda tez-tez takrorlanayotgan tushunchalar jamiyatda qabul qilingan qoidalarga mos kelmaydigan gʻoyani va shu gʻoya asosidagi harakatlarni ifodalaydi. «Fundamentalizm» va «ekstremizm» gʻoyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan koʻzlangan maqsad diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash emas, balki ana shu gʻoyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy asosdagi va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qoʻlga kiritishdir. Bu urinishlar ostida esa tarix sahifasida qolib ketgan xalifalikni tiklash gʻoyasiga zoʻr berilmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan mamlakatimiz taraqqiyotiga xavf tugʻdirayotganligini birinchi prezidentimiz Islom Karimov teran anglab, bu qanday dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkinligidan oʻzlarining 1997-yilda yozgan «Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarlarida ogoh qilgan edilar.

XX asrning 90-yillariga kelib diniy ekstremistik ruhdagi oqimlar koʻpayib, harakatlari sezilarli darajada jonlanib taraqqiyotga tahdidlari kuchaydi. Bunday oqimlarni Markaziy Osiyo hududiga, xususan Oʻzbekistonga kirib kelishini 5 bosqichga boʻlib oʻrganish mumkin:

1-bosqich. 1970-1985-yilgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Bu davrda sobiq SSSRda ateistik siyosat yurgizilgan. Bu siyosat oqibatida masjidning soni kamayib 119 taga tushib qolgan edi. Diniy oʻquv yurtlari (madrasa)dan faqat Buxorodagi Mir Arab madrasasi va Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutigina cheklangan holda faoliyat koʻrsatar edi. Nafaqat kommunistlar, hatto oddiy fuqarolar ham yaqin kishilari vafot etganda janoza (dafn marosimi)da qatnashishga ham yurak oldirib qoʻygan edilar. Islom dini va boshqa dinlarning taʼlimotini oʻrganishga ruhsat berilmas edi. Shunday boʻlishiga qaramay kishilarimiz qalbida dinga ishonch va eʼtiqod yashirin boʻlsada saqlanib kelardi. Bu davrda diniy sohani jonlantirish harakati yashirin va ochiq suratda borgan.

2-bosqich. 1985-1989-yillarni oʻz ichiga oladi. Bu davrda sobiq SSSRda qayta qurish, oshkoralik, ichkilikka qarshi kurash olib borildi. Demokratiya va dinga biroz erkinlik berildi. Bu davrda yurtimizga chetdan koʻplab diniy adabiyotlar kirib keldi, missionerlik (dinni targʻib qilish) jonlandi. Yurtimizga kirib kelgan diniy adabiyotlarning koʻplari mazmunan asrlar davomida yurtimizda qaror topgan hanafiylik (Imom Aʼzam) mazhabiga zid boʻlgan gʻoyalar bilan sugʻorilgan edi. Oʻsha yillari respublikamiz Oliy oʻquv yurtlarida koʻplab chet ellik, jumladan islom dunyosidan kelgan talabalar ham taʼlim olar edi. Bu talabalar asosan boshqa mazhab ruhida tarbiya topgandilar. Chet ellik talabalar bilan muloqotda boʻlgan bizning talabalarimiz oʻrtasida diniy mavzuda suhbatlar boʻlar, kitoblar oʻqiladi. Bunday suhbat va kitoblar mazmuni

ham bizning mazhabimizga zid edi. Natijada chet ellik talabalar ta'siriga tushgan yoshlarimizda bizning mazhabimiz (hanafiya, Imom A'zam yo'li) noto'g'ri, hato ekan degan tushunchalar paydo bo'lgandi.

Aqidaviy ta'limotda bizning yurtimiz musulmonlari azaldan Imom al-Motrudiy yo'lidan borib, unga amal qilib kelganlar. Imom al-Ash'ariy Iroqda o'zining Ash'ariya aqidaviy ta'limotini yaratgan. Chet ellik talabalar ta'sirida bo'lgan bizning ba'zi talabalarimiz ham ana shu aqidaviy ta'limot ta'siriga tushib qolgan edilar. Bu ta'limotda musulmon kishi musulmon bo'lmagan davlatda yashashi mumkin emas degan g'oya mavjud. Bu g'oya qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi hammamizga ayon.

3-bosqich. 1989-1993-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda mustaqillik sharofati bilan dinga berilgan erkinlik tufayli islomiy harakatlar kuchayish davri bo'ldi. Chetdan ko'plab din mutaxassislari, da'vatchilar islom nimaligini o'rgatish uchun yurtimizga kirib keldi. Vaholanki, bizning xalqimiz diniy va dunyoviy ilmlar borasida: Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshband, Muso Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi dunyo tanigan fozillarni tarbiyalab etishtirgan. Islomni o'rgatmoqchi bo'lganlar aslida islom nimaligini bizdan o'rganishlari joizdir.

Shu yillarda «Islom uyg'onish partiyasi», «Adolat», «Islom lashkarlari» kabi partiya va harakatlar tashkil etildi. Ular huquq-tartibot organlari va ularning rahbarlariga, hukumat idoralari xodimlariga nisbatan taz'iq o'tkazish bilan shug'ullandilar, begunoh odamlarni masjidlar oldidagi ustunlarga bog'lab qo'yishdek bedodliklar qilib, ochiqdan-ochiq Islom davlati tuzish talablarini qo'ydilar. Bunday partiya va harakatlarning faoliyati 1993- yilga kelib tugatildi.

4-bosqich. 1993-1999- yillarni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda diniy partiya va harakatlar tugatilganidan so'ng ularning vakillari yashirin harakatga o'tishdi. Yashirin ravishda aholini islomlashtirish yo'lini tutdilar. Bunda ular ko'proq ayollar xujralarini tashkil etib, ularga din bilan birga, din yo'lida o'zini o'zi qurbon (shahid) qilishga tayyorladilar.

Yoshlar ongiga sen millat va dinning sharafigan, bu yo‘lda shahid bo‘lish eng katta savobdir degan g‘oyani singdirishga harakat qildilar. Bu davrda ular ayollarni oiladagi mavqeiga ahamiyat berib, din yo‘lida o‘zini qurbon qilish ruhida tarbiyaladilar va ularni maktabdan bezdirdilar.

5-bosqich. 1999-yil 16-fevral voqealaridan keyingi davr. Bu davrda diniy ekstremistik kuchlar mamlakatimiz rahbari va hukumat a‘zolariga nisbatan suiqasd uyushtirishlari natijasida 16 begunoh kishining hayotiga zavol bo‘ldilar, ularning oilalarini g‘am-g‘ussaga botirdilar. 2000 va 2001-yillarda qurollangan diniy ekstremistik jangari kuchlar qo‘shni mamlakatlar teritoriyasidan Angren, Bo‘stonliq, Vokent, Sariosiyo tumanlariga yashirin ravishda kirib kelib ko‘plab vatanparvar yoshlarimizni erta hayotdan ko‘z yumishiga sababchi bo‘ldilar. 2004-yil 29-30 mart va 1- aprel kunlari qabih niyatli kuchlar domiga ilingan 8 ta ayol Toshkent va Buxoroda o‘zini-o‘zi portlatib xalq orasida vahima va jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarishga harakat qildilar.

Diniy ekstremistik harakatlarning asl maqsadi Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlarni yo‘q qilish, mintaqada beqarorlik vaziyatni vujudga keltirish va oxir oqibatda islomiy davlatni qaror toptirish, xalifalikni tiklashdan iborat.

Shunday qilib hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizm va faqat Markaziy Osiyo mintaqasida, balki butun dunyo xalqlari tinchligi va barqarorligiga tahdid soluvchi harakat ekanligini davlatlar tushunib etmoqda. Dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikda bunday salbiy harakatlarni oldini olish va tugatish uchun astoydil kirishmoqdalar.

3. O‘zbekistonda faoliyati kuzatilayotgan ekstremistik-terroristik tashkilotlar.

“Jihodchilar” jamoalari qo‘rqitish va qo‘poruvchilik harakatlari bilan mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarish, amaldagi dunyoviy tizimni ag‘darib tashlash, islom “halifaligi” shaklidagi diniy davlat qurishni maqsad qilgan diniy-siyosiy guruhdir. Bu tashkilotning Markaziy Osiyodagi mafkuraviy “rahnomalari” A.Mirzayev va O.Nazarovlar hisoblanadi. “Jihodchilar” jamoasi faoliyatining diniy-

g'oyaviy asosi Muhammad ibn Abdulvahobning "Al-usul as-salasa va adillatuhu" (Uch asos va ularning dalillari), "Kitab at-tavhid" (Tavhid kitobi), Ibn Taymiyaning "Kitab az-ziyar" (Ziyoratgoh), Sayyid Qutbning "Maolim fit-toriq" (Yo'ldagi belgilar), "Mujohidlarning sifatleri", Abu A'la al-Mavdudiyning "Jihod", Abul Mun'im Mustafoning "Hijrat va uning hukmlari" kabi asarlarida bayon etilgan¹.

"Jihodchilar" jamoalari Markaziy Osiyo mintaqasida jihod bayrog'i ostida o'z faoliyatini olib borishga harakat qilmoqda. Ular faoliyatining asosiy shakllari agressiv islomiy da'vat, dunyoviylikka, boshqa dinlarga nisbatan murosasizlikka chaqiruvchi targ'ibot o'tkazish, aholining turli qatlamlari ichida yo'llash ishlari o'tkazish, bosqinchilik, qo'poruvchiliklar amalga oshirishdan iborat bo'lmoqda. Tashkilot a'zolari Markaziy Osiyoda 1980-yillarning oxirlari va 90-yillarning boshlaridan o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yish uchun harakat qila boshlashdi. Bu yo'lda ular missionerlar, volontyorlar, turli xil markazlar imkoniyatlaridan keng foydalanishdi. Ushbu davrda aytib o'tilganidek Farg'ona vodiysida "Islom lashkarlari", "Jihodchilar", "Yosh jihodchilar uyushmasi", "Adolat", "Tavba" tashkilotlari ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni keltirib chiqarishga harakat qilishgan². 2000-yillarning o'rtalaridan Tojikistonda "Bay'at" guruhi, Qirg'izistonda "Jayshul Mahdiy", Qozog'istonda "Jundul xalifat" kabi guruhlar faollasha boshlashdi. Umuman olganda "Jihodchilar" jamoalarining faoliyatida quyidagilar kuzatilmoqda: o'z tarafdorlarini ko'paytirish; jamoa saflariga tadbirkorlarni jalb etishga alohida e'tibor qaratish; xorijdagi mehnat migrantlari orasida targ'ibot ishlarini faollashtirish; yangi yollangan jamoa a'zolarini chet ellardagi maxsus lagerlarda tayyorgarlikdan o'tkazish; "xujralar" tashkil etish orqali yoshlar ongiga diniy-ekstremistik g'oyalarni singdirish; dunyoviy mamlakatda olib borilayotgan diniy siyosatni obro'sizlantirish maqsadida xorijiy OAV va Internet tarmog'i orqali soxta ma'lumotlar tarqatish va shu kabilar.

¹ Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy toshkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – T.: Toshkent islom universiteti, 2014.-154-155 betlor

² Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mofkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – T.: Toshkent islom universiteti, 2014.-167- bet

“O‘zbekiston islom harakati” ning jamiyat taraqqiyotiga tahdidi.

Vahhobiylik islom dinining hanbaliy mazhabidagi diniy-siyosiy oqim bo‘lib, 18-asrning o‘rtalarida Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelganligi yuqorida aytib o‘tildi. Asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob 1703-yilda tug‘ilgan. Ustozi Abdulloh ibn Sayfo yosh Abdulvahhobni hanbaliy mazhabi yo‘nalishida vaxdoniyat (yakkaxudolik) aqidasi bo‘yicha tarbiyalagan. Uning dunyoqarashida mashxur vaxdoniyatchi Ahmad ibn Taymiya asarlari katta ro‘l o‘ynagan. Natijada u Islom olamida vaxdoniyatni qattiq himoyachisi, tashviqotchisi sifatida maydonga chiqadi.

1996-yilda tashkil topgan. Dastlab “O‘zbekiston Islomiy uyg‘onish partiyasi” deb nomlangan. O‘IH tarkibiga asosan 1992-93- yillarda O‘zbekistonda faoliyatlari taqiqlangan bir qancha islomiy guruhlar kirgan: “Adolat” uyushmasi (Namangan), “Islom uyg‘onish partiyasi” (1990-yilda Astraxanda asos solingan, 1991-yil yanvarda O‘zbekiston bo‘limi ochilgan), “Odamiylik va insonparvarlik” (Qo‘qon), “Turkiston islom partiyasi”, “Islom lashkarlari” (Namangan). O‘IH ning bo‘lajak a‘zolari 90-yillardagi ta‘qiblardan so‘ng Tojikiston va Afg‘onistonga qochib o‘tganlar. Ularning ko‘pchiligi Birlashgan tojik muxolifati (BTM) tomonida fuqarolar urushida ishtirok etgan.

O‘IH tashkil etilgach, uning siyosiy rahbari etib T.Yo‘ldoshev, harbiy qism rahbarligiga J.Xojiyev, matbuot markazi rahbari va T.Yo‘ldoshev o‘rinbosari lavozimiga Zubayr ibn Abdurrahmon (Abdul-Rahim) saylandilar.

Mazkur harakatning asosiy maqsadi etib Farg‘ona vodiysi hududida islom davlatini barpo etish qo‘yildi. O‘IH rahbariyati qator xalqaro va mintaqaviy islomiy tashkilotlar, avvalambor, “Al-qoida”, “Tolibon”, “Hizbut tahrir”, “Al-ixvon al-muslimun” bilan hamkorlik qiladi.

90-yillarning o‘rtalaridan chet ellarda uya qurib olgan jinoyatchi to‘dalar harbiy-siyosiy tizim yaratish maqsadida faol harakatlar olib bordilar. 1994-95-yillarda ular Afg‘onistonning o‘zbeklar ko‘p yashaydigan hududlaridan katta mablag‘dagi “yordam puli” yig‘dilar. O‘IHning siyosiy rahbari - o‘zini Muhammad Tohir Foruq deb nomlab olgan Tohir Yo‘ldoshev moliyaviy bazani kuchaytirishda asosiy rol

o‘ynadi. T.Yo‘ldoshev Pokiston, Turkiya, Saudiya Arabistonining qator radikal guruhlari, jumladan “Hizbut tahrir” rahbarlari bilan uchrashdi. Uchrashuvda turli masalalar bilan bir qatorda, terrorchilik xurujlarini amalga oshirish yuzasidan muzokaralar olib borildi. Shuningdek, ekstremistik harakatlar homiylaridan moddiy yordam olish masalasiga alohida urg‘u berildi.

O‘IH a‘zolari asosiy tayyorgarlikni Pokiston va Afg‘oniston hududidagi lagerlarda o‘taganlar. Shunday lagerlardan biri “Al-Foruq”: Afg‘on-Pokiston chegarasi yaqinidagi Xost tumanining tog‘ darasida joylashgan. Mazkur lager 80-yillar boshida Usoma bin Lodin mablag‘lari hisobiga sovet agressiyasiga qarshi afg‘on mujohidlarini tayyorlash uchun barpo etilgandi.

“Tolibon” harakati kuchlari Afg‘oniston hududining talaygina qismini bosib olgan paytda, O‘IH bilan yaqin aloqaga kirishdi va uning homiysiga aylandi. O‘IH toliblarning “Edore-ye Extezor” razvedka xizmati hamkorligida yurtimiz hududida ekstremistik g‘oyalarni yoyish, barcha muxolif kuchlarni O‘zbekistondagi mavjud konstitusiyaviy tuzumga qarshi kurash bayrog‘i ostida birlashtirish rejalarini tuzgan edi.

G‘oyaviy harakat “jihod” va “hijrat”ning farz ekani va “shahidlik”ning fazilatlarini targ‘ib qilishga qaratilgan. Ular O‘zbekiston hududida qator jirkanchli hodisalarni (1999-yil 16-fevral voqealari, 1999-yil 31-martida Xorazm viloyatida avtobusning garovga olinishi, 1999-yil avgust oyidagi O‘sh va Botkent voqealari, 2000-yil avgustda Surxondaryoning Sariosiyo Uzun tumanlariga qilingan hujum va shu kabilar) amalga oshirishadi. Oldiniga Tojikiston, undan esa Afg‘oniston hududiga qochib o‘tishadi. Afg‘onistonda xalqaro kuchlar tomonidan aksilterror operatsiyalari boshlangach Pokiston hududidan boshpana topishgani haqida ma’lumotlar bor. Keyingi yillarda diniy-siyosiy mafkurada AQSH boshchiligidagi G‘arbga nisbatan global jihodda ishtirok etish bosh maqsad sifatida yangray boshladi.

“Hizbut – Tahrir” oqimi va uning mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotiga tahdidi. “Hizb” so‘zining lug‘aviy ma’nosi-guruh, firqa, partiya, tobe kishilar demakdir. “Hizbut tahrir” ning to‘la nomi “Hizbut tahrir al-islomiy” – “Islom ozodlik partiyasi” bo‘lib u norasmiy

siyosiy oqim sanaladi. “Hizbut tahrir” 1928-yilda Misr Arab Respublikasining Islomiy shahrida tashkil topgan “al-Ihvon al-Muslimun” – “Musulmon birodarlari” diniy-siyosiy tashkilotidan 1952-yilda ajralib chiqqan firqadir. Bu firqaning asoschisi shayh Taqiyuddin Nabahoniy (1909-1979)dir. Hozirda bu diniy-siyosiy partiyani falastinlik Abulqadim Zallum boshqarib kelmoqda. Bugungi kunda uning shtab-kvartirasi Londonda joylashgan.

“Hizbut tahrir” tuzilma jihatidan piramida ko‘rinishida tashkil topgan. Eng quyi tuzilma 4-5 kishidan iborat «Doris» lardan tarkib topgan «xalqa»lardan iborat. Ular guruh rahbari “mushrif” dan saboq oladi. Bunday kichik «halqa»larga bo‘linishi, tashkilot asoschilarining fikricha, fosh bo‘lish imkoniyatini mumkin qadar kamaytiradi. Mashg‘ulot haftada kamida bir marta o‘tkazilishi shart. Bunday «dars» larda nomigagina diniy ta‘lim berilib, asosiy e‘tibor yoshlar tarbiyasidagi g‘oyaviy-ma‘naviy bo‘shliqdan foydalanib, ularning ongiga g‘arazli siyosiy fikrlarni joylashga qaratiladi. Xalqa a‘zolari bir-birlarini faqat ismi yoki taxallusi orqali biladi. Ta‘lim olish g‘oyat yashirin ravishda olib boriladi. Tashkilotga a‘zo bo‘layotgan nomzod har qanday sharoitda ham hizb faoliyati va rahbari haqidagi ma‘lumotni sir saqlash haqida qasam ichadi.

Butun dunyo bo‘yicha «Hizbut tahrir» harakati rahbari «amir» deb yuritiladi. Firqaning mintaqaviy rahbari «mutamad» «amir» tomonidan belgilanadi. «Mutamad» esa viloyat darajasida ishlaydigan «ma’sul» hamda tuman miqyosida faoliyat ko‘rsatuvchi «musoid»ga rahbarlik qiluvchi «mahalliy jihoz»ni tashkil etadi. Mahalliy jihoz har oyda kamida bir marotaba to‘planib o‘z muammolarini hal etadi. Firqaning har bir a‘zosi o‘z imkoniyatiga qarab asosiy mehnat mashg‘uloti daromadi hisobidan 5-20 foiz miqdorida a‘zolik badali (soliq) to‘lashi majburiydir.

Hizbut tahrir siyosiy partiya bo‘lib, u fikrga bosh qurol sifatida suyangan holda islomiy halifalikni qayta tiklashga chaqirdi. Boshqacha aytganda «Hizbut tahrir»chilarning asosiy maqsadi islom davlatlari o‘rtasida allaqachon o‘z umrini o‘tab bo‘lgan «Halifalik» davlatini tuzish g‘oyalarini targ‘ib qilib, kelajakda amaldgai davlat boshqaruvini ag‘darib tashlashdan iborat.

Vahhobiylar hukumatni qo‘lga olishda ochiq kurash, ekstremizm, terror yo‘lini tuzib, «hizbchilar» g‘oyaviy, mafkuraviy kurash usulini qo‘llaydilar. Islom Karimov ta’kidlaganidek: «Avvalambor, ular, yoshlarni o‘z ta’siriga oladi, ongini zaharlaydi. Aql-hushini yo‘qotgan mana shunday odamlarni tayyorlab, keyin qo‘liga qurol beradi. Ularni o‘z Vataniga, o‘zini odam qilib voyaga yetkazgan el-yurtiga qarshi qo‘yadi».

Hizbchilar demokratiyani butkul inkor etadilar. Mazkur diniy tashkilot 90- yillarning boshlarida boshqa diniy toifalar qatori O‘zbekistonga yashirin kirib kelib mahfiy faoliyat yurita boshlagan. Odamlarimizning soddaligi, Islomga bo‘lgan chanqoqligi, ko‘p narsalarni behabarliklari kabi omillardan juda unumli foydalandilar.

Mazkur diniy-siyosiy partiyaning «Al-Vayl»- «Ong» nomli har oyda bir marotaba nashr etiladigan jurnali bo‘lib, u turli yashirin yo‘llar bilan yurtimizga olib kelinadi. Bu jurnal sahifalarida din yo‘lida o‘zini o‘zi portlatgan odam shahid bo‘ladi degan fatvo berilgan. Bu Islomda qoralanadi. Hizbchilar biz yashayotgan davlatni kufr davlati, kofirlarni yurti deb yuritadilar. Bizning yurtimizni ilk Islom yuzaga kelgan johiliya davriga tenglashtiradilar.

O‘z maqsadlari halifalikni tiklash yo‘lida mamlakatimizdagi tinch, osoyishta hayotni izdan chiqarib fuqarolar urushini boshlash, mamlakat iqtisodiy faoliyatiga putur etkazish, millatlararo va dinlararo nizolarni keltirib chiqarishga uringanliklari sir emas.

Ular o‘z faoliyatlarini asosan uch bosqichda olib borishga yo‘naltirilganlar:

- Tushuntirish ishlari. Ongi to‘liq shakllanmagan yoshlarni din niqobi ostida o‘z tuzog‘iga ilintirish. Fikri zaif, ta’siriga beriluvchan huquq-tartibot organlari, hokimiyatlardagi ma’sul shaxslarni o‘z tarafiga og‘dirish;

- birgalikda harakat qilish, fikriy kurash orqali «ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi» yo‘lida fikriy inqilobga yetishish. Ya’ni g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan kishilarni hizbchilarning yovuz niyatli inqilobiga tayyor holga keltirish;

- inqilob-to‘ntarish, hukumatni ummat orqali qo‘lga kiritib, «Xalifalik» davlatini tuzish.

Xulosa shuki, «Hizbut - tahrir»ning gʻoyasi islom taʼlimotidan uzoq, demokratik – huquqiy davlat konstitusiyasiga ziddir. U vijdon erkinligini suisteʼmol etib, siyosiy hokimiyatga intilish yoʻlini tutgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning tashkil topganiga yarim asrdan oshgan boʻlsada, hanuzgacha dunyoning biror davlatida tan olinib, rasmiy roʻyhatdan oʻtgan emas. U hech qaysi davlatda qaror topa olgani yoʻq.

Bunday firqa va oqimlar jamiyatda siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul, eng yomoni millatlararo va dinlararo nizolarni, birodarkushlik va xunrezliklarni keltirib chiqaradi halos.

Mustaqil Oʻzbekiston taraqqiyotiga tahdid soluvchi boshqa diniy-siyosiy harakatlar. Xalqimiz mustaqillikka erishgandan soʻng vijdon erkinligining amalda toʻliq taʼminlanishi, din va diniy qadriyatlarning tiklanishi uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilganligidan foydalangan ayrim kimsalar din niqobi ostida zararli gʻoyalarni tarqatish uchun turli diniy-siyosiy guruhlar tuzib mamlakatimiz taraqqiyotiga tahdid solishga urindilar. Bular qatoriga «Akromiylar», «Nur» chilar, «Tavba», «Islom lashkarlari», «Adolat», «Islom uygʻonish partiyasi» kabilar kiradi. Endi shular haqida qisqa fikr yuritamiz.

«Akromiylar» islomdagi diniy-siyosiy harakat. 1997-1999-yillarda Fargʻona vodiysida paydo boʻlgan. Uning asoschisi 1960 yilda Andijonda tugʻilgan Akrom Yoʻldoshevdur. U vahhobiylik oqimiga tayanib 1992-yilda 12-darsga moʻljallangan «Iymonga yoʻl» deb nomlangan dasturni ishlab chiqqan. Bu harakat vakillari faqat Allohgagina eʼtiqod qilib, Paygʻambarimizga iymon keltirmaydilar. Ular bugungi mavjud tuzumni tan olmaydilar. Harakat aʼzolari davlat, qonun, ota-onaga emas, faqat oqim sardorlariga boʻysunish lozim deb hisoblaydilar. Ularning pirovard maqsadi islom davlatini qurishdir. Akromiylar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar: 1. «Sirli» yoki «maxfiy»; 2. Moddiy. 3. Maʼnaviy. 4. «Uzviy maydon»; 5. Toʻntarish. Dasturda diniy taassubga moyilligi bor shaxs tanlab olinishi, uning moddiy hayoti yaxshilanishi, ekstremizm, terrorchilik ruhidagi adabiyotlar bilan tanishtirilishi, boshliqning topshiriqlarini soʻzsiz bajarishi va nihoyat mavjud konstitusiyaviy tuzumni agʻdarib tashlab, oʻz hokimiyatlarini oʻrnatishi bayon etilgan. Akromiylar hozirgi kunda musulmonlarga namoz,

roʻza, zakot, haj amallari farz emas, chunki biz kufr davlatida yashamoqdamiz, deb daʼvo qiladilar. Toki islom davlati qurilmaguncha, mazkur ibodatlarni bajarish shart emas deb hisoblaydilar. Oʻzbekiston musulmonlari bu oqimni islomga yot oqim deb baholadi. Oqim xalqning keskin qarshiligiga uchrab, faoliyati barxam topdi.

«Nurchilar» diniy-siyosiy oqimi gʻoyalarining mamlakatimizga kirib kelishi 1992- yillardan boshlab kuzatilgan. Bu oqim asoschisi turkiyalik Said Nursiy boʻlib, maqsadi mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi oʻta diniy-mutaassib, fanatik kishilarni tarbiyalashdan iborat.

Dastlab oqim gʻoyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va maʼnaviy yordamida yoshlarimiz ongiga etkazilgan. Oqim ayniqsa Termiz va Denov shaharlarida keng tarqalgan boʻlib, koʻrilgan choralar natijasi oʻlaroq ularning payi oʻz vaqtida qirildi. Hozirgi kunda ular mahfiy tarzda harakat olib bormoqdalar. «Nur» chilar diniy bilim berish yoʻli bilan islom aqidaparastligini avj oldirish yoʻlini tutadilar.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatgan ekstremistik ruhdagi harakatlardan biri «Tavba» sanaladi. Unga Ozarbayjonda Xoji Abdullo asos solgan. Oʻzbekistonda bu harakatga namanganlik Abduvali Yoʻldoshev va Isxoq Jabborovlar rahbarlik qilgan.

Harakatning maqsadi «vahhobiylik»ni qoʻllab-quvvatlash, aholi oʻrtasida mavjud tuzumga qarshi targʻibot ishlari olib borish, jangarilarni tayyorlash, ularni moddiy jihatdan ragʻbatlantirib turish, pirovardida hokimiyatni terror yoʻli bilan egallashdir. Ular turli talon-taroj va terror, qoʻrqitish, bosim oʻtkazish yoʻli bilan mablagʻlar topib oʻz moddiy ehtiyojlarini qondirganlar. Bu yoʻlda Fargʻona vodiysi hokimiyat organlari xodimlariga va aholiga bir qator ogʻir vaziyatlar yetkazganlar. Mazkur harakat davlatimizning tezkor harakati natijasida oʻz vaqtida tugatildi.

1989-1991-yillarda Oʻzbekistonda «Islom uygʻonish partiyasi» faoliyat koʻrsatgan. Bu partiyaning asosiy maqsadi – musulmon davlati barpo etish. Ana shu partiya ayni Tojikistonda tartibsizliklarni keltirib chiqarib, koʻplab kishilarning hayotlariga zomin boʻldi.

Yuqorida Islom dinidagi «Vahhobiylik», «Hizbut - tahrir» oqimlari, «Akromiyalar», «Nur» chilar, «Tavba», «Islom lashkarlari», «Adolat», «Islom uygʻonish partiyasi» va boshqalarning mohiyati, mazmuni va

maqsadlari haqida baholi-qudrat fikr yuritdik. Islomda yuzaga kelgan bunday oqim va harakatlar qanday ko‘rinishda bo‘lmasin ularning asl maqsadi nimalardan iboratligini umumlashtirib quyidagilarni aytish mumkin: «Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, g‘animlarimizning asosiy niyati – O‘zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, bugun biz barpo etayotgan farovon va osuda hayotini buzish, tobora kuchga kirayotgan davlatimizni ag‘darish, tanlangan yo‘limizdan qaytarishdir. Odamlarimizning yuragiga vahima va qo‘rquv solish hisobidan ularning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yo‘qotish, bir-biriga qarshi qo‘yish, yurtimizda, mintaqamizda o‘z manfaati, o‘z siyosatini o‘tkazishdan iborat».

Bizning vazifamiz hamisha ogoh va sergak bo‘lishdan iborat. Hech qachon Islom dini ota-bobolarimiz dini ekanini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma‘rifat ekanini yoddan chiqarmasligimiz, uni yuksak qadrlashamiz lozimligini esdan chiqarmaylik. Dinga hurmat va e‘tiqod biz uchun o‘lmas qadriyat bo‘lib qolmog‘i lozim.

Tayanch so‘z va iboralar

Hizbut-tahrir, musulmon birodarlar, ekstremizm, vahhobiylik, diniy qadriyatlar, diniy bag‘rikenglik, ma‘rifat, fundamentalizm, aqidaparastlik, dahriylar, adolat guruhi, tavba guruhi.

Takrorlash uchun savollar

1. Diniy ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
2. Diniy-ekstremistik mafkuralarning vujudga kelish ildizlari?
3. “O‘zbekiston islom harakati” ning jamiyat taraqqiyotiga tahdidi?
4. “Hizbut – Tahrir” oqimi va uning mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotiga bugungi kundagi tahdidini ko‘rinishlari qanday?
5. Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotiga tahdid soluvchi boshqa diniy-siyosiy harakatlar nimalar bilasiz?

Mavzu: MISSIONERLIK HARAKATINING KELIB CHIQISHI VA UNING HOZIRGI BARQARORLIKKA XAVFI.

Reja:

- 1. Missionerlik tushunchasi, mazmuni va mohiyati.**
- 2. Zamonaviy missionerlik uyushmalari.**
- 3. Chet ellik missionerlar va volontyorlarning Markaziy Osiyodagi buzg‘unchilik faoliyati.**

1. Missionerlik tushunchasi, mazmuni va mohiyati. Missionerlik haqida so‘z borar ekan eng avvalo ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatiga e‘tibor berish lozim. “Missionerlik” atamasi lotincha “missio” so‘zidan olingan bo‘lib o‘zbek tilida “yuborish”, “vazifa topshirish”, shundan kelib chiqqan xolda missioner so‘zi esa “vazifa bajaruvchi” degan ma‘nolarini anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal etishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat jarayonini o‘zida ifoda etadi.

Missionerlik hatti-harakatlarining paydo bo‘lishiga doir adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki bu so‘z asosan xristian dini bilan bog‘lanadi. Missionerlik, unga xos bo‘lgan xususiyatlar tahlil etilar ekan har yili qayta nashr etiladigan “Word Book” (Jahon kitobi) ensiklopediyasida “Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni o‘z diniga targ‘ib qilish va kiritish uchun yuborilgan inson”, -fikir qayd etilgan. Moskvada nashr etilgan “Kirill va Mefodiyning katta ensiklopediyasi” da “Missionerlik biror diniy birlashma vakillarining o‘z e‘tiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati”, -degan ta‘rif keltiriladi.

Umuman olganda turli lug‘at va adabiyotlarda keltirilgan ta‘rif-tavsiflar bir-biriga juda yaqin bo‘lib, ularga tayangan holda quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin. Avvalombor, missionerlik bir dinga e‘tiqod qiluvchi halqlar orasida boshqa dinni targ‘ib qilishni anglatadi. Bunday harakatning dastlabki ko‘rinishlari miloddan avvalgi III asrda Hindistonda buddizm doirasida ro‘y bergan. Xristianlikda esa missionerlik IV asrda paydo bo‘lgan. Rivojlangan davlatlar tomonidan mustamlakachilik harakatlari kuchaygach katolik missionerlari mazlum xalqlar orasida ham o‘z hatti-harakatlarini kuchaytira boshlashdi.

Shuningdek xristianlik doirasida tashkil etilgan turli diniy ordenlar yangi mustamlakalar bosib olishda ham, mustamlakachillika qarshi milliy ozodlik harakatlarini bostirishda xam faol ishtirok eta boshlashdi. Shunisi e'tiborga molikki, missionerlik rivojlanib borgan sari tegishli tashkiliy asoslar ham yaratib borilgan. Xususan katolik missionerlariga rahbarlik qilish uchun papa Grigoriy XV 1662-yilda Diniy targ'ibot kongregatsiyasini (1668-yildan "Xalqlarni Injilga e'tiqod qildirish kongregatsiyasi") ta'sis etgani fikrimizning dalili bo'la oladi. Rim papasi Piy XII ning "Prinseps postorum" (1699), Pavel VI ning "Populorum progressio" (1967) nomalari, II Vatikan soborida (1962-1965) missionerlik masalalariga bag'ishlab qabul qilingan maxsus dekret qabul qilingani ham bu yo'ldagi ishlar tadrijiy tashkil etilganini ko'rsatadi.

Missionerlik muassasalari yirik kapital va yer-mulklarni tasarruflariga olib, o'z mamlakatlarining kolonial hududlarda olib borayotgan siyosatini qo'llab-quvvatlashda ham faol ishtirok etishgan. Bu holat X-XIII asrlarda amalga oshirilgan salib yurishlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Salib yurishlarining bosh tashkilotchisi Rim papasi boshchiligidagi Katolik cherkovi edi. "Muqaddas yer" ya'ni Kuddusni, Iso Masih qabrini g'ayridinlardan ozod qilish shiori ostida olib borilgan urush aslida bosqinchilik harakterida bo'lgan. Missionerlik maqsadlariga, katta miqdorda boylik orttirishga asosiy e'tibor qaratildi. Tarixdan shu narsa ma'lumki, Quddusni egallab olgach, shahardagi masjidlariga o't qo'yadilar, nasroniylikni qabul qilishni istamagan ko'plab kishilarni qilichdan o'tkazishadi. "Muqaddasni yer" ni ozod qilish shiori ostida butun Yevropa nasroniylarini oyoqqa turg'aza olishdi. Salib yurishlarida turli diniy ordenlar ishtirok etishdi. Odatda ular Quddus va unga tutash shaharlarni bosib olishlari bilanoq u joylarni tark etishardi. Qo'shinning yollanma ekanligi, mayorat tizimining mavjudligi bunga asosiy sabab edi. Salibchilarning asl qiyofasi ayniqsa to'rtinchi salib yurishida (1202-1204-yillar) yaqqol ko'zga tashlanadi. Salibchilarning bu galgi yurishlari Vizantiya poytaxti Konstantinopolni bosib olinishi bilan tugaydi.

Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin boshlanib ketgan koloniyallashtirish siyosati davrida Katolik cherkovi yangi mustamlakalarni nasroniylikka o'tkazish maqsadida bir qator missionerlik

guruhlarini yangi qit'alarga yo'lladi. O'z navbatida missionerlik katolik cherkovi doirasida yangi yerlarni bosib olishning g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi. Ma'rifat tarqatish, tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini olib borish jarayonida xristianlik targ'ibotini ham kuchaytirib borishgan. Shu asnoda tajriba osha borgan sari, uning faoliyat doirasi kengaygan sari missionerlar xristianlikni qabul qilgan aholi ichidan mahalliy ruhoniylar tayyorlashga katta e'tibor berishgan. 1978-yildagi konklavlarda¹ Afrikadan 12 ta kardinal, Osiyodan 9 kardinal ishtirok etgani ana shu harakatning hosilasi edi.

Hozirgi kunda missionerlik sertarmoq soha hisoblanadi. Ular kirib bormagan mamlakat, ular faoliyat yuritmayotgan bironta sohani topish qiyin. Zamonaviy missionerlikka xos umumiy xususiyatlar sifatida quyidagilarni aytish mumkin.

Avvalo missionerlik uyushmalari o'z hukumatlari tomonidan turli shaklda ko'mak olib turishlarini ta'kidlash zarur. Shuningdek ular o'zlari faoliyat yuritmoqchi bo'lgan hududning aholisi, undagi demografik vaziyat, iqtisodiy –ijtimoiy muammolari haqida ma'lumot olishlari uchun o'z tadqiqot markazlariga ham ega. Bugungi missionerlik uyushmalarining o'z targ'ibotini istalgan tilda, istalgan adadda chop ettira olishlari ularning katta kuchga ega ekanligini ko'rsatadi. Missionerlik uyushmalari dunyo bo'yicha demokratik qadriyatlar, inson huquqlari ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganidan ham o'z maqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalanishga urinishmoqda. Ularning faoliyatlari qaysiki mamlakatda taqiqlansa, shu mamlakatda inson huquqlari poymol etilayotgani haqida jar solishadi. "Word Book" ensiklopediyasi ma'lumotlari qaraganda dunyodagi jami missionerlarning uchdan ikki qismi katolik missionerlari tashkil etadi. Shunday bo'lsada hozirda Protestantlik ham missionerlikning asosiy homiysi hisoblanadi.

Shunga qaramay, missionerlikni faqat xristian dini bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi. Xozirgi kunda missionerlik faoliyati bilan faol shug'ullanishga xarakat qilayotganlar orasida bahoiylar va krishnachilar ham borligi fikrimizga misol bo'la oladi.

¹ Katolik cherkovining eng yuqori darajadagi ruhoniylari –kardinallarining kengashi hisoblanib, Papa ham aynan shu kengash a'zolari orasidan saylanadi.

2. Zamonaviy missionerlik uyushmalari. Aytilganidek hozirgi kunda missionerlik sertarmoq soha hisoblanadi. Bugun missionerlar kirib bormagan jabxa, ular faoliyat yuritmayotgan mamlakat dunyoda topilishi qiyin.

Missionerlar alohida e'tibor qaratayotgan sohalar qatorida ta'lim sog'liqni saqlashni va bepul ijtimoiy yordam tizimini ko'rsatish mumkin. Zamonaviy missionerlikka bir qator umumiy xususiyatlar xos. Ular quyidagilardan iborat.

Eng avvalo aytib o'tilganidek ko'pgina zamonaviy missioner tashkilotlari o'z hukumatlari tomonidan turli shakllarda ko'mak olib turishlarini ta'kidlash zarur. Shuningdek, missionerlar o'zlari faoliyat yuritmoqchi bo'lgan xudud axolisi diniy e'tiqodi ularning ijtimoiy muamolari haqida ma'lumot olishlari uchun o'z tadqiqot markazlariga xam egalar. Missionerlar bugungi kunda xoxlagan tilda va adadda o'z diniy adabiyotlarni chop eta olishlari mumkinligi ham ularning imkoniyatlari naqadar keng va kuchli ekanini ko'rsatadi.

Zamonaviy missionerlar dunyo bo'yicha demokratik qadiryatlar, inson huquqlari ustivor ahamiyat kasb etib borayotganidan xam o'z maqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalanmoqdalar. Chunonchi, ularning faoliyati qaysi davlatda taqiqlansa o'sha davlatda xalqaro xujjatlar buzulayotgani, inson xuquqlari poymol etilayotgani xaqida jar solishadi. Bunday hollarda ular ayrim xalqaro xujjatlarda qayd etilgan qoidalarni ro'kach qiladilar. Xususan ko'pincha "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi" va "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt"larda keltirilgan, har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga egaligi ushbu huquq o'z dinini yoki e'tiqodini o'zgartirish ekanligini hamda ta'limotda toat-ibodat qilishda, diniy rasm-rusum va ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish o'z dini va e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga olishi, axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan davlat chegaralaridan qat'iy nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga olishi xaqidagi bandlarini keltirishadi. Lekin missionerlar ushbu qonunlarni ro'kach qilishlari unchalik ham asosli emas. To'g'ri, yuqoridagi ikki hujjatda keltirilgan

bandlar mavjud. Lekin, ushbu moddaning keyingi bandlariga nazar tashlansa, xuddi bizning "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" Qonunimizdagi holat kelib chiqadi. Ya'ni avval vijdon erkinligi daxlsizligi e'tirof etilib, so'ngra bu narsa cheklanishi mumkin bo'lgan ba'zi holatlar keltirib o'tilgan.

Bir qancha oqimlarga bo'linib ketgan Protestantlikda missionerlik din arkonlaridan biri xisoblanib, missionerlik jamiyatining har bir a'zosi esa bunday amaliyotni o'zi uchun farz deb biladi. Shuning uchun ham, hozirda dunyodagi xalqaro missionerlarning ko'pchiligini protestant missionerlari tashkil qiladi. Agarda protestantlik tarqalgan hududlar xotirasiga nazar tashlasak, ularning deyarli barchasi rivojlangan yirik davlatlarda joylashganiga guvoh bo'lamiz.

Protestantlikda oqimlar juda tez-tez paydo bo'lib turadi, har bir oqim o'z missionerlik tashkilotiga ega bo'ladi. Quyida protestantlikda eng yirik va missionerlik bilan faol shug'ullanadigan tashkilot va uyushmalar xaqida fikr yuritiladi.

Protestant oqimlari orasida eng yiriklaridan biri bo'lmish adventizm¹ oqimiga 1831- yili Uayt Miller tomonidan asos solingan. U.Miller Bobliya matnlariga asoslangan xolda 1843-1844- yillarda Insonning ikkinchi qaytishi yuz beradi deb bashorat beradi. Bashorat amalga oshmagan bo'lsada, oqimning ta'siri ko'pchilik orasida saqlanib qoladi.

"Yettinchi kun adventistlari" Adventizm zamirida paydo bo'lgan eng yirik oqim hisoblanadi. 1844- yilda Nyu-Gempshir shahrida bir guruh kishilar tomonidan tuzilgan ushbu oqimning asoschisi Elena Uayt hisoblanadi. 1860- yilda alohida diniy konfessiya sifatida rasman tan olingan ushbu oqim vakillari 1863- yildan boshlab o'z diniy tashkilotlarini tuza boshlaydilar.

Yettinchi kun adventistlari asosiy aqida sifatida Iso Masihning qaytishiga ishonishni saqlab qolishgan. Bundan tashqari ular Bibliya buyruqlariga bo'ysunishni qat'iy talab qilib qo'yib, ulardan eng muhimi to'rtinchi buyruq, ya'ni shanba kuniga amal qilishni talab qiladilar. Ayni paytda, ular ruhning abadiyligi, jannat va do'zax tushunchalarini inkor

¹ lot. adventus – kelish, qaytish. Ushbu oqim vakillari Iso Masih qaytib kelishi va yer yuzini poklashini kutib o'tirishadi.

qilishadi, cho‘qintirishni esa butun tanani suvga botirish orqali o‘tkazishadi.

Tashkilotning har bir a‘zosi, o‘z oylik daromadining o‘ndan birini cherkov hisobiga o‘tkazishi shart.

Yo‘nalish asoschisi Elena Uayt tomonidan ishlab chiqilgan “Sanitar reformatsiya”ga ko‘ra, cherkov a‘zolariga “nopok hayvonlar” go‘шти, xususan, cho‘chqa go‘štini yeyish, kofe, choy, vino ichish, tamaki chekish ta‘qiqlanadi. Turli xil ko‘ngil ochish ishlari, badiiy kitob o‘qish esa qoralanadi. Tashkilot a‘zolariga yuqori darajadagi aktiv missionerlik xosdir. Ularning aqidalariga ko‘ra, Isoning tezroq qaytishi, barcha insonlar adventistik targ‘ibotni qancha tez eshitishlariga bog‘liqdir.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoda 5 millionga yaqin adventistlar bor. Ular 184 mamlakatda 22000 dan ortiq cherkov, 5000 dan ortiq o‘quv markazlari, 50 nashriyot, 160 ta kasalxonaga ega, AQSH va Kanadada bu yo‘nalish vakillari nisbatan keng tarqalgan, 170 dan ortiq tilda missionerlik adabiyotlarini chop etadi.

Missionerlikni amalga oshirishda Yettinchi kun adventistlari an‘anaviy usullar bilan bir qatorda radio, televideniye, internet kabi zamonaviy usullardan ham faol foydalanishmoqda.

“Pyatidesyatniklar”¹ yoki **“To‘liq injil xristianlari”** – Protestantlikdagi eng yirik oqim bo‘lib, XX asr boshlarida AQShda yuzaga kelgan. Diniy hayotda “Muqaddas Ruh”² in‘omlari” degan tushunchaga tayanishadi. Ta‘limotga ko‘ra, bu in‘omlar faqatgina Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirish³ orqali Xudo O‘g‘lining (ya‘ni Iso Masihning) asl izdoshlariga, unga xizmat qilish vositasi sifatida beriladi. Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirilganlikning tashqi belgisi deb pyatidesyatniklar glossaliya, ya‘ni “xudo bilan notanishtilda gaplashish”ni tushunishadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Pyatidesyatniklik tarixi rasman 1901-yilning 1-yanvariga borib taqaladi. Aynan shu kuni Kanzas shtatining Topeke shahridagi Bibliya maktablarining birida Ch.Parxem ismli ruhoniy boshqarayotgan talabalardan biri Agnessa Ozman “uchinchi rahmat”ga

¹ Yahudiylarning qadimiy “Pyatidesyatnika” bayrami nomidan kelib chiqqan.

² Muqaddas Ruh xristian ta‘limotiga ko‘ra Xudoning ikki qifasidan biri.

³ Bunga dindor Xudo tomonidan cho‘qintirilgan hisoblanib, bu bilan u Xudoga yaqin bo‘ladi.

erishib (ya'ni, Muqaddas Ruh bilan cho'qintirilib), xitoy tilida gapira boshlaydi. Uning ketidan "xudo bilan notanish tilda gaplashish" "epidemiya"si butun maktabni qamrab oladi. Shundan so'ng Ch.Parxem o'z o'quvchilari bilan janubiy shtatlarda pyatidesyatniklikni targ'ib qila boshlagan.

Ch.Parxem shogirdlaridan biri, qora tanli D.Seymur Los-Anjelesdagi metodist cherkovining tashlandiq binosida "muqaddas pyatidesyatnika"¹ g'oyasini targ'ib qila boshlagan. Uch yil davomida ushbu cherkov aktiv faoliyat yuritib, AQShdagi qora va oq tanlilarning diqqatini o'ziga jalb qildi. Bu yerda Xudo bilan notanish tilda gaplashishni boshidan o'tkazgan ko'pchilik keyinchalik o'zining pyatidesyaniklik cherkovlariga asos solishdi. Bundan cherkovlar Skandinaviya, Angliya, Hindiston, Chili, Germaniya kabi davlatlarda ham paydo bo'ldi. Ularning bir-biridan asosiy farqi xudoning rahmatlari soni va suv bilan cho'qintirishning uslublaridadir. Muqaddaslik cherkovlaridan² ajrab chiqqan pyatidesyatniklar 3 ta rahmatga ishonishadi – dinga kirgizish, nurlantirish, ya'ni, xristian ta'limoti bilan chuqurroq tanishtirish va Muqaddas Ruh bilan cho'qintirish.

Baptistlardan ajrab chiqqan pyatidesyatniklar esa faqat 2 ta rahmat – dinga kirgizish va Muqaddas Ruh bilan cho'qintirishni tan olishadi. Shuning uchun ham, ularni "Ikki rahmat cherkovlari" deb atashadi. Ularning eng yirik birlashmasi "Xudo Assambleyalari" hisoblanadi. Suv bilan cho'qintirish usullari, ya'ni muqaddas uchlikni tan olishlari yoki inkor qilishiga ko'ra, pyatidesyatniklar ikkiga bo'linadi. Lekin bunday bo'linish barcha pyatidesyatnik cherkovlariga taalluqli emas. Ayni paytda, ba'zi cherkovlar xristianlik chegarasidan chiqqanini ta'kidlash zarur.

1960-yillarda "xudo bilan notanish tilda gaplashish" tushunchasi ba'zi boshqa protestant cherkovlari, hatto 1966-yildan katoliklar orasida ham tarqalgan.

¹ Xristian aqidasi binoan yahudiylarning pyatidesyatnika bayrami kuni xavoriylarga Muqaddas Ruh tomonidan rahmat tushirilib, ularning barchasi turli tillarda gapira boshlaganlar.

² Protestantizmdagi ilk oqimlardan biri.

Hozirgi kunda pyatidesyatniklik ko‘p sonli turli oqimlar ko‘rinishida tarqalgan bo‘lib, ularning rahbarlari har 2-3 yilda “Butundunyo pyatidesyatnik konferensiyalari”da uchrashib turishadi.

Pyatidesyatniklik insonlarning qayg‘u-alamlari, muammolari va jamiyatda o‘z o‘rinlarni yo‘qotib qo‘yishlari bilan bog‘liq masalalarga alohida urg‘u berishi va ulardan ustalik bilan foydalanishga intilishi tufayli unga ergashuvchilar soni tez suratda o‘sib bormoqda. 1990- yilda dunyo bo‘yicha bu oqim a‘zolarining soni 50 millionni tashkil qilgan bo‘lsa, hozirda taxminan 120 millionni tashkil qilmoqda.

Pyatidesyatniklikning eng yirik oqimlaridan biri – **“Xudo Assambleyalari” cherkovlariga** 1914- yilda AQShning Arkanzas shtatida asos solingan. Markazi Missuri shtatining Springfild shahrida joylashgan. Bu cherkov a‘zolarining soni 2 milliondan ortiqni tashkil etadi. Ushbu cherkov pyatidesyatniklikning muqaddas uchlik, Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirish, “xudo bilan notanish tilda gaplashish” (glossaliya) kabi g‘oyalari qatoriga, e‘tiqod orqali shifo topish, Isoning ikkinchi qaytishi, o‘liklarning ikki marta qayta tirilishi, Isoning 1000 yillik podshohligi va balog‘atga yetganlarni suvga butunlay botirish orqali cho‘qintirishdek aqidalarni ham qo‘shgan. Assambleya boshida 2 yilda bir yig‘iladigan Markaziy kengash turadi. Ular 16 nashr, jumladan, ayollar va bolalar uchun mo‘ljallangan jurnallarga, bir necha kollej va Bibliya maktablariga egalar. Xudo Assambleyalari cherkovi 98 mamlakatda o‘z jamoalariga ega, 71 mamlakatda missionerlik faoliyatini olib boradi.

Xudo Cherkovi – 1884- yilda AQShning Tennesi shtatida tashkil etilgan. Ushbu cherkov XVI asrda tuzgan reformatsiyani davom ettirish g‘oyasini olg‘a suradi. Cherkov har qanday aqidalardan pok, Xuddi Iso Masih davridagidek, sevgi bilan ish olib borilishi lozim degan aqidaga tayanadi. Shu g‘oyalarni amalga oshirish uchun 1886- yili xristian ittifoqi tuzilib, 1902- yili uning asosida “Muqaddaslik cherkovi” tuzildi va 1907- yili u “Xudo cherkovi” nomini oldi.

“Xudo Cherkovi” trinitarian-pyatidesyatnik¹ e‘tiqodiga mansub bo‘lib, “uch krizis” aqidasi tayanadi. Hozirgi kunda tashkilotni har ikki

¹ Trinitarian – “trio”, ya‘ni “uchlik” so‘zidan kelib chiqqan. Cho‘qintirish vaqtida Ota, o‘g‘il va Muqaddas Ruhlar nomi bilan cho‘qintiradigan pyatidesyatniklar, trinitarian-pyatidesyatniklar deb ataladi.

yilda yigʻiladigan “Markaziy Assambleya” boshqaradi. Uning 8 ta nashri mavjud. AQShning oʻzida cherkov aʼzolarining soni 500 ming kishini tashkil etadi. Ushbu cherkov 72 mamlakatda missionerlik faoliyatini olib bormoqda.

Xalqaro Birlashgan Pyatidesyatnik Cherkovlari ham AQShda 1945- yilda bizaga kelgan. Aqida sifatida Iso Masih nomi bilan choʻqintirishni olgʻa surishadi. Muqaddas uchlik troitsa haqidagi taʼlimotni rad etadilar. Ushbu tashkilot voyaga yetganlarni suvga botirish orqali choʻqintirish bilan bir paytda oyoqlarni yuvish, yaʼni oʻzaro muhabbatni ifodalash uchun har bir jamoa aʼzosining bir birlarining oyoqlarini yuvishi² amaliyotiga rioya qiladi. Tashkilot markazi AQShning Missuri shtatidagi Xezlvid shahrida joylashgan. Cherkov oʻz radiosiga, “Pentecosfal Herald” nomli jurnaliga ega. Hozirda ushbu cherkov 46 mamlakatda missionerlik faoliyatini olib bormoqda.

Pyatidesyatniklikda Toʻliq injil xristianlaridan tashqari taʼlimotining mazmuniga koʻra bir-biri bilan bogʻliq boʻlgan va umuman farq qiladigan boshqa koʻplab oqimlar ham mavjud.

Oʻzbekiston hududida mazkur yoʻnalishga taalluqli birinchi tashkilot 1985- yilda Toshkent shahrida tashkil etilgan. Bugungi kunda respublikamiz boʻyicha Toʻliq injilchi xristianlarning 21 ta diniy tashkiloti mavjud.

Koʻpgina ogohlantirish va maʼmuriy choralarga qaramay ular yurtimizda oʻzlarining missionerlik faoliyatlarini olib borishga intilishmoqda. Jumladan, yakshanba kunlari oʻzbek tilida maʼruzalar, qoʻshimcha Bibliya oʻqish darslari tashkil qilish qoʻlidagi harakatlar, “Hosil yigʻish kuni” deb ataladigan va har bir aʼzo cherkovga yangi odam olib kelishini ragʻbatlantirishga qaratilgan amaliyotning mavjudligi ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

“Iyegovo Shohidlari” oqimiga Charlz Teyz Rassel tomonidan asos solingan. 1870- yilda Ch.Rassel AQShning Pensilvaniya shtatidagi Pitsburg shahrida mustaqil Bibiliyani oʻrganish kurslarini ochdi. 1881- yilda uning zamirida “Sion qoʻriqchi minorasi va traktatlar uyushmasi” maxsus missionerlik adabiyotlarini chop etish uchun “Qoʻriqchi minora

² Bir oyda bir Marta “Prichesheniye” (non va vino yeyish) marosimidan oldin amalga oshiriladi.

jamiyati” tuzildi. 1931-yilga kelib tashkilot “Iyegovo Shohidlari” nomini oldi.

Rassel vafotidan keyin tashkilotga rahbarlik qilgan Iosif (Djozef) Franklik Ruzerford davrida ta’limotni yanada keng tarqatishga alohida e’tibor berildi. Tashkilot a’zolari keskin darajada oshdi. Aynan Ruzerford iyegovochilikka “armageddon”¹ tushunchasini kiritdi va 1925-yili Xudoning podshohlighi boshlanishini bashorat qildi.

Ruzerford har yili iyegovochilarning xalqaro konferensiyalarini o’tkazishni, 50 ga yaqin kitob muallifi sifatida targ’ibot ishlarida radio va grammoplastinkalardan foydalanishni yo’lga qo’ydi.

Ruzerforddan so’ng 1943-yildan tashkilotga Natan Gomer Norr (1905-1977) rahbarlik qila boshladi. O’sha yiliyoq Norr missionerlik faoliyatini yanada faolashtirish uchun “Qo’riqchi minoraning Bibliya maktabi – Galaad”² – 5 oylik o’qitishga asoslangan, iyegovochilikni butun dunyo bo’ylab tarqatish uchun xizmat qiladigan, missionerlarni tayyorlaydigan markazni ochadi.

“Iyegovo Shohidlari” uchlik³ haqidagi aqidani rad etishadi, lekin boshqa oqimlar kabi uning barcha ko’rinishlarini izohlashadi. Barcha narsaning asosi va yaratuvchisi deb Iyegovani tan olishadi. Iyegovo shohidlari Xudoning o’z shaxsiy ismi bor, bu ism “Iyegova”dir deb, bu haqda o’z tarqatma adabiyotlarida jumladan shunday deydilar: “Xudoning shaxsiy ismi bor va Iyegovo Shohidlaridan kimda-kim unga topinsa, bu ismdan foydalanishlari kerakligiga aminlar. Har narsaga qodir Xudo Musoga o’z ismini “Iyehovo”, deb e’lon qildi. O’tmishda Ibrohim, Muso va boshqa sadoqatli erkaklar Xudoning ismidan foydalanganlar. Aslida esa, kitobda Iyegova degan ism bir necha ming marotaba uchraydi”.

Ushbu tashkilot Iso Xudoning o’g’li bo’lganiga ishonsada, uning Xudo bo’lganini inkor qiladilar. Iso Iyegovo tomonidan yaratilgan yagona insondir, qolgan barcha insonlar Masih orqali yaratilgan. Muqaddas Ruh – Xudoning ko’rinmas kuchi bo’lib, u dunyo yaratilishida qatnashgan.

¹ Yunon tilidagi armagedon, qadimgi yahudiy tilidagi harmegiddo – “tog’li hudud Megiddo” so’zidan olingan bo’lib, Xayra yaqinidagi qdimgi davrda janglar o’tkazilgan hudud. Iyegovochilar aqidasi binoan Iso yerga qaytgach, u va imonlilar jamoasi, Iyulis va jinlar qo’shiniga qarshi shu joyda jang o’tkazib, g’olib bo’ladi. Bu Isoning Yer yuzidagi 1000 yillik podshohligining boshlanishi bo’ladi.

² er.av 70 yillarida quddus qamal qilingach, yahudiylar qochib berkingan, Iordan daryosi sohilidagi joy nomi.

³ Ya’ni, Xudoning 3 ko’rinishga ega ekanini

Iyegovo butun insoniyat tarixida 144 ming kishini tanlab olgan, ular o'lgandan so'ng to'g'ridan-to'g'ri tiriladi va osmon podshohligiga o'tib ketishadi. Hozirgi kunda o'sha tanlangan 144 ming kishi, ya'ni "kichik poda"dan (imoni mustahkam va din yo'lida ko'p xizmat qilgan) 9 mingga tirik deb e'tiqod qilinadi. Qolgan imonlilar, ya'ni Iyegovo shohidlariga qo'shilgan "qo'ylar"ga (oddiy dindorlar) yer yuzida abadiy jannatda yashashlari va'da beriladi.

Iyegovo shohidlari faqatgina bitta bayramni nishonlaydilar, bu Iso Masih o'limini eslash kechalari bilan bog'liq bayramidir. Bu kuni jamoa a'zolari qarindosh va tanishlarini uylariga taklif qilishadi. Dasturxonda Isoning tana va qonining ifodasi deb bilinadigan xamirturishsiz non va qizil, quruq vino bo'lishi shart.

Iyegova shohidlari missionerlikka katta e'tibor beradilar. Jamoa paydo bo'lgan davrdan boshlab asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o'z izdoshlarini ko'paytirishga harakat qiladilar. Hozirgi kunga kelib iyegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq deb hisoblanadi. Missionerlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun "Qo'riqchi minora, Bibliya va risolalar jamiyati" tuzilgan. Ushbu jamiyat korporatsiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQShning Bruklin shahrida joylashgan. Korporatsiyani yetti direktordan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporatsiya prezidentini saylashadi.

Hozirgi kunda Iyegovo shohidlari 230 dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo'ylab 111 bo'limga ega. Tashkilotning "Qo'riqchi minora" jurnali oyiga ikki marta 125 tilda, 22 milliondan ortiq nusxada "Uyg'oninglar!" jurnali oyiga bir marta 81 tilda, 20 million adadda nashr etildi. Ushba nashrlar asosan missionerlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

2006-yildan "Qo'riqchi minora"si jurnali o'zbek tilida ham chop etila boshlandi. Iyegovochilar ushbu jurnal nashrlarini yurtimiz hududiga olib kirish yo'lida doimiy harakatlar olib bormoqda. Missionerlik faoliyatini iyegovochilar:

- ularning zarracha bo'lsa ham qiziqish bildirgan odamlarni qidirish;
- so'ng ularni ta'limotni qabul qilishga tayyorlash;

- da'vat qilinayotgan odamning ongiga Bibliya kurslari va uning matnini o'rganish orqali diniy ta'limotlarini singdirish;
- prozelitlarni suv bilan cho'qintirish;
- ularni missionerlik faoliyatiga tayyorlash kabi to'rt bosqichda amalga oshiradilar.

Iyegovochilikning o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, unda har bir a'zo missionerlik faoliyatida qatnashishi shart. Ana shunday maqsadli faoliyat natijasida iyegovo shohidlari soni yildan yilga ortib bormoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda iyegovochilar soni dunyo bo'yicha 6,7 millionni tashkil etadi. Iyegovo shohidlarining bosh tashkiloti tomonidan adabiyotlar nashr etish, cherkovlar faoliyatini ta'minlashga ketadigan sarf-harajatlardan tashqari missionerlarning kundalik harajatlariga yiliga 100 million AQSH dollariga yaqin mablag' sarflanadi.

O'zbekistonda birinchi iyegovochilar 1950-yillarning oxiri, 1960-yillarning boshlarida paydo bo'lgan 1972- yilda Angren va Chirchiq shaharlarida ularning ilk jamoalari paydo bo'ldi.

Bugungi kunda respublika bo'yicha faqat bitta "Iyegovo shohidlari" cherkovi – Chirchiq shahrida rasmiy faoliyat olib bormoqda. Ushbu tashkilotning mintaqaviy markazi Qozog'iston Respublikasining Olma-ota Yesik shahrida joylashgan bo'lib, 72 rasmiy tashkiloti va 34 mahalliy jamoalarga mansub 20 ming kishini birlashtiradi.

Hozirgi kunda nomlari yuqorida zikr etilgan protestant yo'nalishlaridan tashqari yurtimiz aholisi uchun yangi bo'lgan yana bir qator noislomiy diniy tashkilotlar ham missionerlik bilan shug'ullanishga intilmoqdalar. Xususan, qadimgi hind muqaddas kitoblari – Vedalarga asoslangan "Krishnani anglash jamiyati" yangi paydo bo'lgan diniy birlashmalardan biri hisoblanadi. Unga 1966-yilda AQShda A.Ch. Bxaktivedanta Svami Prabxunada tomonidan asos solingan. 1970-yillardan e'tiboran krishnachilik turli mamlakatlarga, jumladan SSSR hududida ham tarqala boshlagan.

Krishnachilarning o'zlari tarqatgan ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning turli burchaklarida ularning 150 dan ortiq ibodatxonolari mavjud.

Krishnachilar o'z faoliyatida Shrila Prabxupadaning asarlariga asoslanadilar. 1990-yillarning o'rtalarida Toshkent shahrida joylashgan

“Krishnani anglash jamiyati” vakillari shaharning turli burchaklarida ibodat kiyimlarida yurib, turli adabiyotlarni tarqatish, asosan qariyalar uylari, shifoxona kabi muassasalarda missionerlik faoliyatini olib borish bilan shug‘ullanganlar. Ular bilan olib borilgan tadbirlar natijasida krishnachilarning bu turdagi faoliyatiga barham berilgan. Bugungi kunda ular respublikamizning ayrim hududlarida yashirin ravishda faoliyat olib borishga harakat qilmoqdalar.

Bahoiylikka XIX asrning ikkinchi yarmida Eronda Mirza Husayn Ali Nuriy tomonidan asos solingan. U 1863-yilda o‘zini payg‘ambar deb e‘lon qilib, Bahoullloh, ya’ni Allohning jilosi nomini oladi. Ushbu oqimning nomi ham Bahoulllohning nomidan olingan. Asosiy manbai “Kitob al-Aqdas” (“Eng muqaddas kitob”) deb ataladi.

Bahoiylik barcha dinlarning bir ildizlan paydo bo‘lgani va payg‘ambarlarning birodar ekaniga asoslanadi. Bahoullloh ta’limotiga ko‘ra yuborilgan payg‘ambarlar orasida eng buyuklari 9 ta bo‘lgan, ular Ibrohim (a.s.), Muso (a.s.), Budda, Zardusht, Krishna, Iso (a.s.), Muhammad (a.s.), Bob va Bahoullohlardir. Bahoiylik aqidasi ko‘ra Alloh har ming yilda yer yuziga yangi payg‘ambar tushiradi. Jannat va do‘zax, oxirat, shayton va farishtalar inkor qilinadi.

Bahoiylar hozirgi barcha dinlar bir-birlarini inkor qiladi, shuning uchun ham, ularni birlashtirish va insonlar orasidagi turli farqlarni yo‘qotish lozim deb hisoblashadi. Ularning da’vosiga ko‘ra, bunday birlashtiruvchining vazifasini bahoiylik dini bajarishi lozim. Bahoiylik izdoshlari Vatan, millat degan tushunchalarni inkor qiladilar, ular uchun yer yuzining hamma joyi Vatan hisoblanadi. Kuniga uch marta Isroilning Akka shahriga qarab ibodat qilinadi. Ushbu diniy oqimning markaziy tashkiloti Isroilning Xayfa shahrida joylashgan.

Bahoiylik XX asrning birinchi yarmidan boshlab keng tarqala boshladi. Hozirda tashkilotgi har besh yilda saylanadigan 9 kishidan iborat nazorat kengashi boshqaradi.

Hozirgi kunda bahoiylarning soni dunyo bo‘yicha taxminan 5-7 millionni tashkil etadi. O‘zbekistonda ushbu din vakillari mustaqillikdan so‘ng paydo bo‘lgan. Hozirda respublikamiz hududida bahoiylarning 6 ta diniy tashkiloti rasman ro‘yxatga olingan. Musulmonlar orasida

missionerlik harakatlarini olib borishda Qur'ondan dalil keltirishga intilish ularga xos xususiyat hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, yuqorida keltirilgan missionerlik tashkilotlarining markazlari asosan Amerika Qo'shma Shtatlari va Isroilda joylashgan. Ularning moliyaviy manbalari juda katta. Shu sababli ularning kimlarga xizmat qilishi va nima maqsadni qo'zlashi ko'pchilikka ma'lum. Bu narsa alohida hushyorlik va ogohlikni talab etadi.

3. Chet ellik missionerlar va volontyorlarning Markaziy Osiyodagi buzg'unchilik faoliyati. 1980-yillarning oxirlariga kelib Markaziy Osiyo mintaqasiga mahalliy xalqlarning turmush va tafakkur tarziga tamomila yot bo'lgan turli ko'rinishdagi mafkuralarning kirib kelishi holatlari keng kuzatila boshlandi. Albatta bu jarayon bir qator ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-ma'naviy jarayonlar bilan bog'liq edi:

Avvalo, uzoq vaqt hukm surgan kommunistik mafkuraning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy sohalarda tanazzulga uchray boshlashi bilan bog'liq edi. Bu mafkura targ'ibotchilarining bergan va'dalari, barpo etmoqchi bo'lgan jamiyatlari nafaqat Markaziy Osiyoda yashayotgan tub xalqlarning milliy manfaatlariga, mentalitetiga zid edi, balki umuman noinsoniy utopik g'oyalar bo'lib chiqdi. Bu ustqurma o'z bazisiga ega bo'lmagan uydirma bo'lib chiqdi. Natijada jamiyat hayotining qator sohalarida o'ziga xos bo'shliq yuzaga kela boshladi.

Ikkinchidan, o'zining mukammal dasturiga ega bo'lmagan qayta qurish siyosati doirasida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning erkinlashtirilishi natijasida rasmiy hokimiyatning jamiyat qator sohalari ustidan o'z nazoratini yo'qotishi bo'ldi. Ittifoq tarkibida bo'lgan, endi mustaqillik uchun kurash boshlayotgan mahalliy respublikalarda bunday ta'sirlarga qarshi kurashish tizimi, profilaktikasi mavjud emas edi.

Uchinchidan, uzoq yillar davomida mustabid tizimning olib borgan ateistik siyosati natijasida diniy qadriyatlarga, diniy tashkilotlarga, ularning infrastrukturasi jiddiy zarar yetkazilgan edi. Xalq esa milliy va diniy jarayonlarda jiddiy yangilanishlarni kutardi.

Aynan shu davrda bir qator arab davlatlaridan turli islomiy partiyalarning vakillari Markaziy Osiyo tomon intila boshlashdi. Tadqiqotchi Sh.G‘oyibnazarovning keltirishicha 1987 yilda Saudiya Arabistoni, Afg‘oniston va Pokistondan emissarlar Namangan shahriga nolegal ravishda kelishadi. Ular mahalliy ruhoniylar bilan uchrashib Farg‘ona vodiysi hududida islom respublikasini tuzishni maqsad qilgan “Islom uyg‘onish partiyasi”ni tuzish masalasini muhokama qilishadi¹. Bu yo‘sindagi partiya vakillari vujudga kelgan inqirozdan chiqishning g‘arbona va boshqa noislomiy voz kechgan hamda “hokimiyatning Olloh ato etgan shakli” halifalikni tiklashga qaratilgan o‘z variantlarini taklif etishdi. Bu variant jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy muammolarning universal yechimi sifatida targ‘ib etildi. Namuna sifatida Saudiya Arabistoni olib ko‘rsatildi. Lekin shuni unutmazlik lozimki Saudiyaning cheksiz neft, gaz zahiralari, undan keladigan daromad, chet elga chiqarilgan investitsiyalar, turizm (haj safari) uning iqtisodiy ravnaqiga katta hissa qo‘shib keldi.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek mustaqillikning dastlabki yillaridan O‘zbekistonda vijdon erkinligini ta’minlashga katta e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Asosiy Qonunining 31-moddasida shunday deyilgan: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”². Shuningdek barchaning millati, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishdan qonun oldida teng ekanligi belgilab qo‘yilgan. Ushbu konstitusiyaviy qoida yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi Qonunda ham o‘z ifodasini topgan³. Unda O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilganligiga alohida e’tibor qaratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e’tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Davlat turli dinlarga e’tiqod qiluvchi va ularga e’tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e’tiqodlarga mansub diniy

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. 219-b

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2012.- 8-bet

³ O‘zbekiston Respublikasi qonuni «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021 й., 03/21/699/0635-сон).

tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy va o'zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi.

Mamlakatimiz ko'p millatli, ko'p konfessional bo'lganligi sabab davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekistondagi diniy tashkilotlar zimmasiga hukumat hech qachon o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. O'z navbatida diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ'ibotiga oid faoliyatini mablag' bilan ta'minlamaydi.

O'zbekiston Respublikasida diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakati, shuningdek respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarning filiallari va bo'limlarini tuzishga va ularning faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek ushbu hujjatda diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishlari shartligi belgilab qo'yilgan.

Biroq keyingi yillarda qonundagi bu normalarni buzish holatlari uchramoqda. Jamiyat hayotining turli sohalarini qamrab olgan globalashuv jarayonlari diniy sohani ham qamrab oldi. Fan va texnikaning qator imkoniyatlari bois turli mazhablarning targ'iboti keng quloch yoymoqda. Shuncha yillar davomida e'tiqod qilib kelgan dinini boshqasiga almashtirish holatlari sodir etilmoqda. Bunisi kamlik qilganidek o'z oilasini, yaqinlari ham shu yo'lga boshlamoqda. Missionerlarning bunday qilmishlari jamiyatdagi milliy totuvlik, dinlararo bag'rikenglikning buzilishi, jamiyatdagi barqarorlik muhitiga putur yetishiga olib keladi. Bugungi kunda Markaziy Osiyoda o'z maqsadlarini amalga oshirishga

intilayotgan ayrim tashkilotlar, guruhlar quyidagi ko‘rinishlarda o‘z harakatlarini yo‘lga qo‘yishgan:

- qiynalib qolgan oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari bilan, davolanish uchun zarur bo‘lgan, dori-darmonlarni yetkazib berish shaklidagi xayriya tadbirlarini olib borish;
- o‘z mazhablariga tegishli bo‘lgan adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni mahalliy tillarda nashr etish, tekin tarqatish;
- da’vat qilinayotgan dinga doir filmlarni, audio-video kassetalarni tarqatish;
- turli mazmundagi ko‘rgazmalar, uchrashuvlar tashkil etish, uning barcha ishtirokchilariga maxsus sovg‘alar berish;
- yuqori malakali professional mutaxassislar tomonidan tayyorlangan yangi mazhabni (dinni) qabul qilgan odamlarning bedavo kasalliklardan tuzalib ketganiga doir soxta ma’lumotlarni keng tarqatish;
- mo‘may daromad keltiradigan ish yoki chetda o‘qishni va’da qilib yoshlarni maxsus lagerlarga olib chiqib ketish;
- mahalliy dindan kamchiliklar topish va shu kabilar.

Markaziy Osiyoda missionerlik faoliyatini olib borayotgan tashkilotlar haqida gap ketganida “Blagodat” cherkovi missionerlari faoliyatiga to‘xtalish mumkin. Ular o‘z maqsadlarini amalga oshirishda turli xil psixologik bosim usullaridan keng foydalanishlari, huquqni himoya qiluvchi organlar tomonidan aniqlangan. Jumladan, “Jumladan 2009-yilning kuzida Qozog‘istonning Uralsk tumanida faoliyat yuritgan missionerlar ikki oilaga nisbatan gipnoz usulidan foydalangani qayd etilgan. Shunga o‘xshash holatlar Taroz va Qarag‘anda shaharlarida ham kuzatilgan. Ma’lumot uchun shuni ham keltirish lozimki, mazkur cherkov 2008-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida ham rasman faoliyat olib borgan bo‘lib, qonun orqali taqiqlangan missionerlik bilan shug‘ullangani, prozelitizm faoliyatini amalga oshirishda gipnoz hamda psixotrop moddalardan foydalangani uchun ularning harakati to‘xtatilgan edi. Oradan ikki yil o‘tar-o‘tmas endi Qozog‘istonda ham ayni holat

kuzatilayotgani “Blagodat” cherkovining aslida qanday maqsadlarni ko‘zlayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda”¹.

Vatanimizning ravnaqi undagi yashayotgan turli millat vakillarining, e’tiqodidan qat’i nazar barcha fuqarolarning ijtimoiy hamkorligiga, ular o‘rtasida tarixan shakllanib kelgan millatlararo totuvlikka, diniy bag‘rikenglikka bog‘liq. Shunday ekan ushbu barqarorlik muhitini asrash-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir.

Tayanch so‘z va iboralar

Hizbut-tahrir, musulmon birodarlar, ekstremizm, vahhobiylik, diniy qadriyatlar, diniy bag‘rikenglik, ma’rifat, fundamentalizm, aqidaparastlik, dahriylar, adolat guruhi, tavba guruhi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Missionerlik tushunchasi, mazmuni va mohiyati?
2. Missionerlikning paydo bo‘lishi va asosiy maqsadlari nimada?
3. Zamonaviy missionerlik uyushmalari qaysilari bilasiz?
4. “Yettinchi kun adventistlari” qachon paydo bo‘lgan va maqsadi qanday?
5. “Pyatidesyatniklar”ning vujudga kelishi sabablari?
6. “Xudo Assambleyalari cherkovlari” tashkiloti qachon paydo bo‘lgan?
7. Chet ellik missionerlar va volontyorlarning Markaziy Osiyodagi buzg‘unchilik faoliyati nimalarda namoyon bo‘ladi?

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. 223-b

Mavzu: YAQIN SHARQDA TERRORCHI GURUHLARNING PAYDO BO‘LISH SABABLARI VA KUCHAYISHI. ISHID FITNASI.

Reja:

- 1. Yaqin Sharqning tabiiy – geografik, energetika, transport-kommunikatsion imkoniyatlari uchun kurash.**
- 2. XX asrning ikkinchi yarmida mintaqada faoliyat yuritayotgan terrorchi tashkilotlar va ularning dunyo hamjamiyatiga yetkazayotgan zararlari.**
- 3. “Hizb ut- Tahrir al-Islomiy” ekstremistik tashkilotining vujudga kelishi va faoliyati.**
- 4. ISHID fitnasi.**

1. Yaqin Sharqning tabiiy – geografik, energetika, transport-kommunikatsion imkoniyatlari uchun kurash. Yaqin Sharq uzoq yillar davomida turk sultonining mustamlakasi bo‘lib keldi. Turkiyaning birinchi jahon urushidagi mag‘lubiyatidan so‘ng Usmoniylar imperiyasi tugatildi, Yaqin Sharq Britaniya va Fransiya ta’siri ostiga tushib qoldi. Sobiq yagona saltanat o‘rnida birin – ketin sultonliklar, amirliklar vujudga kela boshladi. Deyarli arab davlatlarining barchasining boshliqlari Britaniya va Fransiya tomonidan tayinlanar edi. Sen–Remoda bo‘lib o‘tgan konferensiyada Britaniya va Fransiya yaqin kelajakda Yaqin Sharqda qazib olinadigan barcha neft konlarini o‘zaro monopoliyalashtirish maqsadida kelishib olishdi. Yaqin Sharqni o‘ziga to‘liq bo‘ysundirishga intilgan, istilochilikda “bo‘lib tashla, hukmronlik qil” tamoyiliga amalqilib Britaniya va Fransiya arab dunyosida hukmdorlari hokimiyatni saqlab turish uchun G‘arbning madadiga zor bo‘lgan kichkina davlatlarni tuzishga kirishishdi. Bu mamlakatlarning rivojlanishi, olib borayotgan ichki va tashqi siyosati nazorat ostida bo‘lib, ular bir kun kelib qudratli davlatga aylanib ketishiga G‘arbning yo‘l qo‘yish niyati yo‘q edi. G‘arb bilan tuzilgan tabiiy zaxiralarni arzon – garov savdo bitimlari oddiy arab xalqining qashshoqlashuviga, aslzoda arablarning esa boyishiga olib keldi. Bunday vaziyat mutamlaka ostiga tushib qolgan mamlakat aholisining katta

qismini qoniqtirmas edi. Natijada dastlabki paytlardan oq mintaqada milliy – ozodlik harakatlari ko‘zga tashlana bordi.

Voqealar rivoji Falastindan boshlandi. Britaniya o‘z mandati ostida bo‘lgan bu mintaqada yahudiylar mamlakatini tuzishni boshladi. Natijada Falastinda arablarning qarshilik harakati kuchayib bordi. Mamlakat qo‘zg‘olon yoqasiga kelib qolganligini anglagan Britaniya yahudiylar immigratsiyasini pasaytirishga majbur bo‘ldi. Inglizlarning bunday qo‘shformatli siyosatidan o‘z navbatida yahudiylar ham norozi bo‘lishdi. Yahudiylarning o‘zlari orzu qilgan madadni ola bilmasliklariga ko‘zi yetgach o‘zlarining harbiy tashkilotlarini tuzishga kirishishdi. Natijada 1920- yillar boshida harbiylashgan “Xagana”, 1935- yilda ekstremistik “Irgun svay Leumi” tashkiloti tuzildi¹.

Ushbu voqealar sabab arab davlatlarining deyarlik barchasida G‘arbiy Yevropaning qo‘shimcha xomashyo bazasiga aylanib qolgan mintaqaning mavqeini, uni haq–huquqini tiklash obyektiv zaruriyatga aylandi. Bunday harakat ayniqsa Misrda kuchli edi. O‘rta asrlar tarixiga e‘tibor bersak Yevropaliklar boshlagan salib yurishlariga qarshi kurashning markaziy ham Misr edi. Shunday ekan yangi davrdagi bosqinchilarga qarshi kurashda ham avangardlik ro‘li Misrga ajratilgan edi.

Misr XIX asrning 80-yillarida Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi. Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni metropoliya, xomashyo bazasiga aylantirdi. Mamlakatda saqlab qolingan qirollik hokimiyati amalda Buyuk Britaniya tayanchiga aylantirildi. Birinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng ozodlik kurashining yangi to‘lqini boshlandi. Vatanparvar kuchlar «Misr vakillari» («Vadf Misri») deb atalgan tashkilot tuzdilar. U Misr mustaqilligi uchun kurashni boshqaruvchi tashkilot edi. Tashkilotni Saad Zag‘lul boshqardi. Tashkilot Misrga mustaqillik berishni talab etdi. Bunga javoban inglizlar «Misr vakillari»ning faoliyatini taqiqladi. S. Zag‘lul Malta oroliga surgun qilindi. Bular Misrda ozodlik qo‘zg‘olonining boshlanishiga turtki bo‘ldi.

1919-yilning 9-may kuni Qohira aholisining «Misr-misrliklar uchun» shiori ostida o‘tkazgan namoyishi mustamlakachilar tomonidan o‘qqa tutildi. Bu namoyishning qo‘zg‘olonga aylanib ketishiga olib keldi.

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: “O‘zbekiston”, 2013.-101-b

Qo‘zg‘olon katta qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, bostirildi. Aholi noroziligini pasaytirish uchun Saad Zag‘ul mamlakatga qaytarildi. Ayni paytda u Parij tinchlik konferensiyasiga ham yuborildi. Biroq Zag‘ul Misr mustaqilligining tan olinishiga erisha olmadi. Aksincha, Misr ustidan Buyuk Britaniya protektorati tan olindi. Ammo Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni bundan buyon eski usullar yordamida itoatda saqlab turish mumkin emasligini yaxshi tushunar edilar. Endi Buyuk Britaniya «yangi» — sinalgan yo‘lni tanladi. Bu yo‘l Misrga davlat mustaqilligi berish, biroq turli kuchli vositalar yordamida uning amalda Buyuk Britaniyaga qaramligini saqlab qolish yo‘li edi. Shu tariqa Buyuk Britaniya 1922-yilning 28-fevralida Misrning mustaqilligini tan oldi. Misr mustaqil suveren davlat deb e‘lon qilindi.

Buyuk Britaniya o‘zida Misr hududidagi imperiya yo‘llarini qo‘riqlash, Misrni chet el agressiyasidan himoya qilish, chet el manfaatlarini himoya qilish huquqlarini saqlab qoldi. 1923-yilda qabul qilingan Konstitutsiya Buyuk Britaniyaning yuqorida sanab o‘tilgan huquqlarini qonunlashtirib qo‘ydi. Chet elliklarning barcha huquq va imtiyozlari saqlab qolindi. 1924-yilning yanvarida Saad Zag‘ul boshchiligida hukumat tuzildi.

Albatta bunday “marhamat” dan noroziliar bor edi. Natijada 1928 yilda Ismoiliya shahrida maktab mudarrisi Hasan al-Banno tomonidan “Ixvon ul-Muslimun” (“Musulmon birodarlar uyushmasi”) yacheykasi tuzildi. Al-Bannoning fikricha mamlakat mavqeini tiklash uchun islomni tiklash va shariat qonunlari bo‘yicha faoliyat yuritadigan hamda Qur’oni karim va sunna amallariga rioya etilishini ta‘minlaydigan musulmon davlati barpo etish zarur¹. Hasan al-Bannoni islom ekstremizmi asoschisi deb atash mumkin bo‘lsada, uning qarashlarida ko‘pgina harakatlarning ustavlaridagi qarashlardan jiddiy farq qiladigan muhim bir tomon bor. U musulmon olamining tanazzulining sababi sifatida G‘arbni emas, dinsizlarni emas, aybni islom jamiyatining, arablarning o‘zidan izlaydi. Shu sabab musulmonlarni salafiy islom ruhida tarbiyalashni o‘zining asosiy ishi deb hisoblaydi. Hasan al-Banno “buyuk jihad” deganda

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorism: ildizi, omillari va manbalari. T.: “O‘zbekiston”, 2013.-102-b

dinsizlarni qirib tashlashni emas, balki, eng avvalo musulmonlarni gunohga botiruvchi o‘z ehtiroslariga qarshi kurashini, o‘z – o‘zini ma’naviy kamol toptirishini nazarda tutgan.

“Ixxon ul-Muslimun” yetakchisi sekin – asta mol – mulk, vatan himoyasi yo‘lidagi musulmon oldidagi vazifalarga yetib keldi va ingliz, fransuz mustamlakachilariga qarshi qurolli kurashni mafkuraviy jihatdan asoslashgacha harakat qildi. 1930–yillardan “Ixxon ul-Muslimun” uyushmasi ushbu faoliyatning, harakatning yetakchisiga aylandi.

Bu paytda har tomonlama vaziyat o‘zgardi. Bir tomondan fan – texnikaning yuksalishi, transport vositalari, ishlab chiqarishning o‘sishi, xalqaro savdoning yuksalishi, yuk tashishning oshib borishi, ikkinchi tomondan buyuk davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar yangi jahon urushining keltirib chiqarishi muqarrardek bo‘lib qolgan edi. Buyuk davlatlar harbiy sanoatga, og‘ir harbiy texnikaga e‘tiborni kuchaytirishdi. Bu esa yoqilg‘i mahsulotlariga bo‘lgan talabni keskin oshirdi. Demak navbatdagi ijtimoiy – siyosiy jarayonlarning rivojida “neft omili” muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Negaki shakllangan yangicha sharoitda urushga hozirlik ko‘rgan dunyoning barcha yetakchi davlatlari fan va texnikaning eng so‘ngi imkoniyatlaridan keng foydalangan xolda tayyorgarlik ko‘rishgan. Kuchlar nisbatida, tayyorgarlik darajasida ustunlikning kim tomonida ekani hattoki hech kimga ma’lum emas edi. Bunday sharoitda bir narsa ma’lum edi, u ham bo‘lsa urush natijasi ko‘proq zaxiralarga bog‘liq bo‘lib qolgan edi. Shunday ekan ikkinchi jahon urushi arafasida fashistlar Germaniyasi Yaqin Sharqda Britaniya va Fransiya pozitsiyalarini zaiflashtirish uchun u yerda qo‘poruvchilik harakatlarini boshlab yubordi. Bu borada fashistlar o‘zlariga mahalliy guruhlar ichidan sheriklar izlay boshlashdi. Bu paytda “Ixxon ul-Muslimun” faoliyati sezilarli darajada ko‘zga tashlanib qolgan edi. Uyushma o‘z ketidan millionlab kishilarni ergashtirgan edi. “Ixxon ul-Muslimun” yetakchilari va ularning tarafdorlari o‘zlari bilmagan holda jahondagi yetakchi davlatlarning katta siyosiy o‘yiniga aralashib qolishdi. Faqatgina bu katta siyosiy o‘yindagi maqsadlar turlicha bo‘lib, zaiflashtirilishi zarur bo‘lgan “nishon” gina bitta edi. “Abver” agentlari “Ixxon ul-Muslimun” uyushmasiga xasislik qilmasdan uni yetarlicha pul, qurol–yarog‘, tajribali instruktorlar bilan uzluksiz ta‘minlab keldi.

Yuqorida qayd etilgan qator omillar sababli ikkinchi jahon urushidan keyin ham Yaqin Sharqqa bo'lgan qiziqish kamaymadi, aksincha o'sdi. Ushbu fikrlarning isboti sifatida mintaqada joylashgan davlatlarning tabiiy-geografik zahiralari bilan ba'zi bir ko'rsatkichlarini keltiramiz.

Yaqin Sharq davlatlarining ba'zi tabiiy geografik imkoniyatlarining ko'rsatkichlari:

| Kategoriya | Maydoni kv/km | Aholisi mln kishi | Oltin zahirasi mld/dol | Neft mld bar | Gaz tr kub |
|-------------------|----------------------|--------------------------|-------------------------------|---------------------|-------------------|
| Eron | 1 648 000 | 78.4 | 69.8 | 151.6 | 33 |
| Qatar | 11440 | 0.77 | 25.9 | 25.7 | 25.2 |
| Iroq | 434 100 | 28.1 | 61.8 | 143.1 | 3.1 |
| Misr | 947000 | 68.7 | 15.2 | 4.4 | 2.1 |
| Quvayt | 17820 | 2.6 | 29.2 | 101.5 | 1.7 |
| Ummon | 212500 | 2.53 | 15.8 | 4.7 | 0.84 |
| Yaman | 528000 | 20.3 | 4.7 | 2.8 | 0.47 |
| Baxrayn | 690 | 0.71 | 4.8 | 0.17 | 0.98 |
| Suriya | 185200 | 18.6 | 4.7 | 2.1 | 0.24 |
| Saudiya Arab | 2 149 610 | 31.5 | 626 | 264 | 8.1 |
| BAA | 83600 | 4.28 | 43.7 | 97.8 | 6.8 |

2. XX asrning ikkinchi yarmida mintaqada faoliyat yuritayotgan terrorchi tashkilotlar va ularning dunyo hamjamiyatiga yetkazayotgan zararlari. Ikkinchi jahon urushidan keyin jahon mustamlakchilik tizimida keskin sifat o'zgarishlar davri boshlandi. Yaqin Sharq davlatlari qatorasiga o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritib milliy mustaqil rivojlanish yo'liga o'ta boshlashdi. Dastlab Jazoir, Marokash, Tunis va Sudan davlatlari mustaqillikni qo'lga kiritdilar. Chet el kapitali tomonidan nazorat qilinayotgan korxonalar, kampaniyalar, konlar, plantasiyalar milliylashtirildi. Bu mustaqil davlatlar ijtimoiy-siyosiy,

harbiy ittifoqlarga qo‘shilmaslik siyosatini yuritdilar. Biroq arab davlatlarining o‘zaro munosabatlari o‘tgan tarixiy davr mobaynida jiddiy sinovlarga duch keldi. Bu munosabat ba‘zan do‘stona, ba‘zan raqobat, hatto dushmanlik tusini ham oldi. Ayni paytda arab davlatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasi ham bir xil emas.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Yaqin Sharq strategik jihatdan muhim mintaqaligicha qolaverdi. Bu qator jihatlar bilan belgilanadi: “Sovuq urush” siyosatining boshlanishi; O‘rta yer dengizidagi raqobat; qurollanish poygasi; fan va texnikaning gurkirab rivojlanishi; transport turlari va sonining keskin oshishi va shu kabilar. Shuningdek mintaqaning yana bir jihati u Osiyo, Yevropa va Afrika tutashtiruvchi o‘ziga xos areal hisoblanadi. Ayniqsa Suvaysh kanali muhim strategik ahamiyat kasb etardi. Kanal Misrda joylashganligi bilan uni ingliz-fransuz kampaniyasi nazorat qilar edi. Bu holat “Ixvon ul-Muslimun” uyushmasining faoliyatiga keskin ta’sir qildi. Uyushma qo‘poruvchilik, qotillik, terror harakatlari bilan kurashni davom ettirdi.

Versal konferensiyasidayoq (1919-yil) Buyuk Britaniya Falastinni boshqarish va u yerda yahudiylar davlatini tashkil etish mandatini olgan edi. Bu davrda Falastinda 100 mingga yaqin yahudiy yashardi. Dunyo bo‘ylab tarqalib ketgan yahudiylarni bir joyga — Falastinga to‘plashda ularning xalqaro tashkiloti katta rol o‘ynadi. Bu tashkilot Sion tashkiloti deb ataladi. Bu nom Falastindagi Sion tog‘i nomidan olingan. Ayni paytda sionizm g‘oyasi ham vujudga keldi. Bu tashkilot yahudiylarni shu atrofda to‘planishga da’vat etadi.

1942-yili Falastindagi yahudiylar soni 0,5 mln ga yetdi. Ulardan yaxshi harbiy tayyorgarlikka ega, AQSH va Buyuk Britaniya tomonidan zamonaviy qurollar bilan qurollantirilgan armiya tuzildi. Yahudiylar arablar uchun ajratilgan hududlarni ham ishg‘ol qilib oldilar.

1947-yil 29-noyabrda BMT Falastinda ikki davlat - Isroil yahudiy va Falastin- arab davlati tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Falastinda jami hududning 56 % ida Yahudiylar davlati, 43 % ida arablar davlati tuzilishi e’lon qilindi.

Yahudiylar Falastin arablarini o‘z yerlaridan quvib chiqara boshladilar. Buning natijasida 0,5 mln falastinlik arablar Livan davlati

hududiga qochib o'tishga majbur bo'ldi. Arab davlatlari ligasi o'z navbatida Isroilni tan olmadi.

Dunyo sionistik tashkilotlari ko'rsatgan moliyaviy yordam, Germaniyaning Isroilga to'lagan 1 mlrd. dollar miqdordagi to'voni hamda AQSH ko'rsatgan katta moliyaviy yordam tufayli Isroil qisqa vaqt ichida qudratli armiyaga ega davlatga aylandi. Yaqin Sharq strategik xomashyo — neftga boy o'lka. U yerda jahon neft zaxirasining 50 foizi mavjud. AQSH bu o'lkani o'z hayotiy manfaati doirasiga kiritgan. Ayni paytda unga bu hududda ishonchli ittifoqchi ham zarur edi. Isroilni ana shu ittifoqchilikka eng mos davlat sifatida tanladi.

Arab davlatlari esa qoloqligicha qolaverdi. Buning ustiga arab davlatlari o'rtasida mustahkam ittifoq ham yo'q edi. Buning asosiy sababi mustamlakachi davlatlarning arablarga mustaqillik berish davrida bir arab davlati hududining bir qismini ikkinchi arab davlati hududiga qo'shib yuborganligi edi. Ikkinchidan, Saudiya Arabistoni, Iroq (1958-yilgacha), Iordaniya davlatlarida hukmron sulolalar o'zaro nizoda edilar.

Yaqin Sharq muammosi Buyuk Britaniya va Fransiyani ham befarq qoldirmadi. Bu ikki davlat ham Yaqin Sharqdagi manfaatlaridan voz kechishni aslo istamas edi. Ular arab davlatlarida hokimiyat tepasida o'zlariga sodiq hukumatlarning turishi uchun barcha choralarni ko'rdi.

Manfaatlariga katta xavf tug'ilgan paytda ular agressiya uyushtirishdan ham tap tortmadilar. Chunonchi, 1956-yilda shunday bo'ldi. Shu yil oktabr oyida Buyuk Britaniya, Fransiya va Isroil Misrga qarshi agressiya uyushtirdilar. Faqatgina SSSRning Yaqin Sharqda tinchlikni tiklash uchun zarur bo'lsa kuch ishlatishga tayyor ekanligi haqidagi qattiq bayonoti agressiyani to'xtatishga majbur etdi. Falastindagi arab xalqi o'z kurashini to'xtatgani yo'q. 1964-yilda Livan hududida Falastin ozodlik tashkiloti (FOT) tuzildi.

Bu tashkilot o'z oldiga mustaqil Falastin davlatini tuzish vazifasini qo'ydi. Tez orada u 15 minglik yaxshi tayyorgarlik ko'rgan armiyaga ega bo'ldi. 1967-yilning 5-iyunida Isroil Misrga yana hujum qildi. Bu urushda Misr armiyasiga juda katta talafot yetkazildi. Urush olti kun davom etdi. Shu davr ichida Isroil o'z hududidan 2 baravar katta bo'lgan arab

davlatlari hududlarini bosib oldi. Bu hududlar keyinchalik anneksiya ham qilina boshlandi.

Misr Sinay yarim orolini, Suriya Jo‘lan tepaligini, Iordaniya esa iordan daryosining g‘arbiy qirg‘og‘ini boy berdi. SSSR 10 yil davomida Misr va Suriyaga yetkazib bergan harbiy texnikaning deyarli barchasi Isroil qo‘liga o‘tdi. G‘azo sektori va Falastin davlati poytaxti bo‘lishi kerak bo‘lgan Quddus shahrini ham (arablar yashaydigan qismi) Isroil egalladi. Bu mag‘lubiyat boshqa arab davlatlarini tashvishga solib qo‘ydi.

1967-yil Sudanda arab davlatlari rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvi o‘tkazildi. Uchrashuvda Isroil bilan muzokara o‘tkazmaslik; Isroilni tan olmaslik va u bilan separat tinchlik shartnomasini imzolamaslik haqida qaror qabul qilindi. Ayni paytda, agar Isroil davlati Falastin arab xalqiga o‘z davlatini tuzish imkonini bersa hamda bosib olingan yerlarni qaytarsa, bu qarorni bekor qilish mumkinligini qayd etdi.

Isroil ittifoqchilari ham qo‘l qovushtirib o‘tirmadi, albatta. Ular Isroilga katta miqdorda yordam ko‘rsatishni davom ettirdilar. 1969—1979-yillar oralig‘idagi 10 yil ichida Isroil 20 mlrd dollarlik yordam oldi. Hukumat bosib olingan hududlarga yahudiylarni joylashtirish siyosatini yuritdi.

Arab davlatlari ham o‘zlarining harbiy salohiyatlarini mustahkamlash choralari ko‘rdilar. SSSR ularga zarur harbiy texnika yetkazib berdi. 1973-yil 6-oktabrda yana arab — isroil urushi boshlandi. Shu kuni Misr-Suriya armiyasi Isroilga hujum qildi. Arab qurolli kuchlari birinchi bor Isroilni og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Ayni paytda FOTning xalqaro obro‘si oshib bordi. 1974-yilda arab davlatlari uni Falastin arab xalqining yagona vakili, deb tan oldilar. FOTga BMTda kuzatuvchi maqomi berildi.

Isroilning og‘ir ahvolga solib qo‘yilishi uning ittifoqchilarini befarq qoldirmadi. AQSH isroil — arab munosabatlariga jiddiy aralasha boshladi. Uning maqsadi Isroilning xalqaro obro‘cini saqlab qolish edi. Ikkinchidan, arab davlatlarini SSSRdan uzoqlashtirish hamda arablar orasiga nizo solish edi. AQSH o‘z maqsadiga erishdi ham.

1979-yilning 26-martida AQSH Isroil va Misr o‘rtasida separat Kemp-Devid (AQSH) bitimi imzolanishiga erishdi. Unga ko‘ra, Isroil o‘z qo‘shinlarini 1982-yil aprelgacha Sinaydan olib chiqib ketishga rozilik

berdi. AQSH har ikki davlatga iqtisodiy-harbiy yordam ko'rsatish majburiyatini oldi. Shuningdek AQSH Suvaysh kanalini minalardan tozalab, kemalar qatnovini yo'lga qo'yishda Misrga yordam ko'rsatdi. Arab ekstremistlari Misr Prezidenti A. Sadatning bu siyosatini sotqinlik deb baholadilar va 1981-yilning 6-oktabrida uni o'ldirishga muvaffaq bo'ldilar.

1980- 1990-yillarda arab davlatlari o'rtasida Yaqin Sharq masalasida bo'linish yuz berdi. Boy arab davlatlari — Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) va Ummon davlatlari muammoni Isroil bilan kelishuv orqali hal etish kerakligini yoqlab chiqdilar. Iordaniya va Livan ham keyinchalik shunday qildi. Eron, Suriya va Iroq esa tinch kelishuv yo'lini inkor etdilar.

Bu paytda AQSH Saudiya Arabistonida mustahkam o'rnatilib oldi. U yerdagi neft konlarini qidirib topish, yangi korxonalar qurish, kapital va investitsiyalar, yangi texnologiyalarni joriy qilishga kelishib oldi. Shuningdek AQSH Britaniya va SSSRni Erondan siqib chiqarishga erishdi. Ayni damda AQSH bu bilan cheklanmasdan Misrdan ham Britaniya va Fransiyani siqib chiqarishga kirishdi. Misr hukumati oldinga kelishuvlarga zid ravishda 1956-yilning 26-iyulida Umumiy Suvaysh dengiz kanali kompaniyasini nasionalizatsiya qilish to'g'risida prezident dekretini e'lon qildi. Shu paytgacha Suvaysh kanalidan keladigan daromadning 60 % dan ortig'i Angliyaga, taxminan 35 % i Fransiyaga, atigi 3 % Misrga qolar edi. London va Parij Suvaysh kanalini qaytarishning eng oxirgi yo'lini tanlashdi. Lekin kelishuvga asosan Suvaysh kanali dengiz yo'liga biron-bir holatga ko'ra jiddiy xavf tug'olsagina Angliya va Fransiya o'z qo'shinini Misrga kiritishi mumkin edi. Bunday xavfni tug'dira olishi mumkin bo'lgan davlat sifatida Isroil tanlandi. 1956-yil 29-oktabrda Isroil qo'shinlari Sinayga hujum boshlashdi. Isroil armiyasi Angliya va Fransiya hohlaganidek Suvaysh kanali dengiz yo'liga "xavf soldi". Lekin "Qo'g'irchoq" koalitsiyaning bu galgi harakati kutilmaganda AQSH va SSSRning birgalikdagi say-harakati bilan yakun topdi. Kamdan-kam uchraydigan bunday "inoqlik" ning o'ziga xos sabablari bor edi. SSSR O'rta yer dengizi sohilidagi Misrdek ishonchli, yangi sherigini shunchaki ashaddiy raqiblar qo'liga topshirib

qo‘yishni istamadi. AQSH esa Yaqin Sharqdan ingliz va fransuz qo‘shinlarini tezroq siqib chiqarishni xohlar, shu yo‘l bilan G‘arbning o‘ziga nisbatan tobeligini oshirishga urindi. Koalitsiyachilar SSSRning tahdidi bilan Misr hududini tark etishga majbur bo‘lishdi. Bu Misrning G‘arbliklar ustidan erishgan birinchi strategik g‘alabasi bo‘ldi. Misr o‘zining keyingi ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish yo‘lida SSSR bilan tobora yaqinlashish yo‘lini tutdi. Arab–Isroil to‘qnashuvi sabab qator davlatlar SSSR tomon yaqinlasha boshlashdiki, albatta bu holat AQShni keskin choralar ko‘rishga undamasdan qolmadi. AQSH qo‘shinlari Angliya bilan birgalikda Iroq, Livan va Iordaniyaga hududiga qurolli hujum boshladi.

“Ixvon ul-Muslimun” uyushmasi yetakchilaridan Sayid Qutb islom davlatlari hududidagi barcha dunyoviy rejimlar johiliya ekanini, shu sabab har bir musulmon qo‘liga qurol olib, unga qarshi kurashishi zarurligi haqidagi nazariya bilan chiqdi. Bu paytga kelib “Ixvon ul-Muslimun” uyushmasining qator arab davlatlarida tarafdorlari bo‘lib, ular o‘zlari yashayotgan davlatdagi dunyoviy hokimiyatni ag‘darishni asosiy maqsad deb hisoblashar edi. Shu tariqa ekstremistik tashkilotlarning butun bir tarmog‘i yuzaga keldi. “Sovuq urush” davriga xos bo‘lgan bipolyar tizim Yaqin Sharqni ham chetlab o‘tmadi. AQSH arablarga qarshi urushda Isroilni himoya qilib chiqdi. 1967-yilgi “Olti kunlik” deb nom olgan arab-isroil urushi arablarning jiddiy mag‘lubiyati bilan yakun topdi. Natijada Sovet davlati arab davlatlariga birinchi navbatda Misr bilan Suriyaga harbiy yordamni kuchaytirdi. Bu mamlakatlarga eng zamonaviy harbiy texnikalar jo‘natildi. Ayni paytda bu texnikalar bilan ishlashni chuqur o‘zlashtirib olishlari uchun harbiy maslahatchilar yuborildi.

“Olti kunlik” deb nom olgan urushdan keyin arab davlatlarida Isroilga qarshi terroristik guruhlar tuzila boshlandi: “Falastin milliy-ozodlik harakati” (FATH); “Al-Jihad al-Muqaddas” (Muqaddas jihod); “Abtal al-auda” (Qaytish qahramonlari); “Al-Ard” (Yer) va shu kabilar. Bu tashkilotlar ichida eng yetakchisi hisoblangan FATH 1956-yilda uzil-kesil shakllandi. Uning asoschisi Yosin Arafot edi. FATH ning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari: Falastinni Isroil bosqinidan xalos etish; Isroil davlatini tugatish; ko‘chib kelgan yahudiylarni Falastindan quvib

chiqarish. Kurashning asosiy usullari partizanlik urushi, qo‘poruvchilik, terror ko‘rinishida edi.

1967-yilgacha bu tashkilotning faoliyati juda sust bo‘ldi. 1967-yilgi olti kunlik urushdan keyin FATH va boshqa terroristik tashkilotlar faoliyatida tub burilish boshlandi. Arab ommasi orasidagi keskin ijtimoiy norozilik sababli terroristik harakatlarning safi ancha o‘tdi. Isroil armiyasining urinishlari naf bermadi. FATH saflari o‘shishda davom etdi. Bu holat terrorizm muammosini faqatgina kuch bilan yengib bo‘lmasligining yorqin nishonasi edi.

1964-yil iyunda Falastin Milliy kengashining I sessiyasida Falastin ozodlik tashkiloti – FOT tuzilgani e‘lon qilindi. Unga 1968-yildan FATH, Falastin ozodlik fronti, Falastin milliy-ozodlik harakati, FOMR – Bosh qo‘mondonlik, As-Sayka, Falastin Xalq kurashi fronti, Falastin ozodlik demokratik fronti singari guruhlar kelib qo‘shilishdi. Ularning kurash taktikalari ham turlicha edi. Yosir Arofat 1969-yilda FOT raisi etib tayinlanadi. U 1973-yilda terroristik usullarni qo‘llashdan voz kechganini e‘lon qiladi. Yosir Arofatning bu qaroridan norozi bo‘lgan terrorchilar tomonidan Abu Nidal tashkiloti (ANT) tuziladi. Nidal har doim murosa yo‘liga qarshi chiqib kelgan. ANT a‘zolari tomonidan 90 dan ortiq terrorchilik harakatlari sodir etildi.

Garovga olish, zo‘ravonlik, terror, partizanlik urushi olib borish faqatgina musulmon arablar tomonidan tashkil etilgan guruhlargagina xos emas edi. Falastin arablarining mustaqillik yo‘lida olib borayotgan kurashi, uni amalga oshirish usul va shakllaridan norozi bo‘lgan, tish – tirnog‘i bilan qarshi bo‘lgan ekstremistik kayfiyatdagi yahudiy fundamentalistlari ham zo‘ravonlikning, terrorning turli usullaridan keng foydalana boshlashdi. Ular ham turli ekstremistik guruhlar tashkil eta boshlashdi. Ular orasida eng ta’sirchani, keng tarqalganilari: 1. “Kax” ekstremistik guruhi. Isroilda joylashgan bo‘lib, AQShdan ko‘chib kelgan muxojir Ravvin Meir Kaxane tomonidan asos solingan; 2. “Kaxane Chan” (Kaxanening hayoti) ekstremistik tashkiloti Meir Kaxanening o‘g‘li Binya min tomonidan tuzilgan. Har ikkala tashkilot ham o‘z oldiga asosiy maqsad qilib Bibliyada tasvirlangan Isroil davlatini tuzish vazifasini qo‘ygan edi. Ular arablarni Xevron va G‘azo sektoridan zo‘ravonlik yo‘li

bilan haydab chiqarishga urinib ko‘rishdi. Qator teraktlarni amalga oshirishdi.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada olib borilayotgan mustamlakachilik ko‘rinishidagi tashqi ta’sirga qarshi kurashayotgan ekstremistik guruhlar vaqt o‘tgani sari o‘z hukumatlaridan ham norozi bo‘la boshlashdi. Ular o‘z hukumatlarini tashqi ta’sirga tobelikda ayblay boshlashdi. Qator davlatlarda birlashgan milliy frontlar vujudga kela boshladi. Bu hukumatlarning “sustlashib” borishi AQShni tashvishga solib qo‘ydi. Va albatta u bunga qarshi choralar ko‘ra boshladi. AQSH birinchi galda aqidaparastlikka moyil bo‘lgan Misrga umid bog‘lar edi. Bu paytda Misr Moskvaning ko‘magida “Ixxon ul-Muslimun” qarshi qatog‘on siyosati olib borar edi. Bu terroristik tashkilot yetakchilaridan Sayid Qutb 1966-yilda qatl etildi. Ko‘pgina faollar qo‘shni mamlakatlarga qochib jon saqlashdi.

Bir qator davlatlar o‘z hududida joylashib olgan radikal kayfiyatdagi ekstremistik kuchlardan SSSR targ‘ib qilayotgan, qo‘llab-quvvatlayotgan “sotsialistik yo‘nalish” rejimlariga qarshi kurashda keng foydalana boshlashdi. Natijada ekstremistik guruhlariga o‘ziga xos moliyaviy homiy topildi. Olti kunlik arab-isroil urushi tugagach ikki xil ko‘rinishdagi terroristik guruhlar ko‘zga tashlana boshladi. Bulardan birinchisi Saudiya Arabistoni, AQShdek davlatlardan moliyaviy, siyosiy, g‘oyaviy madad olib turuvchi “Ixxon ul-Muslimun” edi. Bu tashkilot yuqorida qayd etib o‘tganimizdek barcha dunyoviy rejimlarga qarshi kurashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysada, bu holat AQShni unchalik xavotirga solmas edi. Chunki bu tashkilotning tizgini AQShning qo‘lida bo‘lib, u o‘z faoliyatini faqat sotsialistik yo‘nalish yo‘lini tutgan davlatlarda olib bordi. Ikkinchi guruh ekstremistik tashkilotlari FATH, FOMF singari tashkilotlar bo‘lib, ular asosan Isroil bilan tutash chegara oldi hududlarda faoliyat olib bordi. Ularning asosiy nishoni esa AQSH, Isroil va g‘arbparast siyosatchilar, rejimlar edi. Bu guruhlarning jangarilari Sovet Ittifoqidagi maxsus lagerlarda mahorat orttirib kelishdi. Ko‘rinib turibdiki bu yo‘nalishdagi guruhlariga ham o‘ziga yarasha homiylar topildi. Lekin ekstremistik kayfiyatda guruhlar har doim ham o‘z “homiylari” ga har doim ham sodiq emas edi. Vaqti – vaqti bilan kutilmagan o‘zgarishlar sodir bo‘lib turdi.

1970-yil 28-sentabrda Misr prezidenti Jamol Abdul Nosir vafot etadi. Anvar Sadat boshqaruvi boshlanishi bilan Nosirning tarafdorlari davlat to'ntarishda ayblanib hukumatdan chetlatildi. Sadat kema "shturvali" ni g'arb tomon burishga harakat qildi. AQSH esa Anvar Sadatdan "Misrni bosib ketgan ruslarni qisqartirish" ni talab qildi. 1972- yilda oxirgi sovet mutaxassislari Misrni tark etishdi. Bu paytda AQSH va Isroil munosabatlari mustahkamlanib bordi.

1973-yilda navbatdagi arab-isroil urushi bo'lib o'tdi. Isroilga qarshi tuzilgan koalitsiya tarkibida Suriya, Misr, Iordaniya, Liviya, Jazoir, Iroq, Uganda va boshqa davlatlar bor edi. Isroilning mag'lubiyati vaziyatni keskin o'zgartirib yubordi. Endi AQSH arab davlatlarini Isroil bilan sulh tuzishga majbur qilishga urindi. Ayni damda AQShning Anvar Sadat rejimini quvvatlash uchun moliyaviy yordamni to'xtovsiz davom ettirdi. O'z navbatida Misrning AQSH oldidagi majburiyatlari ortib bordi. Natijada Anvar Sadat 1979- yilda Kemp-Devid bitimini imzolashga majbur bo'ldi. Misr hukumati Isroil bilan murosasiz yo'lga o'tgach, bundan norozi bo'lgan "Ixxvon ul-Muslimun" safida chinakamiga g'alayon boshlandi. Uyushma rahbarlari hukumatning bu siyosatini oqlashga urinishi bu norozilikning ro'y berishiga sabab bo'ldi. Oldiniga "Ixxvon ul-Muslimun" safidan qo'shilmaslik yo'lini tutgan Asyut universitetidagi kichik bir guruh faollari o'z guruhlari "Jihad" ni tuzganliklarini e'lon qilishadi. Sayid Qutbning ko'rsatmalariga qat'iy amal qiluvchi "Jihad" ning asosiy maqsadi Misr va qo'shni musulmon davlatlarida zo'ravonlik bilan bo'lsada islomiy davlat tuzish edi. Tashkilot hukumat bilan orani "ochiq" deb e'lon qildi va hamkorlikdan voz kechdi. Islom olamidagi fundamentalistik tashkilotlar FOTning Isroil bosqinchilik siyosatiga qarshi kurashini yoqlab chiqdi.

"Ixxvon ul-Muslimun" safidan shuningdek "Al-Jamoa al-Islomiy" (Islom jamoasi) guruhi ham ajralib chiqdi. Bu tashkilot rahbari Mustafo Hamza ham Sayid Qutbning mafkuraviy ko'rsatmalariga sodiqligini bayon qildi. Asosiy vazifa dunyoviy rejimlarni bartaraf etish, islomiy davlat barpo etish edi. "Al-Jamoa al-Islomiy" yetakchilari Misr xavfsizlik kuchlari xordimlarini, hukumat amaldorlarini, boshqa jamoat arboblari, islomiy davlat tuzishga qarshilik qiluvchilarni qurolli hujum uchun nishon

qilib olishdi. Shuningdek chet ellik sayyohlarga qarshi qaratilgan teraktlarga alohida e'tibor berildi. Chet elliklarga qarshi qaratilgan hatti-harakatlarga alohida e'tibor qaratilishining mafkuraviy asoslaridan biri shuki, "gunohkor" lar islom tuprog'ini bulg'ashmasliklari lozim, ikkinchidan shu jihat e'tibordan chekkada qolmadiki, Misr iqtisodiyotida turizm alohida ahamiyat kasb etadi. Agar Misrda ichki siyosiy vaziyatga, barqarorlikka putur yetsa turizm biznesi, umuman mamlakat iqtisodiyotiga keskin zarar yetkaziladi. Oddiygina misol 2015-yilning 31-oktabrida Sharm al-Shayx-Sankt-Piterburg yo'nalishi bo'yicha uchuvchi A-321 samolyotining portlatib yuborilishi Misrga qanchaga tushdi va tushmoqda. Bu esa o'z navbatida islom tarafdorlarini hokimiyat tepasiga kelishini osonlashtirar edi.

Kemp-Devid bitimidan keyin darhol qachonlardir nazoratda bo'lgan "Ixvon ul-Muslimun"ga izdosh qator yacheykalarning vujudga kelishi natijasida nazorat qilib bo'lmas turli terroristik tashkilotlarning sahnaga chiqishiga olib keldi.

1970-yillarning oxirida Yaqin Sharq siyosiy hayotida mintaqa terrorchi guruhlariga faoliyatiga yanada turtki beradigan galdagi muhim voqea sodir etildi. 1979-yili Eronda islom inqilobi g'alaba qozondi. Erondagi mavjud rejimga 1953-yildagi voqealardan keyin AQSH siyosati hamda amerikaparast rejim tomonidan asos solingan edi. Natijada 1953-yilda Mussodiqning hokimiyatdan chetlatilishidan keyin shoh rejimi o'z tashqi siyosatida g'arb ta'siriga, amerikaparast pozitsiyaga yon bosa boshladi. Shoh rejimiga o'z politsiyachi davlatini mustahkamshda, unga muxolif bo'lgan kuchlarning birlashuviga to'sqinlik qilishda AQSH katta yordam bera boshladi. AQShning bevosita nazoratida o'tkazilgan "oq inqilob" shoh hokimiyatini mustahkamlanishiga xizmat qilar edi. Ulkan yer mulklari qayta taqsimlandi, xotin-qizlarga erkinlik berildi. Neft savdosi daromadlari shoh ayonlari va chet elliklar qo'lga o'tib ketdi. Mamlakatda korrupsiya, jinoyatchilik, fohishabozlik, giyohvandlik avj oldi. Yuzaga kelgan ijtimoiy portlash xavfidan shia ruhoniylari unumli foydalanishdi.

Shoh diktaturasiga qarshi birinchi qurolli chiqish 1971-yil fevralida "Eron xalqi fidoyi partizanlari tashkiloti" (EXFPT) tomonidan amalga oshirilgan edi. Eron maxfiy politsiyasi (SAVAK) bu guruhning 341

a'zosini yo'q qildi. Ulardan 177 nafari qurolli kuchlar bilan to'qnashuvlarda o'ldirildi; 91 nafari harbiy tribunallar hukmi bilan qatl etildi; 42 nafari qamoqxonalarda azoblanib o'ldi; 15 nafari sirli ravishda g'oyib bo'ldi; qolganlari o'z joniga qasd qilgan, qochishga urinish chog'ida o'ldirilgan¹. Shuningdek o'zining keskin ekstremistik faoliyati bilan "Eron xalqi mujohidlari tashkiloti", "Ishchilar sinfi ozodligi uchun kurash tashkiloti", "Ishchi yo'li", "Abu Zar", "Haqiqiy shialar" guruhlari ajralib turishgan.

EXFPTning Eron aholisining turli qatlamlari orasida obro'si oshib bordi. Ayniqsa uni aholining quyi qatlami qo'llab-quvvatlar edi. 1978-yilda mamlakatda vaziyat keskinlashdi. Qumdagi namoyishning o'qqa tutilishi inqilobning boshlanishi bo'ldi. Shoh mamlakatni tark etadi. 1979-yil 1-aprelda Eron Islom Respublikasi e'lon qilinadi. Eron Konstitusiyasiga asos bo'lgan konsepsiya shialarning musulmon fiqshshunosligi boshqaruvi nazariyasi edi. U Yaqin Sharqdagi terrorchi guruhlarni ochiqdan – ochiq qo'llab-quvvatlagan. Aynan Eron targ'ibotchilarining faolligi sabab "Ixvon ul-Muslimun" ning Falastin bo'limidagi yoshlar undan ajralib chiqqa boshlashdi. Aynan Falastinlik arablarning ishtirokida "Jihad Islomiy" guruhi tashkil etildi. "Jihad Islomiy" guruhi asosiy maqsadi avvaldanoq Isroil davlatini tugatish, Falastindan yahudiylarni haydab chiqarish, Falastin davlatini tuzish edi. Bu guruhning bo'linmalari tez orada Iordaniya, Livan, Suriya davlatlarida tashkil etildi.

Ayni damda Erondagi islom inqilobi g'alabasi suriyalik terrorchilarning ham faollashuviga olib keldi. 1978-yilning yozida "Jangovar avangard" terrorchilari Halab harbiy bilim yurtining kursantlariga nisbatan terakt amalga oshirishdi. Buning natijasida 32 kishi halok bo'lib, 54 tasiga jiddiy tan jarohati yetkazildi. Suriyada bugungi beqarorlikning vujudga kelishida ISHID, "Jangovar avangard" singari terrorchi guruhlar birdek aybdor.

Yaqin Sharq mintaqasida o'z siyosiy maqsadlariga yetishish uchun zo'ravonlikni turli shakllarini birdek ishlatadigan terrorchi guruhlardan

¹ G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: "O'zbekiston", 2013.-146-b

yana biri “Hizbulloh” hisoblanadi. Shialarning ushbu tashkiloti Livanning Beka vodiysida Eron inqilobi ta’siri ostida vujudga kelgan. Livanda kuchli davlatchilik tashkilotlari bo‘lmagan, o‘zboshimchalik avjiga chiqqan bir sharoitda bu guruh ijtimoiy hayotda islomiy normalarni joriy etish g‘oyasi bilan maydonga chiqdi. 1982-yilda Isroilning Livanga qarshi boshlagan harbiy harakatlari “Hizbulloh” ning tashkiliy jihatdan shakllanishini tezlashtirdi. Eron “inqilobiy gvardiyasi” jangchilari ochiqdan-ochiq “Hizbulloh” ni qo‘llab-quvvatlay boshlashdi. “Hizbulloh” yetakchilari sionizm va imperalizmga qarshi jihad e’lon qilishdi. Maqsad sifatida quyidagilar ilgari surilgan edi: Isroil qo‘shinlarini Livandan chiqarib yuborish; Isroilni davlat sifatida tugatish; Quddus ustidan Livan nazoratini o‘rnatish; Livanda Eron namunasidagi islom davlatini barpo etish va shu kabilar. “Hizbulloh” ning siyosiy faoliyatiga o‘z vaqtida Suriya ham jiddiy ta’sir ko‘rsatib keldi. Biroq Eron yordamining jiddiyligi, keng ko‘lamli ekani ajralib turdi. Erondagi nohukumat tashkilotlar tomonidan yetkazilgan moliyaviy manbalar evaziga harbiylashgan bo‘linmalar tuzildi. Harbiy jangarilar soni besh mingga yaqin edi.

“Hizbulloh” ham yuqorida sanab o‘tilgan zo‘ravonlikning barcha usullaridan keng foydalanib keldi. G‘arb mamlakatlari fuqarolarini garovga olish, samolyotlarni garovga olish keng yoyildi. “Hizbulloh” tomonidan eng yirik terakt 1983-yilda sodir etilgan. Livanda joylashgan amerika va fransuz kazarmalarining portlatilishi natijasida bir necha yuz kishi xalok bo‘ldi. 1984-yilda AQShning Beyrutdagi elchixonasi portlatildi.

Yaqin Sharqdagi ekstremistik harakatlar haqida gap ketganida “XAMAS” (“Harakat al-muqovama al-islomiy” – Islom qarshilik harakati) o‘ziga xos “nufuz” ga ega. Harakatning rasmiy tarixi 1987-yildan boshlanadi. 1987-yil 14-dekabrda shayx Ahmad Yosin “Har qaysi yahudiyni harbiy ko‘chkinchi deb hisoblash mumkin, bizning vazifamiz – uni o‘ldirish” deb e’lon qilgan kundan boshlanadi¹. XAMASning maqsadi Falastinni dengizdan Iordangacha bo‘lgan hududini ozod qilish, yahudiylardan tozalash, uni musulmon dunyosi markaziga aylantirish edi.

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: “O‘zbekiston”, 2013.-157-b

Rasmiy Tel-Aviv dastlab harakatning tuzilishiga unchalik qarshilik qilmadi. Isroil maxsus xizmati – Mossad XAMAS harakatini ma’rifiy uyushma sifatida faoliyat yuritadi, tinch siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanadi va shu tariqa Yosir Arofat yetakchiligidagi “Falastin ozodlik harakati” o‘z obro‘cini tushiradi degan noto‘g‘ri xulosaga kelgan edi. 1988- yilda e’lon qilingan “Islom Xartiyasi” harakat faollari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan. Harakatni Shimoliy Amerikadagi, G‘arbiy Yevropadagi qator fondlar moliya viy jihatdan qo‘llab kelishadi.

Ko‘rinib turibdiki, zo‘ravonlikning qator usullarini o‘zlariga kurash vositasi qilib olgan terroristik tashkilotlarning safi uzun. Ularning moliyaviy manbalari, harbiy-texnik, harbiy bilim-ko‘nikmalarni egallab olishlari bilan bog‘liq muaamolarning yechimlari qator sabablarga ko‘ra unchalik qiyinchiliksiz hal etib kelindi. Umuman olganda uzoq davom etgan “sovuq urush” davri, ikkala nuqtaning ustunlikka intilishlariga asoslangan bipolyar tizim davrida bunday sabablarga, boshqacha aytganda terroristik hatta-harakatlarning “oziqlanish” manbalariga to‘xtaladigan bo‘lsak yuqoridagi ba’zi fikrlarni takrorlagan, yanada umumlashtirgan xolda quyidagilarni aytib o‘tish mumkin bo‘ladi: birinchidan, Rossiyada hokimiyat tepasida turgan kommunistik tizim va uning olib borayogan ateistik siyosatiga to‘xtalish lozim. Negaki bunday siyosat qator terrorchi guruhlarga tinchlik bermas edi; ikkinchidan “sovuq urush” ning mutloq g‘olibi bo‘lishga intilayotgan G‘arb (aniqrog‘i AQSH) bunday marhamatdan unumli foydalanish imkoniyatini berib qo‘ymas edi. U albatta “jihodchi” ritsarlarga aniq “nishonni” ko‘rsatuvchi mash’aladek porlay boshaladi; uchinchidan, arablarning o‘z haq-huquqidan mahrumligi, milliy manfaatlarining toptalganligi terroristik guruhlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishiga olib keldi. Bu jarayonda ularning “homiysi” bo‘lib aynan ateist Sovet Ittifoqi maydonga chiqdi; to‘rtinchidan, harakat qilayotgan terroristik tashkilotlar bilan ularning “homiylari” ning maqsad-manfaatlarining o‘zgachaligiga e’tibor qaratish zarur. Kurashayotgan terrorchi tashkilotlarning kechagi o‘z “homiylari” ga qarshi chiqish holatlari tahlillarda ko‘p bor uchraydi. Negaki ushbu moliya viy “homiylar” ning birontasi mintaqaning, mintaqada yashayotgan tub xalqlarning azaliy orzu-umidlari, ularning asl manfaatlari, mintaqaning

buguni, ertasi, uning istiqboli, u yerda tinchlikning qaror topishi muammolari bilan mutloqo qiziqishmas edi. Va unday bo'lishi mumkin ham emasdi.

Yaqin Sharq nafaqat o'zining dastlabki sivilizatsiyalar makoni, dastlabki davlatlar, saltanatlar makoni ekani bilan mashhur. Ayni damda qayd etib o'tilganidek qator strategik ahamiyat kasb etuvchi tabiiy zahiralari bilan ham, Yevropa, Osiyo va Afrikani bog'lab turuvchi, tutashtiruvchi "oltin ko'priq" ekanligi bilan ham mashhur. Shunday ekan mintaqaning strategik ahamiyati oshsa oshadiki mutloqo kamaymaydi.

Bipolyar tizimning tizimning qulashi xalqaro maydonda qator o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Kurashning faqatgina usul va vositalarigina o'zgarmadi, balki ta'sir makonlarida ham keskin o'zgarishlar kelib chiqdi. Galdagi e'tibor endigina mustaqillikka erishgan sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan yosh davlatlarga, shuningdek sobiq ittifoqning ta'sirida bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tizimlarga qaratila boshlandi. Shu tariqa Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropani o'ziga obyekt qilib olgan "Yangi Katta o'yin" kampaniyasi boshlandi.

3. "Hizb ut- Tahrir al-Islomiy" ekstremistik tashkilotining vujudga kelishi va faoliyati. Yangicha sharoitda yuqorida aytib o'tilganidek ba'zi terroristik guruhlar endi o'z e'tiborini Markaziy Osiyoga qarata boshlashdi. Markaziy Osiyodagi barqarorlikni izdan chiqarishga, bu yerda o'ziga xos tartib shakllantirishga harakat qilgan terrorchi tashkilotlardan biri "Hizb ut- Tahrir al-Islomiy" hisoblanadi.

"Hizb ut- Tahrir al-Islomiy" ("Islom ozodlik partiyasi") norasmiy diniy-siyosiy partiyasi 1953-yilda Taqiaddin Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan. U 1948 -yilga qadar terrorchilik amaliyoti bilan nom chiqargan "Al-ixvon al-muslimun" ("Musulmon birodarlar") guruhining Falastin bo'linmasida faoliyat yuritgan. 1953-yili Asad Taxminiy, Xolid Hasan kabi maslakdoshlari bilan "Al-ixvon al-muslimun" guruhining o'z hududidagi a'zolarini yangi diniy-siyosiy partiya - "Hizb ut at- Tahrir al-Islomiy" ga birlashtirgan.

Nabahoniy va uning izdoshi Abdul Qadim Zallunning "Islom nizomi", "Islom davlati", "Xalifalik", "Islomiy olamga qaynoq nidolar" va

“Hizb ut-Tahrirning tushunchalari”, “Demokratiya – kufr nizomi”, va “Siyosiy ong”, “Idoriy qonun”, ”Idoriy to‘plam” kabi kitoblarida oqim ta’limoti bayon etilgan.

Ushbu adabiyotlarda g‘arb sivilizatsiyasi va dunyoviy davlat tamoyillari qoralangan, demokratiya, konstitusiya, saylov kabi siyosiy institutlar inkor qilingan holda, turli mamlakatlarda radikal islom g‘oyalari targ‘ib qilish, hokimiyatni qo‘lga kiritish hamda xalifalikka asoslangan tuzumni o‘rnatish yo‘llari bayon etiladi.

Taqiaddin Nabahoniyning azaliy orzusi arab halifaligini tarixiy va siyosiy jihatdan tiklash edi. “Hizb ut-Tahrir” hujjatlariga ko‘ra u islom mafkurasiga asoslanib harakat qiladigan siyosiy partiyadir. Uning bosh maqsadi musulmonlarni islomcha turmush tarziga qaytarish, xalqaro maydonda jihad yo‘li bilan islom dinini yoyishga intilish edi. Ushbu bosh maqsadni xalifalikni barpo etish orqaligina amalga oshirish mumkin. Barpo etiladigan halifalik to‘rtta qoidaga asoslanadi: oliy hokimiyat Alloh tabora va taoloniki; hokimiyat Ummniki; bir halifani tayinlash-majburiyat; Xalifa Ilohiy Qonunlarni qabul qilishda mutloq hokimiyatga ega – Konstitusiya va boshqa qonunlarni faqat u joriy qiladi¹. Harakat hujjatlarida musulmon mamlakatlari, ayniqsa Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlari hukumatlari islomiy bo‘lmagan deb e‘lon qilingan. Musulmonlar hayotida barcha ijtimoiy – iqtisodiy muammolarning sababi “kundaliy islomiy qoidalarga amal qilinmasligi”, jumladan “islomiy boshqaruv tizimining” yo‘qligidir.

Hozirgi kunda esa tashkilot rahbarlari tomonidan ilgari surilgan “arab-isroil muammolarini hal etishning yagona vositasi – yahudiylarni ommaviy qirg‘in qilish”, degan jangari g‘oya “Hizb ut-Tahrir”ning haqiqiy mohiyatini belgilab beradi deyish mumkin.

“Hizb ut-Tahrir” piramida shaklidagi tuzilishga ega bo‘lib, uning quyi pog‘onasini 5 kishilik “xalqalar”ga birlashgan “dorislar” tashkil etadi. Xalqaga “mushrif” rahbarlik qilib, 4-5 mushrifdan iborat “mahalliy jihoz” “naqib”ga, naqiblar viloyat darajasida “musoid”ga bo‘ysunadilar. Musoidlar faoliyati mintaqaviy rahbar – “mu’tamad” tomonidan boshqariladi. Tashkilot rahbari– “Amirul-a’zam” tashkilotning oliy

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: “O‘zbekiston”, 2013.-161-b

bo'g'ini– “qiyodat” orqali mu'tamamlarning faoliyat yo'nalishini belgilab turadi. Bunday tuzilish tashkilot faoliyatini mumkin qadar yashirin olib borish imkonini beradi. Bayrutda tashkilotning “al-Vay” (“Ong”) jurnali chop etiladi.

Oldinga qo'yilgan vazifalar uchta bosqichda amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Birinchi bosqichda partiyaning yadrosi tashkil etilishi zarur. Ikkinchi bosqichda omma bilan faol munosabatlar olib boriladi. Uchinchi bosqich islom davlati o'rnatilgach boshlanadi. Unda dunyoning barcha hududlariga islomni faollik bilan tarqatish ishlari olib boriladi.

“Hizb ut-Tahrir” chilarning faoliyati asosan tashkilotning o'z hisobidan moliyalashtiriladi. Ya'ni tashkilotning har bir a'zosi har oyda topadigan daromadining 5 foizidan 20 foizigacha fond hisobiga o'tkazishi talab etilgan. G'arbiy Yevropaning qator shaharlarida tashkilotning filiallari ochilgan.

“Hizb ut-Tahrir” faoliyati 1970-80- yillardan buyon Pokiston, Indoneziya, Filippin, 1990-yillar boshidan esa Markaziy Osiyo davlatlarida, 2003-2004- yillardan Qrim yarim oroli va Rossiyaning ba'zi mintaqalarida kuzatildi.

“Hizb ut-Tahrir” shariat asoslari hamda insoniylik tamoyillaridan umuman uzoq bo'lgan faoliyatini Qur'on oyatlari va hadislarni noto'g'ri talqin qilish orqali isbotlashga urinadi. Garchi “Hizb ut-Tahrir” o'z faoliyatida faqat g'oyaviy kurash usullaridan foydalanishni e'lon qilsa-da, tashkilot mafkurasini ifodalovchi hujjatlar hamda uning faollarining musulmon dunyosiga mansub bir qator davlatlarda konstitusiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan terrorchilik amaliyotlarida ishtirok etgani buning aksini ko'rsatadi.

1989-yil AQShning Missuri shtatida “Musulmon talabalarning baynalminal aloqalari” nomi ostida o'tgan anjumanida “Hizb ut-Tahrir” rahbariyatining vakili “musulmon bo'lmagan hukumatlarga qurolli jihod e'lon qilish zarur”, degan g'oyaga yo'g'rilgan ma'ruza bilan chiqqan. Ushbu ma'ruza keyinchalik bir necha tillarga o'girilib, “Hizb ut-Tahrir” a'zolari tomonidan tarqatilgan.

Shuningdek, “Hizb ut-Tahrir” tashkiloti ig'volarini tarqatish manbasi hisoblangan “al-Vay-Ong” jurnalida yagona xalifalikni tiklash shiori

ostida begunoh qon to'kishni oqlab chiquvchi maqolalar muttasil berib boriladi. Jumladan, ushbu jurnal 1990-yillarning oxirida Jazoirda tinch fuqarolarni qirg'in qilgan "Jazoir islomni qutqarish fronti" tashkilotining terrorchilik faoliyatini yoqlab chiqqan edi.

1974-yili esa Misrda "Hizb ut-Tahrir" tashkilotining Falastin bo'linmasi a'zosi Saloh Sariyya boshchiligidagi ekstremistlar Misr Harbiy-texnologik akademiya si kadetlarini jangari diniy g'oyalar bilan zaharlab, ularni harbiy isyon ko'tarishga undashgan. Harbiylar tomonidan "Hizb ut-Tahrir"ning buzg'unchi mohiyati to'g'ri anglanilgani bois ushbu amaliyot ham muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

Bundan tashqari, 1999-yil dekabr oyida Livan shimolida "Hizb ut-Tahrir" jangarilari Livan xavfsizlik xizmati va Suriya harbiy qo'shinlari bilan qurolli to'qnashuvlarni sodir etgan. 2000-yil yanvar oyida Suriya huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan hukumatga qarshi g'alayonlar ko'tarishga tayyorgarlik ko'rayotgan "Hizb ut-Tahrir" faollarining 800 nafari qamoqqa olingan.

O'z navbatida, 1993-yili Iordaniya maxsus xizmati "Hizb ut-Tahrir" tashkiloti faollarining qirol Husaynga nisbatan tayyorlagan suiqasdini fosh etgan va tashkilotning 30 a'zosini hibsga olgan.

Ta'kidlash joizki, yaqin tarix "Hizb ut-Tahrir"ning boshqa terrorchi guruhlar kabi jangarilashib borayotganidan dalolat beradi. Chunonchi, 2002-yili Filippinda "Hizb ut-Tahrir"ga mansub bir necha Indoneziya fuqarolari ushlangan. Qamoqqa olish vaqtida ulardan ko'p miqdorda portlovchi moddalar va o'qotar qurollar topilgan. Filippin maxsus xizmatlarining e'tirof etishicha, qo'lga olinganlar "al-Qoida" terrorchi tashkilotining mahalliy bo'limlari bilan yaqin aloqada bo'lgan. Bu esa "Hizb ut-Tahrir" tashkiloti o'z faoliyatini xalqaro terrorchilik tizimining tarkibiy qismi sifatida tashkil etayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, 2003-yil aprel oyida hizbning Buyuk Britaniyadagi bo'linmasi a'zosi Umar Sharif va ushbu mamlakatda uy qurib olgan "Al-muhajir" ekstremistik guruhi a'zosi Osif Hanif Isroilning Tel-Aviv shahrida joylashgan "Mayks Pleys" kafesida o'zlarini portlatib yuborishi natijasida ko'plab begunoh insonlar hayotdan ko'z yumgan.

Shu bilan bir qatorda, "Hizb ut-Tahrir" faollari o'z maqsadlari

yo'lida hukumat rahbarlariga suiqasd uyushtirish amaliyotidan foydalanishni davom ettirmoqda. Masalan, 2003-yili dekabr oyida tashkilotning quddus shahri bo'linmasi a'zolari "al-Aqso" masjidi ichida Misr tashqi ishlar vaziri Ahmad Mohirga hujum uyushtirishgan. Isroil ma'muriyati ushbu harakatni tashkillashtirgan bo'linma rahbari Muhammad Hammuri ustidan tergov ishlari qo'zg'atgan.

"Hizb ut-Tahrir" rahbariyati har safar qurolli amaliyot muvafaqqiyatsizlikka uchragan zahoti go'yoki ushbu harakatlar tashkilotning "ajralib" chiqqan qismi tomonidan amalga oshirildi, degan da'vo bilan aybni bo'ynidan soqit qilishga intilib kelgan.

Shu munosabat bilan, "Hizb ut-Tahrir" rahbariyatining 2004-yil mart-aprel oylarida Toshkent va Buxoroda, iyul oyida Toshkentda amalga oshirilgan terrorchilik xurujidagi ishtirokini inkor etishi yuqoridagi strategiyaning davomi ekaniga hech shubha qolmaydi.

"Hizb ut-Tahrir" boshqa terrorchi tashkilotlar uchun jangarilar tayyorlab beruvchi "konveyer"ga aylangan. Masalan, tashkilot asoschilaridan bo'lgan Asad Taxminiy keyinchalik "Islom jihodi" terrorchi guruhining diniy rahnamosiga aylangan bo'lsa, Xolid Hasan Falastinni ozod qilish tashkilotining jangovor tuzilmasi bo'lgan FATH tashkilotiga asos solgan. Shuningdek, hozirgi kunda o'zini "al-Qoidaning Iroqdagi bo'limi" deb atayotgan hamda ko'plab begunoh iroqliklarning hayotiga zomin bo'layotgan tashkilot rahbari Abu Muso Zaraqaviy ham dastavval "Hizb ut-Tahrir" a'zosi bo'lgan. Shu o'rinda 2005-yilning 13-14 may kunlari Andijonda amalga oshirilgan qo'poruvchilik harakatlarini amalga oshirgan "Akromiylik" oqimining asoschisi Akrom Yo'ldoshev ham "Hizb ut-Tahrir" safida bo'lganini eslab o'tish lozim. Quyida bu mavzuga batafsil to'xtalamiz.

"Hizb ut-Tahrir" tashkilotining terrorchi mohiyatini tasdiqlovchi boshqa bir omil shundan iboratki, go'yo faoliyati "oshkora" va "zo'ravonliksiz" usullarga asoslangan bu guruh o'z rahbariyati, qarorgohi va moliya manbalarini nafaqat boshqalar, balki o'z a'zolaridan ham qat'iy sir tutishga harakat qiladi. Ekstremistik mohiyati fosh bo'lgan "Hizb ut-Tahrir" deyarli barcha musulmon mamlakatlari, 2003-yildan Rossiya va Germaniya da ham man qilingan.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirga qadar "Hizb ut-Tahrir"ning "Amiri"- qiyodati a'zam" deb ataluvchi oliy rahbari uch bor almashgan. Tashkilot asoschisi Taqiyuddin Nabahoniyning vafotidan so'ng (1979-yil), 1979-2003- yillarda rahbarlik falastinlik Abdul Qadim Zallum (1923-2003)ga o'tgan. Hozirgi kunda tashkilotni kelib chiqishi falastinlik bo'lgan Ato Abu Rushta (Iordaniya fuqarosi) boshqaradi. "Abu Yosin" taxallusi bilan faoliyat yurituvchi ushbu kimsa 1990-yillarda Iordaniya davlatida konstitusiyaviy tuzumga qarshi faoliyat hamda ommani zo'ravonlikka tashviqot qilgani uchun bir necha bor qamoqqa olingan.

Ta'kidlash joizki, dunyodagi ko'plab taniqli ulamo va islomshunos olimlar "Hizb ut-Tahrir" mafkurasini qattiq tanqid qilganlar. Jumladan, Muhammad qutb, Saudiya Arabistonining sobiq bosh muftiysi, marhum shayx Bin Boz, Yusuf Karzoviy (Qatar) va Oman milliy universiteti shariat fakulteti dekani Abduaziz Hayot uni "islomni buzuvchi" tashkilot sifatida baholaganlar.

Mashhur "al-Azhar" majmui shayxi Tantoviy quyidagi so'zi bilan "Hizbut-tahrir"ning g'oyasini inkor etadi: "Xalifalik davlatini barpo qilish islom shariatida zarur emas. ... xulosa shuki, har bir o'lkaning o'z rahbari bo'lishi joizdir". O'zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolar kengashining 1999-yil 16-iyundagi "Din niqobi ostida dinbuzarlar haqida"gi Fatvosida "Hizb ut-Tahrir" va boshqa buzg'unchi toifalar faoliyati qattiq qoralangan.

Qirg'izistonlik Alouddin Mansur "Hizbning da'vatlariga yaxshilab nazar tashlansa, islomga yot narsalar ekani ma'lum bo'ladi. Ular Qur'on, hadisdan "dalil" keltiradilar, lekin o'z foydalari uchun, ya'ni, umuman Qur'on, hadis dalolat qilmaydigan ma'nolarda tushuntirmoqchi bo'ladilar", deb fikr bildirgan.

Tojikstonlik, Akbar To'rajonzoda "Hizb ut-Tahrir" mafkurasini "Qur'oni Karim", sunna va hanafiylik e'tiqodiga zid keladi, jamiyat ichida beqarorlikni vujudga keltiradi", deb hisoblaydi. Shayx, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Hizb ut-Tahrir" faoliyatini chuqur tahlil, qilib quyidagi xulosani beradi: "Hizb ut-Tahrir har qanday dushman qila olmaydigan zararli ishlarni qildiki, islom dushmanlari o'zlari harakat

qilsalar, hozirgi natijaga erisha olmas edilar”¹.

4. ISHID fitnasi. Iroq va Shom Islom davlati- ISHID- (ruscha - Islamskoye gosudarstva Iraka i Levanta - IGIL , arabcha الدولة الإسلامية (في العراق والشام) - DÁISH). Bu davlatning tashkil etilishini G‘arbning musulmon dunyosiga nisbatan tutgan siyosatining o‘ziga xos aksi deyish mumkin. ISHID 2006-yilda Iroq va Suriya hududlarining bir qismida tashkil etildi. Bosh maqsad sifatida Iroq, Iordaniya, Suriya kabi davlatlar negizida sunniy musulmonlarning yagona davlati – “halifalik” ni barpo etib, uni bosqichma-bosqich Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari hisobiga kengaytirishni da’vo qiladi. Misrdagi nufuzli “Dorul ifto”, ya’ni “Fatvo hay’ati” o‘zlarini “Islom davlati” deb atagan Iroq va Suriyadagi jangarilarni bu nom bilan atamaslikka chaqirdi. Qator taniqli ulamolar bu guruhning qator qilmishlarini, ular amalga oshirgan xunrezliklarni Islomning barcha tamoyil va qoidalariga zid ekanini aytib, uning faoliyatini islom dini uchun katta tahdid deb atamoqda. Saudiya Arabistoni bosh muftiysi Shayx Abdul Oli Shayx: “Iroq va Suriya dagi “islom davlati” nomini niqob qilgan buzg‘unchilar islom dinining dushmanidir. Chunki ularda ko‘p insonlar jabr chekishmoqda” deb ta’kidladi. Tashkilot tadbirkorlarga “solih” solish, garovga olish, tovon puli, mol-mulklarni talon-taroj qilish, neft sotish evaziga o‘z faoliyatini moliyalashtiradi. Davlat lideri Abu Bakr al-Bag‘dodiy hisoblanadi. Shtab-kvartirasi Suriyaning Rakka shahrida joylashgan. Uning tashkil etilishida “Al-Qoida” bo‘limlari, shuningdek yana o‘n bitta radikal ruhdagi islomiy guruhlar faol ishtirok etishdi. Bugungi kunda ISHID shariat asosida boshqariladigan Yevropaga jiddiy xavf solayotgan yarimreal kvazidavlat hisoblanadi. AQSH ning birinchi raqamli dushmani “Al-Qoida” emas ISHID bo‘lib qoldi. ISHID o‘z faoliyati davomida “Al-Qoida” faoliyatini chuqur tahlil etgan holda uning xatolarini takrorlamaslikka harakat qilmoqda: tolerantlikni ifoda etuvchi mavhum ta’limotlarni emas an’anaviy islomni qo‘llab-quvatlamoqda; Forsdagi islomiy tashkilotlar bilan (shialardan tashqari) harbiy ittifoqda bo‘lishga harakat qilmoqda;

¹ Muhammad Sodiq Muxammad Yusuf. Din nasihatdir. Toshkent 2000. Movaronnaxr. 90-b.

Suriya muxolifati bilan kelishuv yoʻlini tutdi va sh.k. Eʼtiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qatʼiy nazar yuqori malakali kadrlarni ishga taklif etish avj olgan va shu kabilar.

Suriya, Iroq, Afgʻoniston, Jazoir, Liviya, Yaman, Nigeriya, Pokiston, Misr, Shimoliy Kavkazdagi qator harbiy harakatlarda faol ishtirok etib keladi. ISHID dunyoning qator davlatlari, xalqaro tashkilotlari tomonidan terrorchi davlat sifatida tan olingan.

ISHID ning vujudga kelish tarixiga eʼtibor beradigan boʻlsak, u 1999-yilda “Jamaot at-Tavxid val-Jixad” nomi bilan paydo boʻldi. Unga asli iordaniyalik boʻlgan Axmad Fadil Xalil (Abu Musab az-Zarkaviy) asos solgan. 2006-yildan “Iroq islom davlati” nomini oladi. Keyinchalik (2013) Iroq va Shom (Levant) davlati deb atala boshlandi. 2014-yil 29-iyunda oʻzlarini Xalifat deb eʼlon qilishadi¹. Rossiyaning qator diniy ulamolari bu uyushmani “islom davlati” deb atamaslikka chaqirishmoqda. Ularning fikricha bu davlatni “Iblis davlati” yoki arabcha DAISH deb atashni taklif qilishmoqda. Chunki daish deb atalganida arab tilida haqoratli soʻzga juda yaqin keladi (داعش «*dais*»). Saudiya Arabistoni bosh muftiysi Shayx Abdul Oli Shayx: “Iroq va Suriyadagi “islom davlati” nomini niqob qilgan buzgʻunchilarni Iroq va Shomdagi islom dushmani deb atagan edi². 2014-yilgi maʼlumotlarga qaraganda ishidchilar nazoratida boʻlgan hudud 90 ming kv km ni tashkil qilib, ahaolisi 8 million kishi atrofida boʻlgan. 2015-yil 11-dekabrda Rossiya mudofaa ministri S.Shoyguning axborotiga asosan ishidchilar Suriyaning 70 % hududini egallashgan. Lekin undan keyingi yillarda Suriya armiyasining Rossiyaning harbiy koʻmagida olib borgan harbiy harakatlari natijasida ishidchilarning nazoratida boʻlgan hudud ancha qisqardi.

Ishidchilarning paydo boʻlishi bilan bogʻliq sabablar va omillari xususida gap ketganida Moskva VSHE demografiya instituti direktori Anatoliy Vishnevskiyning fikricha Yaqin Sharq aholisning keskin oʻsishi natijasida yuzaga kelgan ishsizlik, qashshoqlik radikal guruhlarining vujudga kelishiga sabab boʻlgan. Andrey Bistritskiyning hisoblashicha mintaqadagi ijtimoiy adolatsizliklar sabab aholi oʻzining ijtimoiy adolat,

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/islamskoye_gosudarstva

²Tulepov O.M. ISHID fitnasi. T.: “Mavorounnahr” 2015. 11-12 bet

demokratik tartibot bilan bog‘liq orzu umidlarini “Islom davlati” misolida amalga oshishiga ishonishardi. Buyuk Britaniya sobiq tashqi ishlar ministri Devid Milibendning qayd etishicha AQSH boshchiligida harbiy koalitsiyaning Iroqqa bositirib kirishi (2003) natijasida vujudga kelgan beqarorlik ishidchi harbiy guruhlarining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Xuddi shunday fikrni Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri Toni Bler “SNN” telekanaliga bergan intervyusida qayd etib 2003-yilda AQSH boshchiligidagi koalitsion kuchlarning Iroqqa bostirib kirib rasmiy hukumatni ag‘darib tashlashlari natijasida vujudga kelgan beqarorlik, anarxizm, ijtimoiy adolatsizlar ishidchilarning maydonga chiqishining bosh sababi ekanini aytib o‘tadi¹. Ishidchilarning yuzaga kelishini har tomonlama tahlil qilgan britan analitiki Patrik Kokbern esa asosiy sabablarni bir nechtaga bo‘lib tahlil qiladi: G‘arbning yetakchi davlatlari olib borayotgan siyosatning natijasi ekani; mintaqadagi AQSH ning asosiy sherigi Saudiya Arabistoni tomonidan salafiyularning moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi; Iroq va Suriyaga maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan jihodchilarning kirib kelishi uchun maxsus “yo‘lak” (koridor) ning mavjudligi; Iroqda koalitsion kuchlar tomonidan shialar rejimining joriy etilishi va shu kabilar. Harbiy harakatlar tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak AQSH 1991-yilgacha biron marta musulmon dunyosi bilan qarama-qarshilikka bormagan. 1991-yil yanvarda AQSH qo‘shinlari ilk bor Iroqqa bostirib kiradi va vaziyat teskari tomon o‘zgarib boradi. Ayniqsa 2001-yilda boshlangan “terrorga qarshi urush” kampaniyasi uning musulmon olamidagi obro‘sigacha putur yetkazdi. G‘arb demokratiyasi asosida “isloh” qilingan Iroq va Liviyadagi vaziyat naqadar achinarli manzara kashf qilganiga butun insoniyat guvoh. Ma’qul kelmagan amaldagi hukumat inkor qilinadi, gayridemokratik rejimda ayblanadi, ularga xukumatni topshirish sharti (ultimatum) qo‘yiladi va maqomsiz, uquvsiz, mansabparast, xoin, shaxsiy manfaatini xalq manfaatidan ustun qo‘yadigan, vatanfurush bir to‘da rasmiy muxolifat sifatida “homiylikka” olinadi. Manzara Iroq, Liviya, Yaman singari mamlakatlar misolida ayon: markaziy hokimiyatning mavjud emasligi; mamlakat boyliklarining talon-

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/islamskoye_gosudarstva

taroj etilishi; parchalanish, mintaqalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar; milliy va diniy nizolarning avj olishi va shu kabilar.

2014-yilning fevraliga kelib "Al-Qoida" va daishchilar o'rtasidagi aloqalar butunlay uzildi. Bir paytlar "Al-Qoida" ning bir qismi bo'lib kelgan daishchilar endi unga qarshi chiqa boshlashdi. Bu esa Suriya dagi fuqarolar urushining avjiga chiqishiga sabab bo'ldi.

2014-yilning yozidan daishchilar Iroqning shimoliy – g'arbiy mintaqalarida, Suriyaning shimolida keng miqyosdagi harbiy harakatlarni avj oldirib yuborishadi. Shu paytdan ishidchilar xalqaro ommaviy axborot vositalarida nihoyatda keng e'tibor beriladigan mavzuga aylanishdi. Mashhur Ingliz nashrlaridan biri "The Telegraph" rasmiy London va Vashington ishidchilarning bu rejalaridan boxabar bo'lishgan. 2014-yilning 10-iyunida Tarxan Batirashvili boshchiligida daishchilar harbiy bo'linmasi yirik shaharlardan biri Mo'sulni egalladi. Oradan bir kun o'tgach Tikrit egallandi. 15 iyunda Tal-Afar ishidchilar qo'lga o'tdi. Bag'dodni egallashga bo'lgan urinish AQSH ning harbiy ko'magi bilangina bartaraf etildi. Shunday bo'lsada ular qator yirik neft konlarini qo'lga kiritishdi. Va nihoyat 2014-yil 29-iyunda Xalifalik tuzilganligini e'lon qilishdi. Suriyadagi Rakka shahri ularning poytaxti etib belgilandi. Halifa etib Abu Bakr al-Bag'dodiy e'lon qilindi. Bu yutuqlardan nihoyat darajada g'ururlanib ketgan ishidchilar safidagi qator chet ellik yollanma jangarilar ommaviy va tantanali ravishda ularga endi hech qanday fuqarolik kerak emasligini ko'rsatib o'z pasportlarini yoqib yoki yirtib yuborisha boshlashdi.

Ushbu harbiy harakatlar sabab daishchilar Suriyadagi (Xaleppo, Idlib, Rakka, Xama), Iroqdagi (Kirkuk, Tikrit, Diya la, Naynava), Liviya dagi (Barka, Fezzan, tarabulus), Arab yarim orolidagi (Xijoz, Laxaj, Sana, Shabva), Nigeriya dagi (Ifrikiya), Jazoirdagi, Afg'oniston va Pokistondagi qator provinsiyalarni o'z qo'lida ushlab turishdi.

Daishchilarning moliyaviy daromad manbalari turlicha. Birinchi galda ko'pgina qarashlarda asosiy daromad manbai sifatida qora bozordagi neft savdosi ko'rsatiladi. To'g'ri daishchilar bugungi kunda neft savdosidan juda katta daromad qilishlari mumkin. Lekin ular neft konlarini qo'lga kiritgunicha qayoqdan daromad qilishgan degan muasala paydo

bo‘ladi. G‘arb mamlakatlarining ba‘zi ommaviy axbrot vositalarida keltirilishcha daishchilarga Saudiya Arabistoni, Qatar davlatlari homiylik qilishgan. Lekin bu ularning asosiy raqibi Iroq va Suriyadagi rasmiy hukumat hisoblanadi. Daishchilar tomonidan egallangan shaharlardagi qator banklar o‘z mablag‘lari bilan o‘lja bo‘lib qoldi. Aholini garovga olish, shuningdek inson organlari savdosi avj olganligi ko‘p bor o‘z isbotini topgan. Nazoratdagi hududlarga e‘tiqodidan qat’iy nazar yuqori malakali kadrlar (injenerlar, vrachlar, dasturchilar) katta mablag‘ evaziga keltirilmoqda. Masalan moliya vaziri Avstraliya fuqarosi hisoblanadi. Faqat ularga o‘z dinining cherkovlarini qurmaslik, diniy bayramlarini namoyishkorona nishonlamaslik, diniy liboslarda yurmaslik kabi shartlar qo‘yilgan.

DAISH guruhi o‘z oldiga buyuk xalifalikni tiklash vazifasini qo‘ygan. Uning tarkibiga arab xalifaligi, Usmoniylar imperiyasi tarkibida bo‘lgan barcha hududlar kiritilishi belgilab qo‘yilgan. Usmoniylar imperiyasi tugatilishi natijasida belgilangan chegaralarni tugatish, Iroq, Suriya, Livan, Isroil, Falastin, Misr, Iordaniya, Turkiya birinchi galda halifalikka kiritilishi lozim edi. Shuningdek daishchilar XAMAS ni tugatish, Isroilni yo‘q qilish, Markaziy Osiyodagi vaziyatni destabilizasiya qilishga intilib keladi.

Keyingi yillarda daishchilarning mintaqada vaziyatga, uning barqarorligiga yetkazayotgan zararining cheki yo‘q: teraktlar, jangavor harakatlar, portlashlar, qotilliklar, millionlab qochoqlar, vandalizm va shu hokozolar. Daishchilar tomonidan insoniyatga qarshi qaratilgan hatti-harakatlarning ba‘zilarini keltirishga harakat qilamiz:

- 2009-yil 25-oktabrda Bag‘dod shahrida daishchilar minalashtirilgan avtomobillar yordamida kuchli teraktni amalga oshirishdi. Uning natijasida 155 kishi halok bo‘lib, 721 kishi yaralandi.
- 2012-yilning 23-iyulida Iroqning qator hududlarida olib borilgan harbiy harakatlar natijasida 116 kishi o‘ldirildi, 299 ta odam yaralandi.
- 2013-yilning iyul oyida daishchilar Iroqning “Abu G‘urayb” qamoqxonasiga hujum qilib 500 dan ortiq mahbusni qochirib yuborishdi.
- 2014-yil 16-iyunida daishchilar Iroqning shimolidagi Tikrit shahrini egallab, undagi harbiy bilim yurtining 1700 nafar talabasini qatl etishdi.

- 2014-yilning 28-avgustida daishchilar tomonidan ijtimoiy tarmoqda mudhish videosharh tarqaldi. Unda asirga olingan 250 nafar suriyalik askarning namoyishkorona qatl etilishi tasvirlangan edi¹.
- 2015-yilning 20-yanvarida Mo‘sul shahrida 13 o‘smir Osiyo kubogida ishtirok etayotgan Iroq-Iordaniya futbol o‘yinini tomosha qilishgani uchun otib o‘ldirildi.
- 2015-yilning 31-oktabrida Sharm el-Sheyx – Sankt-Piterburg marshruti bo‘yicha uchayotgan A-321 samolyoti havoda portlatib yuborildi.
- 2015-yil 13-noyabrda Parij shahrida qator teraktlar amalga oshirildi. Bataklan teatri garovga olindi. Teraktlar natijasida 130 kishi halok bo‘ldi. 8 ta xudkush o‘z-o‘zini portlatib yubordi.
- 2016-yilning 22-martida Bryussel shahrida amalga oshirilgan teraktlar seriya si natijasida 34 kishi hayotdan ko‘z yumdi.
- 2016-yilning 12-mayda Bag‘dod shahrida amalga oshirilgan teraktlar seriya si natijasida 80 dan ortiq kishi hayotdan ko‘z yumdi².

Albatta bunday faktlarni istagancha keltirish, davom ettirish mumkin.

Daishchilar o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishishda, o‘z saflarini yanada to‘ldirishda global ijtimoiy tarmoqdan nihoyatda unumli foydalanishmoqda. Nihoyatda ustamonlik ila tayyorlangan harakat saflariga chorlovchi videolavhalarni doimiy ravishda joylashtirib borishadi. Tayyorlanayotgan videolavhalar tashkilotning “al-Hayot” media studiyasida yuqori sifat va professional mahorat bilan tasvirga olingan. Bu ishga katta malaka va tajribaga ega bo‘lgan yevropalik psixolog mutaxassislar jalb etilgan. Har bir videolavha mantiqiy izchillik asosida boyitib boriladi. Shu bois internet o‘ziga xos “o‘rgimchak to‘ri” bo‘lib xizmat qilmoqda.

Albatta, internet insoniyat hayotida tutgan o‘rni beqiyos. Uning o‘rnini bosa oladigan biron-bir boshqa aloqa vositasi mavjud emas. Uning xizmatidan barcha tashkilotlar, uyushmalar, har bir inson har kuni keng foydalanib keladi. Uni man etish, yoki undan voz kechish umuman

¹ Tulepov O.M. ISHID fitnosi. T.: “Mavoraunnahr” 2015. 49- bet

² https://ru.wikipedia.org/wiki/islomskoye_gosudorstva

mantiqsiz holat hisoblanadi. Faqatgini yoshlarimizda internetdan foydalanish madaniyati, salohiyatini yuksaltirib borish talab etiladi.

Tayanch soʻz va iboralar

Yaqin sharq, ISHID, jihod, shahid, missionerlik, diniy konfessiyalar, ekstremizm, diniy bagʻrikenglik, maʼrifat, fundamentalizm, aqidaparastlik, dahriylar.

Takrorlash uchun savollar.

1. Yaqin Sharqning tabiiy – geografik, energetika, transport-kommunikatsion imkoniyatlari nimalardan iborat?
2. XX asrning ikkinchi yarmida mintaqada faoliyat yuritayotgan terrorchi tashkilotlarning yetkazayotgan zararlarini nomoyon boʻlish xususiyati?
3. “Hizb ut- Tahrir al-Islomiy” ekstremistik tashkilotining maqsadi nimada?
4. ISHID ning vujudga kelish sabablari?
5. Yaqin Sharqdagi beqarorlikda ishidchilarning hatti-harakatlari?

Mavzu: XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA XALQARO MAYDONDA TERRORCHI TASHKILOTLAR FAOLIYATINING KUCHAYISHI.

Reja:

1. Terroristik tashkilotlarning Yevropa davlatlaridagi terrorchilik faoliyati.
2. AQSH va Lotin Amerikasi davlatlarida terrorchi tashkilotlar faoliyati.
3. Osiyo va Afrika mamlakatlarida terrorchilik tashkilotlari faoliyati.

1. Terroristik tashkilotlarning Yevropa davlatlaridagi terrorchilik faoliyati: “Irlandiya Respublika armiyasi”. Milliy ozodlik harakatlari haqida ketganida biz faqatgina Yevropaga toʻxtaladigan boʻlsak uzoq davom etgan va qonli toʻqnashuvlarni ingliz mustamlakalari boʻlgan

Irlandiya va Shotlandiya misolida ko‘rishimiz mumkin. 1649-yilda Angliyada respublika e‘lon qilingach (1649-1660) parlament qirollik hokimiyatini “keraksiz, xalq farovonligi uchun zararli va xavfli” bo‘lganligi uchun bekor qildi. Ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi Kengash tuzildi. Oliver Kromvel bu Kengash rahbari etib tayinlandi. Kromvel Angliya hududini kengaytirish siyosatini yuritdi. Chunonchi, 1649-yilda Irlandiyani, bir oz fursatdan so‘ng Shotlandiyani bosib oldi. Ularning mustaqilligi tugatildi. 1653-yilda hukmron tabaqaning xohish-istagi bilan Kromvel parlamentni tarqatib yubordi va butun hokimiyat Kromvel qo‘liga o‘tdi. U “Ozod davlat Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaning Lord-protectori” deb e‘lon qilindi.

Irlandiya aholisi uzoq yillar muhtojlikda yashadilar. Ko‘pchilik irlandiyaliklar tirikchilik tashvishida Amerikaga ko‘chib ketdilar. Ochlik, o‘lim va ko‘chib ketish natijasida irland aholisi 1851-yildagi 6,5 mln. hisobidan 1900- yilga kelib 4,5 mln. kishiga kamayib ketdi. 60-yillarning oxirida Irlandiya masalasi yana siyosiy inqirozga aylandi. 1875 - yilda ingliz Parlamenti deputati, Olsterlik protestant, yer egasi Parnell Irlandiyaga muxtoriyat huquqi berilishi haqida qonun qabul qilishni (gomrul) talab qildi. U o‘z atrofiga Irland muxolifat guruhini birlashtirdi. Parnell boshchiligidagi muxolifat 70-yillar oxirida nufuzli kuchga aylandi. Bu vaqtda irland dehqonlarining «Yer-suv ligasi» (1879-yil) nomli ommaviy tashkiloti shu muxolifat tayanchi bo‘ldi. Ijarachilarning yerdan haydalisiga javoban «Yer-suv ligasi» Irlandiyadagi ingliz pomeshchiklariga qarshi ommaviy terror boshlab yubordi. Ingliz tovarlariga baykot kuchaydi. B. Dizraeli hukumati (1874–1880) biron chora ko‘rmedi. Gladston (1880–1885) hukumati esa irlandlarga gomrul o‘rniga «Yer-suv akti»ni (1881-yil) taklif qildi. Unda 15 yil muhlatga renta miqdorini adolat bilan belgilaydigan va ijarachiga o‘z yer uchastkasini boshqa bir shaxsga o‘tkazish huquqini beradigan komissiya tuzilishi ko‘zda tutilgan edi.

Irland «Yer ligasi» bu tartibga qarshi chiqdi va baykotni kuchaytirib, pomeshchiklarni qo‘rqitish kampaniyasini boshlab yubordi. Parnell parlament va‘da qilgan gomrulni talab qildi. Biroq hukumat ta‘qibni kuchaytirdi. Parnellni qamoqqa oldi. «Yer ligasi» taqiqlab qo‘yildi.

Angliya hukumatining bu xatti-harakatlari yonib turgan olovga yog' quyish bo'ldi, xolos. Irlandiyada tinchlik o'rniga ochiqdan-ochiq fuqarolar urushi xavfi kuchaydi. Shundan keyin Angliya hukumati Parnell va uning tarafdorlariga kelishishni taklif qildi. Parnell tutgan kelishuvchilik yo'li Irlandiyadagi mayda terrorchi guruhlarni faollashtirib yubordi. 1882-yil 6-mayda Dublinda Irlandiya ishlari bo'yicha stats-sekretar va Irlandiya lord-hokimi terror yo'li bilan o'ldirildi. Irlandiya burjuaziyasining bir qismi Irlandiyaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan birmuncha keskin talablar bilan chiqa boshladi. Ushbu guruhning rahbari A.Griffit 1905-yili «Shinfeyn» («Biz o'zimiz») partiyasini tuzdi.

Tadqiqotchi J.Kostigan fikricha Amerikaga hijrat qilgan irland katoliklari Nyu-Yorkda Irlandiya Respublika Birodarligi (IRB) tashkilotini tuzishadi. Dastavval IRB o'z vatandoshlariga moliyaviy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanib kelgan. 1865- yili AQSH da fuqarolar urushi tugagach zaxiraga bo'shatilgan irland harbiylari Irlandiyani ozod qilish uchun qurolli kurashni amalga oshirishga kirishishadi. Shu tariqa IRB moliyaviy tashkilotdan inqilobiy harakatga aylanadi. Shu tariqa 1870 – 1916 - yillarda inglizlarga qarshi amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari har tomonlama IRB tomondan qo'llab – quvvatlandi.

Angliyaning jahon urushida bandligidan foydalanib 1916 - yilda IRB rahbarligida Dublinda qo'zg'olon ko'tariladi. Irlandiya respublikasi tuzilganligi e'lon qilinadi. Shu tariqa IRB endilikda IRA ga aylandi. Urushayotgan tomonlar uchun qotillik, yovuzlik, talon–taroj, terror har ikkalasining ham oddiy taktikasi edi. 1921- yildagi bitimga muvofiq Irlandiyaga mustaqillik berildi. Lekin shimoliy hududlar Britaniya imperiyasi qo'lida qoldirildi. Britaniya bu hududda katoliklarning fuqarolik huquqlarini doimiy ravishda cheklab bordi. Bitim ratifikasiya qilingach IRA ma'lum darajada parchalana boshladi. Uning yirik ko'zga tashlangan vakillaridan Maykl Kollinz, Richrd Milkaxi, Ouen Udafilar yangi tashkil etilgan Irlandiya ozod davlati, uning armiyasi tomonga o'tib katta mansablarni egallashdi. IRA qolgan qismi o'z qurolini sobiq safdoshlariga qarshi qaratdi.

1954 – 1955 - yillarda IRA faoliyati kuchayib ikki yil davomida tegishli davlat idoralariga 600 martadan ortiq hujum qilindi. 1969- yilda

IRA kurash taktikasini keskin o'zgartirdi. U bir necha avtonom yacheykalarga bo'linib ular sharoitga qarab mustaqil harakat qilishgan. Ba'zilari kurashning to'la terror yo'lidan bordi. Javob tariqasida rasmiy London jazo qo'shinini jo'natdi. 1972- yil 30- mayda IRA o'zining faol harbiy harakatlarini to'xtatganini e'lon qildi. Lekin Britaniya hukumati speratistlar bilan muzokaralar olib borishdan voz kechgach jangovar harakatlar turli ko'rinishlarda davom etadi. IRA jangarilari Olster va Angliya hududida teraktlarini faollashtirishdi. IRA ning asosiy nishoni bo'lib ingliz armiyasi askarlari, politsiya va sud mahkamalari edi. Jangarilar tinch aholi o'rtasida qurbon bo'lmasligi uchun o'z teraktlarini amalga oshirishdan 90 minut oldin telyefon orqali ogohlantirishgan. 1985- yilda Angliya va Irlandiya o'rtasidagi navbatdagi bitim imzolanib unga asosan Irlandiyaga Buyuk Britaniya tarkibidagi Shimoliy Irlandiya masalalari bo'yicha maslahatchi maqomini berdi. IRA o'z faoliyatini 1997 yilda to'xtatgani e'lon qilingan bo'lsada, uning bugungi kunda 300 ga yaqin a'zolari mavjudligi haqida xabarlar bor.

ETA terrorchi tashkiloti. ÉTA (bask. YETA, Euskadi Ta Askatasuna — «Basklar mamlakati va erkinligi») — 1959- yilda Franko diktaturasiga qarshi tashkil etilgan basklarning so'1 radikal, nasionalistik ruxdagi separatistik tashkiloti¹. U Shimoliy Ispaniya va Fransiyaning janubiy-g'arbida joylashgan Basklar mamlakati mustaqilligi uchun kurashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Lekin bu tashkilotning kelib chiqish Ispaniyadagi fuqarolar urushi davriga, Franko tomonidan amalga oshirilgan Gernika shahri bombardimoni va 1937- yilda Basklar mamlakati avtonomiyasining tugatilishi davriga borib taqaladi². Nasionalistik ruhdagi basklar harakatining bosh mafkurachisi Sabino Arana (1865-1903) hisoblanadi. U XIX asrdayoq Basklar mamlakatini Ispaniya mustamlaka qilganligini, uning tarkibidagi Biskayya, Gipuskoa, Alava, Nvarra va Fransiya tarkibidagi Zuberu, Labor, Quyi Nvarra regionlarini birlashtirgan konfederasiya tuzish g'oyasini ilgari suradi. General Franko hokimiyat tepasiga kelgach Ispaniya respublikasi davridagi (1936-yil) Basklar mamlakati avtonomiyasini bekor qiladi. Bask tili, madaniyati kamsitildi.

¹ G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: "O'zbekiston" 2013.- 39-b

² <https://ru.wikipedia.org/wiki/eto>

Ish yuritish, ta'lim, kitob va jurnallar faqat ispan tilida nashr etilishi belgilab qo'yildi. Ispaniyadagi fuqarolar urushi davrida respublikachilar tomonida turib jang qilgan Biskayya va Gipuskoa provinsiyalar "sotqin-provinsiyalar" deb e'lon qilindi. 1937- yilda basklarning muqaddas maskani Gernikani yer yuzidan o'chirib tashlashdi. Ushbu holatlar ETA ning tuzilishiga olib keldi. ETA o'z oldiga asosiy maqsad qilib basklarning musatqil davlati – Euskadi davlatini tuzish edi¹.

ETA o'z faoliyatini 1960-yillarda temir yo'l liniyalarida, harbiy kazarmalarda, politsiya mahkamalarida portlashlarni amalga oshirishdan, rasmiy Madridning amaldorlariga, jandarmlariga suiqasdlar uyushtirishdan boshlaydi. Bu yillarda Ispaniya ma'muriyati ETA bilan rasmiy muzokoralar olib borishdan bosh tortadi. Lekin norasmiy manbalarga qaraganda norasmiy muzokoralar olib borilgan. 1960 – yillarning oxirlariga kelib ETA kurashning "inqilobiy terror" yo'liga o'tadi. O'tgan davr mobaynida ularning qo'lida 850 odam xalok bo'ldi.

1973-yilda ETA faollari tomonidan eng mashhur terakt sodir etildi. Bu gal terrorchilar ispan qiroli vorisi Ispaniya hukumati rahbari Luis Karreo Blankoni o'ldirishdi. Lekin uzoq vaqt davomida etachilarni terrorchilar deb atamasdan kelishdi. Balki buning sababi fashistik rejim tarafdori Frankoga qarshi kurashib kelganligi uchundir. Shunday bo'lgan taqdirda ular tmonidan amalga oshirilgan teraktlarda qanchadan – qancha tinch aholi jabr ko'rdi. 1975-yilda qirol Franko vafot etadi. Ispaniyada Xuan Karlos boshchiligida birmuncha demokratik ruhdagi yangi hukumat qaror topdi. Ozgina muddat o'tgach 1978-yilda basklar mamlakati ispan regionlari ichida tengi yo'q muxtoriyat huquqi oladi, bu imtiyozdan bugungacha foydalanadi. Endilikda ETA vakillarini frankochilar rejimiga qarshi kurashuvchilar deb emas, balki terrorchilar deb atay boshlashdi. Ular tomonidan 1979-yilda sotsialist German Gonsalesning o'ldirilishi bunga bir tomondan o'ziga xos turtki bo'ldi.

ETA ning tashkilot sifatidagi doimiy faoliyati katta mablag'ni tashkil qilardi. Bu muammoning yechimi sifatida tashkilot vakillari basklarning yirik va o'rta tadbirkorlaridan har yili muntazam ravishda olinadigan

¹ Qarang: Қаранг: Жаринов К. В. Терроризм и террористи. Исторический справочник / Под общей редакцией А. Е. Тароса. — Минск: «Хорвест», 1999. — С. 340

“inqilob solig‘i” yo‘lga qo‘yishdi. Bu yo‘l bilan keladigan daromad ETA boshqaruv vakillarini, jangarilarini maosh bilan ta‘minlab kelish, ularni qurollantirish, muntazam shay holatda ushlab turish imkonini berdi. Tashkilot ichida qat‘iy belgilangan tartib – intizom amal qilgan.

ETA vakillari 1970 – 1980-yillarning bo‘lag‘alarida o‘z harakatlariga qonuniy tus berishga harakat qilishdi. Mamlakatda ularni qo‘llab – quvvatlovchi 13 partiyadan iborat koalitsiya vujudga keldi. Lekin tashkilot a‘zolarining faoliyati har doim ham qonunda belgilangan tartibda bormadi. Dastlabki teraktlar yakka–yakka siyosiy tusda bo‘lsa, keyinchalik terroristik harakatlarning sohalari kengayib bordi. Faqat alohida shaxsga qaratilgan emas balki ommaviy qirg‘inga sabab bo‘ladigan aksiyalar boshlab yuborildi. 1980-yilda ETA ning xilma–xil ko‘lamdagi terroristik harakatlari oqibatida bir yil ichida turli joylarda 118 kishi xalok bo‘ldi. 1987-yili Madrid supurmarketida sodir etilgan terroristik harakat oqibatida esa 21 nafar tinch aholi hayotdan ko‘z yumdi¹. Albatta, ispan maxsus xizmati vakillari shunchaki qarab turishmadi. Ular etachilarga qarshi kurashda Lotin Amerikasi mamlakatlari maxsus xizmati vakillarining tajribasidan foydalanishga qaror qilishadi. ETA ni butunlay bartaraf etish maqsadida “o‘lim eskadroni” deb atalmish bo‘linma tashkil etildi. Uning yordamida ETA ning faol arboblarni noqonuniy o‘g‘irlash, yo‘q qilish boshlab yuborildi. Ba‘zi kishilar shubha ostida yo‘q qilinib ularning ETA ga umuman aloqasi bo‘lmagan. Natijada Ispaniyada maxsus xizmat vakillariga, olib borilayotgan bunday tusdagi siyosatga nisbatan salbiy fikrlar paydo bo‘la boshladi. ETA ga nisbatan esa xayrixohlar orta boshladi.

Tashkilot vakillari tomonidan 1997- yilda Bask viloyatida hukmron Xalq partiyasi vakili Miguel Blanco o‘g‘irlab ketilgach vaziyat butunlay o‘zgarib ketdi va albatta yetakchilar foydasiga emas. ETA tashkiloti Miguel Blankoni qaytarib berish evaziga Ispaniya qamoqxonalarida jazo muddatini o‘tayogan 460 ta mahbusni ozod etish talabi bilan chiqadi. Albatta ispan hukumati bu talabni bajarmaydi. Yosh siyosatchining o‘limidan keyin Ispaniya bo‘ylab zo‘ravonlikka chek qo‘yish talabi bilan

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: “O‘zbekiston” 2013.- 40-b

ommaviy namoyishlar boshlanib ketadi. Natijada ETA o‘t ochishni to‘xtatishini e‘lon qiladi¹.

Ko‘rinib turibdiki har ikkala tashkilot IRA ni ham, ETA ni ham terrorchi tashkilot deyish mumkin. Hozirgi kunda Yevropaning aksariyat davlatlarida parlament demokratiyasi qaror topgan, barcha millatlar o‘z xoxish – istaklarini erkin namoyon qilish imkoniga ega. Bunday sharoitda ko‘pgina milliy – separatistik ruhdagi tashkilotlar milliy negizdan yuz o‘girib so‘l terrorizm yo‘liga o‘tishgan.

Germaniyadagi terroristik harakatlar haqida gap borganida “Qizil Armiya Fraksiyasi” (Rote Armee Fracione - RAF) terrorchilik harakati ajralib turadi. Tashkilot o‘z nomini SSSR, Xitoy, Kuba armiyalarining nomidan olagan. Ular ikkinchi jahon urushidagi mag‘lubiyatdan, ayniqsa undan keyingi tuzilgan GFR davlatining hukmron tabaqalaridan keskin norozi edilar. Terror yo‘lini tutgan bu tashkilot o‘z dasturida jamiyat hayotidagi quyidagi illatlarga qarshi kurashishni ilagri suradi: AQSH gegemonligiga qarshi turish; Vyetnamdagi urushga chek qo‘yish; harbiy xizmatni tartibga solish; rokn–rollga; giyohvand moddalarga; ahloqsizlikka va boshqa ko‘plab holatlarga qarshi kurashishni o‘z maqsadi deb hisoblaydi.

Germaniyada nom chiqargan yana bir terroristik tashkilot “Aksilimperialistik yacheykalar” tashkiloti bo‘lib, ular jamiyatga katta miqdorda moddiy ziyon yetkazmaydigan, o‘limga olib kelmaydigan portlashlarni amalga oshirib keladi.

Yevropadagi terroristik tashkilotlar haqida gap borganida Italiya “Qizil Brigadalari” alohida o‘rin tutadi. Bu tashkilot faoliyatini “Qizil Armiya Fraksiyasi” faoliyati qiyoslash mumkin: ularning har ikkalasining nomining yaqinligi; amalga oshirgan jinoiy harakatlarining xususiyati; teraktlarni amalga oshirish metodlari; moliyalashtirish manbalari².

“Qizil Brigadalar” (“Brigade rossi” - BR) tashkilotiga Trent universitetining radikal kayfiyatdagi talabalari Renato Kurcho, Alberto Francheskini, Margarita Kagollar asos solishgan. Tashkilot shahar

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: “O‘zbekiston” 2013.- 41-b

² Витюк В.В., Эфиоров С.О. “Левый ” терроризм на западе. История и современность. – М.: Наука, 1987.- с.64

partizanchiligi kurashi usulini tanlagan. Ularning maqsadi inqilobiy davlat tuzish orqali Italiyaning Yevropa davlatlari bilan integrasiyasini cheklash edi. A'zolarining umumiy soni 2500 ga yaqin bo'lgan¹. Bu tashkilotning tuzilganligi, faoliyati haqidagi dastlabki xabar 1970- yilning oktabrida Italiya matbuotida paydo bo'ldi va ozgina vaqt o'tgach "Pirelli" firmasi zavodlarida dastlabki portlashlar amalga oshirildi². Keyinchalik brigadachilar ikki yil davomida kuch to'plashdi, tarafdorlar orttirishdi, o'zlarining kurash va boshqaruv tuzilmasini ishlab chiqishdi. Natijada ular keng ko'lamdagi operatsiyalarni amalga oshira oladigan mukammal tashkilotga aylanib ulgurishdi. 1972-yilning 3-martida BR ning birinchi yirik jinoyati sodir etildi – "Sit-Simens" rahbariyati a'zosi Idaldo Makyarini o'g'irlab ketildi. Kurashning ikkinchi bosqichi Genuya bosh prokurorining o'rinbosari Mario Sossini o'g'irlash bilan boshlandi. Olib borilgan muzokaralar shuni ko'rsatdiki, bu davlat amaldorini ozod qilish uchun terrorchilar sakkiz nafar mahbusni ozod qilishni talab etishdi. Brigadachilarning sharti bajarilmagach prokuror o'rinbosari o'ldirildi.

1974-1975 - yillarda BR qayta tashkil qilindi. Yangi qo'mondonliklar tashkil etildi. Har birida besh kishidan ko'p bo'lmagan brigadalar BR ning asosiy zarbdor kuchini tashkil qilar edi. Bunday tarmoqlar Milan, Turin, Genuya, Rim kabi qator shaharlarda tashkil etildi. Ayni paytda BR tarkibida o'z odamlarini ministrliklarga, politsiyaga ishga joylashtirish bilan shug'ullanadigan razvedka xizmati faoliyat yuritardi.

"Qizil Brigadalar" faoliyatining cho'qqisi 1977 – 1981- yillarga to'g'ri keladi. Bu paytda brigadachilarga Mario Moretti boshchilik qildi. Davlat hokimiyati vakillariga to'g'ridan-to'g'ri hujum qilish avj oldi. 1978-yilning martida Aldo Moro o'g'irlab ketildi. Ular hukumatni muzokaralarga kirishishga, "Qizil Brigadalar"ni siyosiy muxolifat sifatida tan olishga majbur qilishmoqchi bo'lishdi. Yana rad javobi olishgach Moro o'ldirildi. Shundan keyin ommaviy aksiyalar boshlanib, jamoat joylari – maktablar, universitetlar, transport vositalari nishonga olindi. Faqatgina 1979- yilning o'zida 2150 ta terakt amalga oshirilib, shundan

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/krosniye_brigodi

² Иорданов М. Дело № 666. Террор.- Махачкала: Юпитер. 2002.- с.236

133 tasi o‘quv yurtlarida sodir etildi¹. Ushbu voqealardan keyin qilgan ishlariga pushaymon ba’zi BR vakillari italyan politsiyasiga ko‘rsatma bera boshlashdi. Qisqa muddat ichida brigadachilarni aksariyati politsiya tomonidan hibsga olindi. 1998- yilda tashkilot o‘z faoliyatini rasman to‘xtagan.

Italiyada BR bilan bir qatorda “Birinchi chiziq”, “Ishchi avtonomiya”, “Yangi tartibot”, “Xalq kurashi” kabi bir qator so‘l radikal ekstremistik guruhlar ham faoliyat olib borishdi. Ular terror qilib qolmasdan o‘z harakatlarini turli xil mafkuraviy qarashlar bilan oqlashar va shu tariqa tarafdorlar orttirishga harakat qilishar edi. Shuningdek turli mazmundagi terrorchi harakatlarni Fransiya, Gretsiya, Belgiya va boshqa Yevropa davlatlari kuzatish mumkin.

Albatta ushbu terroristik tashkilotlarning yuzaga kelishiga qator sabab va omillar mavjud edi. Avvalombor shuni aytish joizki, uzoq yillar hukm surgan bipolyar tizim davri sabab bo‘ldi. Bunday sharoitda har ikkala tomon bir–birini zaiflashtirish uchun kurashning hech qanday turidan qaytishmadi. Kerak bo‘lsa terrorchi tashkilotlarni har tomonlama qo‘llab – quvvatlashdi. Ikkinchidan shuni aytish mumkinki, ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropaning qator davlatlari ishchi kuchi muammosini hal etish uchun o‘z koloniyalaridan kelayotgan migrantlarga katta miqdorda fuqarolik berishdi. Bu migrantlarning katta qismi Yevropa davlatlarining o‘z ona vatanlariga qarshi olib borayotgan siyosatidan norozi edilar. Uchinchidan G‘arbiy Yevropa davlatlarida diniy sekulyarizasiya jarayonidan norozi bo‘layotgan diniy tashkilotlar soni ortib bormoqda. Ayniqsa islom diniga bo‘layotgan munosabat qator teraktlarning amalga oshirilishiga sabab bo‘ldi. To‘rtinchidan, Osiyo davlatida faoliyat yuritayotgan qator terroristik tashkilotlarga Yevropada boshpana berilishi, ularga ofislar ajratilishi, banklarda o‘z hisob raqamlariga ega bo‘lishiga imkon berilishi ham bu tUSDagi harakatlarning avj olishiga imkoniyat yaratadi. Xulosa tariqasida aytish mumkin xalqaro terrorga qarshi umumiy say–harakat yo‘lga qo‘yilmaganligi terrorchilarga qo‘l kelmoqda.

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorism: ildizi, omillari va manbalari. T.: “O‘zbekiston” 2013.- 46-b

2. AQSH va Lotin Amerikasi davlatlarida terrorchi tashkilotlar.

Hozirgi kunda AQSh xalqaro maydonda terrorizmga qarshi kurashda o'zini eng lider davlat sifatida ko'rsatishga harakat qilib kelmoqda. O'z mamlakati ichida esa terrorchi tashkilotlarning mavjudligini tan olishdan doimo bosh tortib keladi. Ayniqsa Ku-klus-klanlar AQSh da terrorchi tashkilot sifatida tan olinmagan. 2005-yil 11-oktabrda mamlakat manfaatlarini uchun xavfli deb hisoblangan 42 ta terroristik tashkilot ro'yhati tuziladi. Ularning barchasi mamlakat tashqarisidagi terroristik tashkilotlar bo'lib, AQSh ning xalqaro maydondagi manfaatlariga to'sqinlik qilib kelishadi. Aytib o'tilganidek ular orasida AQSh hududida amal qilgan va hozirda ham amal qilayotgan klanlar yo'q. Lekin terrorchi tashkilotning mavjud emasligi terroristik harakatning yo'qligini anglatmasa kerak. Bittagina misol AQSh prezidentlaridan nechtasiga suiqasd qilinganligi hammaga yaxshi ma'lum.

Ku-klus-klan AQSh hududida oq irqni madh etuvchi, uning ustunligi uchun kurashuvchi tashkilot bo'lib 1861-1865- yillarda bo'lib fuqarolar urushidan janubliklar armiyasining soldatlari tomonidan tashkil etilgan. 1865- yilning 24 -dekabrda Janubliklar armiyasi taslim bo'lganidan keyin olti oy o'tgach Tennessi shtatida sudya Tomas Djons va janubliklar armiyasining oltita veterani (Makkord, Lester, Kennedi, Krou, Djouns, Rid) tomonidan asos solinadi. Ma'lumki fuqarolar urushi ketayogan bir paytda AQSh prezidenti A.Linkoln 1863-yilning yanvarida mamlakatda qulchilikni bekor qilish to'g'risidagi farmonga imzo chekkan edi. Ku-klus-klanlar qora tanli aholining huquqlarini kengayishiga qarshi kurash olib borar edi. Ku-klus-klan so'zi ba'zi manbalarda aytilishicha soldatlar vintovkani o'qlash uchun zatvorni tortishganida chiqqan tovushdan olingan deyiladi¹. Ular odatda ozodlikka chiqqan qora tanli aholidan, shuningdek qora tanli aholining haq-huquqlarini himoya qilgan sudyalardan, yozuvchilardan namoyishkorona o'ch olishardi.

Ku-klus-klanlar tashkiloti tuzilishiga ko'ra juda murakkab edi. Avvalombor bu uyushma "Ko'rinmas Janub imperiyasi" deb atalib, uning tepasidagi rahbar "Buyuk donishmand" (rus. «Velikiy Mudrets», angl. Grand Wizard) deyilgan. Rahbarning huzurida o'nta "Daho" (geniy)

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/ku-klus-klan>

dan iborat kengash bo‘lgan. Har bir shtat “Qirollik” hisoblanib, ular “Buyuk ajdarho” tomonidan boshqarilgan. Har bir qirollik o‘z navbatida dyumenlarga ajralgan. Tashkilotning oddiy a‘zolari “vampirlar” deb atalgan¹.

1868-yilda klanchilar o‘z Ustavlarini qayta ko‘rib chiqishadi. Ular o‘z harakatlarini barcha shtatlarda keng yo‘lga qo‘yishga harakat qilishadi. Ularning hatti-harakatlari 11 ta shtatni qamrab oladi. Ayniqsa Tennessi, Alabama, Shimoliy Karolina, Luiziana shtatlarida ularni qo‘llab – quvvatlovchilar ko‘pchilikni tashkil qilgan. 1871 – 1872 yillarda klanchilar uyushmasi hukumat tomonidan tugatiladi. Birinchi jahon urushidan keyin qayta tashkil etiladi. 1922-yilning yanvariga kelganda AQSH ning 45 shtatida tashkilotning taxminan 1500 ta bo‘linmalari faoliyat olib borardi. Buyuk dipressiya davrida tashkilot faoliyati yana to‘xtab qoladi. Ikkinchi jahon urushi davrida tugatilganligi rasman e‘lon qilinsada, 1946-yilda tashkilot yana tiklanadi. U ilgari yagona tashkilot bo‘lmasada, uning faollari kuchayib boradi. 1954-yilda maktablarda oq va qora tanli bolalarni birgalikda o‘qitish to‘g‘risidagi qaror klanchilarni junbushga keltirdi. Qora tanli aholining uylariga, maktablarga hujum kuchaydi. 1955 – 1965- yillarda irqchilar 85 kishini o‘ldirishdi. Bu omma orasida keskin norozilikni keltirib chiqardi. Keyingi yillarda klanchilarning faol harakatlari barbod bo‘ldi.

AQShdagi irqchilik tarixida oq tanli irqchilar tomonidan tashkil etilgan “Oriylar millati” tashkiloti muhim o‘rin tutadi. Bu tashkilot 1974-yilda Richard Batleni tomonidan tashkil etiladi. Ular qora tanli aholini mustaqil davlat boshqarishga qodir emas deb bilishar edi. Banklarni talon – taroj qilish ularning asosiy daromad manbai edi.

AQShdagi turli irqchilik negizidagi tashkilotlar vakillari tomonidan negrlarni vahshiyona o‘ldirilishi qora tanli aholi tomonidan javobsiz qoldirilmadi. Natijada javob yurishi tariqasida “Qora qoplonlar” tashkiloti vujudga keldi. Tashkilotning nomi ramziy ma’noda edi. Ma’lumki qora qoplon hech qachon birinchi bo‘lib hujum qilmaydi. 1988-yilga kelib ularning soni 2 ming kishiga yetdi. Ularning vazifasi “Qora getto” larni

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/ku-klus-klan>

politsiya yoki oq irqchilardan himoya qilish edi. 1968-yilda qora tanli aholi huquqlari kurashchisi bo'lgan Martin Lyuter King oq irqchilar tomonidan o'ldirilishi natijasida qoplonlarning politsiya bilan to'qnashuvi boshlandi. 1980–yillarga kelib FBR rahbari qoplonlarning mamlakat uchun katta tahdid ekanligi haqida bayonot beradi. Shundan keyin qoplonlarga nisbatan qatog'on boshlanadi. Harakat tugatilsada, “Qora qoplonlar” ning eng muvosiisiz radikallari turli terrorchi tuzilmalar tarkibiga kirib ketishdi.

Ana shunday terroristik tashkilotlardan biri “Jamoat ul-Fukra” edi. Tashkilot mafkuraviy jihatdan sof islomni tiklashga harakat qilar edi. “Jamoat ul-Fukra” jangovar operatsiyalarni Kanada, Karib havzasi, Pokiston, Hindiston va AQSH ning qator shtatlarida o'tkazar edi. “Jamoat ul-Fukra” xalqaro maydonda turli separatistlarni qo'llab – quvvatlasa, mamlakat hududida o'z qarashlariga qo'shilmaydigan musulmonlarga qarshi kurashardi. Sodir etilayotgan teraktlar qisman boshqa sonli krishnachilar, induslar, yahudiylarga ham qarshi qaratilgan edi. “Jamoat ul-Fukra” umumiy a'zolari uch mingga yaqin edi.

Lotin Amerikasida harakat qilayotgan ekstremistik guruhlar va tashkilotlar ellikka yaqin. Bular: Puerto-Rikoda – Milliy Qarshilik Armiyasi; Salvadorda – Milliy Ozodlik kuchlari va Milliy ozodlik fronti; Boliviya da – Katari Partizanlar Armiyasi; Ekvadorda – “Qizil Quyosh” guruhi; Gondurasda – “Morazint Uyushmasi” va shu kabilar.

Bugungi kunda Kolumbiyadagi vaziyat nihoyatda og'irligi bilan ajralib turadi. Mamlakatdagi partizanlar urushi 1949-yildan beri davom etmoqda. Isyonchilarning umumiy soni 25 mingdan ortiq kishini tashkil qiladi. Salkam oltmish yildan beri davom etayotgan jangovar harakatlarda 200 mingdan ortiq kishi xalok bo'ldi. 2 million kishi o'z yashab turgan joyini tashlab chiqishga majbur bo'ldi. 1964-yilda tashkil etilgan Kolumbiya inqilobiy qurolli kuchlari (KIQQ) eng qudratli, ko'psonli va muhim guruh hisoblanadi. KIQQ o'z hatti – harakatlarini amalga oshirishda terrordan, shuningdek partizanlar urushi usulidan keng foydalanadi. O'z nazoratidagi hududda tegishli qonunlarini o'rnatgan bo'lib, unga amal qilmaganlarga o'lim jazosi belgilanadi. Terrorchilik harakatlarini, jangovar operatsiyalarni olib borish uchun doimiy ravishda

moliya manbalari talab etiladi. Bu esa tashkilot yetakchilarini moliya manbalarini izlashga majbur qiladi. Natijada ular narkobaronlar bilan hamkorlik qilishga majbur bo'lishdi. Albatta partizanlar bu yo'l bilan katta daromad qilisha boshlashdi. Bu mablag'lar tashkilot yetakchilariga o'z otryadlarini qurollantirishga, jangovar shayligini ushlab turishga, qator jangovar operatsiyalarni amalga oshirishga katta imkon berdi.

Perudagi "Sendero Luminoso" ("Oydin yo'l") tashkiloti ham taniqli terroristik tashkilotlardan biri hisoblanadi. Bu tashkilot 1960 – yillarda Peruda asosan hindular yashaydigan tumanda Ayakuchcho Universitet o'qituvchilari federasiyasi hamda talabalar uyushmasi arboblari orasida tashkil etiladi. Ular Perudagi mavjud hukumatni qonuniy deb hisoblaydigan barchaga qarshi kurashishlarini e'lon qilishadi. "Sendero Luminoso" tashkilotining asosiy maqsadi mavjud davlatni yemirib tashlab, uning o'rnida hindular manfaatiga xizmat qiladigan sotsialistik tizim barpo etish edi. Tashkilot qashshoq qishloq aholisiga tayanar edi. "Sendero Luminoso" faoliyati gullagan paytida uning safida 2 mingga yaqin kishi bo'lgan. 1980 – 1983 yillarda 2500 ta terrorchilik harakati sodir etilib, 1580 kishi o'ldirildi. Peru politsiyasi 1982-yildan boshlab "Sendero Luminoso" ga qarshi faol kurasha boshladi.

Peruda "Sendero Luminoso" dan tashqari yana bir "Tupak Amaru" nomli terrorchi tashkilot ham mavjud. Uning nomi Janubiy Amerikalik hindular yo'l boshchisining nomidan olingan. Tashkilot yetakchisi Nestor Serna o'z oldiga Mao Szedun g'oyalari asosida kommunizm qurishni maqsad qilib olgan.

Chilida "So'l Revolyusion Harakat" tashkiloti terroristik harakat yo'lga birinchilardan o'tdi. Ularning asosiy kurash usuli portlashlar, o'g'irliklar, qotilliklar edi. Yana bir ekstremistik tashkilot LAUTARO yoshlar guruhi bo'lib, u katta shaharlarda barqarorlikka putur yetkazishga harakat qilar edi. Lularochilar biznesmenlarni, parlamentariylarni, boy sayyohlarni o'g'irlashar, bank, kazino, elita klublarga hujum qilishardi.

Argentinada 1970-yilda tuzilgan Revolyusion Xalq Armiyasi XXI asr boshigacha eng yetakchi ekstremistik tashkilot bo'lib keldi. Ular ham asosan individual terror, biznesmenlarni, diplomatlarni o'g'irlash bilan keng shug'ullanishdi.

Ko‘rinib turibdiki, Shimoliy Amerikada ham, Janubiy Amerikada ham turli negizdagi – milliy, irqiy, diniy negizdagi terrorchi tashkilotlar to‘lib yotibdi. Albatta bu tashkilotlar yer yuzidagi xavfsizlik va barqarorlikka jiddiy xavf soladi.

3. Osiyo va Afrika mamlakatlarida terrorchilik tashkilotlari faoliyati.

Osiyo davlatlarida faoliyat olib borayotgan terrorchi tashkilotlar haqida gap borganida shuni aytish lozimki, bu makonda faoliyat yuritayotgan terrorchi tashkilotlarning umumiy soni 70 ga yaqinligi haqida ma’lumotlar bor¹. Lekin ushbu terroristik tashkilotlar faqatgina Osiyoda davlatlarida amal qiladi degani emas. Bu tashkilotlarning ichida bir qatori boshqa qit’a davlatlariga qaratilgan. “Abu Nidal tashkiloti” jahonning 4 ta davlatida, “Al-harakat al-islomiya ” tashkiloti jahonning 4 ta davlatida, “Al-Qoida” deyarli Osiyo va Yevropa davlatlarining yarmida, “Asbat al-Ansor” harakati jahonning 4 ta davlatida, Aum sinrikyo tashkiloti jahonning 5 ta davlatida, “Jaysh-e-Muxammad” tashkiloti jahonning 5 ta davlatida, “Jamoat al-Islomiya ” harakati jahonning 5 ta davlatida, “Falastin islom jihodi” harakati jahonning 5 ta davlatida, ISHID deyarli Osiyo va Yevropa davlatlarining yarmida, “O‘zbekiston islom harakati” jahon davlatlarining 5 tasida, “Kurdiston ishchi partiyasi” jahon davlatlarining 5 tasida o‘z harakatini olib boradi. Albatta ro‘yhatni davom ettirish mumkin.

Yaponiyada keng tarqalgan so‘l terroristik harakat “Yaponiya Qizil Armiyasi” hisoblanadi. Harakatga 1972-yilda Fusako Sigenobu tomonidan asos solindi. Shtab – kvartirasi Livanda joylashgan. Tashkilotning asosiy maqsadi “sof” sotsializmni barpo etishdir. Ularning fikricha bu maqsadga jahon inqilobiy urushi orqaligina erishish mumkin. Jahon imperializmi, Isroil, sionizm, arablarga qarshi harakat, sovet revizionizmi tashkilotning asosiy dushmani deb e’lon qilindi. Tashkilot harbiy, mafkuraviy va tashkiliy qo‘mita tomonidan boshqarilgan. 1972-1990- yillar davomida qator turli darajadagi teraktlarni amalga oshirishdi. Ulardan eng yiriklari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin: Isroilning Lod aeroportida

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/spisok_terroristicheskix_organizatsiy

armiyachilarning qurollangan terrorchi guruhi aviayo'lovchilarga hujum uyushtirishdi. Bu terakt 26 kishining umriga zomin bo'ldi; 1975-yilning avgustida armiyachilarning qurollangan terrorchilari AQSH ning Kuala-Lumpurda elchixonasida kishilarni garovga olishgan; 1986-yil may oyida Jakartada AQSH, Kanada va Yaponiya elchixonalariga hujum uyushtirildi va shu kabilar.

Yaponiyada keng tarqalgan, o'ziga terrorchilik uslubini qurol qilib olgan yana bir tashkilot "AUM Senrikyo" diniy tashkiloti hisoblanadi. Unga 1987-yilda Tadzuo Masumoto (Seka Asaxara) tomonidan asos solingan. Bu Buddha ko'magida yuzaga kelgan keyinchalik Xitoyning uchta asosiy dinidan biri – buddizmga qo'shib ketgan vadjrayana ta'limotiga asoslanuvchi sinkretik sekta edi. Asaxara buddizm, daosizm va xristianlikning turli yo'nalishlari elementlarini o'ziga qamrab oluvchi o'zining diniy ta'limotini yaratadi. Sekta ta'limotida Asaxaraga Haqiqat ruhi deb qaraladi.

Asaxara tomonidan tayyorlangan AUMga aholini yollovchilar 1988-yilda mamlakat kollejlari, universitetlari tomon yo'l olishdi. Ular o'z faoliyatini varaqa tarqatishdan boshlashdi. Sekta o'zining moliyaviy masalalarini hal etish uchun umumiy ishga boy – badavlat tadbirkorlarni, yirik moliya, mulk egalarini jalb qilishga alohida e'tibor berishdi. Ularning diniy ta'limotida Yaponiyaning AQShga qarshi yadroviy urush boshlashi oqibatida sodir bo'ladigan oxirzamon yaqinlashib qolayotgani haqida gapirilgan edi. Sekta rahbariyati oxirzamon mahali Yaponiya hukumati o'rnini bosishi kerak edi. Shu yo'l bilan ular avval Yaponiyada, so'ngra butun dunyoda hokimiyatni qo'lga olishlari kerak edi. Sektaning yashirin laboratoriyalarida iste'dodli yosh olimlar kimyoviy – qirg'inbarot qurollar ustida ishlashni boshlab yuborishdi. "AUM Senrikyo" sektasi 1995-yilda Yaponiya hududida dron vositasida changlatishga mo'ljallangan gazlarni qo'llagan holda keng ko'lamli operatsiyani rejalashtiradi. Bu paytda sekta faoliyati ustida politsiyaning qidiruv-tergov faoliyati olib borilayotgan edi. "AUM Senrikyo" sektasi 1995-yilning 25- martida Tokio va Yokogama metrolarida kimyoviy hujumni amalga oshiradi. Bu aksiya sektaning qator a'zolarini hibsga olinishiga sabab bo'ldi. Shu yilning oktabr oyida "AUM Senrikyo" faoliyati tugatildi.

XX asrning ikkinchi yarmida Shri–Lanka Osiyodagi keskinlik va beqarorlining manbalaridan biriga aylandi. Mavjud muammoni hal etish jarayonida qator legal, yarimlegal, noqonuniy tashkilotlar vujudga kelib shulardan biri “Tamil-Ilamni ozod qiluvchi yo‘lbarlar” guruhi edi. Guruh 1976-yilda tashkil etildi. Maqsad Shri-Lanka hududida mustaqil Tamil davlatini tuzish edi. Kerakli kuch, tajriba va zaxirani to‘plagach 1983-yilda yo‘lbarlar hukumat qo‘shinlariga hujumni boshlashdi. Natijada mamlakatda fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Yuqorida keltirib o‘tilgan milliy, separatistik guruhlardan farqli ravishda yo‘lbarlar mamlakatga kelgan chet ellik sayyohlarga umuman tegishmagan. Ularni moliya bilan jahonning bir qator yirik davlatlaridagi tamil diasporalari ta‘minlashgan. Harbiy harakatlar partizanlik urushi va terror usuli bilan olib borildi. Tamil yo‘lbarlarining harbiy salohiyati oshib bordi. O‘q-otlar vintovkalar, avtomatlar, artilleriya, havo hujumidan mudofa tizimi, tanklar, hatto ular o‘z aviatsiyalariga ega edi¹.

Tamil yo‘lbarlari 2009-yilgacha Shri-Lankaning shimoliy hududlarini o‘z nazoratida ushlab turishdi. Ular tomonidan turli yillarda qator teraktlar amalga oshirildi:

1. 1985-yilning 14-mayida terrorchilar guruhi Anuradxapura shahriga hujum qilishdi. Natijada 146 nafar tinch aholi o‘ldirildi.
2. 1991-yilning 21-mayida “Qora yo‘lbarlar” tomonidan amalga oshirilgan terakt natijasida Hindiston Bosh vaziri Rajiv Gandi o‘ldirildi.
3. 1992-yil 16-noyabrda Shri-lanka harbiy dengiz kuchlari qo‘mondoni admiral K.Fernando o‘ldirildi.
4. 1993-yil 1-mayda Shri-Lanka prezidenti Ranasingxe Premadasa terrorchilar tomonidan o‘ldirildi.
5. 1997-yilning 11-iyulida yo‘lbarlarning harbiy kuchlari Zimbabvedan Shri-Lankaning hukumat kuchlariga o‘q–dori olib kelayotgan «Stillus Limassul» kemasini qo‘lga olishdi. O‘q–dorilar yo‘lbarlar ixtiyoriga o‘tdi.

Umuman olganda, 1987-2000- yillar davomida 292 nafar “kamikadze” dan foydalanib, 168 ta terroristik operatsiyani amalga oshirishdi. 2003-yildan Shri-Lanka hukumat qo‘shinlari muvaffaqiyatli

¹https://ru.wikipedia.org/wiki/tigri_osvobajdeniya_tamil-ilamo

hujumga o'tishdi. Tamil-Ilamni ozod qiluvchi yo'lbarslar" guruhi 2009-yilda tugatildi.

Yana bir terrorchi aqidaparast guruhlardan biri Indoneziyada faoliyat yuritgan "Jamo'a islomiya" guruhi hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Indoneziya qator islomiy guruhlar yordamida mustamlakachilar qo'lidan ozod bo'ladi. Oldiniga mustaqil islom davlati e'lon qilinadi. Keyinroq Indoneziya hukumati dunyoviy jamiyat barpo etishga kirishadi. Natijada dunyoviy hukumat bilan islom konservatorlari o'rtasida to'qnashuv kuchayib boradi. 1980-yillarning o'rtalariga qadar "Jamo'a islomiya" yetakchilari yoshlar orasida targ'ibot ishlarini olib borishdi. 1984-yilgi Jakartadagi hukumat qo'shini bilan islom radikallari o'rtasidagi to'qnashuvdan keyin aqidaparastlar tor-mor keltirildi. "Jamo'a islomiya" yetakchilari Abdulla Sungkar va Abu Bakar Malayziyaga qochishdi. Oddiy targ'ibot bilan biron natijaga erishib bo'lmasligi haqida xulosaga kelib, qurolli guruhlar tuzishga qaror qilishadi. Askarlar Afg'onistonda tayyogarlikni o'tashadi. "Jamo'a islomiya" tomonidan Bali orolidagi tungi klubda sodir etilgan portlashda 200 dan ortiq inson halok bo'ldi, Jakartadagi "Mariot" mehmonxonasida amalga oshirilgan teraktda ko'plab insonlar hayotdan ko'z yumdi.

"Jamo'a islomiya" ning qizg'in faoliyati natijasi o'laroq Indoneziyaga tutash davlatlarda ham shu kabi guruhlar tuzila boshlandi. 1991-yil Filippinda "Abu Sayyof" guruhi tuzildi. Tashkilot Filippinning janubida Bangsamaro islom davlatini tuzishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Tashkilot nomi arabcha abu (ota) va sayyof (qilich) so'zlaridan olingan¹. 2014-yil 23-iyulda tashkilot yetakchisi Isnilon Totoni Xapilon o'zining ISHID yetakchisi al-Bag'dodiyga sodiqligi haqida qasamyod qiladi. "Abu Sayyof" guruhi yetakchilari o'z oldlariga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy vositasi sifatida jihodni tanlashadi. Shuningdek "Abu Sayyof" guruhi portlatish, o'ldirish, garovga olish, yirik moliya va mulk egalaridan "soliq" undirish usullaridan ham keng foydalanishgan. Ular tomonidan amalga oshirilgan ikkita yirik terakt insoniyatni larzaga soladi. Biri shu ediki 2004-yilning 27-fevralida Manila bo'g'ozida turgan "Superferri-14" paromida amalga oshirilgan teraktda

¹ https://ru.wikipedia.org/wiki/abu_sayyaf

200 dan ortiq inson xalok bo‘ldi. 2005-yilning 28-avgustida Filippin janubida “Don Ramon” paromi cho‘ktirib yuborildi.

Bugungi kunda Filippindagi barqarorlikka “Abu Sayyof” terroristik tashkiloti bilan bir qatorda “radja Sulaymon harakati” ham katta tahdid solib keladi. Bu tashkilot Filippinda xristianlikdan islomga qaytganlar orasida vujudga keladi. Harakat XX asrning 70 – yillarida vujudga kelib uning safida hozirda 100-200 atrofida a’zo bor. Tashkilotning maqsadi uning nomidan ham ko‘rinib turganidek Filippinni musulmonlashtirishdan iborat.

Uzoq yillardan beri aniqroq aytadigan bo‘lsak Hindistonning ikkiga bo‘linishidan boshlab Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi hududiy, milliy, diniy negizdagi muammolar o‘z yechimini topmasdan kelmoqda. Ayni damda Kashmir o‘lkasi qarama – qarshilikning o‘chog‘i bo‘lib kelmoqda. Pokiston davlatining asoschisi Muxammad Ali Janna sobiq Britaniya mulklarining taqsimlanishi, ularning o‘rnida vujudga kelgan davlatlar, makondagi bu vaziyatni tahlil qilar ekan shunday yozadi: “Biz yaxshilab maxfiylashtirilgan va puxta ishlab chiqilgan, or-nomus, qadr-qimmmat va oliyjanoblikni ayovsiz oyoqosti qilib hayotga tatbiq etilayotgan jinoyatkorona niyatning qurbonimiz... natija esa ayon: fojeaviy to‘qnashuvlar, hindlarning Pokistondan Hindistonga, musulmonlarning esa, aksincha, o‘zaro ko‘chirilishi (13-15 mln.kishi) dan iborat”¹. Natijada Kashmirda islom frontini tuzish boshlandi.

Pokistonda eng rivojlangan terrorchilik tashkilotlaridan biri “Harakat ul-Mujohiddin”, “Al-Hadid”, “al-Faran” guruhleri hisoblanadi. “Harakat ul-Mujohiddin” (Din uchun kurashchilar harakati) XX asrning 80 – yillarida radikal islom faollari tomonidan tuzilgan. Dastlabki yillarda ularning asosiy maqsadi afg‘onistonga bostirib kirgan sovet qo‘shinlariga qarshi kurashish edi. Afg‘on – sovet urushi tugagach “ishsiz” qolib ketgan din kurashchilari G‘arb davlatlariga, ularning dunyoviy hukumatlariga qarshi kurasha boshlashdi. Pokiston ma’murlari esa ulardan Kashmirning Pokistonga qo‘shilishi uchun kurashayotgan terrorchi guruhlarini qo‘llashda foydalana boshladi. “Harakat ul-Mujohiddin” jangarilarni boshqa mamlakatlardan ham izlar edi. Halok bo‘lgan jangarilarning oilasi

¹ Стенли Уолперт. Джинно – творец Пакистана. Пер. с англ. – М.: “Рудамино”, 1997. – с. 339.

tashkilot tomonidan moliyaviy qo‘llab–quvvatlanishi uning saflarini yangi a‘zolar bilan to‘ldirilishiga zamin yaratar edi.

Guruh a‘zolarining qo‘lida eng zamonaviy qurollar bo‘lib, ular bu qurollar bilan “muomala” qilishni puxta o‘zlashtirishgan edi. “Harakat ul-Mujohiddin” jangarining sovet qo‘shinlariga qarshi olib borgan harakatlari AQSH manqaatlariga mos kelgani uchun kurashchilarni zamonaviy pulyomotlar, vintovkalar, tankka qarshi raketalar, hattoki “Stinger” qurilmalari bilan ta‘minlab keldi. Maxsus instruktorlar bu qurollardan foydalanish sirlaridan saboq berishdi. Urushdan keyin AQSH ulardan bu qurollarni qaytarib ola bilmadi. Afg‘on urushining ikkinchi bosqichida kurashchilar aynan AQSH yetakchiligida NATO chilarni shu qurollar bilan “kutib olishdi”. AQSH boshchiligidagi koalitsion kuchlarning zarbalari ostida “Harakat ul-Mujohiddin” lagerlari to‘liq vayron qilindi. Bu tashkilot a‘zolaridan Masud Azxar “Joishi Muxammad” (Muxammad armiyasi) terrorchilik guruhini tashkil etadi.

Pokistondagi yana bir nufuzli terrorchi tashkilot “Jamiyati ulamo islom” ning shahobchasi sifatida “Sipohi sahoba Pokiston” radikal guruh yuzaga keladi. U ko‘proq Kashmir muammosiga aralashgan edi. J.Blenk “Kashmirda hech kimning qo‘li toza emas” deb behuda yozmagan edi. Chunki bu terrorchi guruh hindlar bilan buddaviylarni o‘ldirish bilan bir qatorda o‘zini betaraf tungan o‘z dindoshlarini ham qirishgan¹. Albatta Kashmirdagi ozodlik uchun kurashuvchi deb ko‘rsatayotgan qator terrorchi guruhlar o‘zlarini baribir jahon fundamentalistik harakatining bir qismi deb bilishar edi.

Jahondagi ro‘y berayotgan terroristik voqealar oldida yaqin–yaqingacha Afrika birmuncha tinch bo‘lib keldi. O‘tgan asrning oxirlariga kelib Sudan, Jazoir, Liviya, Marokash hududlari aqidaparastlarning Shimoliy Afrikada yirik diniy davlatni tuzish uchun kurash maydoniga aylandi. Turli yo‘nalishdagi guruhlar tuzilib, faoliyat yurita boshladi. Jazoirda vujudga kelgan “Al-Qiyam” guruhi mamlakat hukumatining olib borayotgan sotsialistik yo‘nalishini islom qadriyatlariga zid deb hisoblar edi. Ular “gunoh manbalari” sifatida – kabare, kafe, spirt – vino

¹ G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: “O‘zbekiston” 2013.-80-b

zavodlariga qarshi qator teraktlar amalga oshirishdi. Islom fundamentalistlarining rahbari Yusuf al-Kardoviyning “Islom – bu yechim” – degan ta’biri radikal salafiylarining shiori bo‘lib qoldi. Mamlakatdagi dunyoviy hukumatni ag‘darishga bel bog‘lagan terrorchi guruhlardan yana biri “Qurolli islom guruhi”, “Da’vat va jihod salafiy guruhi” va boshqa terroristik guruhlarining mavjudligi, faoliyati bugungi kunda ham mamlakatda barqarorlikni qaror topishiga halaqit bermoqda. Ular mamlakatni klerikal davlat deb e’lon qilishni, bu maqsadga zo‘ravonlik yo‘li bilan amalga oshirishlarini ochiq bayon qilishdi.

2006-yilning sentabrida Usoma ben Ladinning o‘ng qo‘li Aymon az-Zavaxiriy “Da’vat va jihod salafiy guruhi” ning “al-Qoida” ga qo‘shilganligini xabar qildi. Shundan so‘ng “Da’vat va jihod salafiy guruhi” o‘zini “islom Mag‘ribidagi al-Qoida” deb e’lon qildi. Keyingi yillarda terrorchi guruhlar Sudanda, hokimiyat tepasidan Muamar Kaddafi ketgach Liviyada faollashib ketishdi. Albatta har ikkala mintaqa ham neft-gaz zaxiralariga boy. Ko‘rinib turibdiki har jihodchi qay darajada o‘z e’tiqodi uchun o‘z bilganicha kurashmasin, undan yana kimlardir o‘zining qaysidir manfaatlarini amalga oshirish uchun foydalanishga harakat qilib kelmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar

Terroristik tashkilotlar, IRA, Yer ligasi, ku-kulus-klanxilar, ETA, qizil brigadar, missionerlik, diniy konfessiyalar, ekstremizm, fundamentalizm.

Takrorlash uchun savollar.

1. Yevropadagi terrorchilik faoliyatini kelib chiqish sabablari?
2. AQSH va Lotin Amerikasi davlatlarida qanday terrorchi tashkilotlar mavjud?
3. Osiyo mamlakatlarida terrorchilik tashkilotlarini keng yoyilishining asosiy sabablari nimalardan iborat?
4. Afrika mamlakatlarida terrorchilik tashkilotlarini keng yoyilishining asosiy sabablari nimalardan iborat?
5. Terroristik hrakatlarning insoniyat boshiga solayotgan kulfatlari?

Mavzu: XALQARO TERRORIZMNING MOLIYAVIY VA IQTISODIY MANBALARI

Reja:

- 1. Terror globallasuvini ta'min etuvchi omillar.**
- 2. Noqonuniy qurol – yarog‘ savdosi xalqaro terrorizmning muhim moliyaviy manbai.**
- 3. Narkobiznes savdosi va uning zararli oqibatlari. Neft va odam savdosi.**

1. Terror globallasuvini ta'min etuvchi omillar. Jamiyat hayotining turli sohalarining keskin globallasuvi transmilliy jinoyatchilikka, xalqaro terroristlarga o‘z xatti-harakatlarini erkin-emin amalga oshirishga bir muncha imkoniyatlar ham yaratib bermoqda. Jahon maydonida iqtisodiy sohadagi amalga oshirilgan bir qator ijobiy o‘zgarishlar borki ular o‘z navbatida terrorchilikning, transmilliy jinoyatchilikning tarqalishiga ham yo‘l ochib berdi. Bu imkoniyatlar nimalardan iborat:

Birinchidan, davlatlar o‘rtasida, xalqaro maydonda iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning, aloqalarning yuksalishi bilan bog‘liq. Chegaralarning ochib berilishi (Shengen hududi, YEI, vizasiz harakat qilish zonalari tashkil etilishi), chet mamlakatlarga chiqish tartibining yengillashtirilishi, xalqaro savdoning kengayishi, yangi-yangi bozorlarning paydo bo‘lishi, xalqaro yuk tashish hajmining oshishi xalqaro hamjamiyatning, insoniyatning og‘irini yengillashtirib qolmasdan transmilliy jinoyatchi guruhlar faoliyatining faollashuviga ham olib kelmoqda.

Ikkinchidan, keyingi yillarda xalqaro moliyaviy o‘tkazmalarni aql bovar qilib bo‘lmaydigan darajada tezlashtiruvchi kanallar tizimi tashkil etilmoqda. Bu tizim kerakli miqdordagi pulni zarur joyga, kerakli insonga, tashkilotga yetkazib bermoqda. Bunda bir tomondan muayyan davlatga undagi moliyaviy oqim harakatini nazorat etish bilan bog‘liq muamolar kelib chiqsa, ikkinchi tomondan shuni unutmaslik kerakki bunday imkoniyatdan jinoyatchi guruhlar ham birdek foydalanadi.

Uchinchidan, jinoyatning globallashuvi aholi migrasiyasi va chet elda ta'lim olish bilan ham bog'liq kechmoqda. Katta miqdordagi aholi migratsiyasi natijasida ayrim davlatlarda o'ziga xos etnik diasporalar shakllanmoqda. Jinoyatchi guruhlar esa o'ziga tegishli diaspora vakillaridan o'z jinoiy qilmishlarini amalga oshirishda foydalanishmoqda. Bu jinoiy guruhlariga xos bo'lgan milliy birlik, til, qadriyatlar birligi, yaqin qarindoshlik aloqalari jinoiy guruh tarkibiga begona kishilarni, maxsus xizmat vakillarining kirib olishiga imkon bermaydi.

To'rtinchidan, jinoyatning globallashuviga jahon mamlakatlari qonunchilik, sud-tartibot tizimidagi rang-baranglik, jiddiy tavofutlar ham yaqindan xizmat qilmoqda. Yaqin-yaqingacha terroristik harakat ishtirokchilari bir-biri bilan diplomatik munosabatlar o'rnatmagan davlatlardan panoh topishgan, yashirinishgan. Bunga misol qilib SSSR-Isroil, SSSR-Pokiston, GDR-GFR va boshqa davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni keltirish mumkin. Ayni damda esa ayrim davlatlar jinoyatchiga, terrorchi guruhga haq-huquqlari cheklangan, "demokratiya" dan to'yib nafas olmagan deb hisoblab unga siyosiy qochoq maqomini berib o'z himoyasiga olishmoqda. Shuningdek xalqaro jinoiy guruhlariga sud-tartibot tizimi yaxshi rivojlanmagan davlatlarda o'z moliyalarini yashirish, soliqdan qochish imkonini bermoqda.

Beshinchidan, ikkita tizimning bir-biriga ishonchsizlik bilan qarashi, bir-birining xatti-harakatlarini qattiq nazoratga olishi jinoiy guruhlar faoliyatiga ham dahldor edi. Sotsialistik lager mamlakatlarida aholining ko'chish bilan, chetga chiqish bilan bog'liq harakati, umuman kundalik faoliyati kuchli nazorat ostiga olingan edi. G'arb va Sharq o'rtasida uzoq davom etgan "Sovuq urush" tugashi bilan o'rtadagi temir parda olib tashlandi, "Berlin devori" to'siq bo'lmasdan qoldi. Zamonaviy savdo munosabatlariga ba'zi davlatlarning qonunchilik, soliq, boj tizimining tayyor emasligi bunday davlatlarning hududlari qonuniy tovarlarga, narkotik, kimyoviy, radioaktiv mahsulotlar uchun birdek tranzit maydon bo'lib xizmat qildi.

Oltinchidan, jahonning ko'pgina mamlakatlarida demokratik jarayonlarning qaror topishi qiyinchilik bilan kechmoqda. Oldingi totalitar tizimning boshqaruv richaglaridan keskin voz kechish, yangi demokratik

tizimni barpo etish mobaynida o'ziga xos "bo'shliqqa" yo'l qo'yildi. Bu esa jinoiy guruhlarga yashirinish, moliyalarini, man etilgan tovarlarni yashirish, olib yurish imkonini berdi.

Yettinchidan, jamiyat hayotining turli sohalarida xalqaro aloqalarning yuksalishi bilan bir qatorda kommunikasiyalar tizimi, kommunikasiyalar vositalari, teleradio informasiyalar ham keng tarqaldi. Bu vositalar. Kanallar orqali turli tang-barang muzmondagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ekstremizmni, fashizmni targ'ib etuvchi vayronkor mazmundagi g'oyalar, kriminal hodisalarning turli usullari, vositalari ham targ'ib etilmoqda.

2. Noqonuniy qurol – yarog' savdosi xalqaro terrorizmning muhim moliyaviy manbai. Bugungi kunda xalqaro maydonda terrorchi guruhlar turli yo'nalishlarda, sohalarda o'z xatti-harakatlarini amalga oshirishmoqda. Albatta bu guruhlar o'z xatti-harakatlarini yo'lga qo'yishlarida ularga katta hajmdagi moliyaviy manba zarur bo'ladi: qurollanish, maxsus tayyorgarlik lagerlari, instrkutorlar, odam yollovchilar, targ'ibot-tashviqot, guruhning moddiy ta'minoti, maoshi va shu kabilar. Terrorchilik guruhlarini o'z o'lmishda bo'ladimi, bugungi kunda bo'ladimi o'z faoliyatini yo'lga qo'yishlarida moliyaviy ta'minotga muhtojlik sezishgan. Terrorchi guruhlar faoliyati, ular tomonidan amalga oshirilayotgan hatti-harakatlar tahlil etilganda shunday voqelikning guvohi bo'lish mumkinki u albatta o'z atrofiga teran nazar tashlaydigan har bir insonni hayratga solishi turgan gap: terrorchi guruhlar qo'lga yirik partiyadagi qurol-yarog'ning qanday kelganligi va uning uzluksiz ta'minoti; ular tayyorgarlik o'tayotgan harbiy lagerlar qayerda joylashgan va qanday qilib; xalqaro ijtimoiy tarmoqning qaysi saytlari ular faoliyatining targ'ibotiga joy ajratmoqda; eng asosiysi ushbu maqsadlarga sarflanayotgan katta mablag'larlar qaysi manbalar hisobidan olinadi?

Yuqorida xalqaro terrorizmning vujudga kelishish sabablari yoritilganida ma'lum bir darajada uning moddiy manbalari ham tilga olingan edi. Lekin shunday bo'lsada bu masalalaga alohida maxsus to'xtalib o'tish lozim. Xalqaro terrorizmning moliyaviy va iqtisodiy manbalari xususida gap borganida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, AQSH boshchiligidagi imperialistik dunyo bilan SSSR boshchiligidagi sotsialistik dunyo o'rtasida xalqaro maydonda o'z ustunligini o'rnatish uchun uzoq davom etgan tarixiy kurash. Bipolyar tizim deb nom olgan bu davrda jahonning eng yirik ikkita bu qudratli davlati hech qachon bir-biriga ochiq kurashga chiqishga botina olishmagan. Ular faqat tomonlardan biriga qarshi qaratilgan har qanday harakatni (xoh terrorchi bo'lsin) barcha yo'llar bilan qo'llab-quvvatlashgan.

Ikkinchidan, ushbu "buyuk" qarama-qarshilikning mantiqiy davomi sifatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, shuningdek Sharqiy Yevropadagi kolonial tizimga qarshi olib borilayotgan milliy ozodlik kurashi muhim o'rin tutada. Bu milliy ozodlik kimga qarshi qaratilganidan qat'iy nazar ular o'z "homiylari" ega bo'lishdi. Tomonlardan birining xalqaro maydondagi ustunligini ta'min etishi mumkin bo'lgan qarshilik harakati barcha yo'llar bilan qo'llab-quvvatlandi. Masalan o'z davrida afg'on mujohidlarining sovet qo'shinlariga qarshi kurashi AQSH tomonidan moliyaviy, harbiy-texnik jihatdan ta'minlab kelindi. Kurashning samaralik bo'lishi uchun AQSH harbiy sir demasdan "ozodlik" kurashchilarini eng yangi turdagi qurol – aslahalar bilan ta'minladi. Biroq sovet qo'shinlari afg'on tuprog'ini tark etishgach bu qurollarni qaytarib olishning imkoni bo'lmadi. 2001-yil 11-sentabridan keyin AQSH ning o'zi afg'on mujohidlariga qarshi urushga kirganida mujohidlar aynan ushbu qurollarni ishga solishdi.

Uchinchidan, arab-isroil mojarosi yechimi o'z nihoyasiga yetmayapti. Bu o'rinda ham shuni aytish mumkinki, bu kurash natijasidan o'z manfaatini axtaradigan tashqi kuchlar mavjud. Bu esa mintaqadagi terrorchi guruhlar faoliyatining kengayishiga sabab bo'lib kelmoqda.

To'rtinchidan, jamiyat hayotining turli sohalarida kechayotgan globallashuv "demokratik" tUSDagi terrorchilikning, milliy va etnik tUSDagi terrorchilikning, diniy tUSDagi terrorchilikning, so'l va o'ng ekstremistik kuchlar hatti-harakatini chetlab o'tayotgani yo'q. Bunday tUSDagi turli ko'rinishdagi xatti-harakatlar, mafkuraviy oqimlar o'z faoliyatining "tantanasi" uchun yeng shimarib ishga kirishishi tabiiydir.

Ikkinchi ming yillik yakunida ikki qutbning siyosiy, g'oyaviy, harbiy qarama-qarshiligiga asoslangan bipolyar tizim tugadi. Lekin ko'pchilik

kutganidek dunyo tinch, muammosiz bo'lib qolgani yo'q. Ayniqsa kommunistik mafkuradan xoli bo'lgan mintaqalarda turli mazmundagi kuchlar o'z tartibotini joriy etishga shiddat bilan kirishishdi. Albatta turli g'oyaviy-mafkuraviy yo'nalishlarga ega bo'lgan terrorchilik tashkilotlari ham bundan mustasno emasdi.

Terrorchilik xatti-harakatlari uzoq tarixiy davrni bosib o'tdi. Ijtimoiy taraqqiyot natijasi samaralari sabab ularning ham "xatti-harakat" usul va vositalari rivojlanib, kengayib bordi. Vaqt o'tgan sari terrorchi guruhlarning ehtiyojlari, maqsadlari, vazifalari ham zamonda, ham makonda kengayib bordi. Bu esa o'z navbatida kuchli moliyaviy manbalarni talab etardi. Natijada terrorizm uyushgan jinoyatchilik bilan yaqinlashib bordi. Giyohvand moddalar savdosi, nolegal qurol-yarog' savdosi, odam savdosi, kontrabanda avj ola boshladi.

Terrorchi, transmilliy jinoiy to'dalar tomonidan amalga oshirilayotgan eng serdaromad sohalardan yana biri yashirincha qurol savdosi hisoblanadi. Bu "biznes" ham mintaqaviy mojarolar va mahalliy urushlarning to's-to'polonidan foydalanib qoluvchilarga katta daromad keltirmoqda. Bunday korchalonlar uchun qurolli qarama-qarshilikni davom ettirish va keskinlikni saqlab turish qurol-yarog'larning yashirin bozorini kengaytirish uchun eng yaxshi shart-sharoit ekanligi hammaga ma'lum.

Yashirincha qurol sotish xalqaro terrorizm deb atalmish jinoiy hodisa bilan birga yuradi, ba'zan esa uni keltirib ham chiqaradi. O'zgarlar qonini to'kish hisobiga mo'may daromad olishni istovchilar anchagina topiladi. Bu toifaga kiruvchi "bizneschilar" uchun qon va nopok siyosat qorishgan pul dunyoning turli burchaklarida xalqaro qotillarni yollash va sinab ko'rish mumkin bo'ladigan mojarolarni rag'batlantirish borasida eng qulay vosita ekanligini gapirmasa ham bo'ladi. Tadqiqotchi Sh.G'oyibnazarovning keltirishicha 1990-yillarda nolegal qurol – savdosi 1-2 mld. dollarni tashkil etgan bo'lsa, qator harbiy harakatlar sodir etilayotgan yillarda (Yugoslaviya inqirozi) bu ko'rsatkich 5-10 mld. dollarni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich qiyosiy tahlil etilganida qurol – yarog' savdosida jahonda yetakchi davlatlardan AQSH ning oddiy qurollar

savdosi bo'yicha amalga oshiradigan eksport hajmiga tenglashib boradi¹. O'z navbatida haqli savol tug'iladi: noqonuniy qurol-yarog' savdosi bilan shug'ullanayotgan uyushgan jinoyatchilik olamining qo'liga, yoki terrorchi tashkilotlar qo'liga katta partiyadagi bunday zamonaviy qurollar qanday kelib qolmoqda? Axir uyushgan jinoyat olamining, yoki terrorchi guruhlarining so'nggi fan-texnika yutuqlaridan foydalanilgan holda ishlab turgan qator zavod-korxonalar mavjud bo'lmasa? Afg'oniston, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrikada, shuningdek dunyoning qator mintaqalarida terrorchi guruhlar tomonidan qo'llanilayotgan eng so'nggi namunadagi zamonaviy qurol-aslahalar rasmiy hukumatlar nazoratida turgan harbiy-sanoat komplekslarida ishlab chiqarilgan emasmi?

XX ikkinchi yarmida ro'y bergan jangovar harbiy to'qnashuvlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak aksariyat holatlarda kurashayotgan qaysidir tomonni, xoh terrorchi bo'lsin noqonuniy tarzda rasmiy hukumatlar qo'llab kelishgan. Buni 1950-yilning 25-iyunidan -1953-yilning 27-iyuligacha davom etgan Koreya urushida ko'rish mumkin. Kim Ir Senning Koreyani birlashtirish yo'lidagi harakatidan norozi bo'lgan AQSH va uning ittifoqchilari BMT bayrog'i ostida KHDR ga qarshi urush boshlashdi. KXDR SSSR va Xitoyning harbiy ko'magiga tayanar edi. Agar Xitoy KXDRni qo'llab-quvvatlash uchun sal kam bir million kishilik armiyani harbiy harakatlarga safarbar qilgan bo'lsa, SSSR harbiy-texnik tomondan katta yordam ko'rsatdi. To'g'ri kam sonli bo'lsada uchuvchilar, zenitchilar va harbiy maslahatchilar guruhi yuborilgan edi. Tarixda Koreya urushi deb nom olgan bu urush aslida AQSH va uning ittifoqchilari bilan SSSR o'rtasidagi urush edi. AQSH va uning ittifoqchilari BMT bayrog'i ostida harakat qilishgani bois ular mintaqaga qurol-aslahalarni yetkazib berishga haqli edi. Lekin sovet tomonining xatti-harakatlari o'z geosiyosiy manfaatlarini himoya qilishdan boshqa narsa emas edi. Shu sabab sovet harbiylari niqob ostida harakat qilishga majbur bo'lishdi. KXDR va XXR armiyalarini zamonaviy qurollar va maslahatchilar (instruktorlar) bilag ta'minladi. Ikkinchi jahon urushi davrida SSSR va XXR hududiga joylashgan koreyslardan partizan otryadlari tuzilib, ular zamonaviy qurollar bilan ta'minlab turildi. XX

¹ G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. 64-b

asrning ikkinchi yarmidagi eng katta harbiy to‘qnashuv o‘z poyoniga yetgach bu qurollar dom-daraksiz ketdi. Ularning aksariyati oldi-sotti yo‘li bilan uyushgan jinoyatchilar, yoki turli mintaqalardagi terrorchilar qo‘liga yetib bordi. 1957-1975-yillarda Vetnam urushida ham deyarli yuqoridagi senariy takrorlandi: noqonuniy qurol yetkazib berish; tinch aholini partizanlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni qurollantirish; tomonlarni qo‘llab-quvvatlamagan tinch aholi punktlarini yo‘q qilish va shu kabilar. Albatta bunday harbiy to‘qnashuvlarni keyingisi sifatida afg‘on urushini (1979-1989) ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bu urush musulmon dunyosida ro‘y berganligi bois o‘zgacha qiyofa aks etdi. Ma’lumki sovet davlati ateistik siyosat yuritardi. Markaziy Osiyo musulmonlarini “dinsiz” hukumatdan xalos etish maqsadida olib boriladigan “jihod” da ishtirok etish uchun qo‘shni Afg‘oniston, shuningdek boshqa musulmon mamlakatlarida maxsus lagerlar tashkil etiladi. Javob yurishi tariqasida 1979-yilning dekabrda sovet qo‘shinlari qo‘shni afg‘on tuprog‘iga bostirib kirishdi. Bu “jihod” da ishtirok etayotgan har qanday terroristik tashkilot jangarilari AQSH tomonidan “ozodlik lashkarlari” deya e’tirof etildi. “Tolibon”, “Al-Qoida”, DAISH singari terrorchi tashkilotlarning aksariyati shu paytda tashkil etildi. Ularning barchasi eng so‘nggi nusxadagi zamonaviy qurol-aslahalar bilan ta’minlandi. Albatta bu qurollar ko‘pchilik holatlarda maslakdosh bo‘lgan boshqa tashkilotlar qo‘liga ham o‘tar edi.

Qo‘sh formatda ish yuritish siyosatini qurol-aslahaga savdosida ham kuzatish mumkin: 1990-yilda Yugoslaviya inqirozi sabab Serbiyaga qurol-aslahaga sotish taqiqlandi. Lekin xorvat, bosniya va alban jangarilariga qurol-aslahalar yetkazib berilishi ma’quullandi. Shunday ekan aytish mumkinki noqonuniy qurol-aslahaga savdosi faqatgina terrorchi tashkilotlar, yoki uyushgan jinoiy tashkilotlar (mafiya) tomonidagina emas, rasmiy hukumatlar tomonidan ham olib borilmoqda. Faqatgina unutmaslik lozimki, ular tomonidan yetkazib berilayotgan bozorlar o‘rtasida o‘ziga xos umumiylik mavjud. Bu umumiylik shundaki, katta partiyadagi qurol-aslahani qabul qilib olgan terrorchilar bu qurolning bir qismini ikkinchi bir mintaqada kurash olib borayotgan o‘z sheriklariga sotib yuborishgan.

Shunday ekan terrorchi tashkilotlarning moliyaviy manbalaridan biri bo'lmish noqonuniy qurol-aslaha savdosi haqidagi tahlillarga yakun yasagan holda quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, qora bozorda sotilayotgan qurol-aslahalarning barchasi legal iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan. Yashirin guruhlar o'z harbiy-sanoat majmualariga, ilmiy-konstruktorlik markazlariga ega emas. Noqonuniy qurol-aslaha savdosining ilk manbai rasmiy hukuamatlar bo'lib chiqadi.

Ikkinchidan, bir paytlari AQSH boshchiligidagi imperialistik dunyo bilan SSSR boshchiligidagi sotsialistik dunyo o'rtasida xalqaro maydonda o'z ustunligini o'rnatish uchun uzoq davom etgan tarixiy kurashning yangicha ko'rinishlarda, yangi ishtirokchilar bilan davom etayotganligini aytish mumkin.

Uchinchidan, xalqaro maydonda harakat qilayotgan terrorchi tashkilotlar ma'lum bir darajadagi o'z maqsad-manfaatlariga ega bo'lgan tashkilot bo'lsada, aslida erki o'zida bo'lmagan, o'zidan ustun qaysidir kuchning maqsadlari yo'lida xizmat qilayotgan bir vositadan boshqa hech narsa narsa emas. Terrorchi tashkilotlar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki vujudga keltiriladi.

3. Narkobiznes savdosi va uning zararli oqibatlari. Neft va odam savdosi.

Terrorchi tashkilotlar moliyaviy manbalarining yana bir muhim turi giyohvand moddalar savdosidir. Narkotik moddalar ishlab chiqarish va ular bilan savdo qilish jinoyat globallashtiruvining keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jinoiy biznes yaratib beradigan juda katta boylik orttirish imkoniyatlari uning ishtirokchilarini xalqaro huquq normalari bilan ham, milliy qonunlar majmui bilan ham, ayniqsa, "oq ajal"ning halokatli oqibatlari bilan ham hisoblashmay, hamma ishni qilishga majbur etmoqda. BMT tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda bu zahri qotil savdosining yillik aylanmasi 350-450 milliard dollarga teng bo'lib bu miqdor jahon hamjamiyatining bir yillik yalpi daromadining 7% ga teng. Taxminiy ma'lumotlarga qaraganda jahon aholisining 3% i giyohvand moddalar iste'mol qiladi. Bu turdagi jinoiy to'dalarga qarshi kurashishga turli davlatlar turlicha vaqt va mablag' sarflashmoqda. AQSH federal

organlari yiliga 12 milliard dollar mablagʻni narkotik savdosiga qarshi kurashga sarflashadi; 45 milliard dollarga teng mablagʻ narkotik savdosi bilan qoʻlga tushganlarni saqlab turish bilan bogʻliq jarayonga sarflanadi; 120 milliard dollar narkomaniya kasaliga chalinganlarni davolash ishlariga sarflanmoqda¹. Bu moddalarni ishlab chiqaruvchi asosiy regionlar: Oltin yarimoy (Golden Crescent) – Afgʻoniston, Eron, Pokiston; Oltin uchburchak (Golden Triangle) – Myanma, Laos, Tailand; Janubiy Afrika; Niderlandiya; Marokash; Xitoy. Xitoyda asosan sintetik narkotik moddalar ishlab chiqariladi². Yuqori navli heroinning eng katta bozori Yevropa hisoblanadi. BMT maʼlumotlariga qaraganda faqat Rossiyaning oʻzida yiliga 70 tonna heroin sotiladi. Rossiyada bu kasallik sababli bir yilda vafot etganlar (yiliga 30 000 -40 000 nafar) Sovet armiyasining oʻn yil davom etgan afgʻon urushidagi yoʻqotishidan ikki-uch barobar koʻpdir³.

Narkotik moddalar savdosi azaldan globallasuvga ehtiyoj sezib keladi. Bir tomondan rivojlangan, xavfsizlik tizimi izchil yoʻlga qoʻyilgan, kuchli iqtisodiyot va sud – huquq tizimiga ega mamlakatlarda bunday zahri qotilni yetkazib berish imkoni yoʻqligi bilan belgilanadi. Ikkinchi tomondan xavfsizlik tizimi yoʻlga qoʻyilmagan, qoloq davlatlarda bu moddalarni yetkazish imkoniyati katta, lekin uni isteʼmolchilari mavjud emas. Boʻlganida ham narxi jinoiy toʻdalarni qanoatlantirmaydi. Misol tariqasida quyidagi faktlarga eʼtibor qaratamiz: afgʻon heroini Tojikiston orqali Yevropaga yetib borgunicha 63 barobarga ortadi. Tojikiston Badaxshonida 1 kg heroin 4-8 ming dollar, Yevropada 250-300 ming dollar⁴.

Odam savdosi. Odamlar savdosi – bu alohida shaxsni (yoki guruhni) yollash, ularni bir davlat chegarasi doirasida yoki chegarasidan tashqariga olib ketish bilan bogʻliq boʻlgan barcha harakat yoki maqsadlar boʻlib, u oʻz ichiga sotish, sotib olish, topshirish, bunday harakatlarni foyda koʻrish yoki shunchaki bunday shaxsni keyinchalik aldab yoki majburlab (zoʻrlik

¹ http://kontinent.org/article_rus_491505d8eye0c8.html

² <https://ru.wikipedia.org/wiki/narkotorgovlya>

³ <http://Libymox/tu/p=12463/> ОНН призывает к объединению в борьбе против организованной преступности.

⁴ Gʻoyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. 272-b

ishlatib yoki zoʻrlik ishlatish bilan qoʻrqitib), shuningdek, xizmat mavqeini suisteʼmol qilish yoʻli bilan ishlatish maqsadida ushlab turishni, shuningdek, shaxsni hohishiga qarshi holda qulchilik sharoitida haq toʻlash yoki toʻlamasligidan qatʼi nazar ushlab turishni ham oʻz ichiga oladi¹.

Tadqiqotchi Repiskayaning fikriga koʻra, odam savdosi deganda, shaxsni sotib olish yoki unga qarshi qaratilgan boshqa qonunga xilof bitimlarni, shuningdek, shaxsni qoʻlga kiritish va undan har qanday foyda olish uchun foydalanish va nazorat ostiga olishni yoki har qanday shaklda ekspluatasiya qilish maqsadi va ayriboshlashni bildiradi². Nemis olimi Leo Kaydel esa odam savdosi muammosini chuqur oʻrgangan holda, u uyushgan jinoyatchilikning asosiy faoliyat turlaridan biri hisoblanib, kriminal faoliyat iyerarxiyasida beshinchi oʻrinni egallaydi³, degan fikrni bildirib oʻtgan.

Odam savdosi – inson, uning shaʼni, qadr-qimmati, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan transmilliy uyushgan jinoyatchilik koʻrinishlaridan biri boʻlib, oʻzining chegara tanlamasligi hamda girdobiga asosan yoshlarni va ayollarni tortayotganligi bilan barchada katta tashvish va xavotir uygʻotmoqda. Mazkur jinoiy faoliyatning motiv va maqsadi gʻaraz, yaʼni moddiy foyda yoki daromad koʻrishni koʻzda tutadi. Chunki odam savdosidan koʻzda tutilgan asosiy maqsad jinoyatchining oʻzi yoki boshqa shaxslar orqali pul yoki boshqa moddiy boyliklarga ega boʻlish hisoblanadi.

M.X.Rustamboyevning taʼkidlashicha, odam savdosi – hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Undan keladigan daromad giyohvand moddalar va qurol savdosidan soʻng uchinchi oʻrinda turadi⁴. Jinoyatchilikning mazkur turidan keladigan daromadning yillik aylanmasi 32 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi. Yiliga 2 million inson bu savdoning

¹ Долголенко Т. Уголовная ответственность за торговлю людьми. Уголовное право. 2004. - № 2. – С.23-25.

² Реписка О. Классификация криминальной эксплуатации людей и проблемы уголовной ответственности за неё // Торговля людьми. Социокриминологический анализ/Под общ. Ред. Тюрюконовой Е.В. и Ерохиной Л.Д. : М., 2002. стр. 87.

³ Leo Keide/ Menschendel als Phänomen Organisierten Kriminalität/ Kriminalistik. No/ 5, p.325

⁴ Рустамбоев М.Х. Курс уголовного право Республики Узбекистан. 3-Том; Преступления против личности. Преступления против мира и безопасности. Учебник для ВУзов. –Т.: Издательство ТГЮ, 2009. –С. 290.

qurboni bo‘lmoqda. Jinsiy ekspluatasiya, majburiy mehnat, bolalar mehnatini ekspluatasiya qilish shu darajada keng tarqalganki, natijada hozirgi kunda millat genofondiga, shu bilan birga milliy xavfsizlikka jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bunday holatda har qanday madaniyati rivojlangan mamlakat mazkur jinoiy faoliyat turi bilan kurash bo‘yicha barcha zarur choralarini ko‘rishi lozim. O‘zbekiston ham bu borada istisno emas.

Odamlar (ayniqsa, ayollar va bolalar) savdosi bilan bog‘liq jinoyatlar so‘nggi yillarda avj oldi. Bugungi kunda odamlar savdosi transmilliy uyushgan jinoyatchilikning uzviy tarkibiy qismi bo‘lib, dunyo bo‘yicha shunchalik keng tarqalganki, BMT va migrasiya bo‘yicha xalqaro tashkilotning ma‘lumotlari millionlab shaxslar undan jabr ko‘rayotganligidan dalolat beradi¹. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000-yil 15-noyabrdagi 55/25- sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan «Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konvensiyada (mazkur xalqaro hujjat O‘zbekiston Respublikasi tomonidan (2001-yil 28-iyunda ratifikasiya qilingan) esa odam savdosi tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan. Odam savdosi – odamlardan foydalanish uchun ularni yollash, tashish, berish, yashirish yoki odamlarni qo‘rqitish asosida kuch bilan boshqa vositalarni qo‘llash orqali yoki boshqa majburlov vositalari, o‘g‘irlik, tovlamachilik, aldov, hokimiyatni suiste‘mol qilish, yohud mansab mavqeidan foydalanib, sotib olish yo‘li bilan qo‘lga kiritishni anglatadi². Odam savdosi xalqaro hamjamiyat tomonidan inson, oila va jamiyat farovonligiga xavf tug‘diruvchi akt sifatida baholanadi³.

Albatta bunday “marhamat” dan daishchilar ham, boshqa terrorchi guruhlar ham chekkada qolishayotgani yo‘q. Bolalarni, ayollarni, qizlarni turli maqsadlarda sotish, inson organizmlari (transplantasiya maqsadlarida) bilan savdo qilish ularning asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

¹ Rustamboev M.X. Odam savdosi. –T.: TDYI nashriyoti, 2009, 12- bet.

² Solly W/ Stoeker. The Rise in Humon Trofficking and the Role of Organized Crime // Demokrotizosiya. Vol. 8, No 1. Winter 2000.

³ «Odamlar savdosi va fohishabozlikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to‘g‘risida Konvensiya». Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnamolar. To‘plam. –T.: Adolat, 2004. 227- bet.

Yuqorida mavzularda daishchilar nazoratida bo'lgan geografik hududlar tahlil qilingan edi. Bugungi Suriya va Iroq hududiga kiruvchi bu o'lkalarda nihoyatda yirik neft konlari joylashgan. Albatta DAISH bu neftni qora bozorda arzon narxlarda pullab keladi. Har bir barrel neftning narxi jahon bozoridagi neft narxidan ikki barobar kamiga sotilib, kuniga uch million dollargacha daromad qilingan.

Ko'rinib turibdiki, zamonaviy terrorchilik katta mablag'larni talab etadi. Ularga moliya suv va havodek zarur. Kezi kelganda aytib o'tish joizki, daishchilar safida, ularning turli darajadagi lavozimlarida o'tirganlarning ichida hammasi ham musulmon emas. Daromad evaziga jang qilayotganlari anchaginani tashkil etadi. Turli yo'llar bilan olinayotgan bu mablag'lar baribir xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik orqali olinmoqda. Shunday ekan yangi ming yillik vabosi bo'lmish terrorizmga qarshi kurashning eng oqilona yo'li xalqaro hamjamiyatning umumiy hamkorligini talab etadi.

Tayanch so'z va iboralar

Terroristik tashkilotlar, qurol savdosi, odam savdosi, narkotik savdosi, moliyaviy uyushmalar, globallashuv.

Takrorlash uchun savollar.

1. Terror globallashuvini ta'min etuvchi omillar?
2. Terrorizmning moliyaviy manbalari nimalardan iborat?
3. Noqonuniy qurol – yarog' savdosi xalqaro terrorizmning moliyaviy manbai ekanini asoslang.
4. Narkobiznes savdosi va uning zararli oqibatlari qanday?
5. Odam savdosi eng jirkanch hodisa ekanini izohlang.

Mavzu: JAHONDAGI YETAKCHI DAVLATLARNING MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDAGI SIYOSIY VA IQTISODIY MANFAATLARI.

Reja:

- 1. Markaziy Osiyoga tahdid solayotgan mintaqaviy, diniy tUSDagi tahdidlar va ularning geosiyosiy xarakteri.**
- 2. Markaziy osiyoda yetakchi davlatlarning strategik manfaatlari.**

1. Markaziy Osiyoga tahdid solayotgan mintaqaviy, diniy tUSDagi tahdidlar va ularning geosiyosiy xarakteri. Bugungi Markaziy Osiyo juda boy tabiiy - xom ashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan muhim voha hisoblanadi. Uning maydoni, unumdor yeri, iqlimi, sersuv daryolari, tabiiy zahiralari, transport kommunikativ tizimi, G'arb va Sharqni, Shimol va Janubni bog'lovchi mintaqa ekanligi albatta qator siyosiy kuchlarni qiziqtiradi. 2017-yil 10-noyabrda Samarqand shahrida o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlangan nutqida Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Markaziy Osiyo – bu haqiqatdan ham noyob imkoniyatlar va hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan mintaqadir"¹. Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'liq. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotganlar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas. Albatta jahonda jadal rivojlanayotgan sanoat, unga sarflanayotgan tabiiy zaxiralar, zarur transport tizimi, yangi bozorlarni o'rganish nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak Markaziy Osiyo davlatlarining imkoniyatlari chuqur tahlil qilinmagan. Bu o'rinda boy tabiiy resurs konlari, neft, gaz, oltin, uran, nodir uglevodorodlar, ayniqsa Kaspiy basseynining zaxiralari cheksiz ahamiyat kasb etadi. G'arbning qator manbalarida keltirilishicha Markaziy Osiyo hududida aniqlangan

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018.-274 b.

neft-gaz konlari zaxiralari jahondagi umumiy zaxaralarning 2,6 % ini tashkil qiladi. Energiya iste'moli kun sayin ortayotgan hozirgi paytda bu ko'rsatkichlar nihoyatda ahamiyat kasb etadi. Shu sabab Markaziy Osiyo tabiiy, yoqilg'i-neft zaxiralarining insoniyatning kelajakdagi iqtisodiy taraqqiyoti uchun qay darajada muhimligi geosiyosiy jihatdan jiddiy ziddiyatlarning sababiga aylanib qolmoqda. Masalaning bu jihati xususida Sh.Mirziyoyev ko'rsatib o'tganidek "Ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishmoqda, beqarorlik va qarama-qarshilik o'choqlariga tutash bo'lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xoriжда ro'y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta'sirini his etmoqda"¹.

O'zbekiston uchun uning keng ma'nodagi milliy xavfsizligi nimani anglatadi, biz bu xavfsizlikni qanday tasavvur qilish lozim?

Birinchi dan. O'zbekiston xavfsizlikning yaxlitligi haqidagi asosiy tamoyillardan birini to'la qo'llab - quvvatlaydi. Xavfsizlik - uzluksiz holatdir, hadsiz - hududsizdir.

Ikkinchi dan. "Sovuq urush" barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda. Ayniqsa, bunday qarama - qarshiliklar ayrim mamlakatlar qo'lida ularning o'z manfaatlarini va ta'sir doiralarini saqlab qolish va himoya qilish uchun yoki strategik kuchlar muvozanatini o'z foydalariga o'zgartirish uchun qudratli siyosiy ta'sir vositasiga aylanmoqda. Har qanday mintaqaning hal qilinmagan va gazak olib ketgan muammolari butun dunyoda zanjir reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin. Vaziyatning beqarorlashuvi esa kundan - kunga aniq - ravshan bo'lib borayotgan yangi jeografik - siyosiy muvozanatni buzish xavfini keltirib chiqaradi.

Uchinchi dan. O'zbekiston o'zining jo'g'rofiy - siyosiy holati jihatidan jamoaviy xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashgan. Bu ham tahdid tug'diruvchi sababdir. Yuqorida aytilganidek O'zbekiston amalda Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazidir. Ya'ni, bu yarim halqa atrofida butun dunyoda

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018.-264 b.

energiya taqchilligi sharoitida yaqin yillarda Yevrosiyo va jahon kelajagi uchun hal qiluvchi rol o'ynaydigan energiya zaxiralari mavjud.

To'rtinchidan, yana bir tahdid manbai shu bilan bog'liqlik, O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Buning ustiga, yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik murossasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh. Besh yildirki, qo'shni Tojikistonda fuqarolar urushining keng yoyilib ketish xavfi ham saqlanib kelmoqda. Bu davlatlarda xorijdagi eng ko'p sonli hammillatlarimiz istiqomat qilib turganligini hisobga olmaslik mumkin emas.

Beshinchidan, mintaqaviy nizolar ko'pincha terrorizm va zo'ravonlik, narkobiznes va qurol - yarog' bilan qonunsiz savdo qilish, inson huquqlarini ommaviy suratda poymol etish kabi xavfli tahdidlarning doimiy manbaiga aylanib bormoqda. Bunday hodisalar davlat chegaralarini tan olmaydi.

Oltinchidan, Markaziy osiyoda ekologik va yadroviy xavfsizlik muammolari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz Markaziy Osiyo mintaqasi yadroviy qurollardan xoli hudud deb e'lon qilinishiga erishmoqchimiz. Ayrim qo'shni davlatlar yadro quroliga ega bo'lishga oshkora intilayotganligi bizni ayniqsa tashvishga solmoqda. Nima bo'lganda ham Markaziy Osiyoni qurshab turgan mamlakatlar asosan yadro quroliga ega mamlakatlar hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, hozirning o'zidayoq ko'zga tashlanayotgan va keyinchalik vujudga kelishi mumkin bo'lgan xavf - xatarlar ko'lami keng. Mintaqaviy mojarolarning oqibatlari ancha sezilarli shaklga ega. Umuman olganda asarda ko'rsatib o'tilganidek mintaqaviy mojarolarning, ekstremizm va terrorizmning, buyuk davlatchilik shovinizmining mintaqamiz xavfsizligiga tahdidi juda katta. Agar I.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asariga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo'lsak quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin: birinchidan, I.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,

barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari asari” da yangi ming yillik arafasida insoniyatni kutayotgan keng qamrovli global muammolarni ilgari surilishi, tahlil etilishi, ularni oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni bartaraf etish borasidagi vazifalarning yoritilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, biz yashayotgan mintaqaning geostrategik, geosiyosiy manfaatlari nuqtai nazaridan har bir masalaning yechimiga e’tibor qaratiladi. Uchinchidan, tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o’rtasidagi hamkorlik va ishonch olg‘a harakatlantirishiga alohida urg‘u berilgan, va bu hamkorlikni ta’minlashdagi vazifalar, uning istiqbollari keng yoritilgan.

2. Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlarning strategik manfaatlari.

Markaziy Osiyo mintaqasi atrofidagi geosiyosiy jarayonlar sobiq ittifoq parchalangach mana bir necha o‘n yillik tarixni bosib o‘tdi. Jahon siyosatining subyektlari bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlariga bo‘lgan qiziqishlari, nafaqat qiziqishlari balki bu mintaqada ustuvor imkoniyatga ega bo‘lish uchun intilishlari boshlandi. Bu ustuvor mavqe uchun kurashda bir tomondan qachonlardir mavqeni boy bergan Rossiya, ikkinchi tomondan ulkan sanoatga ega bo‘lgan Xitoy, uchinchi tomondan mintaqani o‘zining ajralmas qismi deb hisoblovchi islom dunyosi va to‘rtinchi tomondan qator xizmatlarning eng katta iste’molchisi hisoblangan G‘arb dunyosi faol kirishmoqda. Shunday holatda, ushbu tomonlarning mintaqada davlatlari rivojlanishiga ta’sirining nisbati doimo sezilarli o‘zgarishlarga duchor bo‘lib turdi. Bu davr endigina mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlarining mustahkamligini sinash davri bo‘ldi.

Shu munosabat bilan shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, Markaziy Osiyo faqatgina mintaqada geosiyosiy tenglik va barqarorlik saqlanib qolgandagina bir maromda rivojlanishi mumkin. Shuning uchun mintaqada xavfsizlik ta’minlanishining asosiy ustivor yo‘nalishi mintaqada davlatlarining kuch markazlari ta’siri orbitasiga kirib qolishni neytrallashtirish, islom radikalizmi g‘oyalari tarqalishi, mintaqaviy konfliktlar, separatizm kabi tahdidlarni bartaraf etish hisoblanadi.

Dastlabki davrlarda yetakchi kuch markazlarining Markaziy Osiyoga boʻlgan manfaatlari asta-sekin rivojlanib bordi. Bu davrda aksariyat davlatlar mintaqa davlatlari va uning iqtisodiy potentsiali, mintaqaning geosiyosiy istiqboli haqida tizimli tasavvurga ega emasdilar. Shuning uchun bu davlatlarning mintaqadagi siyosati bilvosita xarakter kasb etib, ularning mintaqaga nisbatan manfaatlari shakllanish bosqichida turardi. AQSH bu davrda asosan ikkita masalada oʻz xavotirini bildirgan. Birinchisi, mintaqada (Qozogʻiston) yadro qurolining mavjudligi; Ikkinchisi, mintaqada antiamerikacha, yaʼni despotik yoʻnalishidagi siyosiy rejimlarning shakllanishi. Shuning uchun, AQSH ning dastlabki asosiy maqsadi mintaqadagi yadro qurolini yoʻq qilish va yadroviy texnologiyalar elementlarini boshqa davlatlarga sotilishiga yoʻl qoʻymaslikdan iborat edi. Shu bilan birga, ushbu maqsad sari intilishda AQShning mintaqaga boʻlgan manfaati asta sekinlik bilan kamayib bordi. AQShning Markaziy Osiyo mintaqasida antiamerikacha gʻoyani tarqalishi borasidagi xavfsirashlari mintaqa davlatlari siyosiy rejimlarining dunyoviy yoʻnalishdan borishi va Rossiyaning mintaqada zaifligi oqibatida vaqt oʻtishi bilan yoʻqolib ketdi.

Oʻtgan asrning 90-yillari oʻrtalaridan Markaziy Osiyo mintaqasi AQSH uchun chekka zona sifatida qiziqish uygʻotadigan mintaqadan jahondagi strategik mintaqaga aylanib ulgurdi. Bunday qiziqish ikkita jihat bilan izohlanadi: birinchidan, Markzaiy Osiyoning Rossiya – Xitoy – Fors – Hind yarim orolini tutashtirib turuvchi muhim geostrategik nuqta ekani bilan izohlanadi; ikkinchidan, mintaqaning tabiiy zaxiralari, energoresurslari, shuningdek transport-kommunikativ imkoniyatlari.

Oradan maʼlum bir vaqt oʻtgach Markaziy Osiyo davlatlarida barqarorlik qaror topdi, qator sohalarda iqtisodiy yuksalish taʼminlandi, mamlakatlar oʻzlarining harbiy-mudofaa tizimini mustahkamlab olishdi.

Shunday ekan boshqa yetakchi geosiyosiy kuchlar singari Amerika Qoʻshma Shtatlari ham Markaziy Osiyoda oʻz manfaatlariga ega boʻlgan davlatlardan biri hisoblanadi. AQSH Markaziy Osiyoni Rossiya, Hitoy, Eron bilan chegaradosh boʻlgan va Pokiston va Hindiston bilan iqtisodiy, ijtimoiy aloqalari ortib borayotgan muhim strategik mintaqa sifatida qaraydi.

AQShning Markaziy Osiyodagi manfaatlarini tizimlashtirgan holda quyidagi tartibda berish mumkin:

- Afgʻoniston muammosini hal qilishda mintaqaning imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- kelajakda Kaspiy regionidagi energetik resurslar ustidan nazorat oʻrnatish;
- Eronni nazorat qilish uchun uning Markaziy Osiyo davlatlari siyosati va iqtisodiga aralashuvini cheklash. Shuningdek Eronni izolyasiyada ushlab turish;
- AKSH manfaatlariga zid keluvchi (uning domenantligini yoʻqqa chiqaruvchi) davlatlarning (taxminan Xitoy, Rossiya) yoki ular guruhining mintaqaga taʼsirini kamaytirish;
- Markaziy Osiyo xududida harbiy bazalar tashkil qilishga erishish;
- AQSH sanoati uchun yangi isteʼmol bozorini yaratish va shu kabilar.

AQSH da sodir etilgan 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin Afgʻonistonga xalqaro koalitsion kuchlar kiritildi. Albatta AQSH ning bu oʻlkada barqarorlik oʻrnatishidan manfaatdor boʻlmagan kuchlar ham topildiki, natijada mintaqada tinchlik oʻrnatish jiddiy qarshilikka duch keldi. Urush harakatlari choʻzilgach, Vashington tomonidan mamlakatda tinchlik oʻrnatishning yangi muqobil yoʻllari, jumladan siyosiy, iqtisodiy yoʻllaridan foydalanish masalasi ilgari surildi. Bulardan biri “Katta Markaziy Osiyo konsepsiyasi” hisoblanadi¹. Bu konsepsiyaga asosan Markaziy Osiyoga (uning iqtisodiy, transport, savdo infrastrukturasi nazarda tutiladi) Afgʻonistonni ham keng integrasiyasini taʼminlash zarur. Shu yoʻl bilan mintaqaning qator iqtisodiy, ijtimoiy muammolarini hal etish imkoni boʻladi. Ushbu konsepsiyaning mantiqiy davomi sifatida “Yangi ipak yoʻli” konsepsiyasi ham ilgari suriladi. Uning muhim jihati shundaki Afgʻonistonning Fors – Hind – Markiziy Osiyo – Xitoy oʻrtasidagi iqtisodiy munosabatlarda muhim transport yoʻlagi ekaniga alohida eʼtibor qaratiladi.

Keyingi paytlarda mintaqada Rossiya va Xitoy mavqeining oshib borishidan AQSH manfaatdor emas. Shunday ekan AQSH tomoni

¹ Qarang: Sirojov O. Markaziy Osiyoda hamkorlik jarayonlari.- Toshkent: “Oʻzbekiston” , 2016. 103-b

Markaziy Osiyoning Rossiya va Xitoy bilan bo'ladigan har qanday integrasion loyihalarini qo'llab-quvvatlamaydi. Buni Xitoy tashabbusi bilan shakllantirilgan SHHT misolida ko'rish mumkin. Shuningdek AQSH tomoni uzoq yillar davomida Markaziy Osiyo bilan Rossiya o'rtasida shakllangan qator iqtisodiy munosabatlarga nisbatan muqobil hamkorlik yo'llarini, transport yo'laklarini yaratishga harakat qilmoqda. Albatta bu vazifalarning yechimi AQSH ning xalqaro maydondagi geosiyosiy, geostrategik va geoiqtisodiy manfaatlariga mos keladi.

Sobiq ittifoq parchalangan paytdanoq hududga Xitoyning ta'siri kuchli bo'lib kelmoqda. U mintaqa davlatlari, jumladan Rossiya bilan SHHT doirasida hamkorlikni rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratdi. Turli yo'nalishdagi geosiyosiy jarayonlarni rivojlanishi oqibatida Markaziy Osiyodagi umumiy vaziyat hozirgi kunda tashqi kuchlarning kuchlar balansi bilan xarakterlanadi. Aytish mumkinki, kelajakda yirik kuchlarning mintaqadagi siyosati keyingi davrda ham geografik diterminizm tamoyiliga, hamda o'zlarining ichki va tashqi resurslaridan mintaqada qo'nim topish uchun maksimal ravishda foydalanishga asoslanadi.

Xitoy Xalq Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida o'z manfaatlariga ega davlatlardan biridir. Markaziy Osiyo mintaqasi Xitoy tomonidan hayotiy muhim ahamiyatga ega hudud sifatida qaraladi. Bu yerda uning asosan iqtisodiy manfaatlarini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Albatta, Markaziy Osiyo Xitoy uchun energiya resurslari manbai sifatida ham, o'z mahsulotlarini sotilishi uchun bozor sifatida ham, g'arb bilan aloqalarni olib borishda muhim transport yo'li sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham, Xitoy quyidagi asosiy milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, o'z tashqi siyosiy strategiyasini amalga oshirishga harakat qilmoqda:

- Sharqiy chegaralarida va chegaraviy hududlarida barqarorlikni saqlash (Shinjon Uyg'ur Avtonom Respublikasi, Tibet – ekstremizm, separatizm);
- qoloq sharqiy hududlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy rejalarini amalga oshirishga ta'sir etuvchi shart-sharoitlarni yaratish;

- o‘sib borayotgan ulkan salohiyatli sanoati uchun energiya manbalariga kafolatlangan yo‘lni ta’minlash;
- MDH va Yevropa bozorlariga chiqish uchun mustahkam transport yo‘laklarini shakllantirish;
- Markaziy Osiyoning Xitoy sanoati uchun ulkan bozor bo‘lib qolishini ta’minlash va sh.k.

Bugungi kun nuqtai-nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, Xitoy Markaziy Osiyo mintaqasida asosan iqtisodiy manfaatlarga e’tiborni qaratmoqda. SHHT doirasida iqtisodiy hamkorlikda mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish, tovarlar, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatini bosqichma-bosqich ro‘yobga chiqarishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratishni rejalashtirgan.

Jahon sahnasida so‘ngi o‘n yillikda kechgan voqealar Markaziy Osiyoni dunyoviy kuch markazlarinining, shu qatorda Rossiyaning e’tibori qaratilgan mintaqaga aylanganidan dalolat beradi.

Mazkur mintaqqa an’anviy ravishda Rossiya Federasiyasining manfaatlari zonasiga kirgani bilan sobiq ittifoq tuzumi yemirilganidan keyingi o‘tgan bir qancha vaqt davomida Rossiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tutgan siyosatida aniq bir yo‘nalish ko‘zga tashlanmaydi¹. Biroq, 2001-yil sentabr voqealari va ulardan so‘ng davom etgan Afg‘onistondagi aksilterror kompaniyasi, so‘ngra MDH davlatlaridagi rangli inqiloblar to‘lqini, Markaziy Osiyoga AQSH ta’sirining kuchayishi, Rossiyaning mintaqadagi muhim manfaatlari uchun jiddiy muammolarning vujudga kelayotganligini anglab yetishi, Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tashqi siyosiy strategiyasini o‘zgarishiga olib keldi².

Markaziy Osiyo mintaqasida Rossiyaning strategik manfaat va rejalari quyidagilardan iborat:

- Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi ishtiroki birinchi navbatda, janubiy chegara hududlarini xavfsizligini ta’minlash;
- Uzoq yillar davomida shakllangan iqtisodiy munosabatlarni saqlab qolish va ularni yangi bosqichga ko‘tarish;

¹ Песков Е.С. Проблемы и перспективы сотрудничества России и Китая со странами Центральной Азии – членами СНГ // Проблемы Дальнего Востока, Н 3, 1997. С.19

² Демиденко Сергей: Центральная Азия: впереди борьба за наследство. <http://www.ia-centr.ru>

- noqonuniy qurol va narkotik moddalar tranzitini to‘shib qo‘yish kabi holatlarga e‘tibor qaratish bilan belgilanishi zarur.
- Rossiyaning Kaspiy havzasida o‘z ta‘sirini saqlab qolish va uglevodorod zahiralaridan unumli foydalanish;
- Mintaqadagi tabiiy zahiralar, gaz, uglevodorod quvurlari va transport-kommunikasiya yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish;
- Shuningdek o‘z milliy xavfsizligini ta‘minlashda mintaqa davlatlari imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan Rossiya o‘rtasida oxirgi vaqtlarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy, harbiy sohalarda hamda halqaro terrorizm, diniy ekstremizm, va giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurash borasida integrasion jarayonlar faollashmoqda.

Shunday qilib, Rossiya Markaziy Osiyo mintaqasiga geografik jihatdan yaqin joylashganligi va azaldan bu mintaqada o‘z manfaatlariga ega bo‘lganligi sababli boshqa yetakchi davlatlar AQSH, Xitoyga qaraganda ko‘proq imkoniyatlarga ega.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganlaridan keyin Yevropa Ittifoqi uchun Osiyo qit‘asida strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki ular ko‘pchilik yevropalik mutaxassislar fikricha Yevropa uchun energiya va boshqa tabiiy xom-ashyo resurslarining muqobil manbai bo‘lishi mumkin. Mintaqada o‘zining iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan xolda Yevropa Ittifoqi bu yerdagi davlatlardagi o‘zgarishlar jarayoniga muhim ahamiyat beradi.

Markaziy Osiyoga nisbatan Yevropa Ittifoqining pozitsiyasi vazminlik bilan xarakterlanadi. Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga bo‘lgan geosiyosiy manfaatlari tez jadallashib bormoqda. Iqtisodiy tomondan mintaqaning Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlariga to‘sqinlik qiluvchi omillardan bular nafaqat uning masofasi uzoqligida balki, Yevropa va mintaqa marshrutida transport tariflarining yuqoriligi, tarshrutning Rossiya hududi bo‘ylab o‘tishi, uning alohida hududlarining xavfsiz emasligi, qo‘shni davlatlardagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi kabilar hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodagi iqtisodiy manfaatlarini quyidagilarda ko‘radi: bugungi kunda Yevropa mamlakatlari sanoatining

gurkirab o'sishi xom ashyo, eng avvalo uglevodorod xom ashyosi, muqobil energiya va boshqa tabiiy resurslarga ehtiyojini ortishiga sabab bo'lmoqda; Ukraina mojarosi sababli boshlangan sanksiyalar sabab bu jihatlar yanada oshib, muqobil energiya resurslarini, yangi hamkorlarni topishga undamoqda; iqtisodiy jihatdan yuksalib borayotgan Markaziy Osiyo yaqin kelajakda Yevropa davlatlari sanoati tovarlari uchun muhim bozor vazifasini o'tashi mumkin. YAIM yaratishda dunyoda ikkinchi, aholi soni bo'yicha uchinchi o'rinda turadigan Yevropa Ittifoqi bu mintaqada qaor manqaatlarga ega.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatorida Hindiston ham dunyoviy tartibotda o'z o'rnini belgilash, manfaatlari yuzasidan kuchli ijtimoiy tashqi siyosiy faoliyat olib borish va mintaqalar bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga qo'shilishga harakat qilmoqda.

Hindistonning yadroviy davlatligini, dunyoda aholi soni bo'yicha ikkinchi o'rinda turishi, zamonaviy texnologiyalarga egaligini hisobga olgan xolda aytish mumkinki, yaqin kelajakda hind omilining Markaziy Osiyoga bo'lgan ta'siri yana ham oshadi. Shuni ham aytish kerakki, Hindiston mintaqada Rossiya, AQSH va Xitoy davlatlari o'rtasida manfaatlar muvozanatini saqlashga o'z hissasini qo'shishi mumkin. Hindistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi ko'zlayotgan manfaatlari quyidagilar:

- mintaqadagi ulan yoqilg'i-energetika zahiralaridan foydalanish;
- mintaqada yo'lga qo'yilayotgan transport kommunikasiyalardan foydalanish, mintaqqa orqali Rossiyaga va Sharqiy Yevropa davlatlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'lish;
- mintaqada AQSH, Rossiya, Xitoy, Pokiston va Turkiya kabi davlatlarning ta'sir doiralarini kengayishiga yo'l qo'ymaslik va bir vaqtning o'zida mintaqada Xitoy, Eron bilan birgalikda AQSHga nisbatan kuchlar muvozanatini shakllantirish;
- radikal islom g'oyalarining mintaqqa orqali Hindistonning shimoliy chegara xududlariga tarqalishiga yo'l qo'ymaslik bilan birga Afg'onistondagi ichki beqaror xolatni tinch xolatga keltirish xarakatlarini hamkorlik orqali amalga oshirish va shu kabilar.

Eron Islom Respublikasi ham mintaqaviy davlat sifatida Markaziy Osiyo mintaqasida yetarlicha salohiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda Eronga AQSH tomonidan ta'sir etish elementlari saqlanib qolayotgan bir davrda u o'zining Markaziy Osiyodagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta'sir doirasini kengaytirishga urinish harakatlarini ko'rmoqda. Bundan tashqari, alohida olingan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, Eron tomonidan islom revolyusiyasi eksporti mintaqaga nisbatan qo'llaniladigan instrument bo'lib qolmoqda (asosan Tojikiston uchun). Hozirgi kunda ham uning Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini kengaytirish, Rossiya bilan hamkorlik qilish, YEI davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish Eronning geostrategik holatini yaxshilovchi xarakterli element hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Eronning asosiy vazifasi iqtisodiy va siyosiy izolyasiya ahvolidan chiqish hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasida Eron AQSH, Rossiya, Xitoy va YEI davlatlari qarama-qarshiligi asosida tashkil qilingan strategik manfaatlar geosiyosiy balansini saqlash harakatlarini ko'rmoqda. AQSH va G'arbning Eronga tutgan siyosatidagi iliqlik unchalik uzoqqa bormasligi barchaga ayon. Chunki sanksiyalarning bir tomonlama bekor qilinishiga javoban Eron chekinishga qaror qilmoqchi emas. Qolaversa Mamlakat mintaqadagi o'z siyosatida qat'iyiligini ta'kidlamogda. Shu va boshqa qator sabab Eron rivojlanayotgan Osiyo davlatlari bilan integrasiyani chuqurlashtirishga, transport yo'laklarini yaratishga istiqbolli reja sifatida qaramoqda.

Shunday qilib, yuqorida keltirib o'tilganlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, chet mamlakatlarning Markaziy Osiyoga bo'lgan manfaatlari bugun yoki kechagi kun bilan bog'liq bo'libgina qolmay uning ildizlari nihoyatda chuqur ekanligini ma'lum. Yana bir o'ziga xos jihat bu davlatlar manfaatlarining ba'zi birlari bir-biriga ancha mos kelishi va aksincha bir-biriga mutloqo zid kelishida ko'rinadi. Masalan, AQSH va Turkiya ning, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Yevropa Ittifoqining mintaqadagi manfaatlari unchalik kesishmaydi. Lekin shu bilan birga AQSH va Rossiya, Turkiya va Eron, Hindiston va Pokiston manfaatlari qarama-qarshiligi mintaqaning rivojlanishida o'zining salbiy ta'siriga ega bo'lishi, bu esa mintaqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ham o'z aksini topishi ehtimoli ham mavjud.

Tayanch so‘z va iboralar

Milliy manfaatlar, mafkura, geostrategiya, raqobat, terroristik tashkilotlar, qurol savdosi, odam savdosi, narkotik savdosi, moliyaviy uyushmalar, globallashuv.

Takrorlash uchun savollar

1. Markaziy Osiyoga tahdid solayotgan mintaqaviy, diniy tushdagi tahdidlar?
2. Markaziy Osiyoning tabiiy-geografik imkoniyatlari qanday?
3. Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlarning strategik manfaatlarini qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi
4. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari?

Mavzu: O‘ZBEKISTONNING EKSTREMIZM VA TERRORIZMNI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASH BORASIDA OLIB BORAYOTGAN SIYOSATINING MOHIYATI

Reja:

1. Terroristik xatti-harakatlarga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari.
2. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati.
3. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi.

1. Terroristik xatti-harakatlarga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimiga, undagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka, mamlakatimiz fuqarolarining hayotiga rahna soluvchi har qanday ekstremistik-terroristik xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik, bunday harakatlarga qarshi profilaktik tadbirlarni olib borish masalalariga qator Qonunchilik hujjatlarida keng e‘tibor berilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida” gi Qonunning asosiy maqsad va vazifalari sifatida terrorizmga qarshi kurash

sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmdan xavfsizligini ta'minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat¹ ekani ko'rsatilgan.

Mazkur Qonunda terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar belgilangan: qonuniylik; shaxs huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; terrorizmning oldini olish choralari ustuvorligi; jazoning muqarrarligi; terrorizmga qarshi kurash oshkora va nooshkora usullarining uyg'unligi; jalb etiladigan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o'tkaziladigan operatsiyaga rahbarlik qilishda yakkaboshchilik.

Terrorchilik faoliyatining oldini olish davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat birlashmalari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa profilaktik choralar majmuini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Unga asosan quyidagilar taqiqlanadi: turli ommaviy axborot vositalarida, saytlarda, turli xil tadbirlarda terrorizmdan targ'ib qilish; terrorchilik guruhlari va tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi; terrorchilik faoliyatiga daxldor yuridik shaxslarni, ularning bo'linmalari (filiallari) va vakolatxonalarini (shu jumladan chet el va xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalarini) akkreditatsiya qilish, ro'yxatdan o'tkazish va ularning faoliyat ko'rsatishi; terrorchilik faoliyatiga daxldor chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kirishi; tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlariga oid ma'lumotlar va faktlarni yashirish.

Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlari va ularning bu sohadagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati:

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Терроризмга қарши кураш тўғрисида.__(Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 2001 й., 1-2-сон, 15-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда)

terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish yo'li bilan terrorizmga, shu jumladan xalqaro terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiradi;

terrorchilar, terrorchilik guruhlari va terrorchilik tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi axborotlarni to'playdi hamda tahlil qiladi, ulardan kelib chiqayotgan tahdidning milliy xavfsizlikka qay darajada xavfli ekanligini baholaydi, tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarga zarur axborotlar taqdim etadi;

terrorchilarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishidan Davlat chegarasining himoya qilinishi va qo'riqlanishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali qurol, o'q-dorilar, portlovchi, radioaktiv, biologik, shuningdek kimyoviy yoki boshqa zaharlovchi moddalarning, terrorchilik harakatini sodir etish maqsadida ishlatilishi mumkin bo'lgan predmet yoki materiallarning noqonuniy olib o'tilishi oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish choralarini ko'radi va shu kabilar. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish hamda uning oqibatlarini minimallashtirish yo'li bilan terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiradi;

alohida muhim, kategoriyalangan va boshqa ob'ektlarning qo'riqlanishini va xavfsizligini ta'minlaydi;

davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli organlariga terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslar, guruhlar va tashkilotlar to'g'risida axborot taqdim etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog'lar, qurollar va o'q-dorilar, yadroviy, biologik, kimyoviy yoki boshqa turdagi yalpi qirg'in qurollari, terrorchilik harakatlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan materiallar va asbob-uskunalarni noqonuniy olib o'tishga urinishlarning oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish choralarini ko'radi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘i xavfsizligini, mamlakat ma‘muriy, sanoat-iqtisodiy markazlari va hududlari, muhim harbiy va boshqa ob‘ektlarning havodan beriladigan zarbadan himoya qilinishi va qo‘riqlanishini ta‘minlaydi;

o‘z tasarrufidagi harbiy ob‘yektlarning qo‘riqlanishi va mudofaa qilinishini amalga oshiradi;

terrorchilikka qarshi operatsiyalarda ishtirok etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish, terrorchilar harakat qilayotgan zonada joylashgan alohida muhim, kategoriyalangan va boshqa ob‘ektlar barqaror ishlashini, shuningdek terrorchilik harakatlari oqibatlarini tugatish yuzasidan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tadbirlar o‘tkazadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi¹.

Mamlakatimizda xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo‘rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi bilan ya‘ni terroristik hatti harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan mavjud ijtimoiy siyosiy tizimga, barqarorlikka xavf solish sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi².

Vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilinishiga ta‘sir ko‘rsatish yoxud siyosiy yoki boshqa ijtimoiy

¹ Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Терроризмга қарши кураш тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси, 2001 й., 1-2-сон, 15-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда)

² Ўзбекистон Республикасининг Жиноят Кодекси. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 25 апрелдаги ЎРҚ-405-сонли Қонуни тахририда — ЎР ҚХТ, 2016 й., 17-сон, 173-модда)

faoliyatga to'sqinlik qilish maqsadida davlat yoki jamoat arbobi yoxud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast yetkazish o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'tkazilayotganligi o'zi uchun ayon bo'lgan o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etish, qo'poruvchilik harakatlarini sodir etishga oid bilimni, amaliy mahoratni va ko'nikmalarni egallashi, o'quv chog'ida qurol-yarog', portlatish qurilmalari, portlovchi, zaharlovchi, atrofdagilar uchun xavf tug'diradigan boshqa moddalar va buyumlar bilan muomala qilish usullarini o'rganish, shuningdek terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketish yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanish eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun o'quvdan o'tish yoki terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketish yoxud O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanish maqsadida shaxslarni yollash sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Terrorizmni moliyalashtirish, ya'ni terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O'zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta'minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-

vositalarni, resurslarni berishga yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Agar bunday harakatlar takroran yoki xavfli residivist tomonidan, mansabdor shaxs tomonidan, uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa, unda o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish besh yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Agar bunday harakatlar og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lsa, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda sodir etilgan bo'lsa o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

2. O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 1-moddasida «O'zbekiston –

suveren demokratik davlat» deb, e'tirof etilgan bo'lib, jahon hamjamiyatida «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga» asoslanishi ham Konstitusiyaning 17-moddasida o'z aksini topgan¹.

Har qanday davlat, jumladan O'zbekiston Respublikasi ham o'z siyosatini ikki yo'nalishda, ya'ni tashqi va ichki siyosat tarzida amalga oshiradi. Ularning har ikkala yo'nalishi mamlakatimizning bir-biri bilan chambarchas bog'langan yagona siyosatini tashkil etadi.

O'zbekiston davlati o'z tashqi va ichki siyosatining ustivor yo'nalishlarini belgilab olgan bo'lib, ular orasida mamlakatimiz milliy xavfsizligi, barqarorligi, tinchligi muhim o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Albatta yaqin qo'shnimiz Afg'oniston hududida uzoq yillar davomida davom etib kelayotgan turli g'oyaviy negizdagi harbiy to'qnashuvlar, Yaqin Sharqdagi keskin qarama-qarshiliklar butun insoniyatni tashvishga solib keladi. Insonlar umriga zomin bo'lib kelayotgan bu xunrezliklarni O'zbekiston hukumati har doim qoralab keladi. Shuningdek bu muammolarning yechimida jahon hamjamiyati bilan hamkorlikka tayyor ekanini izhor etib keladi.

O'zbekiston Respublikasining turli uyushgan qabih harakatlarga, jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi ichki ishlar, prokuratura, soliq, bojxona va boshqa organlar esa bu sohadagi davlat siyosatini bevosita amaliyotda tatbiq etadilar. Uyushgan jinoyatchilikka, terrorchilikka qarshi kurash muammolari har bir davlat ichki siyosatining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligi va XXI asrning dastlabki yillari xalqaro terrorizm deb nomlangan o'ta og'ir va xavfli jinoyatlarni sodir etish bilan bog'liq «huruj» lar dunyoning turli qit'alarida qator hududlarni kutilmagan paytda

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2018. 8-6

to's-to'polon bilan larzaga sola boshladi. Unga qarshi hamkorlikda kurashish rivojlangan yoinki, rivojlanish yo'lida borayotgan barcha-barcha davlatlarning global muammosiga aylandi. Terrorizmga qarshi kurash ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy masalalar qatoridan o'rin egalladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa, uning oldini olishda uni keltirib chiqaruvchi barcha omil, hodisa va voqealarni chuqur tahlil qilishga alohida e'tibor berish zarur. Terrorchilik harakati juda murakkab salbiy ijtimoiy voqealıklar mahsuli sifatida yuzaga keladi. Insoniyat sivilizasiyasi yuksaklikka yuz tutib taraqqiy etgan, rivojlangan sari ijtimoiy hayot, fan, madaniyat, sa'natda mislsiz o'zgarishlar, yuksalishlar ro'y beradi. O'tgan XX asr atom energiyasi, kosmos, avtomatika, kompyuter asri degan nomlar bilan tarixdan joy oldi. Yangi XXI asrni axborot, intellektual rivojlanish, har qanday yovuzliklardan voz kechish, inson intellektual faoliyatining, aql zakovatining mahsuli hisoblangan har qanday ilmiy-texnik, fan yutuqlarini ezgulik uchun xizmat qildirishga intilish allaqachon boshlangani bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi. Ammo ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik, savob bilan gunoh, yuksalish bilan inqiroz yonma-yon yurganidek, jamiyat va davlatlar taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, unga yondosh jinoyatlarning tobora ijtimoiy xavflilik darajasi yuqorilib borayotgani, o'ta og'ir, yanada qo'rqinchli yangicha tus olayotgani jamiyatni tashvishlantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda.

Ana shunday o'ta murakkab va qaltis sharoitda qanday yo'l tutish, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin, degan savol barchamizni jiddiy o'ylantirishi zarur"¹.

Qayd etilganidek hozirgi paytda ekstremistik-terroristik xatti-harakatlari nafaqat hududiy jihatdan, balki uni amalga oshirishning usul va vositalari rang-barangligi jihatidan ham yangicha bosqichga erishdi. O'ta

¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-473 b.

shafqatsizlik, rahmsizlik bilan turli-tuman usul va uslublarni qo‘llab sodir etilayotgan xalqaro terrorchilik harakatlaridan ko‘pchilik holatlarda begunoh insonlar qurbon bo‘lmoqda. 2001-yilning 11-sentyabrida AQShning Nyu-York shahrida sodir etilgan terrorchilik harakati oqibatida birgina «Jahon savdo uyi» binosidagi portlatishlar natijasida turli davlatlarga, millatlarga mansub begunoh minglab fuqarolar sanoqli daqiqalarda jinoyat qurboniga aylandilar. Bu terrorchilik harakati dunyodagi eng ko‘p odamlar o‘limiga, moddiy talofat etkazishga sababchi bo‘lgan jinoyatlardan biri hisoblanadi. Shu voqealar rivoji negizida AQSh davlati xalqaro maydonda terrorizmga qarshi urush e‘lon qildi. AQSh boshchiligidagi koalitsiyachi kuchlar (ma‘lumki bu harbiy operatsiyada 26 davlatning harbiy bo‘linmalari ishtirok etgan) asr vabosi bo‘lmish terrorizmga qarshi kurashish maqsadida Iroq va Afg‘oniston hududlarida faol harakatlar olib borishdi. O‘zbekiston davlati ham qo‘shni Afg‘oniston hududiga olib kiritiladigan gumanitar yuklarni o‘tishida o‘z hududiy kengliklaridan foydalanish imkonini yaratib berdi. Negaki bu hududda tinchlik, barqarorlik qaror topishidan bizning mamlakatimiz ham nihoyatda manfaatdordir. Lekin xalqaro hamjamiyatning ba‘zi sub‘ektlari afg‘on fojeasiga sog‘lom fikr asosida yondashayotgani yo‘q. Qator tashkilotlar, davlatlar, turli guruhlar o‘z manfatlari nuqtai nazaridan yondashib aksilterrorchi kuchlarni harakati qo‘llab-quvvatlashmadi. Nafaqat qo‘llab-quvvatlashmadi, balki afg‘on hududidagi xalqaro koalitsiyachilarga qarshi kurashayotgan terrorchi guruhlarini moliyaviy, harbiy-texnik tomonlama qo‘llab-quvvatlashdi. Bu nimalarda namoyon bo‘ladi? Afg‘oniston, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika hududlaridagi harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan qotillarning katta pulga yollanganligi, ularning qo‘lida eng zamonaviy harbiy texnikalarning mavjudligi va uzluksiz ta‘minlab kelinayotganligini boshqacha qanday izohlash mumkin? Bironta terrorchi guruh nazorat qilayotgan hududda harbiy-iqtisodiy infrastruktura mavjud emasligi barchaga kundek ayon. Afg‘oniston bizning yon va jon qo‘shnisi hisoblanadi. Bu hududda sodir bo‘lajak har qanday beqarorlik, urush olovi O‘zbekistonga xavf solmasdan qolmaydi. Aksincha bu mintaqadagi barqarorlik, tinchlik, iqtisodiy rivojlanish, transport – kommunikatsiya yuksalishidan manfaatdormiz.

Afgʻoniston mamlakatimizning sanoati va qishloy hoʻjaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun katta bozor boʻlib xizmat qilishi mumkin. Oʻzbekistonning jahon bozoriga chiqishida eng yaqin boʻlgan “iliq dengiz” portlariga chiqish imkoniyati yaratiladi. Eng eʼtiborlisi Oʻzbekiston hukumati tomonidan bu borada dastlabki qadamlar tashlandi. Oʻzbekiston Afgʻonistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi deb hisoblaydi. Markaziy Osiyodagi iqtisodiy integratsiya jarayonlariga Afgʻonistonni ham keng jalb etish maqsadida “Surxon – Puli Xumri” elektr uzatish tarmogʻini, Mozori Sharifdan Hind okeani portlariga chiqadigan temir yoʻl qurilishi kabi yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga kirishildi. Bu loyihaning moliyaviy tomonlarini OTB oʻz zimmasiga oldi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida taʼkidlaganidek “Faqat birgalikda va yaqin hamkorlik orqali biz afgʻon xalqining ezgu orzu-umidlarini roʻyobga chiqarishimiz mumkin. Bu borada “Beqaror va vayronkor vaziyatdan – tinchlik va bunyodkorlik sari” degan tamoyil asosida ish olib borish muhimdir. Shu boisdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida afgʻon xalqining dardu tashvishini tinglaydigan, doimiy faoliyat koʻrsatadigan qoʻmita tashkil etish lozim. Ushbu qoʻmitaning asosiy vazifasi Afgʻonistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga koʻmak berishdan iborat boʻlishi zarur”¹.

Oʻzbekiston hukumati har doim insoniyatga qarshi qaratilgan terrorchilik harakatlarining har qanday koʻrinishini qoralab kelgan, unga qarshi kurashdagi barcha xatti-harakatlarni, keng ijtimoiy hamkorlikni qoʻllab-quvvatlab keladi. Bunda Oʻzbekiston Respublikasi oʻzining jahon hamjamiyati oldidagi burchini bajarar ekan, eng avvalo, amaldagi qonun hujjatlariga tayanadi. Binobarin, Respublika JKning 2-moddasida taʼkidlanganidek, «Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoytajoʻvuzlardan qoʻriqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi.

Konstitusiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir»¹.

Shaxsning qonun bilan ta'qiqlangan qilmishi jinoyat sanaladi. Jinoyat sodir etilishi oqibatida jamiyatga ma'lum bir miqdorda moddiy va ayni vaqtda hisobsiz ma'naviy zarar etkaziladi.

Alohida hududlarda, davlatlarda sodir etilayotgan, xalqaro xususiyat kasb etgan terrorchi jinoyatchilarning qilmishlari nafaqat bir davlatga, balki dunyodagi deyarli barcha davlatlarga jiddiy xavf tug'dirib, ularning tinchligi, barqarorligi, taraqqiyotiga aniq tahdid solmoqda.

O'zbekiston Respublikasi terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash bilan bog'liq davlat siyosatini davr talabi darajasida moslashtirib, izchilik bilan bunday jinoyatlarning oldini olish choralari ko'rmoqda. O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatini quyidagi bir necha yo'nalishlarga bo'lish mumkin.

- 1) O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini erkinlashtirish.
- 2) Hozirgi davr talabi asosida jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bog'liq soha qonunlariga insonparvarlik g'oyalarini singdirish chorasini ko'rish.
- 3) Ijtimoiy adolatni, qonun ustivorligini ta'minlash.
- 4) Jinoyat ishlarini ko'rishga ixtisoslashgan sud organlari faoliyatida qonuniylikni izchil qaror toptirish va oshkoralikni ta'minlash.
- 5) Jinoyatlarning oldini olishda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki jamoatchilikning, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining kuchiga tayanish. Ayni vaqtda jamoatchilikning xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq barcha choralarni ko'rish.
- 6) Ichki ishlar, Milliy xavfsizlik xizmati, tergov, prokuratura organlari, sudlar va boshqa organlar faoliyatining bir-biridan tashkiliy jihatdan farq qilishini hisobga olgan holda mazkur sohalarning har birining mustaqil faoliyat olib borishini ta'minlash, har bir organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi ma'suliyatini oshirish.

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 25- apreldagi O'RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2016- y., 17-son, 173-modda)

- 7) Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish mexanizmini ishlab chiqish va qonuniy asosda mustahkamlash uchun prokuratura organlarining bu boradagi o'rnini «Prokuratura to'g'risidagi» qonunda aks ettirish.
- 8) Jinoyatchilikka qarshi kurashda fan yutuqlaridan, ilmiy-texnika vositalaridan yanada samarali foydalanish yo'l yo'riqlari va usullarini ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish.
- 9) Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar xodimlarining kasb mahoratini oshirish.
- 10) jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish.
- 11) diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni yanada kuchaytirish¹.

Yuqoridagilarga asoslanib, aytish mumkinki, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi siyosati nihoyatda ko'p qirrali bo'lib, uni amalga oshirish murakkab amaliy jarayonni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda terrorizmga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy tarbiya orqali profilaktik ishlarni olib borishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunda esa avvalo fuqarolarimizga dunyoviy mohiyatga ega din haqida ma'lumot berish va diniy yo'nalishdagi maktablar va machitlardagi suhbat va ma'ruzalarda terrorchilikning mohiyatini ochib tashlash yo'lidan foydalanilmoqda.

Respublikamiz fuqarolarining erkinliklarini, ularning ongida demokratik qadriyatlarni, milliy-ma'naviy merosni, turli tahdidlarga nisbatan g'oyaviy salohiyatni mustahkamlash va rivojlantirish hozirgi paytda eng dolzarb vazifalardan biridir. O'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish darkor. Huquqiy davlat tuzish mohiyatini chuqur anglamaguncha, uning qonun-qoidalarini hurmat qilmaguncha taraqqiyot bo‘lishi amrimahol.

Mamlakatimizning milliy istiqlolini mustahkamlash yo‘lida nafaqat murakkab iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal qilishga to‘g‘ri kelmoqda, shuningdek taraqqiyot yo‘nalishini tanlash, qurilajak jamiyatning mazmun-mohiyati, tashkiliy va boshqaruv tamoyillari, jamiyat va inson munosabatlari qanday bo‘lishi lozimligi masalasini xalqqa tushuntirish, turli yot, soxta, reaksiyon, ekstremistik qarashlardan uni himoya qilishga zarurat tug‘ilmoqda.

G‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yosh avlodni milliy g‘oyada aks etadigan millatning haqiqiy orzusi – ozod va obod Vatanda erkin va to‘q yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT BA 72-sessiyasidagi so‘zlagan nutqida shunday ta’kidlagan edi: “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz.

Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz”¹. Turli g‘oyaviy xurujlar avj olayotgan, ular bizning eng muqaddas g‘oyalarimizga va maqsadlarimizga tahdid solayotgan bir paytda fojealar sodir bo‘lmasidan ilgariroq uning oldini olishning eng to‘g‘ri va yagona yo‘li ham begona va soxta g‘oyalarga qarshi g‘oyaviy immunitetni kuchaytirish lozim.

Hozirgi zamondagi eng katta xavf-insonlarning qalbini va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi. Buni I. Karimov: «Hozirgi vaqtda qudratli

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2018.-253- b.

davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o'z maqsadlariga erishishi uchun, avvalo, zabt etmoqchi, o'z ta'sir doirasiga olmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongini o'ziga qaram qilishiga intiladi», - deb ta'riflaydi.

Jahon siyosatida mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali xalqlarni, mamlakatlarni zabt etish tamoyili kuchaymoqda. G'oyaviy tazyiqning bunday shakli – turli tuman. Jumladan, islom omilidan foydalanish, diniy ekstremizmni kuchaytirish orqali diniy terrorizmni amalga oshirishga intilish yuqori mavqega ega bo'lmoqda.

Islom dini yuksak madaniy, axloq-odob, ma'naviyat, ma'rifat mezonini sifatida hayotimizdan chuqur o'rin olgan. Xalqimizning diniy aqidalari aholi turmush tarzining mazmuniga aylangan. Milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz islom dini qoidalari, talablari va mezonlari asosida shakllangan va takomillashib bormoqda. Bizning dunyoqarashlarimizda, hayotga munosabatlarimizda, turmush tarzimizda islom dinining ta'siri va o'rni katta. Buni inkor qilib bo'lmaydi. Buni inkor qilishda nomaqbul g'ayriinsoniy hodisani yaqin o'tmishimizda ko'rdik. Kommunistik mafkuraning «Din - afyuondir», - degan shiori Sobiq Sho'ro musulmon xalqi hayotini xonavayron qildi, uning ruhiyatiga katta ta'sir qildi, ma'naviy jihatdan shikasta qilib qo'ydi.

Jamiyatning ma'naviy hayotida bunday nomaqbul holat hech qachon yashovchan bo'lmaydi. Chunki odamlar o'z sha'ni, his-tuyg'usi va oriyatiga aylanib ketgan ma'naviyatiga qarshi turgan g'oyani mutlaqo qabul qilmaydi. Ular qalbi va ongiga esa mafkurani zo'ravonlik, ta'ziq va zulm orqali singdirib bo'lmaydi. Agar mafkura chindan ham zo'ravonlik yo'lini tanlasa, jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. Chunki hukmron g'oya ning quliga aylangan fuqaro mutelik va tobelik kayfiyati bilan yashaydi. O'zini erkin va ozod his qila olmaydi. Demak o'z imkoniyatlarini, yaratuvchilik iqtidorini, bunyodkorlik iste'dodini to'la namoyon eta olmaydi. Zero, Yurboshimiz qayd etib o'tganidek “Bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom

madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish ekstremizmga qarshi kurashning eng samarali vositasi hisoblanadi”¹.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy barqarorlik zaminida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlar faqat islom dini to‘g‘risida emas, umuman dunyoda mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lsin. Ijtimoiy sohaga oid mavzularda, tadbirlarda yoshlarga din bilan dunyoviy hayot masalalarini, bu ikki tushunchaning bir-biriga ta’sirini, ular o‘rtasida mo‘tadil munosabat bo‘lishi zarurligini ochib berish kerak.

Bir yuz o‘ttizdan ortiq millat va elat yashayotgan mamlakatimizda turli diniy aqidalar bilan yashayotgan xalqimizning umumiy manfaatlarini birlashtiradigan, yaxlit xonadonimiz O‘zbekiston ravnaqiga xizmat qilishga da’vat qiladigan milliy g‘oya mukammal, sof insonparvar g‘oyaga aylanishi kerak.

O‘zbekiston turli millat va din vakillari yashaydigan o‘lka bo‘lib, uning ravnaqi, xotirjamligi, barqarorligi undagi turli milliy va diniy jamoalarning ijtimoiy hamkorligiga, ular o‘rtasida qaror topgan milliy, diniy bag‘rikenglikka tayanadi. Shunday ekan bu jarayonga e’tibor har doim ustuvor yo‘nalish sifatida muhim ahamiyat kasb etib boraveradi.

3. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi.

Diniy ekstremizm va terrorizm insoniyat ila yangi mingyillikka kirib kelgan eng ma’shum illatlardan, eng global muammolardan biri hisoblanadi. Bu illat ko‘p konfessional hisoblangan mamlakatimizdagi tarixan qaror topgan diniy bag‘rikenglikka, millatlararo totuvlikka, ijtimoiy hamkorlikka raxna soladi. Shu bois jamiyatimizda diniy asosda, milliy negizda nizolar chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik, dinniy siyosiylashtirish, soxtalashtirish orqali jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday harakatni oldini olish davlat, jamiyat, ta’lim tizimi oldidagi eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Mustaqillik tufayli xalqimiz

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2018.-270- b.

o‘zining asriy orzusi bo‘lmish milliy mustaqillikni qo‘lga kiritdi, xalqaro hamjamiyatning, xalqaro huquqning to‘laqonli subyektiga aylandi. Mustaqillik tufayli tobe’lik va qaramlikdan ozod bo‘lgan davlatimiz ichki va tashqi siyosatda hech kimning aralashuvi, tazyiqi va ko‘rsatmalarisiz xalq manfaatlarini ko‘zlab ish yuritmoqda. Mustaqillik xalqimizga yurtimizning bebaho yer osti va yer usti boyliklariga chinakamiga egalik qilish huquqini berdi. Yurtimiz istiqboligina boy madaniy-ma’naviy merosimizdan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma’naviyat chashmalaridan bahramand bo‘lishimiz uchun keng yo‘l ochdi. Mustaqillik xalqimizning ozodlikka, adolatli jamiyat qurishga bo‘lgan orzu-umidlarini chinakam ro‘yobga chiqishini ifoda etmoqda. Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingi o‘tgan qisqa bir davr ichida respublikamizda demokratik, adolatli va huquqiy davlatchilikni shakllantirish, xalqimizning farovonligini ta’minlash, uning ma’naviy-ruhiy poklanishi va tiklanishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlar vujudga keltirilmoqda. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda samarali natijalarga erishishda xalqaro tashkilotlar, davlatlararo hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Albatta, Birlashgan Millatlar Tashkiloti barcha davlatlarning, mintaqalarning, butun jahon hamjamiyatining eng muhim muammolarini muhokama qilish va yechish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir. BMT barcha xalqlarning tinch-totuv yashashga bo‘lgan ezgu irodasining buyuk ramzi, insoniyat ma’naviy taraqqiyotining yorqin nishonasidir. Shunday ekan mintaqa daxldor muammolarning yechimida, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida bu tashkilot bilan hamkorlik qilish, uning imkoniyatlaridan foydalanish, bu borada hamkorlikni kuchaytirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov 1993-yil 28-sentabrda BMT 48-sessiya sida so‘zlagan nutqidayoq xalqaro hamjamiyatning e’tiborini Afg‘oniston va Tojikistondagi vujudga kelgan vaziyatga, qurol-yarog‘ savdosiga, narkotik savdosiga, terrorchilikka qarshi kurash masalalariga qaratgan edi. O‘zbekiston rahbariyati har doim xalqaro hamjamiyat e’tiborini xalqaro terrorizmga qarshi kurash masalalariga qaratib keldi. 2000-yil 20-avgustda Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston prezidentlari

uchrashuvi yakunida qabul qilingan Bayonotda ham shunday deyilgan edi: «Biz BMT Xavfsizlik Kengashi, YXHT, Islom Konferensiyasi Tashkilotiga, dunyoning barcha mamlakatlariga yana bir bor murojaat etib, xalqaro terrorchilik va ekstremizmni faqat keskin qoralash bilan cheklanib qolmay, balki quruq bayonotlardan ushbu global tahdidni tagtomiri bilan sugʻurib tashlashga yoʻnaltirilgan muvofiqlashtirilgan amaliy harakatlarni ishlab chiqishga daʼvat etamiz».

Oʻzbekiston Respublikasi diniy mutaassiblik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviylik va umumbashariylik miqyosidagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyatining birgalikdagi say-harakatining vujudga keltirish zarurligini bayon qilib keldi. Jumladan, 1999-yilning noyabr oyida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Stambul sammitida Oʻzbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov BMT tizimida terrorizmga qarshi kurash boʻyicha Xalqaro markaz tashkil etish haqida taklif kiritgan edi. Mazkur taklif 2000-yil sentabrda boʻlib oʻtgan BMTning “Ming yillik” sammitida takror aytili. Afsuski bir qator yetakchi davlatlar bu muammolarga “ularga tegishli boʻlmagan muammo” qabilida qarashdi. Oradan hech qancha vaqt oʻtmadan bu muammoning aks sadosi Moskva, Berlin, Nyu-York, Parij singari shaharlarni larzaga keltirdi. Oradan maʼlum vaqt oʻtgach Yaqin Sharq, Shimoliy Afrikani qator hududlari terroristik xatti-harakatlarning nafaqat nishoniga, balki qirgʻinbarot janglar maydoniga aylanib ketdi. Bunday tUSDagi harbiy harakatlarning koʻlami nafaqat mazkur hududdagi iqtisodiy infrastrukturani, balki maydondagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi faoliyatiga sezilarli taʼsir etmoqda. Negaki bu mintaqalar jahonning yetakchi davlatlari sanoatini neft-gaz singari tabiiy zahiralalar bilan taʼminlab kelgan.

Hozirgi kunda BMTning quyidagi organlari terrorizmga qarshi faoliyat olib boradi:

- “Al-qoida” va “Tolibon”ga qarshi sanksiyalar qoʻllash Qoʻmitasi;
- Aksilterroristik tadbirlarni maqsadli amalga oshiruvchi guruh;
- Aksilterroristik qoʻmita;
- Ishchi guruh.

Albatta tashkiliy ishlar bir qaraganda silliq ketayotgandek tuyuladi. Amalda esa BMTga a'zo davlatlar o'rtasida terrorizm yoki terroristik tashkilotlarga nisbatan yagona munosabat mavjud emas. Albatta BMT xalqaro maydonda bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rin tutadi. Turli buzg'unchi harakatlarga qarshi kurashda BMT ning roli masalasiga e'tibor qaratar ekan Sh.Mirziyoev shunday ta'kidlagan edi: "O'zbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafdoridir. Biz Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz. Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi rahbariyati tomonidan tashkilotni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlaymiz.

Ishontirib aytmogchiman, O'zbekiston BMTning tuzilmalari bilan hamkorlikni bundan keyin ham izchil davom ettiradi"¹. Aytib o'tilganidek musulmon davlatlari ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Bu salohiyatdan ratsional, tinchlik yo'lida, ijtimoiy hamkorlik asosida to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi. Bu o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy sohaning barcha sohalarning rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu vaziyatga baho berar ekan Sh.Mirziyoev shunday ta'kidlaydi: "Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning birdamligini ta'minlash, ular o'rtasidagi ziddiyatlarga barham berish, urushlar, terrorizm va ekstremizmni bartaraf etishda sa'y-harakatlarni birlashtirish tobora avj olayotgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, tinchlik va barqarorlikka tahdid solayotgan xavflarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi"².

Shuningdek O'zbekiston MDH va ShHT tashkilotlari doirasida qabul qilingan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qaratilgan shartnoma – "Terrorizm, separatizm va ekstremizm bilan kurash haqidagi Shanxay

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2018.-508- b.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-36 b.

Konvensiyasi” ni bajarishda faol ishtirok etib keladi. ShHT doirasidagi Aksilterror markazining Toshkent shahrida joylashganini fikrimizning misoli bo‘la oladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Vijdon erkinligi, e’tiqod erkinligi, milliy manfaatlar, terroristik tashkilotlar, globallashuv, jaholatga qarshi-ma’rifat.

Takrorlash uchun savolar

1. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi qanday?
2. O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borilayotgan siyosatining mohiyati nimada?
3. O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi nimalarda namoyon bo‘ladi?

Mavzu: EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING XALQARO SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI.

Reja:

- 1. Islom konferensiyasi tashkiloti tuzilishi, ustavi va faoliyati.**
- 2. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari.**

1. Islom konferensiyasi tashkiloti tuzilishi, ustavi va faoliyati. Dunyo musulmonlari davlatlari o‘rtasida halqaro harakat tuzish g‘oyasi Islom pakti harakati misolida 1969 yilga kelib siyosiy realikka aylandi. Aynan shu yili Marokash poytaxti Rabot shahrida oliy darajadagi musulmon davlatlari konferensiyasi ish boshladi. Bu konferensiya Islom konferensiyasi tashkilotining tuzilish jarayonini boshlab berdi. Umuman olganda musulmon davlatlari o‘rtasidagi ushbu ko‘rinishdagi, yoki unga o‘xshash tashkilot tuzish zaruriyati ikkinchi jahon urushi tugashi bilan ko‘zga tashlangan edi. Ma’lumki musulmon davlatlari uzoq yillar davomida rivojlangan G‘arb davlatlarining mustamlakasi bo‘lib kelishdi. Urushdan keyin tabiiy zahiralarga boy bo‘lgan musulmon davlatlari jahon

bozorida o'ziga xos o'rin egallashi va shu tariqa qisqa muddat ichida rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishlari mumkin edi. Buning uchun ular birinchi galda mustamlakachilik sirtmog'idan xalos bo'lishlari, o'zaro nizolarni bartaraf etishlari, hamkorlikda ish olib borishlari lozim edi. O'lkada hukm surayotgan feodal munosabatlarga qarshi, kolonial siyosatga qarshi aholi faolligini oshib borishini ham rag'batlantiruvchi, ham yo'naltiruvchi uyushma tuzish zaruriyatga aylanib qolgan edi. Bu jarayoning targ'ibotchisi bo'lib Saudiya Arabistoni maydonga chiqdi. U bu harakatda Iyerusalimdagi Al-Aksa masjidining yoqib yuborilishiga alohida urg'u beradi.

Islom konferensiyasi tashkiloti - Afg'oniston, Chad, Misr, Gvineya, Indoneziya, Eron, Iordaniya, Quveyt, Livan, Liviya, Malayziya, Mali, Mavritaniya, Marokash, Niger, Ummon, Pokiston, Katar, Saudiya Arabistoni, Senegal, Serra-Leone, Somali, Sudan, Tunis, Turkiya, Yaman davlat vakillari tomonidan tashkil etilgan. IKT ga Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston (1992), Qozog'iston (1995). O'zbekiston (1996) ham a'zo bo'lib kirishgan. Bugungi kunda 57 ta davlat ning a'zosi hisoblanadi.

IKT ustavidan ko'zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- tashkilotga a'zo musulmon davlatlar o'rtasida birdamlikni kuchaytirish;
- ular o'rtasida ijtimoiy hayotning turli - iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalarida hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro munosabatlarda hamkorlik qilish;
- mustamlakachilik va irqchilikning har qanday ko'rinishlariga barham berish;
- tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga doir adolatli choralar ko'rish, muqaddas qadamjolarni asrash, ozod qilish sohalaridagi faoliyatni uyg'unlashtirish;
- tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni va o'zaro bir-birini tushunish uchun zarur sharoitlar yaratish va boshqalar.

IKT o'z faoliyatida quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- tashkilotga a'zo davlatlarning tengligi;

- a'zo mamlakatlar o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqini hurmat qilishlari, bir-birining ichki ishlariga aralashmasligi;
- har bir davlatning hududiy yaxlitligi, suverenitetini hurmat qilish;
- turli kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish;
- o'zaro munosabatlarda kuch ishlatish, tahdid qilish usullarini qo'llamaslik, har-bir a'zo mamlakat hududining yaxlitligi va daxlsizligini hurmat qilish.

IKT boshqaruv organlari quyidagilardan tashkil topgan: davlat va hukumat boshliqlari konferensiyasi; tashqi ishlar vazirlari konferensiyasi; Bosh sekretariat. Davlat va hukumat boshliqlari konferensiyasi IKT oliy boshqaruv organi bo'lib musulmon dunyosiga daxldor bo'lgan masalalar yuzasidan har uch yilda o'z yig'ilishini o'tkazib turadi.

IKT ning xalqaro terrorizmga qarshi konvensiyasida terrorizmni hech qanday sharoitda, hech qanday yo'l bilan oqlab bo'lmasligiga alohida e'tibor beriladi. Terrorizmga qarshi kurash konsepsiyasini ishlab chiqishda quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi belgilab qo'yildi:

- ekstremizm shaklidagi terrorchilik harakatlarini, insoniyatga qarshi qaratilgan har qanday zo'ravonlikni qat'iy rad etish, inson huquqini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquq qoidalarini, tamoyillarini hurmat qilish, xalqlar o'rtasida tinchlikni ta'minlash;
- islom shariatida belgilab qo'yilgan diniy va axloqiy tamoyillarga tayangan holda;
- musulmon davlatlari o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish, hamkorlikni kuchaytirish, tinchlikni saqlashga qaratilgan muhitni shakllantirishga xizmat etuvchi IKT ustavida belgilab qo'yilgan tamoyillar va normalarni sodiq qolish;
- xalqaro terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan IKT kodeksi qoidalaridan kelib chiqib faoliyat ko'rsatish;
- musulmon davlatlari hayotiy manfaatlariga, barqarorligiga, xavfsizligiga jiddiy xavf soladigan terroristik jinoyatlarga qarshi kurashda a'zo mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;
- tashqi okkupasiyaga, kolonial siyosatga, irqiy kamsitishlarga qarshi birgalikda kurashish, milliy ozodlik uchun, mustaqillik uchun kurashlarni

o‘z taqdirini o‘zi belgilashni nazarda tutuvchi BMT rezolyusiyasidan kelib chiqqan qo‘llab-quvvatlash;

- terrorizmni har qanday ko‘rinishini, amalga oshirish vositalarini, u o‘z oldiga qanday maqsadlarni qo‘yganligidan qat’iy nazar inson huquqini paymol etuvchi bunday harakatni oqlab bo‘lmasligini e’tirof etish va boshqalar.

Islom Konferensiyasi tashkiloti ustav va konvensiyasida terroristik xatti-harakatlar va unga qarshi kurashish meyorlari belgilab olindi. Unga asosan musulmon davlatlari o‘z hududida terroristik harakatlarning sodir etilishlariga yo‘l qo‘ymasliklari lozim. Terroristik xatti-harakatlardan ozor chekayotgan qo‘shni davlatlar bilan bunday harakatga qarshi kurashishda yordam berish, terrorizmga qarshi qaratilgan o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirib olishlari belgilab qo‘yildi. Narkotik moddalar savdosiga, qurol-yarog‘ savdosiga, bu moddalarning o‘z hududlaridan olib o‘tilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida chegara va boj xizmatlari sohasida tegishli chora-tadbirlarini birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek terroristik harakatlarga qarshi kurash chora-tadbirlari sifatida muayyan davlat hududida terroristik harakatni amalga oshirgan kimsani tegishli tomonning talabi bilan hibsga olish, mudhish hodisalarni fosh etish bilan shug‘ullanayotgan yustitsiya vakillarini xavfsizligini ta’minlash, ularning samarali ishlashlariga imkoniyat yaratish, sodir etilgan va sodir etilishi ehtimoli bo‘lgan terroristik aktlar borasida muhim informatsiya lar bilan ta’minlash va terroristik harakatdan zarar ko‘rgan mintaqalarga moddiy yordam ko‘rsatish choralari amalga oshirilishiga kelishib olindi.

2. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari. O‘zbekiston davlati istiqlolning tarixan qisqa, ammo g‘oyat sermazmun yillari davomida Islom Karimovning bevosita rahbarligida adolat ustivorligiga asoslangan erkin, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishda o‘zbek modeliga asos soldi. Markaziy Osiyoda barqarorlik tayanchi bo‘lgan O‘zbeistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yuksalishiga, hafsizligi va barqarorligiga ochiqdan-ochiq tahdid solayotgan din niqobi ostidagi ekstremistik kuchlar,

fundamentalistlar, separatistlar va xalqaro terrorchilar, o'ta xafli jinoyatchilar, ularning eng ashaddiylari qo'shni Tojikiston va Afg'aniston davlatlarida uya qurib, dunyoning turli burchaklaridagi ashaddiy terrorchi hamtavoqlarining moddiy va mafkuraviy madadiga tayangan holda yurtimiz sarhadlarini buzib o'tishga urinmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotni bosh Assambliyasining 48 sesiyasida so'zlagan nutqida xalqaro jinoyatchilik, ayniqsa uning o'ta xafli ko'rinishi hisoblangan xalqaro terrorizm hamda narkobiznesga qarshi kurashda dunyodagi tinchliksevar davlatlar kuchlarini birlashtirish va muvafiqlashtirish tashabbusi bilan chiqqan edi. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning oxirgi yigirma yil davomida tobora xavfli tus olib, kuchayib borayotganligi jahonda jinoya tchilikning keskinlashuviga ta'sir etdi.

Hozirda terrorchilik miqyosi kengayishi xavfi yanada yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, terrorchilar yadroviy, kimyoviy va biologik qurollardan ham jinoiy maqsadlarni amalga oshirishda foydalanish bilan tahdid qilishlari mumkin. Shuningdek, ular insonning hayoti va sog'lig'iga bevosita ta'sir etmagan holda kompyuter tarmoqlaridan ham jinoiy qilmishlari yo'lida foydalanib, harbiy harakatlarni boshlash niyatida ekanligi ma'lum.

Kompyuter tizimi yordamida terrorchilik harakati sodir etish (kiberterrorizm) hisoblash markazlari, tibbiyot sohasi va harbiy bazalarni boshqarish, bank va boshqa moliyaviy tarmoqlarni izdan chiqarishga mo'ljallangan. Davlat muassasalari va boshqalarga zarba berish, iqtisodiy zarar yetkazish, ba'zi bir katta aeroportlardagi aloqa tarmoqlarini ishdan chiqarish behisob kishilar o'limiga sabab bo'lishi mumkin. Terrorchilarning hatto kosmosdagi texnikaviy asboblarni qo'lga kiritib, ulardan ham jinoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari borligi ehtimoldan holi emas.

Keyingi yillarda sodir qilinayotgan terrorchilik jinoyatlarining ko'pchiligi zamirida siyosiy maqsad yotishi aniqlangan.

Terrorchilikka va terrorchilik harakatlariga asoslangan jinoiy faoliyatlarning gurkirashiga narkotik moddalar bilan noqonuniy oldi-sotdi

qilish, juda katta miqdorda boylikka ega bo'lish maqsadida shaxslarni garov sifatida tutqinlikda saqlash, qo'poruvchilik, reket, shaxslarning sog'lig'i yoki mulkiga jiddiy zarar yetkazish kabi jinoyatlarning sodir etilayotgani ham madad bo'lmoqda.

Terrorchilik kabi jinoyatlar XX asrning mahsuli emas, bu jamiyat taraqqiyotiga yo'ldosh jinoyatlardan biridir. XX asrning birinchi yarmidan boshlab, bu yuridik atama, «terrorchilik» deb yuritila boshladi. XX asrning 30-yillarida Yevropadagi qator davlatlar va sobiq Ittifoq olimlari hamkorligida terror yoki terrorchilik aktini jinoyat huquqi fanining dolzarb muammosi tariqasida o'rgana boshladilar. Shu davrdan boshlab, terrorchilik muammosi aks ettirilgan qator xalqaro hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Terrorchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik zarur ekanligi haqidagi birinchi xalqaro hujjat «Terrorizm to'g'risida ogohlantirish va uning oldini olish» deb nomlangan va u 1937-yilda Davlatlar Ittifoqi tomonidan o'tkazilgan xalqaro konferensiyada muhokama qilingan. Ikkinchi jahon urushi arafasida o'tkazilganligi bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan mazkur konferensiyada terrorchilikning oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'rish masalasining muhokama qilinishiga o'sha davrda Yevropa davlatlaridagi ayrim rahbarlar va siyosiy arboblarga nisbatan terrorchilik aktlari sodir etish hollarining ko'payganligi turtki bo'lgan. Konvensiyada xalqaro terrorchilik akti tushunchasi, uning obykti, jinoyat subyekti masalari bayon etilgan.

Ushbu hujjatda ekstrazasiya, ya'ni bir davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan jinoyatchi jismoniy shaxsning ikkinchi bir davlatga berilishi haqida ham alohida qoida mavjud.

Bu muhim hujjat 24 davlat tomonidan imzolangan bo'lsada, ratifikasiya qilinmagan, undan amaliyotda foydalanish chorasi ko'rilmagan. Shunga qaramasdan bu konvensiya o'tgan asr davomida terrorchilik bilan bog'liq siyosiy-huquqiy muammolarni hal etishda asos bo'lgan bir qator ko'p tomonlama xalqaro hujjatlarning qabul qilinishiga turtki bo'ldi. BMT tomonidan davlatlarning terrorizmga qarshi o'zaro hamkorlikda, bahamjihat, birgalikda qat'iy kurashini tashkil etishni ko'zda tutgan qator konvensiyalar qabul qilingan.

Terrorchilikka qarshi kurash masalalarini o'zida aks ettirgan, uch qit'a davlatlarining o'zaro hamkorligini ifodalovchi quyidagi xalqaro hujjatlar amalda ekanini qayd etish joiz:

- 1) Amerika Davlatlari Tashkilotlarining «Xalqaro xususiyatiga ega bo'lgan shaxsga qarshi jinoyat shaklidagi terrorchilikning oldini olish va jazolash to'g'risi» dagi (1971-y);
- 2) Yevropa Ittifoqi tomonidan tayyorlangan va qabul qilingan «Terrorchilik bilan kurashish to'g'risida»gi (1976-y);
- 3) Janubiy Osiyo mintaqasi hamkorligi assotsiyasiga a'zo mamlakatlar tomonidan qabul qilingan «Terrorchilikning oldini olish bo'yicha» 1978-yildagi Konvensiyalar.

XX asrning oxirgi o'n yilligida ham terrorchilikka qarshi kurash jahon davlatlari oldidagi eng dolzarb muammo bo'lib keldi.

Xalqaro terrorchilikning avj olayotgani, ayniqsa Afg'oniston va boshqa ba'zi musulmon davlatlari hududidagi «harbiy lagerlarda» terrorchi uyushmalar bemalol tayyorgarlik ko'rganligi va ko'rayotganligi mamlakat xavfsizligiga ham ochiqdan-ochiq tahdid solayotganligidan tashvishlangan O'zbekiston davlatining rahbari «Xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tuzish» zarurligi to'g'risidagi taklifini EHHT davlat va hukumatlariga bildirgan edi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning fikriga ko'ra, «Markazning asosiy vazifasi terrorizm ko'rinishlari bilangina emas, eng avvalo, xalqaro terrorizmni mablag' bilan ta'minlayotgan, qo'llab-quvvatlayotgan, qurol yarog' bilan ta'minlab, joylarga jo'natayotgan manbalarga qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan qarorlarning so'zsiz bajarilishi bo'yicha faoliyatlarini muvofiqlashtirishdan iborat bo'lishi lozim».

Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan xabarlardan birida aytilganidek, dunyo bo'yicha yiliga 320 dan 660 gacha terrorchilik aktlari sodir etiladi. Ba'zan minglab begunoh aholi terrorchilik harakati qurboni bo'layotganligi g'oyatda achinarlidir. Misol uchun, 1995-yilning 20-martida Tokio metrosida «Aum Senrikyo» diniy ekstremistik terrorchilik tashkiloti tomonidan sodir etilgan jinoyat oqibatida 5,5 ming kishiga shikast yetkazilgan. 2001-yil 11-sentabrda AQShda amalga oshirilgan

terroristik akt XX asr mo'jizasi ikki egizak binoning vayron bo'lishi, sakkiz mingga yaqin kishining hayotiga zavol bo'ldi.

Terrorchilikka qarshi kurash yuzasidan AQSh va Rossida, Yevropa davlatlarida bir qator e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Misol uchun, AQShda terrorchilikning oldini olish va bartaraf etishni o'zida mujassamlashtirgan qirqa yaqin qonunlar qabul qilingan. Rossiya Federasiyasida «Terrorchilikka qarshi kurash to'g'risida»gi maxsus Qonun amalga joriy qilingan.

O'zbekiston davlati ham terrorchilikka qarshi kurash bilan bog'liq quyidagi xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi, ular jumlasiga:

1. «Havo kemasi bortida sodir etiladigan jinoyatlar va boshqalar to'g'risida»gi 1963-yilgi (Tokio) Konvensiya ;
2. «Havo kemalarini g'ayriqonuniy tarzda egallab olishga qarshi kurash to'g'risida» gi 1970-yilgi /Gaaga/ Konvensiya ;
3. «Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi yo'naltirilgan noqonuniy aktlar bilan kurashish to'g'risida»gi 1971-yilgi /Monreal/ Konvensiyasi;
4. «Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi yo'naltirilgan noqonuniy aktlar bilan kurashish to'g'risida»gi Konvensiya ni to'ldiruvchi. «Aeroportlarda xalqaro fuqaro aviatsiya siga xizmat qilish, g'ayriqonuniy zulm aktlari bilan kurashishi to'g'risida» gi Protokol;
5. «Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga, shu jumladan, diplomatiya agentlariga qarshi jinoyatlarning oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risida» gi Konvensiya;
6. «Odamlarni garovga olishga qarshi kurashish to'g'risida»gi 1979-yilgi Xalqaro Konvensiya;
7. «Yadroviy materialni jisman himoya qilish to'g'risida» gi 1997-yilgi Konvensiya;
8. «Plastik portlovchi moddalarni topa olish maqsadida markirovka qilish to'g'risida»gi Konvensiya;
9. «Bombali terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Xalqaro Konvensiya.
10. «Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida» gi xalqaro Konvensiyalar kiradi.

Yana bir muhim xalqaro hujjat – «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida» gi Shanxay Konvencyyasi bo‘lib, mazkur hujjat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq 2001-yil 30-avgustdagi oltinchi sessiyasida ratifikasiya qilindi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan «Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida» gi yangi Konvensiya (1999) qabul qilingan. Bu terrorizm tusidagi jinoyatlarni davlatlarning ichki qonunchiligida tasniflash (klassifikasiya) imkonini ya ratdi.

Ushbu hujjatda ilova tariqasida;

1. «Bombali terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Xalqaro Konvensiya.
2. «Dengiz kemalari xavfsizligiga» qaratilgan noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to‘g‘risida» gi Konvensiya.
3. «Kontinental kenglikda joylashgan doimiy platformaga qaratilgan harakatlarga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Protokol.
4. «Yadroviy materialni jisman himoya qilish to‘g‘risida» gi Konvensiya.
5. «Odamlarni garovga olishga qarshi kurash to‘g‘risida» gi Xalqaro Konvensiya.
6. «Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga, shu jumladan, diplomatiya agentlariga qarshi jinoyatlarning oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to‘g‘risida»gi Konvensiya.
7. «Fuqaro aviasiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konvensiya.
8. «Fuqaro aviasiyasi xavfsizligiga qarshi kurash to‘g‘risida»gi Konvensiyani to‘ldiruvchi «Aeroportlarda xalqaro fuqaro aviasiyasiga xizmat qilish, g‘ayriqonuniy zulm aktlari bilan kurashish to‘g‘risida»gi Protokol.
9. «Havo kemalarini g‘ayriqonuniy tarzda egallab olishga qarshi kurash to‘g‘risida»gi jami 9 ta Konvensiya qayd qilingan.

Ammo bu xalqaro hujjatlarning hammasiga O‘zbekiston Respublikasi to‘la qo‘shilmagan. Kelgusida, O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyada ilova qilingan barcha xalqaro hujjatlarga qo‘shilish chorasini ko‘rishi zarur.

Jahonda, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida terrorchilik bilan bogʻliq «olovli nuqta»lar mavjudligini hisobga olgan holda, Oʻzbekiston Respublikasida ham qator davlat idoralari, ayniqsa Mudofaa, Favquloda vaziyatlar, Ichki ishlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati, chegara, bojxona, prokuratura idoralarining terrorchilikka qarshi kurashdagi faoliyatini davr talabi darajasiga koʻtarib, ularning bu boradagi imkoniyatlaridan yanada samaraliroq foydalanish, bu turdagi jinoyatlarning Oʻzbekiston davlati hududida ildiz otishining oldini olish, mintaqa xavfsizligini taʼminlash, terrorchilikni keltirib chiqaruvchi sabablar va shart-sharoitlarni oʻrganishni taʼminlovchi «Terrorizmga qarshi kurash toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi, terrorizmning har qanday koʻrinishiga qarshi kurashda huquqiy asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2000-yilning 24-aprelida boʻlib oʻtgan Toshkent uchrashuvida Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojikiston va Oʻzbekiston davlatlarining rahbarlari tomonidan imzolangan, terrorchilik kabi oʻta ogʻir jinoyatning oldini olishga qaratilgan bitimni amalga bajarish uchun oʻz vaqtida aniq chora-tadbirlar belgilangani oʻtgan yillarda Oʻzbekiston davlatining xavfsizligini taʼminlashda maʼlum oʻrin tutdi.

Diniy ekstremizm va terrorizm bilan bogʻliq boʻlgan qonunbuzarliklarning asosiy koʻrinishlari va unga nisbatan koʻriladigan choralar Oʻzbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida quyilagicha qayd etilgan:

Terrorizmni moliyalashtirish, yaʼni terrorchilik tashkilotining mavjud boʻlishini, faoliyat koʻrsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki Oʻzbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni taʼminlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga koʻmaklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablagʻ - vositalarni, resurslarni berishga yoki yigʻishga, boshqa xizmatlar koʻrsatishga qaratilgan faoliyat – 155-3-moddasi;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitusiyaga xilof tarzda o‘zgartirishga, hokimiyatni bosib olishga yoxud qonuniy ravishda saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitusiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da’vat qilish, shuningdek, bunday mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish – 159-1- moddasi;

Qo‘poruvchilik, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari faoliyati yoki ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligiga yoki iqtisodiyotiga putur yetkazish maqsadida odamlarni qirib yuborish, ularning sog‘lig‘iga ziyon, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilishga qaratilgan harakatlar – 161-1-moddasi;

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash -244-1- moddasi;

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlik bilan ko‘chirib yuborishga da’vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan ma’lumotlar va materiallarni har qanday shaklda tarqatish, xuddi shuningdek fuqarolar totuvligini buzish, tuhmatona, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar tarqatish hamda jamiyatda qaror topgan xulq-atvor qoidalariga va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan boshqa qilmishlarni sodir etish maqsadida dindan foydalanish, shuningdek diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish – 244-1-moddasi;

Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish – 244-2 –moddasi;

Diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tarqatish - 244-3-moddasi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining terrorchilikni bartaraf qilish bilan bog‘liq faoliyati quyidagilarga keng qaratilgan:

Birinchiidan, terrorchilikning har qanday ko‘rinishlarga zarba berish;

Ikkinchiidan, terrorchilikni qo‘llab-quvvatlayotgan davlatlarga qarshi jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda kurashni davom ettirish;

Uchinchiidan, Xalqaro terrorchilarni jazolash mexanizmidan to‘liq foydalanish va terrorchilikka qarshi kurashda boshqa davlatlarga ko‘maklashish kabi prinsiplar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Zero, bu borada aniq chora-tadbirlar belgilab, javobgarlikning muqarrarligi ta‘minlanmasa, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Tayanch so‘z va iboralar

Islom konferensiyasi tashkiloti, Vijdon erkinligi, e‘tiqod erkinligi, milliy manfaatlar, terroristik tashkilotlar, globallasuv, jaholatga qarshi-ma‘rifat.

Takrorlash uchun savollar

1. Islom konferensiyasi tashkiloti tuzilishi, uning ustavi va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari deganda nimani tushunasiz?
3. Diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog‘liq bo‘lgan qonunbuzarliklarning asosiy ko‘rinishlari qanday?
4. O‘zbekiston Respublikasining terrorchilikni bartaraf qilish bilan bog‘liq faoliyati nimalarga qaratilgan?

Mavzu: Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishda oila-mahalla - ta’lim - nodavlat tashkilotlari hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari. (Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi asosida).

Reja:

- 1. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash borasidagi ustuvor vazifalar.**
- 2. Yoshlar ma’naviy olamini buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilishda targ‘ibot tizimi oldidagi vazifalar.**
- 3. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyati oldidagi ustuvor vazifalar.**

1. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash borasidagi ustuvor vazifalar.

O‘zbekiston ko‘p millatli, turli diniy konfessiya vakillari yashaydigan mamlakat. Unda yashayotgan turli millat vakillari, diniy jamoalar vakillari o‘rtasida totuvlikni ta’minlash, bag‘rikenglik muhitini shakllantirish, ularni yagona maqsad, manfaatlar yo‘lida uyushtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan beri o‘tgan davr mobaynida bu masalalar har doim ustuvor ahamiyat kasb etib keladi. Turli millat vakillari, diniy jamoa vakillari o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. Ayni damda milliy totuvlikni, diniy bag‘rikenglikni targ‘ib etish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy hatti-harakatlar, bu jarayonlardagi faoliyatda uyushqoqlik bilan faoliyat olib borish, uning institusional tizimini takomillashtirishga qaratilgan faol ishlar olib borilmoqda.

2017-yilning 15-iyun kuni Toshkent shahrida "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzusida anjuman bo‘lib o‘tdi. Tadbirda O‘zbekiston musulmonlari idorasi rahbarlari, din arboblari, "Nuroniyy" va "Mahalla" jamg‘armalari, Xotin-qizlar qo‘mitasi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati faollari, hokimliklar, huquq-tartibot idoralari vakillari, ilm-fan va madaniyat namoyandalari, islomiy ta’lim muassasalari mutasaddilari va talabalari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Anjumanda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etib nutq so‘zladi. Yuqorida

qayd etib o‘tilgan masalalarga to‘xtar ekan Yurtboshimiz shunday deydi: “Kun tartibiga qo‘yilgan masala, ya’ni, ijtimoiy-ma’naviy sohani yanada rivojlantirish, oilalarimiz, mahallalarimizda, butun jamiyatimizda sog‘lom muhitni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, tinch-osuda hayotimizni, muqaddas dinimiz pokligini asrash vazifasi bugungi kunda qanday ulkan ahamiyat kasb etayotgani haqida, o‘ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo‘q”¹. Nega deganda, aynan shu masalalar Vatanimizning, yoshlarimizning bugungi va ertangi kunini, ularning taqdirini, bir so‘z bilan aytganda, hayot-mamotini hal qilishi hech kimga sir emas.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek har bir ongli insonni chuqur o‘ylantiradigan, tashvish va xavotirga soladigan bu masalalar borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ma’lumki O‘zbekistonimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi va uni hayotga tatbiq etish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda. Ta’kidlash kerakki, ushbu strategiya jamiyat hayotining barcha soha va tarmoqlariga chuqur kirib, amaliy harakatlar mezoniga aylanib bormoqda.

Bugun shu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni atroflicha tahlil qilib, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb vazifalarni belgilab olishimizni davr taqozo etmoqda. Ona vatanimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat bo‘lib kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil yashashmoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an‘analari muhim rol o‘ynamoqda. Bizning Konstitusiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo‘yilgan. Ularga o‘z milliy madaniyati, an‘ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo‘nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Yurtimizda etnik o‘ziga xoslikni

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-461 b.

rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uygʻunlashtirishda 138 ta milliy madaniy markaz katta rol oʻynamoqda¹. Ana shu markazlar faoliyatini yangi bosqichga koʻtarish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy doʻstlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida yaqinda muhim bir qaror qabul qilindi. Unga binoan Respublika baynalmilal markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik aloqalari qoʻmitasi tashkil etildi.

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk yillaridan boshlab vijdon erkinligi, eʼtiqod erkinligini taʼminlash, turli diniy konfessiyalar oʻrtasidagi munosabatlar masalasiga ustuvor ahamiyat berildi. Ularning huquqiy maqomi yaratildi. Uzoq yillar davomida amal qilib qilib kelgan turli taqiqlar olib tashlandi. Muqaddas dinimiz qadriyatlari tiklandi, buyuk aziz-avliyolarimizning xotirasi, merosini tiklash, qadamjolarini obod qilish boʻyicha juda koʻp ish qilindi va qilinmoqda.

Yaqin tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak mustabid tizim davrida bu muqaddas qadamjolar, maskanlar oyoqosti qilindi. Ularning milliy va diniy tuygʻulari qoʻpol ravishda kamsitildi, tarixiy haqiqatni buzib koʻrsatildi. Oʻz ona tilini, milliy anʼana va madaniyatini, oʻz tarixini bilmaslik koʻplab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib bordi. Xalqimiz manfaatlariga zid boʻlgan, noinsoniy gʻoya hukmron boʻlgan mustabid tuzum oʻzining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlashga harakat qilar edi. Milliy oʻzlikni anglashga boʻlgan tabiiy intilish johilona inkor etilardi. Navroʻz, Ramazon, Qurbon Hayiti kabi koʻplab muqaddas milliy bayramlar taqiq etilgan edi. Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad al-Fargʻoniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamahshariy, Xoja Ahrori Valiy, Abdulxoliq Gʻijduvoni kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Choʻlpon, Mahmudxoʻja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan oʻchirib tashlashga

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. – Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017.-465 b.

harakat qilinar edi¹. Agar sobiq mustabid tuzum davrida yurtimizda 80 ga yaqin masjid faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 2 mingdan ortiqni tashkil qiladi. Yiliga sanoqli kishilargina haj qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 7200 nafar fuqarolarimiz muborak haj safarini amalga oshirish imkoniga ega bo'ldilar².

Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Bu zaminda tabiiy va aniq fanlar bilan bir qatorda, ilohiy ta'limotni ham olamga yoygan yetuk allomalar yashab o'tgan. Diyorimizda islom ta'limoti va amaliyotini rivojlantirish bo'yicha 3000 dan ortiq ilmi-ulamolar faoliyat ko'rsatganligi buning yaqqol dalilidir. Shulardan 1000ga yaqini Samarqandda, 600 tadan ko'prog'i Buxoroda, 300tasi Nasafda va qolganlari boshqa shaharlarda bo'lgan. Al-Buxoriy, Axmad Yassaviy, at-Termiziy, az-Zamahshariy, Motrudiy, Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband kabi o'nlab allomalar islomiy-diniy ilmlar peshvolari sanaladi. Ular tafsir, hadis, fiqh, kalom kabi islomiy ilmlarning rivojiga asos solgan bo'lib, yurtimiz dovrug'ini Mashriq dunyosi bo'ylab taratganlar. Ular diniy ilmlarga, ma'rifatga o'zining butun hayotini bag'ishlaganla. Markaziy Osiyolik ilm ahllari Imom al-Buxoriy «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Al-Adab al mufrad» («Adab durdonalari»); Abu Mansur al-Motrudiy «Kitob at-tavhid» («Yakkaxudolik haqidagi kitob»), «Ta'vilot ahli as-sunna» («Sunnilylik an'analari sharhi»); Zamaxshariy «Kashshof» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish»); Abu Iso Termiziy «Sunani Termiziy»; Marg'inoniy «Hidoya» asarlari bilan Islomning rivojlanishiga, musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirishga katta hissa qo'shdilar.

Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish

¹ Qarang: Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. 26-b

² Qarng: Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2017.-466 b.

maqsadida O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Toshkent shahrida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qilindi. Bu “Jaholatga qarshi – ma’rifat” shiorining amaliy hayotda namoyon bo‘lishining o‘ziga xos isbotidir.

2. Yoshlar ma’naviy olamini buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilishda targ‘ibot tizimi oldidagi vazifalar.

Xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan voqealar rivoji milliy-ma’naviy xavfsizlik borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishimizni, davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etishimizni taqozo qilmoqda. Masalaning bu jihatiga e’tibor qaratar ekan Sh.M.Mirziyoyev shunday ta’kidlagan edi: “Chunki hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo‘q, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda”¹.

Yaqin va uzoq horijda mana shunday o‘ta murakkab va qaltis sharoit ro‘y berayotgan ekan, bunday sharoitda biz qanday yo‘l tutishimiz, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlashimiz, barqaror rivojlanishni nimalar hisobiga ta’minlashimiz mumkin, degan savollarga jiddiy bosh qotirishimiz talab etiladi.

Keyingi paytlarda Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika mamlakatlarida sodir etilayotgan terrorchilik harakatlaridan ko‘zlanayotgan maqsadlarning insoniylikka zidligi, reallikdan butunlay xoliligi, asl maqadning sirligi, ayniqsa bunday ijrochilari qatorida O‘zbekiston fuqarolarining ham borligi xalqimizda afsus va nadomat uyg‘otmoqda. Tinchlikni, osoyishtalikni, insoniylikni, yaratuvchanlikni, sabrlilikni hamma narsadan ustun

¹ Qarang: Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,2017.-473 b.

qoʻyadigan xalqimiz bunday shaxslarning qilmishlarini keskin qoralaydi. Xavotirli tomoni bunday razil kuchlar oʻz saflarini toʻldirishda davom etishmoqda. Shunday ekan hozirgi vaqtda yoshlarimizni, chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad topaman, deb yurgan fuqarolarimizni bunday tUSDagi turli-tuman terroristik kuchlar changaliga tushib qolmasligi uchun biz taʼlim-tarbiyada, targʻibot ishlarida qanday choralarni amalga oshirishimiz talab etilmoqda.

Birinchiidan, Oʻzbekiston hukumati qoʻshni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Bizning maqsadimiz ular bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, turli mazmundagi muammolarni birgalikda yechishdan iborat. Qisqa muddatda Oʻzbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Turkmaniston va Qozogʻiston Respublikasiga ikki marta tashrif bilan bordi. Rossiya Federatsiyasi, Qirgʻiziston, Xitoy Xalq Respublikasi, Saudiya Arabistoniga samarali tashriflar amalga oshirildi. Bunday tashriflarda asosiy masalalar sifatida oʻzaro hamkorlikni, savdo-sotiqni yanada kuchaytirish, ichki imkoniyatlardan unumli foydalanish, mintaqadagi barqarorlikni taʼminlash, turli tahdidlarga birgalikda kurashish keng muhokama etildi. Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida oʻtkazilgan Oʻzbekiston ishlab chiqarilgan mahsulotlar yarmarkasi ikkala mamlakat oʻrtasida hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi. Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chogʻida mehnat migratsiyasi boʻyicha muhim kelishuvga erishildi. Fuqarolarimizning bu mamlakatda halol mehnat qilishi, qonuniy yoʻl bilan daromad topishi uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib bermoqda.

Yoshlarimizni yaratilgan imkoniyatlardan toʻgʻri, oqilona foydalanishlarini taʼminlash uchun taʼlim-tarbiya tizimida, targʻibot tizimida tegishli vazifalarni belgilab olishimiz talab etiladi.

Ikkinchiidan, bugungi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-maʼnaviy muhitni yanada sogʻlomlashtirish, yoshlarda ogohlik va gʻoyaviy salohiyatni yanada yuksaltirish, aholi turmush sharoiti va bandligini yaxshilash, ularni turli diniy ekstremistik uyushmalar changalidan taʼlim-tarbiya tizimi, maʼnaviy-maʼrifiy uyushmalar faoliyati oldidagi ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Anjumanda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi"¹.

Uchinchidan, jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarida yuz berayotgan turli mazmundagi ekstremistik kayfiyatdagi kuchlarga nisbatan "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida kurashishni amaliyotda keng qo'llash, uning ijrosini ta'minlash borasidagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni zamon talab qilmoqda. Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalar ekan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: "Biz ko'p joylarda jaholatga qarshi ma'rifat tashabbusi bilan chiqyapmiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib boshqa ko'chalarga kirib ketayogan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya'ni, islom faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g'oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo'lish – bu O'zbekiston xalqiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi"². Yoshlarni bunday tushdagi turli mafkuraviy kuchlar ta'siridan himoyalashning turli xil usul va vositalari keng tahlil etildi. Lekin erishilayotgan samarani ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mazkur anjumandagi nutqidagi bu tizimni yanada takomillashtirishning yangicha yo'l-yo'riqlarini ilgari surdi. Avvalo bu tizimning institusional qurilmasi faoliyatini takomillashtirishga, yoshlar tarbiyasida oila, mahalla, maktab, diniy idoralar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratib o'tdi. Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni turli mafkuraviy tahdidlardan asrashda har bir institutning imkoniyatlarini to'g'ri baholash, undan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-475 b.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-475 b.

To'rtinchidan, jamiyatdagi ma'naviy muhitni izdan chiqarishga qaratilgan turli mazmundagi ta'sirlarga qarshi aksiltarg'ibot tadbirlarini olib borishning yangicha, ta'sirchan uslublari ustida ishlash talab etilmoqda. Avvalo jamiyat ma'naviy hayotining har qanday jabhasida bo'ladigan sodir bo'ladigan noxush hodisaga nisbatan umumjamiyat miqyosidagi salbiy kemptik sifatida qarash talab etiladi. Unga qarshi kurashni umumniki sifatida baholash zarur. Bunday hodisa jamiyatda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat jihatidan takomillashtirishni talab etadi. Binobarin "Bir bolaning yo'ldan adashishi – bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan kulfat. Bundan avvalo shu bolaning ota-onasi, aka-ukalari, yaqinlari jabr ko'radi. Bunday paytda ularga yordam berish kerak. Biz esa, afsuski, ulardan o'zimizni olib qochamiz. To'yga chaqirmaymiz, marosimga chaqirmaymiz, u falonchining akasi yoki o'g'li, deb ularning nafratini battar avj oldiramiz, aybsiz odamlarni ashaddiy dushman qilamiz"¹. Muammoga bunday yangicha usulda yondashuvning sababi nimada? Agar biz jamiyatda o'ziga sherik, safdosh izlayotgan qator diniy-ekstremistik ruhdagi tajovuzkor guruhlar targ'ibot usullariga e'tibor qaratadigan bo'lsak ular asosan moddiy jihatdan qiynalgan aholi qatlamlariga, ishsiz yurgan yoshlarga, turli jinoyatlari uchun qamalgalarning oila a'zolariga keng e'tibor qaratishadi. Shunday ekan bunday harakatlarni amalga oshirgan, turli sabablar bilan noto'g'ri yo'lga kirib adashganlarga, nafaqat ularga balki ularning yaqin oila a'zolariga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish lozim. Anjumandagi nutqida Prezidentimiz bu masalani ko'ndalang qo'yadigan vaqt kelganiga e'tibor qaratib ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Olijanob kishilar uzrni qabul qilur", degan fikrlarini keltirib o'tgan. "Adashgan yoshlarni tarbiyalashimiz, kerak bo'lsa, jazoni o'tash joylariga ham borib, ular bilan gaplashishimiz lozim. Chin dildan tavba qilib, ota-onasi, oilasi bag'riga, to'g'ri yo'lga qaytishni niyat qilgan odamlarga amaliy yordam berishga men davlat rahbari sifatida doimo tayyorman". Uning amaliy natijasi sifatida hozirgi kunda qancha

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-476 b.

adashganlarning gunohi kechirilib, to'g'ri yo'lga solindi. Ularning bir qismi o'qishga, bir qismi ishga joylashtirildi.

3. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyati oldidagi ustuvor vazifalar.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyati oldidagi ustuvor vazifalar haqida gap borar ekan aksariyat holatlarda jamiyat hayotida sodir bo'lgan salbiy hodisalar tahlili, ularning oqibatlari ko'rib chiqiladi. Aslida bunday hodisalarning kelib chiqishini ta'min etuvchi tub ildizlari bilan ishlash, ularning oldini olish ishlariga asosiy e'tiborni qaratish ko'proq samara beradi. Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida so'zlagan nutqida ham ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganligiga jamoatchilik e'tiborini qaratdi. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shuning uchun ham birinchi navbatda, oila, ta'lim, mahalla, nodavlat tashkilotlari o'z faoliyatlarida yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash vazifalariga alohida e'tibor qaratishlari talab etiladi.

Avvalo ular o'z faoliyatlarini tegishli vazifalar atrofida muvofiqlashtirib olishlari talab etiladi. Negaki yoshlarimizning kundalik faoliyatlari aynan shu maskan va hududlarda kechadi. Shuning uchun maktab, litsey va kollejlardagi, oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya, birinchi navbatda, davomat masalasiga nihoyatda jiddiy e'tibor berish talab etiladi. Bironta o'quvchi yoki talaba sababsiz o'qishga kelmasa ta'lim maskani ham, oila ham, mahalla, hokimiyat idoralari ham bu to'g'rida bosh qotirishi lozim. Ana shunday nazorat tizimi samarali va o'zaro bog'liqlikda ishlaydigan bo'lsagina vaziyatni qo'lga olib, uni ijobiy tomonga o'zgartirishga imkon yaratiladi. Malakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlar oid davlat siyosatini ta'minlashning ustuvor jihatlaridan biri sifatida tumanlarda hokimlar hamda ichki ishlar bo'limi boshliqlarining yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari lavozimi tashkil etildi.

Albatta bu masalalarining yechimi xususida “Nuroniylar”, “Mahalla” jamgʻarmalari, Xotin-qizlar qoʻmitasi, “Yoshlar ittifoqi” harakati, ichki ishlar idoralari va boshqa tegishli tashkilotlar bevosita javobgar boʻlib, ish samaradorligini tubdan oshirishlari, mutlaqo yangi tizimga oʻtishlari, oʻz faoliyatlarini muvofiqlashtirib borishlari zarur.

Bu boradagi eng muhim vazifalar haqida gapirganda Sh.Mirziyoyev quyidagilarni alohida koʻrsatib oʻtishni taʼkidlaydi.

Birinchidan, yoʻldan adashgan, joylarda maxsus hisobga olingan fuqarolarning turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, muammolarini oʻrganish, ushbu toifa shaxslar nega radikallasib ketganining turli ijtimoiy sabablarini har tomonlama chuqur tahlil etish lozim.

Bu guruhdagi yoshlar qanday bosim ostida qolishganligi sabablari, tahlillari, olingan natijalar boʻyicha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida qoʻllash uchun aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar biz shu yoʻnalishdagi profilaktik ishlarni zamon talablaridan kelib chiqib doimiy ravishda takomillashtirib borish taqozo etiladi.

Ikkinchidan, turli mazmundagi gʻoyaviy tahdidlarga qarshi kurashning mutlaqo yangi tizimini shakllantirish xususida gap borar ekan uning ijrosini taʼminlash uchun maʼrifat va maʼnaviy-axloqiy tarbiya masalalari boʻyicha mahalla maslahatchilari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar va huquqni muhofaza qilish organlarining tegishli xodimlari uchun malaka oshirish oʻquvlarini tashkil etish kerak. Bu oʻquv kurslarida ularni diniy ekstremistik va terrorchi guruhlarining ish usuli, gʻarazli gʻoya va maqsadlari, kurash, targʻibot vositalari bilan tanishtirib borish zarur. Adashgan shaxslar bilan ishlaydigan mutaxassis, u mahalla maslahatchisi, imom-xatib yoki profilaktika inspektori boʻladimi, avvalo buzgʻunchi kuchlar qanday gʻoyalarni ilgari surayotganini bilishi kerak. Shuningdek sanab oʻtilgan maskanlar, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish masalasini ham hal etish lozim boʻladi.

Uchinchidan, hokimlarning yoshlar bilan ishlash boʻlimlari xodimlari, jamoatchilik va diniy tashkilotlar, shuningdek, xotin-qizlar boʻyicha oʻrinbosarlari turli soxta vaʼdalar, havoyi gaplar ortidan ergashgan fuqarolarimiz bilan suhbat oʻtkazishlari, tashvish va

muammolari bilan shug'ullanishlari lozim. Ularni ishga joylashtirish, kasbga yo'naltirish kechiktirib bo'lmaz vazifadir. Aks holda ularning bekor qolishlari, nazoratsiz qolishlari, o'z holiga tashlab qo'yilishi chetda payt poylab turgan qabih kuchlarga qo'l kelishi hech gapmas. Anjumandagi nutqida Prezidentimiz ta'kidlaganidek "Bugungi kunda diniy ekstremistik oqim a'zolarining farzandlarini jamoat ishlariga, dunyoviy turmush tarziga, xususan, fan va kasb-hunar to'garaklari, san'at festivallari, sport musobaqalariga jalb qilishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Buni albatta qoniqarli deb bo'lmaydi"¹.

To'tinchidan, Mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlik – har bir ozod shaxs va erkin fuqaro uchun zarurligini ta'lim-tarbiya jarayonida doimo yodda tutish talab etiladi. "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak"². Negaki bugungi zamonda inson ma'lum kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning doimiy ta'sirini sezib yashaydi. Axborot asri, salohiyat asri, elektronika, informatsion texnologiyalar asri deb nom olgan bugungi zamonda bunday ta'sirlardan holi bo'lish dolzarb muammodir. Qolaversa, fikrni, g'oyani ta'qiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. Shunday sharoitda har bir yosh o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustaqil tafakkur va mustahkam irodaga ega bo'lmasa turli zararli mafkuralarning oxir-oqibatini anglab yetishi qiyin kechadi. G'oyaviy taxdidlar kuchaygan hozirgi sharoitda turli mazmundagi tahdidlarga, axborot xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-484 b.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU,2017.-484 b.

Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar – bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi – ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim.

Beshinchidan, yoshlarning turli yovuz kuchlar iskanjasiga tushib qolish holatlari yuz berganida mazkur holat uchun joylardagi mahalla raisi, maslahatchilar, ma'naviy-ma'rifiy uyushmalar, uchastka inspektori va imom-xatibning mas'uliyati va javobgarligini oshirish talab etiladi. Qolaversa har bir uyushmaning yillik faoliyati baholanganida, reytingi aniqlanganida ushbu holatlar inobatga olinishi zarur.

Ayni vaqtda O'zbekiston musulmonlari idorasi faoliyati samaradorligini oshirish, uning tasarrufidagi tashkilotlar va imom-xatiblarga qulayliklar yaratish uchun quyidagi masalalarni ko'rib chiqish ilgari surildi:

Birinchidan, O'zbekiston musulmonlari idorasi va uning tizimidagi masjid va ta'lim muassasalarining notijorat tashkilot sifatida faoliyat yuritishini inobatga olib, ular tomonidan to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lovning miqdorini qayta ko'rib chiqish zarur.

Ikkinchidan, O'zbekiston musulmonlari idorasining Samarqand viloyatidagi Imom Buxoriy majmuasi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan imom-xatiblar malakasini oshirish o'quv markazining faoliyatini kuchaytirish, uning ilmiy salohiyatini, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishimiz va amalga oshirishimiz zarur.

Uchinchidan, mamlakatimizda ma'rifiy yo'nalishdagi nashrlarga berilgan imtiyozlarni O'zbekiston musulmonlari idorasining "Hidoyat" jurnali va "Islom nuri" gazetasi hamda diniy-ma'rifiy nashrlar uchun ham joriy etib, ularga ham soliq va majburiy ijtimoiy to'lovlar bo'yicha belgilangan imtiyozlar berish adolatdan bo'ladi, deb o'ylayman.

To'rtinchidan, "O'zbekiston" telekanali orqali beriladigan "Hidoyat sari" ma'rifiy dasturi va "Ziyo" studiyasi ko'rsatuvlarini, o'ylaymanki, yurtimizda ko'pchilik katta qiziqish bilan tomosha qiladi. Ana shu

ko'rsatuvlar ijodkorlarining samarali mehnatini inobatga olib, ularni bundan buyon ham qo'llab-quvvatlash lozim.

Tayanch so'z va iboralar

Vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligi, milliy manfaatlar, terroristik tashkilotlar, globallashuv, jaholatga qarshi-ma'rifat.

Takrorlash uchun savollar

1. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzusida anjumani oldidagi vazifalar
2. Toshkent Islom madaniyati markazini barpo etishdan ko'zlangan maqsad?
3. Ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot ishlari oldiga qo'yilayotgan ustuvor vazifalar?
4. "Jaholat qarshi ma'rifat" tamoyilining mohiyati nimada?
5. Yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda oila-mahalla-ta'lim-nodavlat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalari?

O‘ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGINING HUQUQIY MEYORLARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSIYASIDAN:

18-MODDA

«O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar»

31-MODDA

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi»

57-MODDA

«Konstitusiyaviy tuzumni zo‘rluk bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligi, fuqarolarning konstitusiya viy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma‘naviya tiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiya larning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi»

«VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKIOTLAR TO‘G‘RISIDA»GI QONUNDAN:

4-MODDA. Vijdon erkinligi — bu fuqarolarning xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik bo‘yicha kafolatlangan konstitusiyaviy huquqidir.

Fuqaro dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod qilmaslikka, ibodatlarda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka, diniy ta'lim olishga nisbatan o'z munosabatini belgilayotganda uni u yoki bu tarzda majburlashga yo'l qo'yilmaydi.

Voyaga yetmaganlarni ularning xohish-irodasiga, ota-onasining yoki qonuniy vakillarining xohish-irodasiga zid tarzda diniy tashkilotlarga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

O'z diniga e'tiqod qilish yoki ishonish erkinligiga nisbatan faqat qonunda nazarda tutilgan cheklovlar tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirish, uning suvereniteti va hududiy yaxlitligiga putur yetkazish, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitish, urushni, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ'ib qilish, fuqarolarning sog'lig'i va axloqiga tajovuz qilish, fuqarolar totuvligini buzish, vaziyatni beqarorlashtiruvchi tuhmatdan iborat uydirmalarni tarqatish, aholi o'rtasida sarosima uyg'otish hamda shaxs, jamiyat va davlatga qarshi qaratilgan boshqa harakatlar sodir etish maqsadida dindan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

5-modda. Vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari

Vijdon erkinligini ta'minlashning asosiy ustuvorliklari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymagan holda, ularning vijdon erkinligiga bo'lgan o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun teng shart-sharoitlar yaratish;

konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash;

vijdon erkinligini ta'minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish;

vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka fuqarolar hamda diniy tashkilotlar tomonidan rioya etilishini ta'minlash;

jamoat tartibiga, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sog'lig'i va axloqiga, huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi diniy g'oyalar hamda qarashlarning singdirilishi va tarqatilishiga qarshi kurashish.

7-modda. Dinning davlatdan ajratilganligi

O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va davlat organlarining faoliyati o'zaro aralashmaslik asosida amalga oshiriladi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiladigan va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy aqidaparastlik hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi.

Davlat konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga kafil bo'ladi. Missionerlik va prozelitizmni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlatning biror-bir vazifalarini bajarishni yuklamaydi, ularning qonunchilikka zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirmaydi va dinga e'tiqod qiluvchilarning din bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlaydigan faoliyatga yo'l qo'ymaydi.

O'zbekiston Respublikasida diniy ruhdagi siyosiy partiya va boshqa jamoat birlashmasining, respublikadan tashqarida tuziladigan diniy partiyalar vakolatxonalari va filiallarining tashkil etilishiga hamda faoliyatiga, siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalari faoliyatida diniy tashkilotlarning ishtirok etishiga, shuningdek ularga moliyaviy yoki boshqa yordam ko'rsatishiga yo'l qo'yilmaydi.

8-modda. Ta'lim tizimi va din

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgandir.

Ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga (bundan diniy ta'lim muassasalari mustasno) yo'l qo'yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta’lim olish huquqi, ularning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’i nazar, ta’minlanadi.

Har kim diniy ta’lim muassasalarida professional diniy ta’lim olish huquqiga ega.

Diniy ta’lim muassasalarida o‘qishga fuqarolar qonunchilikka muvofiq umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim yoki professional ta’lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy professional ta’lim olgan shaxslar diniy ta’lim muassasalarida diniy fanlarni o‘qitish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga egadir.

GLOSSARIY

| | |
|--------------------------|--|
| <p>Akromiylar</p> | <p>Farg‘ona vodiysida 1990-yillarning o‘rtasida vujudga kelgan, noan‘anaviy, konstitusion tuzum va islom aqidalariga zid g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi diniy guruh hisoblanadi. Asoschisi – Akrom Sotvoldiyevich Yo‘ldoshev, 1963-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. U Andijondagi “jihodchilar”ning g‘oyaviy rahnamosi Abduvali Mirzayev shogirdlaridan bo‘lib, 1990-yillarda “Hizbut tahrir”ning mahalliy rahbari Abdurashid Qosimovdan saboq olgan. «Hizbut-tahrir»ning butun dunyoda xalifalik boshqaruvidagi Islom davlatini barpo qilishdek yagona maqsadini saqlagan holda, avval alohida bir mintaqada xalifalik davlatini tuzib, keyinchalik uning hududini kengaytirib borish nazarda tutiladi.</p> <p>“Akromiylar” o‘z saflariga jalb qilinuvchi shaxslarga ruhiy ta’sir o‘tkazish va ularni g‘oyaviy jihatdan birlashtirish maqsadida faoliyatlarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirishlari aniqlangan: “<i>Sirli</i>” yoki “<i>Maxfiy</i>” (o‘z tarafiga munosib nomzodlar jalb qilish); “<i>Moddiy</i>” yoki “<i>Iqtisodiy</i>” (iqtisodiy yordam va ish bilan ta’minlash; “<i>Ma’naviy</i>” yoki “<i>Siyosiy</i>” (g‘oyaviy jihatdan qayta ishlov, din va siyosatni qo‘shib o‘rgatish); “<i>Uzviy maydon</i>” (tayyor bo‘lgan a’zolari “zarur” joylarga qo‘yish, faoliyat doirasini kengaytirish); “<i>Oxirat</i>” yoki “<i>To‘ntarish</i>” (asl va asosiy maqsad: vaziyat yetilgach, mavjud tuzum o‘rniga o‘z hokimiyatlarini o‘rnatish).</p> |
| <p>Al-Qoida</p> | <p>Al-Qoida (Arabcha asos, baza, fundament, tamoyil ma’nolarini bildiradi) vahhobiylik oqimiga mansub ultraradikal yo‘nalishdagi xalqaro terroristik tashkilot hisoblanadi. 1988-yilda tashkil etilgan. Usama Ben Loden, Abdulla Azam va “Misr Islom jihodi” tashkiloti</p> |

| | |
|-------------------------------|--|
| | rahbarlari uchrashuvida asos solingan. Sovet qo‘shinlari Afg‘onistonni tark etgach “Al-Qoida” ning asosiy dushmani AQSH va G‘arbiy Yevropa bo‘lib qoldi. Tashkilotning asosiy maqsadi musulmon davlatlarida dunyoviy hukumatlarni tugatish, ularni yagona “Buyuk islom halifaligi” ga birlashtirish hisoblanadi. |
| Arab davlatlari ligasi | Arab davlatlari, shuningdek ularga do‘stona munosabatda bo‘lgan, arab tili rasmiy ahamiyatga ega bo‘lgan arab bo‘lmagan davlatlar o‘rtasida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. Tashkilot 1945-yil 22-martda tashkil etilgan. Tashkilotning oliy organi Liga kengashi bo‘lib, shtab-kvartirasi Qohirada joylashgan. A‘zolar soni 22 ta. Liganing maqsadi a‘zo davlatlar o‘rtasida aloqalarni chuqurlashtirish, arab davlatlari manfaatlarini, mustaqilligini himoya qilishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek a‘zo davlatlar iqtisodiy, moliyaviy, madaniy, ilmiy, jinoyatchilikka qarshi kurash borasida ham hamkorlikni yo‘lga qoyishgan. |
| Axborot xuruji | muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g‘oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e‘tiqodi va tuyg‘ulariga ta‘sir etishning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun unga moddiy, ma‘naviy, ruhiy ta‘sir o‘tkazishning noan‘naviy va noxolis usullaridan foydalanish asosida siyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasini anglatadi |
| Dezinformatsiya | muayyan guruh maqsadlariga erishish yo‘lida soxta ma‘lumotlardan foydalanish asosida ijtimoiy fikrni chalg‘itish maqsadida qo‘llaniladigan usul va vositalar tizimi |
| Diniy tashkilot | ma‘lum bir dinga e‘tiqod qiluvchi fuqarolarning o‘z |

| | |
|---------------------------------------|---|
| | diniy ehtiyojlarini birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushmadir. |
| Dunyoning mafkuraviy manzarasi | jahonda ro'y berayotgan g'oyaviy jarayonlar, mavjud mafkura shakllari, ularning mohiyati, maqsadlari va o'zaro munosabatlari bilan bog'liq holat, xususiyat va faoliyatini yaxlit tarzda aks ettiruvchi tushuncha. |
| Ekstremizm - | fransuzcha – lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi muammolarni hal qilishda o'ta keskin chora-tadbirlar, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotni ifoda etadi. |
| Fanatizm | Fanatizm(frants. ibodat)- muayyan g'oyalarning to'g'ri ekanligiga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilganlikni, o'zgacha qarash va g'oyalarga murosasiz munosabatni ifodalovchi qarashlar va xatti-harakatlar tizimidir. U avvalo insonning hissiyotidan, biror-bir narsaga o'ta beriluvchanligidan kelib chiqadi. |
| Fundamentali zm | So'zi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, asos, poydevor ma'nosini bildiradi. Fundamentalizm barcha dinlarga xos bo'lib, unda dinning asli qanday bo'lsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qilinadi. Fundamentalizm – ya'ni aqidaparastlik – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va shu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning qarashlaridir. Diniy fundamentalizm – din aqidalarini so'zma-so'z talqiniga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qoyadigan, muayyan din, shu jumladan Islom dini e'tiqodi shakllanishining boshlang'ich ya'ni Muhammad alayhi vassalam davrlarida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan tushunchadir. |

| | |
|--|--|
| <p>Globalashuv</p> | <p>XX asrning ikkinchi yarmi - XXI asr boshida jahon jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy –ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha</p> |
| <p>Hizbut - Tahrir</p> | <p>«Hizb» so'zining lug'aviy ma'nosi-guruh, firqa, partiya, tobe kishilar demakdir. «Hizbut tahrir» ning to'la nomi «Hizbut tahrir al-islomiy» - «Islom ozodlik partiyasi» bo'lib u norasmiy siyosiy oqim sanaladi. «Hizbut taxrir» 1928-yilda Misr Arab Respublikasining Islomiya shahrida tashkil topgan «al-Ihvon al-Muslimun» - «Musulmon birodarlari» diniy-siyosiy tashkilotidan 1952-yilda ajralib chiqqan firqadir. Bu firqaning asoschisi shayh Taqiyuddin Nabahoniy (1909-1979) dir. Dastavval, Falastinni yahudiylardan ozod qilishni ko'zlagan Nabahoniy, keyinchalik musulmon mamlakatlarini birlashtiruvchi yagona xalifalik davlatini qurishni partiyaning maqsadi deb e'lon qildi.</p> |
| <p>Inson ongi va qalbi uchun kurash</p> | <p>Hozirgi zamondagi xilma-xil usullar va vositalarda olib boriladigan mafkuraviy targ'ibot va tashviqotning asosiy ob'ekti va maqsadi. Har qanday g'oya faqat inson qalbini egallagan, ma'naviy-ruhiy holatini uzviy qismiga aylangandaginaharakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, faoliyat dasturiga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda mafkuraviy kurashning bosh maqsadi inson qalbini zabt etish orqali uning ongini egallash bo'lib qolmoqda. Bu haqda</p> |

| | |
|---|---|
| | <p>Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta'kidlaydi: «Bugungi kunda insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol-yarog'lar Yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf-insonlarni qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmash lozim».</p> |
| <p>Iroq va Shom Islom davlati- ISHID</p> | <p>ISHID – Iroq va Shom islom davlati. Bu davlatning tashkil etilishi G'arbning musulmon dunyosiga nisbatan tutgan siyosatining o'ziga xos aksi deyish mumkin. IGIL 2006-yilda Iroq va Suriya hududlarining bir qismida tashkil etildi. Davlat lideri Abu Bakr al-Bag'dodiy hisoblanadi. Shtab-kvartirasi Suriyaning Rakka shahrida joylashgan. Uning tashkil etilishida “Al-Qoida” bo'limlari, shuningdek yana o'n bitta radikal ruhdagi islomiy guruhlar faol ishtirok etishdi. Bugungi kunda IGIL shariat asosida boshqariladigan Yevropaga jiddiy xavf solayotgan yarimreal kvazidavlat hisoblanadi. AQSH ning birinchi raqamli dushmani “Al-Qoida” emas IGIL bo'lib qoldi. IGIL o'z faoliyati davomida “Al-Qoida” faoliyatini chuqur tahlil etgan holda uning xatolarini takrorlamaslikka harakat qilmoqda: tolerantlikni ifoda etuvchi mavhum ta'limotlarni emas an'anaviy islomni qo'llab-quvatlamoqda; Forsdagi islomiy tashkilotlar bilan (shialardan tashqari) harbiy ittifoqda bo'lishga harakat qilmoqda; Suriya muxolifati bilan kelishuv yo'lini tutdi va sh.k. e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar yuqori malakali kadrlarni ishga taklif etish avj olgan.</p> |
| <p>Islom Konferentsiya</p> | <p>Afg'oniston, Chad, Misr, Gvineya, Indoneziya, Eron, Iordaniya, Quveyt, Livan, Liviya, Malayziya, Mali,</p> |

| | |
|-----------------------------|---|
| si tashkiloti | Mavritaniya, Marokash, Niger, Ummon, Pokiston, Katar, Saudiya Arabistoni, Senegal, Serra-Leone, Somali, Sudan, Tunis, Turkiya, Yaman davlat vakillari tomonidan tashkil etilgan. IKT ustavidan ko'zlangan maqsad musulmon davlatlar o'rtasida birdamlikni kuchaytirish, ular o'rtasida iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalarda hamkorlikni kuchaytirish, mustamlakachilik va irqchilikning har qanday ko'rinishlariga barham berish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga doir choralar ko'rish va boshqalar. IKT o'z faoliyatida tashkilotga a'zo davlatlarning tengligiga, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, har bir davlatning hududiy yaxlitligi, suverenitetini hurmat qilish, turli kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyillariga amal qiladi. IKT ga Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston (1992), Qozog'iston (1995). O'zbekiston (1996) ham a'zo bo'lib kirishgan. Bugungi kunda 57 ta davlat ning a'zisi hisoblanadi. |
| Jihad | arabcha so'z bo'lib – g'ayrat qilish, kuchni ishlatish ya'ni din yo'lida kurash demakdir. Dastlab jihad deyilganda islomni himoya qilish va yoyish uchun kurash tushunilgan. Jihad so'zi urush ma'nosini anglatmaydi, balki Allohning diniga so'z bilan da'vat qilishni bildiradi. Jihad so'zini ko'p ma'nolarda ishlatish mumkin. Chunonchi, insonning o'z nafsining kuyiga kirmaslik, uni yengib shariatga muvofiq yashash uchun jon jahdi bilan qilgan harakati; farzandni ota-onasi xizmatida bo'lishi va boshqalar ham jihadga kiradi. |
| Mafkuraviy bo'shliq | jamiyat, davlat va jamoalarda vujudga kelgan vaziyat, ijtimoiy muhit, tarbiyaviy – mafkuraviy ishlarning zaiflashib qolishi. |
| Mafkuraviy immunitet | Mafkuraviy immunitet ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishini emas, |

| | |
|--|--|
| | <p>balki ularni ongli ravishda tushunib yetishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog'lom g'oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik holatidir.</p> |
| <p>Mafkuraviy profilaktika</p> | <p>ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy –tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni bartaraf etish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi.</p> |
| <p>Mafkuraviy tizim</p> | <p>mafkuraviy ishlarni boshqarish, jamiyatning turli ijtimoiy institutlari: oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahalla kengashlari, jamoat tashkilotlari, madaniy- ma'rifiy uyushmalar tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, ularni yagona maqsad tomon yo'naltirish omillari (ish vaqti va ishdan keyingi bo'sh vaqt) va vositalari (fan, adabiyot, san'at, matbuot, radio, TV, kino, muzey va h.k), uslublari (tushuntirish, ishontirish, majbur qilish) va usullarining (alohida, jamoaviy, ommaviy) yaxlit bir butun uyushmasi.</p> |
| <p>O'zbekiston (Turkiston) islom harakati</p> | <p>1996-yilda tashkil topgan. AQSH Davlat departamentining eng xavfli xalqaro terrorchi tashkilotlar ro'yxatiga kiritilgan. Dastlabki nomlanishi "O'zbekiston Islomiy uyg'onish partiyasi" bo'lib, Afg'onistonda chet ellik homiylarning moddiy va moliyaviy ko'magiga tayanib, jumladan Pokiston "Hizbi harakati Jihod" tashkilotining faol yordami</p> |

| | |
|-------------------------------|---|
| | <p>bilan vujudga kelgan. O‘IH tarkibiga asosan 1992-93 yillarda O‘zbekistonda faoliyatlari taqiqlangan bir qancha islomiy guruhlar kirgan: “Adolat” uyushmasi (Namangan), “Islom uyg‘onish partiyasi” (1990-yilda Astraxanda asos solingan, 1991-yil yanvarda O‘zbekiston bo‘limi ochilgan), “Odamiylik va insonparvarlik” (Qo‘qon), “Turkiston islom partiyasi”, “Islom lashkarlari” (Namangan). O‘IH ning bo‘lajak a‘zolari 90-yillardagi ta‘qiblardan so‘ng Tojikiston va Afg‘onistonga qochib o‘tganlar. Ularning ko‘pchiligi Birlashgan tojik muxolifati (BTM) tomonida fuqarolar urushida ishtirok etgan.</p> <p>Mazkur harakatning asosiy maqsadi etib Farg‘ona vodiysi hududida islom davlatini barpo etish qo‘yildi. O‘IH rahbariyati qator xalqaro va mintaqaviy islomiy tashkilotlar, avvalambor, “Al-qoida”, “Tolibon”, “Hizbut tahrir”, “Al-ixvon al-muslimun” bilan hamkorlik qiladi.</p> |
| Shahid – | <p>arabcha guvoh demakdir. Islomda din yo‘lida kurashib hayotdan ko‘z yumganlarga nisbatan shahid so‘zi ishlatilgan. Vaqt o‘tishi bilan shahid so‘zi turli voqea va hodisalar sababli hayotdan ko‘z yumganlarga nisbatan ishlatish ham rasmiy tus olgan. Chunonchi, kishilar, hayvonlar tomonidan o‘ldirilgan, tabiiy ofat, og‘ir yuqumli kasalliklar, zaharlanishdan o‘lganlar, haj paytida vafot etganlar shahid deb hisoblangan. Shuningdek, hadislarda aytilishicha, o‘z obro‘si yo mol-mulki, joni yohud dini, ahlu oilasining himoyasi yo‘lida qurbon bo‘lganlar shahid sanalgan.</p> |
| Sionizm | <p>Quddus yaqinidagi tog‘ nomidan. 1897-yilda tuzilgan. Barcha yahudiylarni Falastinga ko‘chiruvchi va u yerda yahudiy davlatini tashkil etishni ko‘zlagan harakat.</p> |
| Tablig‘chilar jamoasi. | <p>“Tablig‘” - arabcha yetkazish ma’nosida, tom ma’noda Allohning kalomini odamlarga yetkazishni anglatadi.</p> |

| | |
|---------------------------|---|
| | <p>Bu oqimga Hindistonda Muhammad Ilyos Kandexlavi (1885-1994) tomonidan 1927-yilda asos solingan. Oqim ilk davridan boshlab islomdan boshqa barcha dinlarga toqat qilolmasliklari, murosasizligi bilan ajralib turganlar. Muhammad Ilyos o‘zi yashagan davrda, ya’ni XX asrning boshlarida Hinduizmga qarshi o‘laroq ko‘proq kishilarni islomga jalb qilish maqsadida o‘ziga xos tarbiya tizimini yaratdi va u yerda odamlarga islom haqidagi eng sodda bilimlarni bera boshladi va tarbiyalangan kishilarni “Tablig‘chi” (da’vatchi) sifatida joylarga tarqata boshladi. Odatda bu kishilar o‘n kishidan iborat guruh sifatida “jamo” bo‘lib, u joydan bu joyga ko‘chib, islom haqida (yetarli bo‘lmasada) olgan bilimlarini targ‘ib etishga odatlanganlar.</p> |
| Terrorizm | <p>xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo‘rlilik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi</p> |
| Vahhobiylik | <p>islom dinining hanbaliy mazhabidagi diniy-siyosiy oqim. Asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob 1703-yilda tug‘ilgan. Ustozi Abdulloh ibn Sayfo yosh Abdulvahhobni hanbaliy mazhabi yo‘nalishida vaxdoniyat (yakkaxudolik) aqidasi bo‘yicha tarbiyalagan.</p> |
| Vazirlar Mahkamasi | <p>MDH davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib O‘zbekistonda 1992-yil 7-mayda tashkil etilgan. Bu</p> |

| | |
|--|--|
| huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita | tashkilot davlatning din sohasidagi siyosatini muvofiqlashtirish, axborot va nazorat qilish, maslahat va tavsiya berish vazifalarini bajaradi. |
| Vijdon erkinligi | bu fuqarolarning u yoki bu dinga e'tiqod qilish yohud hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 31-moddasida qayd etilganidek, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi». |
| YUNESKO | YUNESKO (UNESCO —The United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) — BMT qoshidagi ta'lim, fan va madaniyat masalalari boyicha maxsus tashkilot. YunESKO 1945-yil 16-noyabrda tashkil etilgan. Tashkilotning shtab-kvartirasi Parijda joylashgan. BMT ga a'zo mamlakatlarning deyarli barchasi YunESKO a'zosi hisoblanadi. YunESKO ning asosiy maqsad-vazifalari quyidagilardan iborat: davlatlarning ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi hamkorligini kuchaytirish orqali jahonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash; insonning irqi, tili, dini, jinsidan qat'iy nazar uning asosiy erkinliklari va huquqlarini hurmat qilish; qonuniylikni va adolatni qaror toptirish; savodsizlikka qarshi kurash; milliy-ma'naviy meroslarni o'rganish; fan va ta'lim muammolari bilan shug'ullanish; milliy kadrlar tayyorlash va sh.k. |
| YUNISEF | BMT qoshidagi bolalar fondi, xalqaro tashkilot (ing. United Nations Children's Fund- UNICEF). BMT Bosh Assambleyasining qarori bilan 1946-yil 11-dekabrda ikkinchi jahon urushida azob chekkan, jarohatlangan bolalarga yordam ko'rsatish maqsadida |

| | |
|--|---|
| | <p>tashkil etilgan. Balalar fondi vaqtinchalik muddatga tashkil etilgan edi. 1953 yilga kelib YUNISEF ning amal qilish muddati, vazifalari o'zgardi: bolalar o'limini kamaytirish; onala o'limini kamaytirish; bolalar salomatligi, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash; balalarga boshlang'ich ta'lim berish va shu kabilar. YunISEF ning bosh organi Ijro Kengashi bo'lib BMT Iqtisodiy masalalar Kengashi tomonidan 3 yilga saylanadi. Tashkilotning shtab-kvartirasi Nyu-Yorkda joylashgan.</p> |
|--|---|

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019.
2. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri)». O'zbekiston Respublikasining – T.: Adolat, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda*)
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2017.
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2018
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. –T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- engilmas kuch. – T.:«Ma'naviyat», 2008.

9. Qur'oni karim: ma'nolarining tarjima va tafsiri/ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti; tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur.-T.: "Toshkent islom universiteti", 2012.
10. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Toshkent Islom Universiteti - 2005y.
11. Husanov S., Jumaniyozov X., Mirjavxarova D. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. TKTI – 2005y.
12. Abdullatif qori Hoshimjon qori o'g'li. Zalolatga ketmang! Hizbut tahrir fitnasidan ogoh bo'ling. – T.: -Movarounnahr, 2003.
13. Azimov A. Religiozniy ekstremizm i fundamentalizm. –T., 1998.
14. Bag'rikenglik tamoyillari Deklarasiyasi. –T.: 2002.
15. Bahramov A. Islom va ma'rifat. –T.: Movarounnahr, 2002.
16. Juzjoniy A.SH. Islom huquqshunosligi. –T.: Toshkent Islom universiteti, 2002.
17. Inson huquqlari: Universal xalqaro hujjatlar to'plami. – T.: 1996.
18. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill. –T.: Adolat, 1992.
19. Jumaniyozov X.S. Rasulova A.M. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari (ma'ruzalar matni).-T.-2018
20. Islom. EnsiklopediY. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
21. G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. – T.: "O'zbekiston", 2013.
22. Komilov N. Islom – ma'rifat dini. –T.: Ma'naviyat, 2000.
23. Mejreligioznoye soglasiye – vajnoye usloviye uglubleniya demokraticeskix protsessov v stranax Sentralnoy Azii (Na primere Respubliki Uzbekistan). Materiali mejdunarodnoy konferensii. – T.: 2002.
24. Obidov R., Abdullayev S, Azimov A. Hidoyat va zalolat. –T.: 2003.
25. Otamuratov S., Mamashakirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. –T.: 2001.
26. Raxmanov A. Islamskoye pravo. Uchebnik dlya vuzov. – T.: 2003.
27. Ekstremizm, terrorizm, guruhij jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari. // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –T.: 1999.
28. Husniddinov Z.M., Abdusattorov A. Islomdagi oqimlar: xorijiyalar va shialik. T.: Toshkent islom universiteti, 2003.

Elektron ta'lim resurslari:

1. ww.tdpu.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.ma'naviyat.uz
5. www.bilim.uz

MUNDARIJA

| | | |
|-----|---|-----|
| 1. | Kirish | 3 |
| 2. | “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy- ma’rifiy asoslari” kursini o‘rganishning ahamiyati. | 8 |
| 3. | Ekstremizm va terrorizmning mohiyati va uning jamiyat barqarorligiga tahdidi. | 17 |
| 4. | O‘zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslari | 33 |
| 5. | Vahhobiylik harakatining vujudga kelishi, maqsad va vazifalari | 45 |
| 6. | Ekstremist va terroristlarning O‘zbekistondagi qilmishlari | 54 |
| 7. | Markaziy Osiyodagi barqarorlikka tahdid solayotgan diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar. | 69 |
| 8. | Missionerlik harakatining kelib chiqishi va uning hozirgi barqarorlikka xavfi. | 82 |
| 9. | Yaqin Sharqda terrorchi guruhlarining paydo bo‘lish sabablari va kuchayishi. ISHID fitnasi. | 96 |
| 10. | XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro maydonda terrorchi tashkilotlar faoliyatining kuchayishi. | 118 |
| 11. | Xalqaro terrorizmning moliyaviy va iqtisodiy manbalari. | 134 |
| 12. | Jahondagi yetakchi davlatlarning markaziy osiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy manfaatlari. | 143 |
| 13. | O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati. | 152 |
| 14. | Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari. | 166 |
| 15. | Jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishda oila-mahalla - ta’lim - nodavlat tashkilotlari hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari. (Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi | 175 |

| | | |
|-----|---|-----|
| | asosida). | |
| 16. | O‘zbekistonda vijdon erkinligining huquqiy meyorlari. | 185 |
| 17 | Glossariy | 188 |
| 18 | Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati. | 196 |